



# ESTETIKA ASOSLARI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

E. UMAROV, R. KARIMOV, M. MIRSAIDOVA,  
G. OYXO'JAYEVA



# ESTETIKA ASOSLARI

*Kash-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*



*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent – 2006*

*Oliy va o'rta maxsus kash-hunar ta'limi  
o'quv metodik birlashmalar faoliyatini  
muvoofiqlashitiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

### **Taqrizchilar:**

*filologiya fanlari nomzodi **Mahkam Mahmudov**,  
fajsafa fanlari nomzodi **Abduqayum Pardaev***

Suratlar san'atshunoslik fanlari doktori, professor  
**Saidaxbor Bulatov** maslahatlari asosida saralandi

Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlar qatorida estetika ham alohida o'rinn tutadi.

Mazkur o'quv qo'llanmasi akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda estetika fanining umumiyl tamoyillari, shuningdek, milliy estetikaning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Ushbu «Estetika asoslari» o'quv qo'llanmasi estetika fani bo'yicha o'zbek tilidagi dastlabki tadqiqodlardan biri bo'lib, unda estetik tafakkurning shakllanishi, rivojlanish va taraqqiyot bosqichlari to'g'risida fikr yoritiladi.

Mualliflar qo'llanma yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni bajonidil qabul qiladilar va ularni keyingi nashrlarda e'tiboriga oladilar.

U **0301080000-90**  
**360/04/-2006** – 2006

ISBN 5-8250-1044-0

© Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.

## KIRISH

Mamlakatimizda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quv tizimining joriy etilganligi jahondagi ilg'or davlatlar ta'lif jarayoniga jadal kirib borayotganligimiz belgisidir.

Prezidentimiz Islom Karimov ishonch bilan aytganlaridek, O'zbekistonning kelajagi buyukligi, avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, siyosiy, estetik jihatdan kamol topishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqillik barcha ijtimoiy fanlar, ayniqsa, estetika fanining rivoji uchun ham imkoniyat yaratdi. Endi biz o'tmishdagi boy ma'naviy merosimiz durdonalarini haqiqiy, ilmiy ma'noda o'rghanish baxtiga musharraf bo'ldik.

Estetika haqidagi tushunchalar, qarash va nazariyalar ma'lum tizim sifatida qadimgi Misr, Bobil (Vavilon), Hindiston, Yunonistonda, Sharq va Osiyo mamlakatlarida paydo bo'lgan. Juda qadim zamonlardan buyon dunyo donishmandlari, faylasuf va rassomlari badiiy faoliyatning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini bilib olishga intilganlar. Lekin estetik faoliyatning barcha sohalari, san'atning hamma turlariga xos estetik ong va estetik faoliyat qonuniyatlarini umumlashtiruvchi, tartibga soluvchi fan zarur ekanligini ancha keyin tushunganlar. «Estetika» atamasining tub ma'nosи yunoncha «estezis» so'zi bilan aloqador bo'lib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma'nosini bildiradi. «Estetika» so'zini birinchi bor fanga atama sifatida olmon ma'rifatchisi, faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714—1782) o'zining «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risidagi falsafiy mulohazalar» asarida kiritgan.

Estetika haqidagi tushunchalar qadimgi Sharq va O'rta Osiyoda ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan va rivojlangan. Buni biz qadimiyy yozma va og'zaki yodgorliklar, me'moriy obidalar orqali yaxshi bilamiz.

Miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda yaratilgan zardush-tiylikning muqaddas kitobi «Avesto», miloddan avvalgi VI asrda Eron Ahmoniylari davlati hukmrdorlari, Doro tomonidan Bexistun tog'ida toshga o'ydirilgan suratlar va yozuvlar, miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida Oromiy yozuvi negizida Xorazm, So'g'd, Kushon, O'rxun-Enasoy, Uyg'ur kabi qator mahalliy yozuvlarning vujudga kelishi, Afrosiyobdag'i topilmalar (chakmon, uzun qo'njli etik, uchli bosh kiyim, bo'yniga qimatbaho ma'danlardan bezaklar osilgan haykalchalar) shular jumlasidandir. Yunon muarixi Pompey Trogning O'rta Osiyo xalqlari haqida: «Qadimiylikda ular misrliklar bilan bahsashadilar», — degan ta'rifidan bu yerda estetika haqidagi tushunchalar juda qadimdan taraqqiy etganligini anglash mumkin. Ayniqsa, Qur'oni Karim, hadisi sharif kabi islom dunyosining qomusiy kitoblarida estetikaning qonuniyatлari haqida yetarli darajada tushunchalar berilgan. Ma'lumki, IX asrdan boshlangan Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari ijodida ham estetikaning barcha kategoriyalari o'z aksini topgan.

Bugungi kunda estetika turmushimizning barcha sohalariga kirib bordi, desak yanglishmaymiz. Estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi va dizayn, tabiat estetikasi, mehnat va nafosat, turmush estetikasi tushunchalari shular jumlasidandir. Go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, sojiaviylik va kulgilik estetikaning asosiy kategoriyalaridir. San'atning estetik mohiyati, hayot bilan aloqasi san'at turlarining vujudga kelishi, hozirgi zamon san'atining asosiy turlari va ularning o'zaro aloqalari estetikada o'z aksini topmoqda.

Sharq allomalaridan biri Nuriddin Abdurahmon Jomiy tafakkur durdonalari yig'ilgan «Bahoriston» kitobida ota-bobolari-mizning go'zallik va xunuklik haqidagi teran fikrlarini keltiradi.

Yusuf ibn Husayn Roziy:

— Hamma yaxshiliklar bir uyda, uning kaliti — tavoze (go'zal xulq) va kamtarinlikdir, hamma yomonliklar boshqa bir uyda, uning kaliti — manmanlikdir, — der edi.

Bu fikrlarni Mavlono Jomiy she'r bilan shunday bayon qiladi:

*Yaxshiliklar bir xonaga jam,  
Kamtarlikdir uning kaliti.*

*Yomonliklar boshqa xonada,  
Uni ochar manmanlik iti.  
Ehtiyyot bo'l, toyib ketmagil,  
Shundan kelar yuzing shuviti.*

«Bahoriston»ning yana bir o‘rnida Iskandar Rumiya hind hakimi bunday deydi:

*Tan qindir, ammo jon — qindagi qilich,  
O‘tkirlik, kesmoqlik — qilichning ishi.*

Donishmand bu bilan odamzodning tashqi qiyofasi emas, sofdilligi, qalb go‘zalligi muhim ekanligini aytadi.

Yoshlarimiz jamiyatda munosib o‘rin topib, go‘zal xulqi bilan izzat-hurmat ko‘rishi uchun donishmand ota-bobolarning pand-nasihatlarini diliiga jo qilishi ham estetik tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi.

Insonning chehrasi, qomatidagi go‘zallik muayyan ahamiyatga ega, ammo bu to‘la ma’nodagi go‘zallik emas. Insonning tashqi qiyofasi uning botiniy olami, xulqi, se‘l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi kabi sifatlar bilan uyg‘unlashsa, bu — mukammal go‘zallik sanaladi.

Go‘zallikka intilish insonning doimiy ijtimoiy hayotiy ehtiyojidir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida shakllanadi. Go‘zallik qurshovida yashagan inson bilan uning aksi bo‘lgan muhitda o‘sgan inson o‘rtasida keskin farq bo‘ladi. Go‘zallikka intilish insonni ma’naviy jihatdan kamolotga yetaklaydi, uning estetik his-tuyg‘usini rivojlantiradi.

Estetik his-tuyg‘u — kishilarning go‘zal va xunuk, fojiali va kulgili voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Ezgulikka, go‘zallikka intilish — estetik ehtiyojdir. Bu ehtiyoj mehnatda ham, san‘atda ham, kishilararo axloqiy munosabatlarda ham go‘zallik bo‘lishini taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyati uning borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo‘ladi.

Vogelikka estetik munosabatda bo‘lishda san‘at muhim o‘rin tutadi. Zero, san‘at — hayotni go‘zallik qonunlari asosida idrok qilishdir. San‘at asarlari ta’sirida shodlik va qayg‘u kabi kechinmalar paydo bo‘ladi. Go‘zal obrazlar kishilarga hayot ma’nosini anglash-

ga, hayotda o‘z o‘rnini topishga, qadr-qimmatini tanishga ko‘maka-lashadi. San’at o‘zining tarixiy taraqqiyotida kishilarning orzu-umidlarini namoyon etuvchi, uning sezgilarini, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi vosita sisafida katta ahamiyat kasb etib keladi. San’at turlaridagi timsollar ham o‘z tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr, badiiy ada-biyot, kino san’atida voqeа-hodisalar bevosita tasvirlansa; musiqa, raqs, amaliy san’at, me’morchilikda ijodkorning voqeа-hodisalar to‘g‘risidagi g‘oyaviy-hissiy holati bilvosita ifodalanadi.

Hissiyotlarni o‘rganish borasida Sharq buyuk mutasakkirlari asarlari muhim ahamiyatga ega. Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa’diy, Hafiz, Umar Xayyom kabi Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari dostonlarida ham, Xorazmiy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd kabi allomalarning ilmiy asarlarida ham, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutsiy, Sakkokiy, Atoiy, Navoiy, Bobur kabi ulug‘ shoirlar ijodida ham, Zayniddin Vosifiy, Xondamir, Davlatshoh Samار-qandiy kabi tarixchilarimizning tazkiralarida ham insonlarning go‘zal his-tuyg‘ulariga doir ko‘pgina qimmatli fikrlar mavjud.

Kaykovusning «Qobusnoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutad-g‘u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq», Sa’diyning «Guliston» va «Bo’ston», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida hayotning go‘zalligidan zavqlanish, odamlar baxt-saodati yo‘lida mehnat qilish fazilatlari ulug‘lanadi.

Aristoteldan keyin mag‘ribdan-mashriqqacha «ustodi soniy» («ikkinchi ustod») nomi bilan mashhur buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning estetik qarashlari inson his-tuyg‘ularini o‘rganish borasida alohida ahamiyatga egadir. U o‘zining «Fozil odamlar shahri fuqarolarining qarashlari haqida kitob», «Shaharni bosh-qarish», «Yaxshi xulqlar», «Baxt-saodatga erishish haqida» kabi asarlarida nafis hissiyotlarning paydo bo‘lishini dunyoviy nuqtai nazardan turib talqin qilgan edi. San’at asarlarida voqelikka, hodisalarga, odamlarning xatti-harakatlariga, xulq-atvorlariga go‘zallik va xunuklik nuqtai nazaridan baho beriladi. Voqeа-hodisalar yaxshilik va yomonlik, ezbilik va yovuzlik, do‘stlik va dushmanlik, sadoqat va xiyonat, go‘zallik va xunuklik, rostgo‘ylik va munosiqlik, fojiaviylik va kulgiliilik tarzida namoyon bo‘ladi.

Go'zallik inson estetik va badiiy didini o'stiradi. Estetik did esa go'zal narsalardan zavq olish qobiliyatidir. Estetik madaniyati yuksak kishi ma'naviy-ruhiy jihatdan barkamol, e'tiqodli, ishonchli va diyonatli bo'ladi.

Muhtaram o'quvchi! Mazkur kitobda estetika, nafosat, go'zallik, estetik his-tuyg'u, estetik did, voqelikka estetik munosabat, estetik tarbiya, go'zallik manbalari to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, unda estetik qarashlarning shakllanishi, san'at turlari, badiiy ijod jarayoni masalalari ham yoritiladi.

Mustaqillik tarixn, an'ana va qadriyatlarimizni tiklash uchun beqiyos imkoniyatlар berdi. Shu boisdan ijtimoiy fanlar, jumladan, estetika fani oldida yangi vazifalar paydo bo'ldi. Mazkur o'quv qo'llanmada estetika masalalari milliy istiqlol mafkurasi asosida barkamol avlodni tarbiyalash nuqtai nazaridan kelib chiqib bayon qilinadi.

---

# I BOB. ESTETIKA MAVZUI

## ESTETIKA FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

«Nafosat – bu ma’naviy  
ezgulik ramzidir».

*Immanuil Kant*

Nafosat va go’zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, ehtirosli va sehrliki, unda moddiy va ma’naviy joziba uyg’un holda namoyon bo’ladi. Insonning nafosat olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog’liqdir. Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, o’zlashtirish maqsadi, ya’ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriyati paydo bo’ladi.

Sharqda etika (axloqshunoslik) «Ilmi adab», estetika (nafosatshunoslik) esa «Ilmi badi’a», «Ilmi husniya» deb yuritilgan. Arastudan tortib Imom G’azzoliygacha, hazrat Alisher Navoiydan tortib Aleksandr Baumgartengacha, Deni Didrodan olmon faylasusi Hegelgacha barchasi etika va estetika fanlari falsafa fanining uzviy qismi bo’lgan maskuraviy va nazariy fanlardir, deb qaraganlar.

Tilimizda «go’zal», «chiroyli» degan so’zlar bor. Chiroyli narsa ko’z bilan ko’riladi. Go’zallik ham ko’z bilan ko’riladi, ham dil bilan his qilinadi, ong bilan idrok etiladi.

Nafosat olamini o’rganish, tadqiq va tahlil etish, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, uning mohiyatini odamlarga anglatish, o’qitish kabi maxsus vazifani estetika fani bajaradi.

Estetika falsafiy sandir. Falsafa — tafakkur gulshani, ma’naviyat bog’i. Falsafa fani — haq yo’lga o’rgatuvchi ta’limot, dunyoqarashni shakllantiruvchi, odam va olamni bilish ilmidir. Falsafiy fanlar — Etika (axloqshunoslik) vijdoniylilikni, pok, halol bo’lishni o’rgatsa, Estetika (nafosatshunoslik) esa go’zallik haqida bilim beruvchi sandir.

BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida yuksak jahon minbaridan turib butun dunyo asgor ommasiga qarata Prezidentimiz Islom Karimov: «Ma’naviy, ilmiy va estetik qadriyatlar xalqimizning turmush tarzida, an’anaviy madaniyatida muhim o’rin olgani hech kimga sir emasligini» ta’kidladi. Shundan ko’rinib turibdiki, O’zbekiston nafosatga boy, taraqqiyat parvar davlatdir.

Taraqqiy topgan G’arb mamlakatlari nafosatshunoslari Tomas Manro va Eten Suriolar sikricha, «etikasi, estetikasi yo’q davlat— qoloq davlat, estetikasi va etikasi yo’q millat — qashshoq millatdir».

Ayrim olimlar estetika faqat go’zallikni o’rganadigan san desa, boshqa bir guruh olimlar estetikani san’at nazariyasi, deb qaraydilar. Masalan, V. G. Belinskiy: «Ijtimoiy jihatdan faol san’at — estetika predmeti», — deydi. N. G. Chernishevskiy estetikani voqelikka, hayotga san’atkorona munosabat deb biladi.

Estetika san sifatida voqelikni go’zallik asosida idrok etishni, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go’zallik va xunuklik tuyg’ularini hamda badiiy ijodning umumiy qonunlarini o’rganadi. Biz voqelikdagagi go’zallik va xunuklikni turlicha tushunamiz. Bizning qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz nisbiy bo’lib, ularni xolis baholash estetikaning vazifasidir.

Estetika sanining asosiy tushunchasi go’zallik zohiriyl va botiniy ma’noga ega.

Donishmandlar tashqi va ichki go’zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat bergenlar. Ya’ni, kishining tashqi qiyofasi bilan birga uning botiniy olami — xulqi, fe’l-atvori, mehnatsevarligi, ezguilikka intilishi va boshqa jihatlari go’zallik xislatlari bilan muvosiq, uyg’un bo’lsa, ular mukammal go’zallik sifatini oladi.

Estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini o’rganadi.

Estetika — bu, ma’naviyat olami, san’at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg’u, sezish, idrok qilish, baholash orqali o’rganadigan va o’rgatadigan fandir.

Estetika fani insoniyat tomonidan bunyod etilgan go’zal ma’naviy boyliklarni o’zlashtirish qonuniyatlarini o’rganadi.

Estetik his-tuyg’u — insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg’u paydo qiluvchi go’zallik va xunuklikni, ulug’vorlik va

pastkashlikni, fojiaviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Estetik chtiyoj — ezgulikka, go'zallikka intilishdir. Bu chtiyoj mehnat, san'at, axloqiy munosabatlardagi go'zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabat orqali namoyon bo'ladi.

Estetika mavzui bilan bevosita aloqador bo'lgan estetik munosabatlar, borliqni estetik o'zlashtirish, estetik bilish, estetik tafakkur, estetik faoliyat kabi o'zaro yaqin, ma'nodosh bir qator tushunchalar bor. Ular orasidagi borliqni estetik o'zlashtirish tushunchasi qolgan estetik munosabat, estetik bilish, estetik tafakkur, estetik faoliyat tushunchalarini ham qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadi, desak to'g'riroq bo'ladi. Borliqni estetik o'zlashtirish san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi, ya'ni estetika fani san'atning uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Estetikaning mavzui faqat go'zallik bo'lib qolmasdan, u ulug'verlik, oljanoblik, fojiaviylik, xunuklik, pastkashlik, kulgililik, tubanlik va boshqa shu kabi kategoriyalarni ham o'rganadigan fandir.

Xulosa qilib aytganda, estetika inson tomonidan voqelikni nafis idrok etishning eng umumiy qonunlari to'g'risidagi fandir.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, maskuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsad-mansaaatlarini estetik-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini o'rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni estetik idrok etish jarayonlarini ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika — bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandir.

## ESTETIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Estetika fani bir qator ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Estetika fani mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda falsafaning ravnaq topishiga ham o‘z hissasini qo‘sadi. Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish ham muhim o‘rin tutadi. Bilish nazariyasi badiiy madaniyat qadriyatlari, voqelikka estetik munosabati, estetik tushunchalar, ayniqsa, ijtimoiy ong, uning nisbiy mustaqilligi haqidagi fikr-mulohazalar ham ko‘p jihatdan san’at bilan bog‘liqdir. San’at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

Inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar ularning ilmlarga bo‘lgan talablarini keltirib chiqaradi. Shu ehtiyojlarga ko‘ra ilmlar har xil tarmoqlarga bo‘linadi. «Ilmlarning foydasi ochko‘zlik bilan oltinkumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir», — deb yozadi Beruniy.

Falsafadagi bilish nazariyasi vositasida san’atning bilish tabiatni, voqelikni badiiy-ramziy ifodalash bilan ilmiy tadqiq etish o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik va o‘zaro farqlarni anglash mumkin. Voqelikni badiiy vositalar orqali tasvirlash esa san’at asarlaridagi shartlilik va badiiy haqiqat kabi estetika fanining juda ko‘p nazariy hamda uslubiy asoslari muammolarini yechishi mumkin. Beruniy «Tavixilar» asarida: «Agar oqil naşoniy lazzatlarga aql va ibrat ko‘zi bilan qarasagina, undan lazzatlana oladi, g‘osil esa buning aksicha, u saqat jismoniy narsalardangina lazzat ola oladi», — deb yozadi.

Bilish nazariyasining boshqa aqidalari — ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, ma’naviy hayot xilma-xil shakllarining o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazishi, iqtisodiy zamin bilan ijtimoiy ong turli shakllari o‘rtasidagi bilvosita aloqadorlik va bog‘liqlik kabi masalalar ham estetik ong, badiiy ijod va san’at tabiatni hamda xususiyatlarini ilmiy tushunishga yordam beradi.

«Lazzat yana: eshitilgan ovozning ma’nosini bilishdan ham iborat. Bordi-yu, bu tovushlar ma’nodan xoli nag‘malardan iborat bo‘lsa, u holda nafs o‘z tabiatiga ko‘ra, uning bergen xabaridan toliqadi, natijada u jimlik va sukunatda qolishga, undan qochib, dam olishga intiladi», — deb ta’kidlaydi Beruniy.

Estetika, avvalo, voqelik, hayotga faol, hissiy munosabatdir. U olamdag'i voqe'a, hodisalarning yaxshi, yomon, go'zal yo xunukligi mohiyatini anglashga o'rgatadi.

San'atshunoslik uchun estetika boshlang'ich nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Estetikasiz san'atshunoslik ayrim voqe'a, hodisalar sharhi bilan shug'ullanishga majbur bo'lib qoladi. Estetika, xususan, san'atshunoslikning umumiy qonuniyatları, eng avvalo, nafosat tabiatı va estetik timsol qonuniyatlarını o'zida namoyon qiladi.

Tarix fani estetika bilan ham uzviy aloqadadir. Tarixiy taraqqiyot estetik tafsakkur rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqlikda yuksalganligidan dalolat beradi. Ajdodlarimizdan qolgan moddiy, ma'naviy merosimiz shu qadar ulkanki, merosimizdan nafaqat o'z avlodlarimiz, balki Yevropa, Osiyo, Arab mamlakatlari xalqlari ham foydalanishgan va bu jahon umuminsoniy qadriyatlari xazinasiga qo'shilgan ulkan hissa bo'lgan.

Islom Karimov «Ostankino» muxbiri bilan suhbatda: «Dunyoni ezgulik va go'zallik qutqaradi», --- degan g'oyani o'rtaga tashlaganda, bu bilan xalq ruhiga va har bir insonga nihoyatda ardoqli bo'lgan axloqiy va estetik qadriyatlarni ham nazarda tutgan edi.

Ezgulik — etika fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lsa, go'zallik — estetika nazariyasining asosiy tushunchasidir.

Ma'naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarni xalqimizning turmush tarzida, an'anaviy madaniyatida muhim o'rinni o'rniga qo'shilishni, shu tamoyillar zaminida hayot kechirishi lozim. Chunki unda boshqa jonzotlarda bo'limgan yuksak insoniy imkoniyat, xislat — borliqni anglash, tushunish qobiliyati mavjud.

Sharqda hayotga munosabat axloqiylik va komillik falsafasi asosiga qurilgan. Bu falsafaga ko'ra inson baxtu saodat va ezgulik sari intilishi, shu tamoyillar zaminida hayot kechirishi lozim. Chunki unda boshqa jonzotlarda bo'limgan yuksak insoniy imkoniyat, xislat — borliqni anglash, tushunish qobiliyati mavjud.

Ruhshunoslik ham idrok, tasavvur, his-tuyg'u, kechinma, zavqlanish kabi tushunchalarni o'rganadi. Lekin ongning bu xususiyatlari estetika mohiyatini tushuntirib bermaydi.

Estetika nafosat tarbiyasining umumiy tamoyillari va ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab oladi. Bu — estetik idrok, estetik kechinma, estetik zavq, estetik mulohaza, estetik did, estetik qarashlardir. Ma'lumki, inson ruhiyati xususiyatlarini o'rganmay turib, uning estetik qarashlarini o'rganish, uni tushunish mumkin emas.

Estetikaning ruhshunoslik bilan bog'liqligining yana bir jihat — u yoki bu darajada insonning ruhiy his-tuyg'u holatini ifodalashidir. Estetikaning tarkibiy qismlarini ruhshunoslik fanining erishgan yutuqlari va xulosalaridan keng foydalanmasdan turib, tasavvur etib bo'lmaydi. Ruhshunoslik fani inson fe'l-atvori, mijozining sangvinik, flegmatik, xolerik, melanxolik kabi turli xillarini aniqlashni o'rgatsa, estetika shu mijozdag'i insonlarning hayotida bo'ladigan go'zal yoki xunuk, tuban yoki ulug'vor, kulgili yoki qayg'uli hodisalarini qanday his etishni va bularni qanday baholashni o'rgatadi.

San'atning umumiy qonuniyatları ham badiiy asarda inson ruhiyati, ruhiy olam muammolarini hal qilishni talab qiladi, chunki har bir san'at asari odamlarning qalbiga, ongiga ta'sir qilgandagina estetik tuyg'u uyg'otadi, didini tarbiyalaydi.

Estetika pedagogika fani bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyat kishisining har tomonlama mukammal rivojlanishi haqida gapirar ekanmiz yoki estetikaning tarbiyaviy ahamiyatini tilga olar ekanmiz, bizning oldimizda bevosita sof pedagogik masalalar namoyon bo'ladi. Ya'ni, estetik didning kelib chiqishi, paydo bo'lishi va tarkib topish jarayoni, estetik rivojlanish jarayoni, turmush sharoitlari va ta'limning estetik saviyaga ta'siri, ijtimoiy tuzum va ta'limning estetik mohiyati kabi masalalar pedagogika fanida ham o'qitiladi.

Agar estetika insonni olam go'zalliklari va xunukliklarini, pastkashlik yoki ulug'vorlik hodisalarini nozik his etishga o'rgatsa, pedagogika shu bilan birga yana aqliy, intellektual, ruhiy, ma'naviy tarbiya metodlari, uslublarini ham o'rgatadi. Pedagogikaning estetikadan muhim farqi, u yoshlarga barcha fanlarni qanday qilib tezroq va chuqurroq o'rganish yo'llarini o'rgatadi. Shu jihatlari bilan estetikaga nisbatan pedagogikaning vazifalari kengrokdir. Har ikkala fanning umumiy maqsadi — inson ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilishdir.

### ***Sinov savollari***

1. *Estetika fan sisfatida qachondan o'rganila boshlagan?*
2. *Estetikaning qanday kategoriyalari mavjud?*
3. *Estetika voqelikni qanday qonuniyat orqali o'rganadi?*

## **II BOB. ESTETIK TAFAKKUR TARAQQIYOTINING ASOSIY BOSQICHLARI**

### **O'RTA OSIYODA ESTETIK TAFAKKUR TARAQQIYOTI**

O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular bu zaminda yuksak taraqqiyot, o'ziga xos estetik madaniyat vujudga kelishida mashaqqatli yo'lni bosib o'tganlar. Eng qadimgi kishilarning istaklari, orzu-umidlari eposlardagi afsonaviy obrazlar qiyofasida o'z ifodasini topgan. Afsonalar, dostonlar, to'y sayillarda, xalq yig'inlarida, bayramlarda, safarlarda aytilgan qo'shiq, laparlar, lirik she'r, maqolmatallar estetika fanining uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Ular «To'maris», «Shiroq», «Manas», «Go'ro'g'li», «Chambil qamali», «Oysuluv» dostonlarida o'z aksini topgan.

O'rta Osiyoda, xususan, Mavarounnahrda Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Abdulloh Ro'dakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg'ariy, az-Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab sozillar yashab, ijod qildilar. Bu zabardast daholar — jahon madaniyati yulduzlari bizga qoldirgan meros hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu meros daholarning falsafiy estetik qarashlari ahli dil, ilmi hayrat, ilmi hol va qol kabi ta'limotlar tarzida shakllanib, borliqni anglashda, nafosat (estetik) qadriyatlarni baholashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Qoraxoniylar, Somoniylar va G'aznaviylar davrida Mavarounnahr va Xuroson shaharlarida maktab va madrasalar davlat qaramog'ida bo'lib, ularda ilohiyot bilan birga dunyoviy fanlardan riyoziyot, falakiyat, handasa, tibbiyat, mantiq, ilmi aruz, ilmi qosifa, ilmi ma'naviy, ilmi bayon, ilmi bade' va boshqa fanlar

o'qitilgan. Shu munosabat bilan Buxoro, Samarqand, Gurganj, Marv madrasalari ilm-fan fidoiyları, fuzalolari maskaniga aylandi. Shuni qayd etish lozimki, bu davrda dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog'liq holda o'qitilib, tavhid — Olloohni bilish, uning sisatlarini anglash, ya'ni: «Olloh go'zal, u yaratgan narsalar ham go'zal, u go'zallikni yoqtiradi, shu bois komil insonning xattiharakatlari ham go'zal bo'lishi, inson go'zallikka go'zallik bilan javob berishi kerak», — degan fikr mavjud edi.

O'rta Osiyoda X asr oxirlariga kelib turk tilida dastlabki ilmiy asarlar paydo bo'ldi. Abu Bakr Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Abu Rayhon Beruniyning «Osor ul-boqiya», Ibn Sinoning falsafiy qissalari, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» («Turk tillari lug'ati»), Adib Sobir Termiziy, Rashididdin Vatvot asarlari, buxorolik Muhammad Avsiyning «Latoif ut-tavoif», Pahlavon Mahmud ruboiyları, Yusuf Xos Hojibning «Saodatga eltuvchi bilim», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar», Ahmad Yugnakiyning «Hibbat ul-haqoyiq» kabi asarlari, Faxriddin ar-Roziyning musiqa janriga oid risolalari turkiy xalqlar va jahon madaniyati taraqqiyotiga, estetik tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyo musiqa san'ati eramizdan oldingi asrlardayoq xalqning turmush madaniyatidan munosib o'rin olgan edi. Xalq sayillari, to'y-tomoshalari, «Navro'z» bayrami va boshqa marosimlar kuy va qo'shiqsiz o'tmas edi. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» kitobida keltirilgan qo'shiqlar yurtimizda nasosatning juda keng tarqalganidan dalolat beradi. Bu kitobda mehnat va marosim qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari hamda ishqiy, axloqiy-ta'limiylar keng o'rin olgan. Qo'shiq va she'rlarda mehnat jarayonlari, maishiy hayot manzaralari, kishilarning jo'shqin his-tuyg'ulari, umid va orzulari ifodalangan. Mehnat qo'shiqlarida bunyodkorlikka, mehnat mashaqqatlarini yengillatishga, hordiq chiqarishga da'vat etiladi. «Devonu lug'atit turk» asari orqali bizga yetib kelgan qo'shiqlar xalqning qalbidagi qayg'u-hasratining, shodligining yo'ldoshi, bilim qomusi, diniy-falsafiy tafakkur ramzidir.

O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosida maqomlar katta o'rinni egallaydi. Uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan musiqiy boyligimiz — «Shashmaqom»ning shakllanishi ham qadimgi davrlarga borib taqaladi. U dastlab 24 maqom, keyin 12 maqom

(unga Borbad Marvaziy asos solgan, deb taxmin qilinadi) va nihoyat XV asrning mashhur musiqa olimi Najmiddin Kavkabiy (1516-yilda vafot etgan) tomonidan olti maqom — «Shashmaqom» shaklida qaror topdi. Bu haqdagi ma'lumotlar H. Homidiyning «Ko'hna Sharq darg'alari» nomli kitobida yozilgan.

Sharq musiqa madaniyati, xususan, Mavarounnahr va Xuroson estetik tafakkuri haqida so'z borganda buyuk ijodkor Borbad nomini eslamay bo'lmaydi. Borbad Marvaziyning asl ismi sharifi Falahbad bo'lib, Marvaziy uning taxallusidir (Marv shahriga ishora). Borbad — bu ulug' bastakor va mug'anniyning Xusrav II Parvez saroyida musharraf bo'lgan faxrli unvondir. Bu haqda XIX asrning eng mashhur izohli lug'ati — «G'iyos ul-lug'at» muallifi Muhammad G'iyosiddin o'zining mazkur kitobida shunday deb yozadi: «Borbad Xusrav Parvezning eng sevimli hofizlaridan bo'lib, musiqa bobida g'oyat katta iste'dodi bor edi. Xusrav Parvez uni majlis ahli oldiga olib chiqib, hammaga tanishtiradi va u o'zining iste'dodi, aqlu zakovati ila ana shu unvonni, ya'ni «Borbad» nomini olishga musharraf bo'ladi. Borbadning tug'ilgan va vafot etgan yillari noma'lum. U faqat milodiy 628-yilgacha yashaganligi haqiqatga yaqindir. Xuddi ana shu yilda Xusrav Parvez to'ntarish yo'li bilan podsholikni qo'liga olgan o'z o'g'li Sheruya tomonidan saroy zindonida qatl etilgandi.


Sharq Uyg'onish davrida «Ixvon as-safo» («Sof birodarlar») nomli jamoa yashirin faoliyat olib borgan bo'lib, uning a'zolari falsafiy va ilmiy bilimlarni tarqatish bilan shug'ullanganlar va shu orqali o'zlari jamiyatning illatlariga qarshi kurashganlar. Ularning «Sof birodarlar maktubi» nomli asari bizgacha yetib kelgan. Bu asarda o'z davrining taraqqiyat parvar kishilarini ilmning turli sohalariga, jumladan, matematika, tabiatshunoslik, falsafa va boshqa fanlarga doir o'z qarashlarini bildirganlar. Maktubda san'atga, estetik tarbiyaga oid fikrlar bayon qilingan, «Sof birodarlar» insonning faoliyat turlari haqida gapirib, mustaqil qimmatga esa bo'lgan musiqa, tasviriy san'at, hunarmandchilik bir-biriga bog'liq, deb tushuntirganlar. Ularning fikrlari xalq amaliy san'atini o'rGANISHGA asoslangan bo'lib, har bir xalqning badiiy didi o'ziga xos ekanligi e'tirof etiladi va so'zning, kuyning quvvati buyuk ekanligi alohida ta'kidlanadi. Shu bois, san'atkor xalq badiiy didini hisobga olishi, san'at turlarining xususiyatlarini

bilishi lozimligi ko'rsatilgan. Bu asar qiziqarli hikoyalarga boy bo'lib, ulardan birini misol keltiramiz:

«Kunlarning birida obro'li bir kishi o'z huzuriga musiqachilarni chaqiradi. Ularni o'z cholg'uchilik mahoratiga qarab o'tirishlarini taklif etadi. Shu payt yig'inga yupun kiyingan bir kishi kirib keladi. Uy sohibi uni uyning to'riga o'tqazadi. Bundan musiqachilar ranjiydilar. Shunda mezbon haligi kishidan biron kuyni chalib berishini iltimos qiladi. Bu odam yonidan yog'och asbobni chiqarib shunday kuy chaladiki, majlisda o'tirganlar nihoyatda shod bo'ladilar. Keyin boshqa bir ta'sirli, mungli kuy chaladiki, o'tirganlarning qalbi qayg'u-iztirobga to'ladi. So'ng yana bir kuyni chaladiki, o'tirganlar uqlab qoladi. Shundan so'ng musiqachi xonadan chiqib ketadi. Ba'zilar bu kishi Forobiy edi, deydilar...»

«Sof birodarlar»ning bu rivoyatida san'atkoring tinglovchilar oldidagi mas'uliyati ta'kidlangan. San'atkor doimo mahoratini oshirib borishi lozim. Musiqachi o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lsa, qalblarni ezzulikka yo'naltirishi va yaramas xatti-harakatlardan qaytarishi mumkin. «Sof birodarlar» har tomonlama kamol topgan, hamma munosabatlari go'zal bo'lgan kishini komil inson, deb tasavvur qilganlar. «Go'zallik — qismlarni tashkil etuvchi hamohanglikka bog'liqidir», — deyiladi mazkur risolada.

Sharq ilk Uyg'onish davri qomusiy olimi, «Sharq Arastusi», «Ikkinci muallim» nomlari bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy (873—950) tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy masalalar bilan bir qatorda tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlik va musiqa nazariyasiga oid o'nlab asarlar yaratdi. Uning «She'r va qosiyalar haqida so'z» («Kalom fi a'ir va-l qavo-fi»); «Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»); «Lug'atlar haqida kitob» («Kitob fil-l-lug'ot»); «Xattotlik haqida kitob» («Kitob fi-l san'at al kitobat»); «Musiqa haqida kitob» («Kitob ul-musiqa al-kabir»); «Musiqa haqida so'z» («Kalom fi-l musiqiy»); «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi ixso-il-iqo») kabi asarlari mavjud. Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida yozadi: «Insoniy vujuddan maqsad — eng oliv baxt-saodatga erishuvdir: avvalo u baxt-saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliv maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan mastun bo'lishi kerak. Keyin bu baxt-saodatga olib boradigan ish, amal va vositalarning nimalardan indek ekanligini bilishi



zarur. So'ngra esa baxt-saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishishi lozim bo'ladi».

Sharq Uyg'onish davrining estetik tafakkuri taraqqiyotida Kaykovusning 1082—1083-yillarda yaratilgan «Qobusnomá» asari muhim o'rin tutadi. Kaykovus bu asarini o'g'li G'ilonshohga bag'ishlab yozgan. Kaykovusning bobosi Qobus Somoniylar va Mahmud G'aznaviyilar xonadoniga yaqin bo'lib, ularning davlat-boshqaruv ishlarida qatnashgan. Kitob muqaddimasidayoq Kaykovus o'g'li G'ilonshohga murojaat qilib, estetikaning muhim tushunchasi — go'zallik va uning so'zdagi ifodasi, ma'naviy merosiga o'z munosabatini bildiradi: «Bilgilki, xalqning rasmi, odati shunday: yugurib-yelib, qidirib-axtarib dunyodan biror narsa hosil qiladi va bu topgan narsasini o'zining eng yaxshi ko'rghan kishisiga qoldirib ketadi. Men dunyoda mana shu so'zlarni hosil qildim, sen esa mening uchun eng qimmatbaholisan».

Go'zallik tuyg'usini idrok etish, ya'ni borliqqa estetik munosabatda bo'lish insonning axloqiy-hulqiy xislatlari orqali namoyon bo'lishi haqidagi Sharq ilk Uyg'onish davri mutasakkirlarining falsafiy-estetik qarashlari islom estetikasining mohiyat-mag'ziga asoslanadi. Shu bois «Qobusnomá»da ham estetik qadriyatlar axloqiy qadriyatlarga o'rab bayon qilingan. Asar qirq to'rt bobdan iborat bo'lib, unda ota-onani hurmat qilish go'zalligidan tortib, hunar o'rganish, suxandonlik, qarilik va yigitlik sifatlari, mehmonnavozlik, sevgi-muhabbat, mol-dunyo toplash, birovning omonati, uylanmoq va farzand tarbiyasi, tijorat, shoirlik, hofiz-sozandalik, podshoh xizmati, si pohiylik, dehqonchilik haqidava juvonmardlik, (to'g'riso'zlik, poklik, oljanoblik va h.k) kabi insonning go'zal fazilatlari haqida so'z boradi. Dono pand-nasihatlar mazmuni go'zal hulqli, komil insonga qaratilgan bo'lib, ular ilohiy va dunyoviy go'zalliklarni qadrlashga da'vatlar bilan nurlantirilgan.

Mashhur alloma Umar Xayyom ham estetika rivojiga katta hissa qo'shgan. «Dunyoda yaxshi narsalar ko'p va ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'trnini bosa olmaydi, chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kela olmaydi. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi», — deb yozadi Umar Xayyom «Navro'znama» asarida.

Pahlavon Mahmud (1247—1326) Xorazmda yashab, ijod etgan mutasakkir, saylasuf shoirdir.

U ko‘hna Urganch va Xiva madrasalarida ta’lim oldi, turli bilimlarni puxta egallash bilan birga jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullandi, milliy kurash qoidalarini o‘rgandi. Yigitlik pallasidayoq kuragi yerga tegmagan bahodir, nozik didli shoir sifatida shuhrat qozondi. U Sharqning deyarli barcha mamlakatlarda bo‘lib, musobaqalarda qatnashdi, saqat zafar quchdi, tushgan in’om-chsonlarni, sovrin, mukofotlarni beva-bechoralarga ulashib berib, o‘zi ota kasbi po’stindo‘zlik va telpakdo‘zlik bilan kun kechirdi.

Naql qilishlaricha, Pahlavon Mahmudning Hindistonga safari hind xalqining milliy bayramiga to‘g‘ri kelibdi. Bunday ayyomlarda xalq sayillari, har xil tomoshalar, musobaqalar uyuştirilar edi. Pahlavon Mahmudning shahar chetidagi saroylardan biriga tushganini eshitgan sulton uni ertangi kurashda ishtirok etishi va saroy polvoni bilan bellashishini so‘rab odam yuboribdi. U rozilik bildiribdi.

Odatda Pahlavon Mahmud kurash tushishdan oldin ulug‘larning qadamjolarini ziyyarat qilar ekan. Nogahon, ziyyoratchilar orasida baland ovoz bilan nola qilayotgan bir ayolga ko‘zi tushadi. U erining qabrini quchoqlab: «Ey Xudo, ikki bolam va erimni olding, ertangi kun maydonda yolg‘iz o‘g‘limning qo‘lini baland qilgin, bo‘lmasa yashash imkoniyatidan mahrum bo‘lamiz», — deb nola chekayotgan ekan.

Pahlavon Mahmud bu xotin sulton saroyidagi pahlavonning onasi ekanligini sezib, unga tasalli beradi: «Xotiringiz jam bo‘lsin. Xorazmdan kelgan polvon o‘g‘lingizni yiqitolmas, inshoollo, o‘g‘lingiz g‘olib chiqar», — deydi u.

Ertasi kuni kurash maydonida Pahlavon Mahmud o‘zini g‘oyatda zaif va kuchsiz qilib ko‘rsatadi. Uzoq vaqt kurash ajrimga kelmaydi. U raqibini boshidan ushlab o‘ziga tortib oldi-da, yuqoriga ko‘targancha o‘z tizzasini yerga bukadi. Keyin yiqlidim, degan ishora bilan kurash maydonidan chiqib ketadi...

Pahlavon Mahmud Hindistondaligida Dehliga tog‘liklar bostirib kirishadi. Qattiq jang boshlanadi. Qizg‘in olishuvlarning birida Hindiston podshohi Ray Ropoy Cho‘na tang ahvolda qoladi. Ammo vaqtida yetib kelgan Pahlavon Mahmud uni o‘limdan qutqaradi. Shoh minnatdorchilik tariqasida:

— Tilang tilagingizni, nima istasangiz muhayyo qilaman, — deb so'raydi.

— Menga na oltin, na yoqt kerak emas, — deydi Pahlavon Mahmud hammani oljanobligi bilan hayratda qoldirib. — Menga faqat ulkan bir teriga sig'adigan sobiq asir hamyurtlarimni bersangiz, ularni ozod qilib Xorazmga olib ketsam, — deb javob qaytaradi. Mahmud o'z po'stindo'zlik hunarini ishga solib, terini ingichka qilib kesib chiqadi va ulkan bir saroyning devorlariga mixlar qoqib, haligi tilimlangan uzunligi behad terilarni ularga chatib chiqadi. Unga 200 dan ziyod xorazmliklarni sig'dirib, vataniga olib ketadi.

Pahlavon Mahmud ajoyib ruboiylar yozib, go'zallik g'oyalarini ilgari surgan. Uning ruboiylarida shoир mansub bo'lган juvonmardlik tamoyillariga xos muhim belgilar — saxovat, shafqat, mardlik ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Pahlavon Mahmudning talqinicha, inson o'z tabiatida mavjud bo'lган soslikni asrashi kerak, u ayyorlikka, makr-hiyлага, pastkashlikka berilmasligi lozim. Inson o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilishi, so'ngra boshqalardagi kamchilikni sezishi kerak. Mutasakkir boshqalarning arzimagan kamchiligini ko'rib, o'zidagi kamchiliklarni, xatolarni sezmagani insonlarni tanqid qiladi. O'z kamchiligini tan olib, o'zgalarga muruvvat bilan qaragan kishilarni esa olqishlaydi:

*Nafsingni tiyib, sen unga shoh bo'l, mardsan,  
Kimsasi yo'qlarga panoh bo'l, mardsan.  
Nomardlar oyoqosti qilar miskinni,  
Miskin va g'aribga poygoh bo'l, mardsan.*

Umuman, Sharq xalqlari qadimdan go'zallikni jamiyat taraqqiyotining va insoniy munosabatlar rivojining mezoni, deb bilganlar. Odamlarda chinakam insoniy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotning ongliligiga erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Masalan, Abu Ali ibn Sino hayoni — insonning abadiy go'zalligi va latofatiga, hayosiz yuzni esa jonsiz jasadga o'xshatadi. Haqiqatan ham, sharm-hayo, or-nomus bor joyda go'zallik tantana qiladi. Aytish mumkinki, tashqi go'zallik — bu shakldir, hodisadir. Ichki go'zallik — mazmundir, mohiyatdir. Mazmun va mohiyat shakl va hodisani belgilaydi. Mazmun birlamchi va belgilovchi, shakl esa hamma vaqt ikkilamchidir.

Abu Rayhon Beruniy tashqi go'zallik, qiyofadagi jamol — bular ikkovi ham yoqimli bo'lishi kerakligini, odamlar o'zaro uchtrashganlarida ushbu go'zal jamolni ko'rishga rag'bat qilishlarini, lekin shakl chiroyi ona qornida ato qilinishi, uni o'zgartirish hech bir zotning qo'lidan kelmasligini aytadi. Ammo xulq-atvorga kelsak, uni insonning axloq kitoblarida aytiganidek davolab, tarbiyalab, go'zal-pokiza tutib, yomon hollarga tushirmaslik mumkinligini ta'kidlaydi.

## ISLOM MADANIYATIDA ESTETIK QARASHLAR<sup>1</sup>

Sharq Uyg'onish davri Yevropa Uyg'onish davridan qariyb besh asr oldin boshlanib, unga nisbatan uzoq muddat davom etgan. Sharq Uyg'onish davri ma'rifati va madaniyati haqida so'z borganda, uni Islom dini bilan uzviy bog'liq ekanligini e'tirof etish kerak. Islom dini dunyo diniga aylanishi munosabati bilan musulmon o'lkalarida ilm-fan taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Islom — ilm-fanga, ma'rifatga keng rag'bat ko'rsatdi. Qur'oni Karimning ilk nozil bo'lgan oyati ham «Iqro», «O'qi» edi. Shundan boshlab musulmonlar Ollohnning muqaddas so'zlarini o'qishga, u yaratgan olam go'zalliklarini anglashga kirishib ketdilar va bu jarayon hozir ham faol davom etmoqda. Islom, eng avvalo, ilm-ma'rifatni ulug'laydi.

Muhammad (s.a.v) hadislarida: «Olloh Taolo sizlarga Islomni din qilib ixtiyor etdi. Uni husnu xulq va saxovat bilan e'zozlang. Zero, u faqat mazkur ikki xislat bilangina komil bo'ladi», — deb uning estetik jihatlarini ta'kidlagan edilar.

Qur'oni Karim va hadisi shariflar Islom madaniyati va estetikasining manbaidir. Qur'oni Karim ming yildan beri tafsir qilib kelinayotgan bo'lsa-da, hali uning sir-sinoati, go'zalliklari mohiyati to'la ochib berilgan emas.

Xususan, «Olloh go'zal va u go'zallikni sevadi», — deyiladi Qur'oni Karimda. Demak, Islomning estetik nuqtai nazari go'zallikka oshno bo'lmoqdir. Olloh go'zal ekan, u yaratgan Odam

<sup>1</sup>Bu mavzu E. Umarov va G'. G'afurov hamkorligida yozilgan.

ham, u bunyod etgan Olam ham, o'z bandalariga hadya etgan noz-ne'matlar ham go'zaldir.

Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy «Al-adab al-mufrad» («Odob durdonalari») asarida inson xulqi go'zalligi haqida bunday hadislarni keltirgan: Rasululloh: «Yaxshilik — axloqning chiroyli bo'lishi, gunoh esa ko'nglingda g'ashlik paydo bo'ladigan (nojo'ya) ishni qilishdadir. Uni odamlar bilib qolishini xohlamaydigan bo'lsang, mana shu ishni qilmog'ing gunohdir», — dedilar.

Yana bir hadisda ko'ngil shodligi, yaxshilik va yomonlik haqida, boylik bilan maqtanmaslik xususida bunday deyiladi: «Rasululloh: «Boylik yomonliklardan saqlanadigan odamlar uchun zararsizdir. Mana shunday kishilar uchun tani sog'lik boylikdan ham yaxshi-roqdir va ko'ngil shodligi (Allohga shukrona aytildigan ne'matlardan biri)dir» (98-bet).


«Odob durdonalari»da axloqiy go'zallik haqida yana bunday hadislarni o'qiyimiz: Rasululloh: «Sizlarning yaxshilaringiz — axloqi yoqimli bo'lganlaringizdir», — der edilar.

Shu asarda yana ko'ngil sahiyligi haqida bunday deyiladi: «Boylik — molning ko'pligi emas, balki nafs (ruh)ning boyligidir».

Shuningdek, Qur'oni Karimda yana: «Tangri sizlarning tashqi ko'rinishlarining yoki molu dunyolaringizga emas, balki didlariningizga, ishlaringizga qarab baho beradi», — deb ta'kidlanadi.

Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, al-Buxoriy, at-Termiziyy, Ibn Bojja, Abul-A'lo al-Maarriy, Ibn Tufayl, Abu Homid G'azzoliy, Aziziddin Nasafiy, Nizomul-Mulk, Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Burxoniddin Rabg'o'ziy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy va boshqalarning asarlarida estetik tafakkurning bebaho durdonalari jamlangan.

Estetika taraqqiyoti Amir Temur nomi bilan ham chambarchas bog'liq. Amir Temur (1336—1405) nafaqat ulug' sarkarda, atoqli davlat arbobi, balki dinshunos, nozikta'b qonunshunos sifatida dunyo ahliga tanilgan. Temur va temuriylar davrida mo'g'ul bosqini tufayli butunlay vayron etilgan Samarqand shahri qayta qurildi. Shahar tevaragi Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza atalmish oltita darvozali qal'a devori bilan o'rab chiqilgan. Ko'rkam va muhtasham binolardan tashqari, turli-tuman kasbdagi hunarmandlar mahallalari qad ko'targan. Ispan elchisi Klavixoning yozishicha, Amir Temur



Amir Temur inshootlari.

hunarli biror kishini ham Mavarounnahrni tashlab ketishiga yo'l qo'yagan. Aksincha, sohibqiron farmoni bilan Damashqning mohir to'quvchilari, Halabning mashhur paxta yigiruvchilari Anqaraning movut to'quvchi korxonalari, Turkiya va Gurjistonning zargarlar Samarqandga ko'chirib olib kelilingan. U Samarqand atrofida o'z farzandlariga atab ko'shklar, go'zal bog'lar qurdirdi. Mohir me'mor, tajribali sohibkorlar aql-zakovati, mehnati, mahorati bilan barpo etilgan Bog'i

Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Shamol kabi chorbog'lar va ulardag'i go'zal ko'shklar o'sha davr sayilgoh-bo'stonchilik, bog'dorchilik san'atining namunalaridir. Qisqa fursatda Samarqand o'z miqyosi, go'zalligi bilan o'sha davrdagi barcha shaharlardan o'zib ketdi. Temuriy shahzodalar Shohruh, Ulug'-bek, Boysunqur, Husayn Boyqaro ham Samarqandni go'zal va farovon etishda ota-bobolari izidan bordilar. Amir Temur o'z nevaralarining tarbiyasi va ma'lumot olishiga katta ahamiyat berdi. O'z zamonasining orif kishilari ularga fan asoslaridan, she'riyat, musiqa, xattotlik, san'at, arab, fors, turk tillaridan chuqur ta'lim berdilar. Tarix, adabiyot, san'atga qiziqish ruhida tarbiyalangan temuriy shahzodalar bir-birlari bilan ma'naviy aloqada bo'ldilar. Bu aloqalar XV asr estetikasining rivojiga katta hissa qo'shdi.

## ALISHER NAVOIY VA UNING IZDOSHLARINING ESTETIK QARASHLARI

XV asr falsafiy, adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Buyuk shoir, olim va davlat arbobi Alisher Navoiy o'zidan keyingi avlodlarga ulkan adabiy-badiiy xazina, go'zallik bilan nurafshon bir meros qoldirdiki, bu meros

hali to'la o'rganilgan emas. Navoiy falsafiy, adabiy-estetik qarashlari markazida komil inson tarbiyasi, uning olam go'zalliklari orasidagi hayot tarzi qanday bo'lishi kerak, degan masala turadi.

Alisher Navoiy ijodi — badiiy, tarixiy, ilmiy-falsafiy asarlari ning har bir satrida so'z — dur-javohirga aylangan va go'zallik bilan zarhallanib jilolantirilgan. Navoiy go'zallikni, nafis san'atni yuksak qadrlab, nafis san'at inson ma'naviy olami, kamoli uchun kalit ekanini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy nigohida bahor chamanlari, husnu jamol gulshani, mangu yashilligini yo'qotmagan savru shamshodlar va aksincha, xazon fasli, ravza ashjori (jannat daraxtlari)ning ishq va hijron gulxanlarida kuyib-yonishi, lola qonin to'kuvchi charx, gulzorsiz qolgan bulbullar — barchasi ruhlar olamidadir:

*Navbahor ayyomi bo 'lmish, men diyoru yorsiz,  
Bulbul o'lg'ondek xazon fasli gulu gulzorsiz.  
Goh sarv uzra, gahi gul uzra bulbul nag'masoz,  
Vahki, menmen gungu lol, ul sarvi gulruxsorsiz.*

Baytlar davomida shoir aytadi: jannatda dildorsiz, ya'ni ishqisiz, yonishsiz (faqat yeb-ichish va mol-mulk dardida) bir dam tursam, jannat daraxtlari go'zal ko'rinnmaydi, ular nazаримда o'tinday, daraxtlarning gullari esa olovdek jonimni kuydiradi.

Uning yozgan g'azallaridan birining mazmuni bunday: bizga yana bir shifo dorisi berilgan bo'lib, uni san'at deb ataydilar, go'zallik yaratuvchi san'atkorlar chizgan rasmlar mo'jizakordir. Ular inson ruhiga mayin ta'sir qilish qudratiga ega.

Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Farhod devorlarni suratlar bilan bezab, ularda Shirin rasmini chizganligini, ayni vaqtida Shirin g'oyat go'zal hur-parilar qurshovida ham o'zining beqiyos husni bilan ajralib turgani tasvir etilganini hikoya qiladi.

Navoiyning adabiy, tarixiy va falsafiy asarlarida go'zallik, nafis san'at haqidagi fikrlar istagancha topiladi. Shu bilan birga uning adabiy-estetik qarashlari «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» va «Mufradot» asarlarida yana yorqin ifodasini topgan. «Majolis un-nafois»da 450 dan ziyod shoirning hayoti va ijodi haqida so'z yuritilib, ular ijodining eng cho'qqisini ko'rsatuvchi asarlaridan misollar keltiradi, ularning yutuq va kamchiliklarini baholaydi. Navoiy davrida kosiblar, hunarmandlar, ustalar,

naqqoshlar, sozandalar, hofizlar, olimlar, amirlar va amaldorlar ham she'r yozganlar. Bular turli estetik nuqtai nazardagi kishilar bo'lib, ular orasida «izhori fazilat», «ermak» uchun she'r yozadigan shaklbozlar ham bo'lgan. Navoiy shu xil shoirlarni qattiq tanqid qiladi.

Navoiy badiiy so'z san'atining estetik hissiy-ruhiy quvvatini alohida ta'kidlar ekan, shoir-san'atkor xulq-atvoriga va estetik madaniyatiga alohida o'rin ajratadi. Chunki odob-axloq islom estetikasining tarkibiy qismi bo'lib, musulmon kishi hayoti va faoliyati odob qoidalari mezoni bilan baholanadi. Shu tariqa Navoiy she'r sohiblarining kamtarlik, himmatlilik, xushmuomalalik, saxyilik kabi fazilatlarini ulug'laydi.

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini jahon miqyosiga ko'targan va insoniyat madaniyati, estetikasi xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk davlat arbobidir. U yashagan davrda Sharqning madaniy markazlaridan biri bo'lgan Hirotda hunarmadchilik, savdo-sotiq, ilm-fan, adabiyot, san'at, me'morchilik keng rivoj topdi.

Temur va Ulug'bek davrida Samarqand, Sheroz, Hirotda rivojlangan xattotlik, naqqoshlik va musavvirlik san'ati Kamoliddin Behzod va uning atrofidagi san'atkorlar kamolotiga zamin bo'ldi. Miniatyura san'ati, tabiat ko'rinishlari, kishilar portretlari, hayot lavhalarini tasvirlovchi asarlar paydo bo'ldi. Adabiyot rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lgan kitobat san'ati ham shu davrda keng rivojlandi.

Miniatyura markazida inson shaxsi turadi. Uni mohirlik bilan tasvirlashda Kamoliddin Behzod katta muvaffaqiyatga erishgan. Sharq miniatyurasining buyuk vakili Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Uning iste'dodi juda erta namoyon bo'ladi va Alisher Navoiy diqqatini tortadi. Uni o'z davrining mashhur san'atkori Mirak naqqoshga shogirdlikka beradilar. Navoiy yosh san'atkorni ham moddiy, ham ma'nnaviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. Behzod Mirak naqqoshdan ta'lim olib bo'lgach, avval Navoiy kutubxonasiga, keyinchalik Sulton Husayn kutubxonasiga rahbarlik qilgan.

O'rta Osiyoda badiiy bezakli qo'lyozmalarning aksariyati Navoiy va Behzod davrida Hirotda yaratilgan. Behzod va uning izdoshlari Alisher Navoiy, Sulton Husayn, Jomiy, Nizomiy,

Dehlaviy, Ali Yazdiy kabi adiblar va tarixchilarning asarlariga chiroylar rasmlari ishlashgan. Behzod musavvir Mirak naqqosh rahbarligida shakllangan bo'lsa, ijodining yuksak bosqichga ko'tarilishi davlat arbobi, shoir Navoiy rahbarligida bo'ldi. Uning homiyligi, rahbarligi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi natijasida ustoz Behzod va Shoh Muzaffarlar rassomlikda beqiyos shuhrat qozondilar.

Bir donishmand go'zal xulqli, odobli, lekin juda xunuk chehrali bir yigitni ko'rib: «Ey yigit, sening go'zal xulq va odobing xunukligingni yuvib yubordi», — degan ekan. Go'zallik tushunchasi hamma vaqt Alisher Navoiy zamondoshlari va izdoshlarining diqqat markazida bo'lgan.

Sa'diy Sheroyi o'zining «Guliston» asarida shunday hikoya qiladi: «Ota sayohat orzusidagi o'g'liga «sayohatchi yo boy, yo olim, yo chiroyli, yo ashulachi, yoki hunarmand bo'lishi kerak», deydi. Chunki masalan, «Bir chimdim husnu jamol bir dunyo mulku moldan yaxshiroqdir. Go'zallik dardman ko'ngillarning malhami, qulf eshiklarning kalitidir. Tabiiydirki, kishilar uning suhbatini dil orzulari deb bildilar va unga xizmat etmakni faxr hisoblaydilar».

Alisher Navoiy odobli inson barcha odamlarning yaxshisi ekanligini, u mansabdar kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, go'zal ko'ngilni ochadi, xunuk hayotni o'ksitadi, yaxshi xulqli go'zal — jannat huridir, yomon tabiatli xunuk — do'zaxbon devdir.

Musavvirlig san'atini yuksak qadrlagan Boburning o'g'li Nasriddin Muhammad Humoyun hirotlik, samarqandlik, termizlik musavvirlarni saroya taklif qilgan. Shahzodaga termizlik Mir Mansur Musavvirni tanishtirganlarida, uning rasmlaridan zavqlanib: «Agar mening xizmatimga shu musavvir berilsa, uning uchun Hindistondan ming tuman pul jo'natishga roziman», degan ekan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Humoyun Mirzo Kobul taxtini egallagandan so'ng musavvirlig ustaxonasi tashkil etib, unga Mir Mansur Musavvir, uning o'g'li Mir Said Ali, Abdusamad Sheroyi, Mavlono Jaloliddin Yusuf naqqosh kabi Behzod shogirdlari va safdoshlarini o'z xizmatiga oladi. Humoyun va uning o'g'li Akbar mashhur musavvir Abdusamad Sheroyidan musavvirlilik sirlarini o'rgangan ekanlar.

XVI asrning yetmishinchi yillarida Akbar saroyi qoshidagi musavvirlar ustaxonasida turli o'lkalardan kelgan musavvirlar ijod qilganlar.

Bu davrda yaratilgan bir qator risolalarda husnixat san'ati bilan bog'liq estetik axloqiy vazifalar bayon etilgan. Chunki O'rta asrlar musulmon dunyosida husnixat va qo'lyozma kitob bezash — xattotlik san'ati boshqa mamlakatlarga nisbatan yuksak darajada rivojlangan va estetik ahamiyat kasb etgan edi.

«Chiroyli xati bor kotib, — deydi Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida, — so'zga oro beradi va so'zlaguvchiga rohat bag'ishlaydi. Kotib shoirlar she'ri bilan varaqni bezovchi va so'z xazinasining xazinaboshidir». Z. Vosifiyning «Bado'e ul-vaqoye» asarida yozishicha, o'z davrida Yoqut xattot bitgan «Mushaf»da bir «vov» harfi tushib qolgan ekan. Boshqa barcha «xushnavis»lar shu bir harfsni o'xshatib yozisholmabdi. Oxiri yana Yoqutga murojaat qilishibdi. Sulton Husayn va Ubaydullaxon zamonida Mirak naqqosh, Sultonali Mashhadiy, Jaloliddin Yusuf naqqoshlar kitobat san'atida ham mohir edilar.

Bu davrda voizlik (notiqlik) san'ati ham rivoj topdi. Qadimda so'z aytuvchi notiqni voiz, uning nutqini esa va'z deb ataganlar. Voizlik bilimdonlikni, salohiyatni, so'zga boylikni, va'z ayta olish iste'dodini, yoqimli ovozni talab etardi. Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», «Futuvvatnomayi sultoniy», Alisher Navoiyning «Majolis-un-nafois», Zayniddin Vosifiyning «Bado'e-ul-vaqoye», Xondamirning «Makorim-ul-axloq» kabi asarlarida voizlik san'ati haqida atroflicha fikr yuritilgan. «Boburnoma»da Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonni egallash yo'lida harbiy jihatdan kuchli dushman Rana Sinxga qarshi hal qiluvchi jang oldidan o'z qo'shinlariga aytgan otashin nutqi keltiriladi. Bu nutqdan ruhlangan temuriyzoda jangchilari og'ir jangda bahodirlik ko'rsatib g'alaba qozonadilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning estetik qarashlarida she'riy san'at, musavvirlik, shaharsozlik, musiqa haqidagi mulohazalari muhim o'rin tutadi.

Nutq madaniyati va notiqlik san'atining asosiy talablari nima-dan iborat? Til — dilning tarjimonи, til orqali kishilar bir-birlari bilan fikrlashadilar, do'stlashadilar, inoqlashadilar. Aniq, ravon, sodda va ifodalı so'zlash madaniyatli kishilarga xos fazilat bo'lib,

bunday odamlarning so'zini eshitish huzur baxsh etadi, aqlni qayraydi. Yaxshi so'z jon ozig'i, deb bekorga aytilmagan. Alisher Navoiy otashin nutqi, asosli dalillari bilan Hirotda sulton Husaynga qarshi xalq isyonini tinch yo'l bilan bartaraf etadi. Alisher Navoyning aytishicha, rostgo'ylik nutqning eng yaxshi bezagidir. So'z gavhari oldida chin gavhar bir tomchi suv bo'lib qoladi. Notiq har bir so'zning mohiyatini chuqur anglagan holda uni teran ifoda etishi kerak.

Notiqlik san'ati juda katta ijodiy mehnat va mas'uliyat talab etadi. Ba'zilar nutq madaniyatini chiroyli so'zlarni topib gapirish deb tushunishadi. Notiqlar chiroyli so'zlarni emas, balki odamlarning yuragiga tez yetib boradigan so'zlarni aytishgan.

Pahlavon Mahmud bu haqda shunday yozadi:

*Nutqing kabi nutq dunyoda ey do'st, yo'qdir,  
Qutlug' bu kalomda hech kamu ko'st yo'qdir.  
Yong'oq-ku so'zing, kerakmas archimoq, chaqmoq,  
Hammasi mag'iz uning, po'choq-po'st yo'qdir.*

## XVII—XIX ASRLARDA ESTETIK TARAQQIYOT

Bu davrda estetik tafakkur taraqqiyotida Darvesh Ali Changiyning «Risolai musiqiy», Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-asxob», Zayniddin Vosifiyning «Bado'e-ul-vaqoye» asarlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Maleho Samarqandiy «Muzakkir ul-asxob» asarida 160 dan ziyyod ijodkorlar haqida yozib, o'sha davr madaniyati, turmush tarzi, badiiy meros namunalari to'g'risida fikr-mulohazalarini bayon etgan. Maleho ushbu tazkirasiga «Maleho» (go'zallik) taxallusini tanlab, shoir va adiblar ijodiga alohida e'tibor beradi.

Maleho Samarqandiy o'z davrida ko'z o'ngida sodir bo'lgan ijtimoiyadolatsizliklar, nojo'ya ishlarga nisbatan besfarq qaray olmagan. Shuning uchun o'z davri tartiblariga tanqidiy munosabatda bo'lgan, chunonchi, Subxonqulixon hukmronligi vaqtidan poraxo'rlik, o'zboshimchalik, yovuzliklarni mana bunday tasvirlagan: «Subxonquli taxtga o'tirishi bilan amaldorlarning yovuzligiga erkinlik berib qo'ydi: odamlar izzat-hurmatga va katta

mansabga erishish uchun xonning amirlari va yaqinlariga pora tarzida pul beradilar. Poraxo'tlik shu darajaga borib yetdiki, ba'zi odamlar pora berish uchun qarz ko'tarib amalga etishdilar. Lekin ularning amaldorligi uzoqqa yetmadi, chunki boshqa bir odam yana pora berib, o'sha mansabni sotib oldi va mansabdan tushgan amaldor umr bo'yi qarzdorlik tutqunligiga tushib qoldi». Maleho saqat ko'zga ko'ringan Sayido Nasafiy yoki yoshi anchaga borib qolgan Hoja Same' Saodat, Muhammadamin Sarafroz Samarqandiy, Lutfull Shokir kabilar haqidagina emas, shuning bilan birga endigina ko'zga ko'riva boshlagan, imkoniyatu harakati bo'lsa katta shuhratlarga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan yoshlari to'g'risida ham o'z bashoratini bildira olgan. Chunonchi, Abdulla Mulham Buxoriy haqida u mana bunday deb yozgan: «Mulham — oti Abdullodir. U ham buxorolik bo'lib, yoshdir. Maydonga endi kirib kelayotir. Uning kelajagi borligi ko'rini turibdi».

Xullas, Mavarounnahr va Xuroson Uyg'onish davri mutafakkirlari san'atning vogelikka munosabati muammolariga asosiy e'tibor qaratgan bo'lsalar, XV—XVII asrlarda yaratilgan risolalarда, tazkiralarda ijod amaliyotidan kelib chiqqan holda fikrmulohazalar bayon qildilar. Demak, bu o'rinda estetika nazariyasi bilan uning amaliy masalalari o'zaro bog'lanib ketganini ta'kidlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, bu davrda Nodira, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Shermuhammad Munis, Ogahiy kabi bir qator zabardast nafosat namoyandalari yashab, ijod etdilar.

O'zbekistonda ilg'or estetik g'oya namoyandalari H. H. Niyoziy, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Fitrat kabilar o'zbek adabiyoti, teatri, san'ati sohalarida chuqur, sermazmun ijod qildilar. Abdurauf Fitrat «O'zbek musiqasi va uning tarixi» asarida qadimda xonaqohlarda aytiladigan «Naqshi Mullo» kuyi Abdurahmon Jomiy asari, Shashmaqomdag'i «Qari navo» kuyi esa Alisher Navoiy asari ekanini eslatib o'tadi. Shuningdek, u o'zining 1913-yilda yozgan «Hind sayyohi» asarida me'moriy obidalarning achinarli ahvolda ekanligini kuyinib tasvirlaydi. O'rta Osiyoda juda ko'p ilg'or estetik tafsakkur namoyandalari yashab ijod etdilar. Ularning noyob asarları hanuzgacha xalq ommasini tarbiyalash ishiga o'z hissasini qo'shmaqda.

O'rta asrlarda musulmon san'atining nazariy va amaliy tajribalarini umumlashtirib, Yevropa Uyg'onish davri mutasakkir va san'atkorlari puxta o'zlashtirdilar. Bu qarashlar yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllanayotgan vaqtarda ham Yevropa hududlari doirasida rivojlanib, yoyilib boraverdi. Bunga asosiy sabab, Sharq san'atkorlari g'arblik kasbdoshlaridan ancha oldin san'atning ilohiy va dunyoviy mazmunini qaror toptirishga muvafaq bo'lган edilar.

O'rta Osiyo xalqlari san'atining taraqqiyatparvarligi va estetik jihatdan ahamiyatliligi xuddi ana shu tamoyillari bilan izohlanadi.

## TURKİSTONDA MA'RİFATPARVARLIK ESTETİKASI<sup>1</sup>

Ma'rifatparvarlik g'oyalari Markaziy Osiyo xalqlarining ming yillik tarixidagi eng muhim va kuchli ma'naviy tayanchlardan biri hisoblanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmi, ya'ni biz ma'rifatparvarlik estetikasi istilohi bilan atayotgan davrda ham bu g'oya o'ziga xos tamoyillarni vujudga keltirdi va ularni mazmunan boyitdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning istilo qilinishi oqibatida ijtimoiy hayotda muayyan darajada ichki muvozanat va nisbiy turg'unlik yuzaga keldi, madaniy-estetik va badiiy jarayonlar jonlandi, yevropacha madaniyatning qadriyatlari keng tarqalishiga sharoit yaratildi.

Bu narsa Turkiston ziyolilarini ma'rifatparvarlik sohasida yanada faolroq ishlashga, targ'ibot-tashviqot ishlarini kengroq olib borishlariga turki bo'ldi, yangicha falsasiy-badiiy asarlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Ahmad Donish, Abay, To'xtagul, Furqat, Muqimiy, Sattorxon va boshqa ma'rifatparvarlar mustamlakachilik yo'li bilan kirib kelgan rus va Yevropa madaniyatiga muayyan darajada ijobiy munosabatda bo'ldilar, uni o'rganishga kirishdilar. Chunonchi, Sattorxon Abdug'afforov vatandoshlari orasida birinchilardan bo'lib rus tilini chuqur o'rgandi, 1873—1876-yillarda Chimkentda ochilgan rus-tuzem mакtabida muallimlik qildi.

<sup>1</sup> Bu mavzu E. Umarov va prof. M. Abdullayevlar hamkorligida yozilgan.

«Turkiston viloyatining gazeti»da tarjimon bo'lib ishladi. O'zbek olimlari orasida birinchi bo'lib rus tilida «Qo'qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk»ni yozdi va uni «Turkestanskiye vedomosti» sahifalarida e'lon qildi. Ahmad Donish, Furqat, Abay va boshqalar ham ma'rifatparvarlik faoliyatlarini olib bordilar.

Shunday qilib, Turkistonda juda qadimdan mavjud va asosan nazariy rivojlanib kelgan ma'rifatparvarlik endilikda amaliy jarayonga aylandi, boshqacha aytganda, turkistonlik ziyolilar keng miqyosda amaliy ma'rifatchilik faoliyatları bilan shug'ullana boshlaydilar. Bir tomondan, o'sha davr vaqqli matbuotida ma'naviyat va siyosatga bag'ishlangan dolzarb mavzuda maqolalar e'lon qildilar, rus madaniyatining rang-barang janrlariga doir o'z munosabatlarini (masalan, Furqat) bildirdilar. O'sha davrda Furqat quyidagilarni yozgan edi: «Necha marataba teatr nomli rusiya xalqining tamoshasini borib andagi o'yun — taqlid tartiblarini ko'rdum. Alarning ko'rsatgan tamoshasi — hunarlar bizning mas-harabozidek mahv kulgu uchun emas, balki ibrat uchun ekandir. Bu tariqaqim o'tgan zamondagi olamlarning ahvolini va kechur-g'on tirikehiliklarini va ul mardum arolarida bo'g'on muammolarini taqlid qilib ko'rsatar ekan va ba'zi kulgulik o'yunlar bo'lsa borganlar andin ham ibrat va ham xursandlik istifoda qilur ekanlar»<sup>1</sup>.

Boshqa tomondan, mahalliy ziyolilar rus-tuzem maorisi tizimiga ijobiy munosabat bildirib, maktablar ochishda, ma'rifat-parvarlik ishlarini jonlantirishda faol ishtirok etadilar.

Ma'lumki, ma'rifatparvarlik harakati tarkiban tegishli g'oya va sikrlarni, tamoyillarni, shunga xos amaliy faoliyat usullari va vositalarni o'z ichiga oladi, ularning yaxlit majmui tarzida ro'yobga chiqadi. Ma'rifatparvarlik tizimida estetik qarashlar va badiiy qadriyatlar ham alohida o'rinn tutadi.

Bu masalani atroficha va to'g'ri yoritish estetik qarashlarning siyosiy, axloqiy va ijtimoiy ruhini to'g'ri belgilashni taqozo qiladi. Shubha yo'qli, bunda ma'rifatparvarlik g'oyalarining Markaziy Osiyoda tarixan shakllangan turlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida aytiganidek, Turkistonda XIX asr oxirida yuzaga

<sup>1</sup> Qarang: Furqat. «Ta'nlangan asarlar», ikki tomlig. 2-tom. — Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1959, 131-bet.

kelgan ma'rifatchilik rus madaniyatiga o'z munosabatini bildiradi, uni Yevropa ilm-fani ifodachisi sifatida qabul qiladi. Darvoqe, siyosiy tafakkur sohasidagi kemtiklik, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivoj topmaganligi rus bosqinchiligining ayyorona mustamlakachilik tabiatini to'g'ri idrok eta bilmaslikka olib keldi, bu esa mintaqqa madaniy taraqqiyotini saqat rus madaniyati bilan bog'lab tasavvur etishga moyillik tug'dirdi. Bu, albatta, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining murakkabligi ta'sirida shakllangan ijtimoiy ruhiyat edi.

Anglashiladiki, yevropacha rus-tuzem maorisiga xayrixoh bo'lism, madaniy tadbirdorda ishtirok etish, lozim bo'lsa, ularni matbuot orqali targ'ibot-tashviqot qilish, rasmiy doiralar bilan shaxsiy aloqalar o'matish, diplomatik yo'llar bilan Rossiya va jahon shaharlari siyosiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishish kabi xatti-harakatlardan ma'rifatchilikning birinchi davriga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarni ifodalaydi.

Shuni qayd etish kerakki, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida bu tafakkur tarzi va idrok tizimiga milliy-ozodlik kayfiyatini kirib keldi, natijada yuqorida qarash va munosabatlarda keskin o'zgarishlar yuz beradi.

Bunga o'tgan asr oxiridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, chet el milliy-ozodlik harakatlari bilan ayrim ma'rifatparvar ziyolilarning yaqindan tanishishi ularning ba'zilarida o'lkadagi murakkab sharoit yuzaga keltirgan ma'rifsatsiz hayotni o'nglab bo'lmaslikka ishonchszilik, ruhiy tushkunlikni tug'dirgan bo'lsa, ba'zilarining, aksincha, siyosiy faoliyatga qo'shilishlari ularni siyosiy ta'qib etilishiga olib keldi. Ilmiy adabiyotlarda bu davr ma'rifatparvarchilik taraqqiyotining ikkinchi bosqichi deb yuritilmogda, jadidchilik harakatlariga bog'lab tushuntirilmogda.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek, bu davrda ma'rifatparvarchilik harakatlari mohiyatan va mazmunan keskin o'zgarishni boshidan kechirdi.

Bu narsa, avvalo, «rus siyosiy, madaniy tartibotlarining mohiyatini to'la anglab yetish ma'rifatparvarlik g'oyasining Turkiyaga, tatar va ozarbayjon xalqi fikriy dunyosiga, ular orqali esa g'arbiy Yevropa ma'rifatchiligiga ergashish, undan ibrat olishga intilish bilan belgilanadi. Ana shu davrga kelib Turkiston

ma'rifatchiligi, ilk davrdan farqli o'laroq, faqat feodal tuzum asoslarini ilm-fan, ma'rifat yo'li bilan o'zgartirish, ayrim yangiliklarni joriy etish va shu yo'l bilan rivojlanishnigina mezon qilib olmadi, balki bu yo'llarni jadal amaliy izga solish, feodal qoloqlikka, nobop ursf-odatlar, bid'atlarga qarshi ochiq kurash yo'lini tutdi. Bu yo'ldagi eng asosiy vazifa — jamiyat a'zolarining ongini qayta qurish, tushuncha va tasavvurlarini o'zgartirish. Buni amalga oshirishning asosiy sharti esa, ilm-fan, turli dunyoviy bilimlarni tarqatishdir»<sup>1</sup>.

Demak, mavjud yaroqsiz ijtimoiy munosabatlarga qarshi norozilik, zarur taqdirda kurash yo'lini tutish ma'rifatparvarlikning siyosiy maqsad va mohiyatini ifoda etadi. Jadidchilik harakati buni to'g'ri tushungan holda, ma'rifat nasaqat bilimlarni tarqatish, targ'ib qilish, balki shu bilan birga har qanday «bid'at»ga qarshi ongli kurashish, uni bartaraf etish, sog'lom maskuraviy tamoyillarni xalq o'rtasida tarqatishdan iboratligini ham anglab yetadi. Bunda turk, tatar va ozarbayjon dunyosiga xos ijtimoiyma'rifiy g'oyalarning o'lkaza kirib kelishi ulkan ma'naviy omil bo'lib xizmat qildi. Jadidlar nazarida ma'rifatparvarlik va ma'rifatchilikni rivojlantirmay, Yevropa ta'lim-tarbiya yo'lini, tafakkur yangiliklarini egallamay turib, Turkistonda nasaqat jahon madaniyatini, hatto ota-bobolar qoldirgan boy madaniy merosni ham o'zlashtirib bo'lmas edi.

Bu yerda ma'rifatchilikning yirik vakili Mahmudxo'ja Behbudiy dunyoqarashiga Turkiya safari keskin ta'sir o'tkazganligini misol qilib keltirish mumkin. U Istambulda usuli jadid maktablari va yangicha madrasalar faoliyati bilan yaqindan tanishadi, toliblarga dars berish, gazeta-jurnallar chop etish ishlarini o'rganadi. Bu narsa Behbudiyda chuqur taassurot qoldiradi.

Siyosiy va ma'naviy jihatdan puxta anglab yetilgan maqsad va vazifalar, faol ma'rifatchilik harakatlari tufayli Turkistonda ham yangi usuldagи maktablar ochiladi, milliy matbuot shakllanadi, milliy konsertlar, adabiy-badiiy o'qish tadbirlari amalga oshiriladi, yevropacha teatr, o'nlab ma'rifiy jamiyatlar, nashriyotlar faoliyat ko'rsata boshlaydi.

<sup>1</sup> Shuhrat Rizo. «Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikka», — «Tafakkur», 1995, 1-son, 75-bet.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Yevropa va Rossiyada ma'rifat va taraqqiyotda tashabbusni asosan markaziy hukumat boshlab bergen, ya'ni harakat yuqoridan quyiga qarab yo'naltirilgan bo'lsa, Turkistonda hokimiyat qoloq bo'lganligi sababli ma'rifatparvarlik, aksincha, quyidan yuqoriga qarab o'sdi: jadidlar o'z hisoblaridan yangi usuldag'i mакtablar, kуubxonalar ochdilar, teatr truppalarini tuzdilar, pyesalar yozdilar, o'zlari aktyorlik qildilar, o'qituvchi, noshir sisatida darslik bitib, gazeta-jurnallar chop etdilar, xullas, barcha vositalar bilan ular o'z xalqini ma'rifatli qilishga bel bog'ladilar<sup>1</sup>.

Ma'rifatparvarlik harakatining keyingi davri Rossiya va Turkiston hududida ro'y bergen keskin siyosiy voqealar bilan bog'langandir. Shubhasiz, o'lkada yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakatlari uning mazmuni va yo'nalishini tashkil etdi. Bu davr Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari badiiy madaniyat arboblari ijodiga kuchli ta'sir etadi.

Yuqorida qayd etilgan jihatlarga asoslanib, Turkistonda shakllangan ma'rifatchilikning estetik qarashlari haqida, uning ijtimoiy-siyosiy omillari, mohiyat-mazmuni va asosiy tamoyillari to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Tarixan Turkiston xalqlari estetik tafakkurida go'zallik va eзgulik tushunchalari falsafiy-tasavvufiy tamoyillar, milliy qadriyatlar va umuminsoniy mazmun, shuningdek, sodda demokratik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'un holda namoyon bo'lganligi o'z-o'zidan ravshan. Ma'rifatparvar allomalar bu an'analarni davom ettirib, eзgulik va go'zallikni yaxlit hodisa tarzida idrok etadilar. Ularning fikricha, go'zallik ham, eзgulik ham insonda shodlik, mamnunlik tuyg'usini hosil qiladi, hodisalarning insoniy va ijtimoiy mohiyatini chuqur tushunishga asos bo'ladi. Biroq go'zallik bilan bog'langan har qanday shodlik va xushnudlik estetik zavq-shavqsiz amal qilmaydi.

Estetik zavq, rohatlanish insonning obrazli fikrlashi bilan tutashdir. Go'zallikni idrok etish jarayoni ko'proq emotsional holatni ifodalab, inson hissiyotlari, asosan, ko'rish hamda eshitish sezgilari orqali namoyon bo'ladi. Go'zallik bevosita amaliy-moddiy

<sup>1</sup> *Qarang: Z. Eshmuradova. «Jadidchilikning ma'naviy-estetik ideali».* «Guliston», 1994, 2-son.

foyDALI mansaatlarni nazarda tutmaydi, aksincha, u insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Go'zallikdan farqli o'laroq, ezgulik muayyan amaliy maqsadlarga bo'y sunadi, u inson xulqining mezonini bo'lib, kishilarning axloqiy munosabatlaridagi insoniylikni ifodalaydi. U ma'lum ma'noda go'zallik baxsh etadigan emotsiyonallik, mammunlik tuyg'ularidan kam farq qiladi, ayni vaqtida kishining xayoli, sof tasavvuri bilan emas, balki konkret xatti-harakati yoki muayyan axloqiy faoliyatiga bog'liq holda idrok etiladi. Shu sababli ma'rifatparvarlar insoniy go'zallikning negiziga ezgulik tushunchasini qo'yadilar, buningsiz go'zallikni tasavvur eta olmaydi, degan fikrni ilgari suradilar. Ahmad Donishning yozishicha, «aqlli odamlarning alomati, ulardagi yaxshilikning yomonlikdan ko'proq bo'lishida»dir<sup>1</sup>.

Bugina emas, estetikaning xunuklik kategoriyasi taxlil etilganda ma'rifatparvarlar go'zallik va ezgulik o'rtasidagi uyg'unlikni mezon qilib oladilar. Go'zallik va xunuklik aloqadorligini ana shunday tushunish nasaqat ijtimoiy tengsizlik, balki insoniy noqobililikning ham mohiyatini ochishga ko'mak beradi. Shu ma'noda Abay «g'iybatchilik, yolg'onchilik, makkorlik, tanballik, isrofgarchilik»dan iborat insoniyatning besh dushmani borligi, uni ayovsiz fosh etish zarurligi haqida yozadi. Jamiatni xunuklashtiradigan illatlar haqida so'z yuritganda Abay birinchi o'ringa nodonlikni qo'yadi. Nodonlik ilmsizlik natijasi bo'lib, hayvonlikka yaqinlidir. Erinchoqlikdan turmushdagi barcha yomon qiliqlar kelib chiqadi, u baxtsizlikning sababchisi, undan tekinoxorlik tarkib topadi. Zolimlik, Abay fikricha, eng ko'p tanqid qilishga loyiq xatti-harakatdir. Zolimlik tusayli insoniy qadr-qimmat yerga uriladi, adolatga putur yetadi, kishilar o'rtasida mehr-oqibat rishtalari uziladi<sup>2</sup>.

Go'zallikning axloqiy negizlarini tavsiflash yo'li bilan ezgulikni tushuntirish Turkiston ma'rifatparvarligining muhim estetik talabidir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, na go'zallik, na ezgulik, shuningdek, yovuzlik va xunuklik bir xilda, qotib qolgan hodisalar

<sup>1</sup> Ahmad Donish. «Navodirul vaqoye». — Toshkent, «Fan», 1964, 388-bet.

<sup>2</sup> Qarang: Abay. «Tanlangan asarlar». — Toshkent, «O'zdavnashr», 1964, 197-bet.

emas. Gap shundaki, hayot bilan bog'liq holda odam, uning o'y-xayollari, fikrlari o'zgarib, yangilanib, boyib, ongi taraqqiy qilib, tuyg'ulari sayqallahish boradi, ayni paytda insonning bilish faoliyati kengayadi, real vogelikning hodisalariga axloqiy-estetik baho berish me'yori ham chiqurlashadi. Shunga ko'ra eski tushunchalar mazmunan yangicha ma'no kasb etadi, yangi tasavvurlar hosil bo'ladi. Biroq go'zallik va ezgulik tushunchalari hamma vaqt kishilar e'tiborini bir xilda band etib keladi. Bu narsa ijtimoiy manfaatlarning ularda ustuvorlik kasb etishi xususiyati bilan belgilanadi.

Ma'rifatparvarlik nuqtai nazaridan insonning or-nomusi, jismoniy salomatligi, ma'naviy go'zalligi, kamtarligi va uzoq umr ko'rishi yuksak qadriyatlar bo'lib, oqibat natijada ezgulik bilan uzbek bog'langan va shartlangan bo'ladi. Agar bu qadriyatlarni keng ma'noda estetik madaniyat tushunchasiga kiritadigan bo'lsak, undan «kutilgan maqsad qaysi yo'l bilan bo'lsa ham xalq uchun foyda keltirish»ni nazarda tutishi zarur. «Madaniyatli bo'lish insonlarning xoh qo'li, xoh tili bilan o'zaro bir-birlariga yordam berishlari demakdir»<sup>1</sup>. Donish sifricha, ezgulik yo'lidagi asosiy kuch rahmoniy bo'lib, u mohiyatan shaytoniy kuchlarga qaramaqarshidir (o'sha yerda, 327-bet).

Shunday qilib, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan mutafakkirlar dunyoqarashi negizida keng ma'nodagi ma'rifatparvarlik konsepsiysi yotadi. Ahmad Donish so'zi bilan aytganda, «odam yaratilgandan so'ng uning tunganmas baxti ilm va ma'rifatda bo'lur» ekan, ma'rifatparvarlik estetik qarashlarning mohiyatini chin insoniy ezgulik bilan bog'laydi. Estetik g'oyalarning faoliyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishida bu omil hayotiy kuchga ega bo'ladi.

Ma'rifatparvarlikning estetik tizimini atroficha tavsiflab beradigan maxsus asarlar yozilgan emas, biroq uning asosiy estetik tamoyillari badiiy va publisistik asarlarda o'z aksini topgan. Ahmad Donish, Furqat, Muqimiyy, Abay, To'xtagul singari turkistonlik shoir va publisistlarning estetik qarashlari ko'proq nazariy talqin qilingan bo'lsa, jadidizm estetikasi bu g'oyalarni amaliy hayotga tadbiq etishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bu ikki yo'nalish o'zaro

<sup>1</sup> Ahmad Donish. «Navodirul vaqoye» Toshkent, «Fan» 1964- y. 125-bet.

mantiqan bog'langan bo'lib, sho'ro hokimiyatchiliga qadar bo'l-gan davrning asosiy estetik g'oyalari va amaliyoti tajribasini aks ettiradi.

Turkiston xalqlari ma'rifatchilik estetikasi, bir tomondan, boy va sermazmun merosga suyanadi, ikkinchi tomondan, boshqa xalqlar, xususan, yevropacha tafakkur bilan bog'liq umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy qabul qiladi. Ma'rifatchilik estetikasining umumfalsasiy, ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy omillari ayni vaqtida uning konkret jihatlari haqida so'z yuritishni ham taqozo qiladi.

Endi ma'rifatchilik estetikasining muhim tushunchalarini va amaliy tamoyillari bilan tanishib chiqaylik.

**San'atning ijtimoiy-estetik vazifasi.** Mutafakkirlar san'atni ijtimoiy ong shakli va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida baholaydi, uni umuminsoniy ma'naviyat tushunchasiga kiritadi. Ma'rifatchilik estetikasining keyingi bosqichida bu konsepsiya yanada konkret-lashtiriladi, boytiladi, uni ifodalashning tarbiyaviy roman, falsafiy qissa, drama kabi shakllari vujudga keladi. Bu bilan burjuacha munosabatlar qaror topayotgan sharoitda yangicha axloqiy-estetik g'oyalarni tarkib toptirish orqali san'atning ijtimoiy funksiyasini ko'tarish ko'zda tutilgan edi.

Mutafakkirlarning fikricha, san'atning asosiy vazifasi keng xalq ommasi ongiga insonparvarlik g'oyalarni singdirish, amalda komil insonlarni tarbiyalab yetishtirishga ko'maklashishdan iborat bo'lmos'i kerak. «Hunarlar va san'atlar ichida eng yaxshisi aql va rux gavharlariga jilo berib uni quvvatlashdir, — deydi Donish. — Qalam ahllarining maqtanurlik bir kasblari shoirlikdir. Agar she'r tizimlari vazni, qosiyalari kelishgan bo'lib, undan ma'noli fikrlar chiqarilgan bo'lsa, ruhning g'azosi bo'lib, bu insonning oliv san'atlaridan hisoblanadi. Agar she'rda odobdan tashqari so'zlar bo'lsa, boylar va amirlarni maqtab, boshqalarni yo yomonlagan yoki shahvat nafsin qo'zg'aydigan, dunyo lazzatiga, uning nozne'matlariga qiziqtiradigan mazmunlarni keltirsa, bunday shoir shayton jarchisidir!»<sup>1</sup>.

Bunday fikrlarni Muqimiyl ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Shoir san'atning xalq ommasi manfaatlarini himoya qila olmasligini uning katta ijtimoiy kamchiligi deb hisoblaydi va yozadi:

<sup>1</sup> Ahmad Donish. «Navodirul vaqoye», 365-bet.

«She’ringizga xalq tolib bo’lsa o’qing, yo kelib axbob kar bo’lmoqqa mehmon bo’ldimu?»<sup>1</sup>.

Qozoq mutafakkiri Abay san’atning mohiyatini izohlashda ilmiy tushunchalarga yaqinlashadi, she’rlarni, umuman, san’atni voqelik bilan, xalq manfaati va hayoti bilan aloqasi bo’limgan, xayol va fantaziyadan iborat deb hisoblovchilarni qattiq tanqid ostiga oladi: «O’lan ko’p, tuzsiz o’lan jonga tekkanligini, jahonga yolg’on gap to’lib ketgan»ligini afsuslanib ta’kidlaydi, shu sababli ularni farqlash lozimligini, «o’lan bor — o’lanning o’lanidir, o’lan bor — bema’nidir, bema’nidir» deb yozadi. Abay o’z asarlarini ermak uchun emas, balki avlodlarga saboq uchun yaratajagini asoslab beradi<sup>2</sup>. Bunday yuksak estetik g’oyalar Furqatning «Shoir ahvoli va she’r mubolag’asi to’g’risida», «Nag’ma va nag’makor xususida», qirg’iz oqini To’xtagul asarlarida ham ilgari suriladi.

San’atning ijtimoiy vazifasini chuqur anglab yetgan mutafakkirlar ayni vaqtida shaxsiyatparast, mansaatparast va xudbin ijodkorlarni tanqid qiladilar. To’xtagul oqinining sikricha, «kuychingining burchi yashash uchun zolimlarni maqtashdan iborat emas. Kuychingining qo’shig’i olamda yaxshi hayot uchun kurashda o’z xalqiga xizmat qilishi kerak»<sup>3</sup>.

Ma’rifatparvarlar nazarida o’z shaxsiy mansaatlarini ko’zlab zolim va hokimlarni kuylash xalq oldida sharmandalikdir. Shu ma’noda Muh’iy, Davlat, Shortonboy, Buxor Jirov kabi turkistonlik shoirlarning ijodiga salbiy munosabat bildiriladi. Bunday ijodkorlar xalq mansaatini unutib «nazirago’lylik» va «nasihatgo’lylik» bilan shug’ullanadi, ayni vaqtida xalqparvar shoirlarni «shum, yaramas» odamlar deb hisoblaydi. Chunonchi, Muqimiyy o’z raqibi Muh’iyning bunday ta’nalariga shunday javob qaytaradi: «Kelur oxir seni ham yo’qlagudek bir zamon yaxshi».

**Vоqelikkа estetik munosabat va san’at masalalari.** Ma’rifatchilik estetikasi san’atning real olamga munosabatini ijobjiy hal etadi. Estetik munosabatning asosi real borliq, san’atda voqelikni to’g’ri va haqqoniy aks ettirish orqali san’atkor narsa-

<sup>1</sup> Muqimiyy. «Asarlar», Toshkent, 1974, 212-bet.

<sup>2</sup> Qarang: Abay. «She’rlar va poemalar». — Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1970, 45-46 betlar.

<sup>3</sup> To’xtagul. «Izbrannkiye proizvedeniya». — Kirgiziddat, 1950, s 7.

hodisalarga shaxsiy bahosini berishi va munosabatini bildirishi zarur.

Bunda estetik bilishning ahamiyati kattadir. Abayning yozi-shicha, bilish olamni sezishdan boshlanadi va bunda sezgi a'zolarining har biri o'ziga xos rol o'ynaydi. Suqrot tilidan gapirib quyidagilarni qayd etadi: «Ko'rsin deb ko'z berilgan. Bordi-yu ko'zimiz yo'q bo'lsa, unda biz dunyoning go'zalligidan qanday qilib lazzatlanamiz? Qulog'imiz bo'lmasa, tovushni qanday qilib eshitardik, qanday qilib musiqaning go'zalligidan bahra olardik? Bordi-yu burnimiz bo'lmasa, biz dunyodagi xushbo'y, muattar hidlarga oshiq bo'la olmagan va yomon hidlarni farq qila olmagan bo'lur edik. Tilimizda tanglayimiz bo'lmasa, biz dunyoda nima shirin, nima achchiqligini qayoqdan bilardik?»<sup>1</sup>

San'atning voqelikka estetik munosabati olamni konkret — hissiy shaklda aks ettirishga asoslanadi va bu jarayon ijtimoiy-estetik ideal bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Ijtimoiy-estetik ideal san'atda bevosita va bavosita ifodalanishi mumkin. Bu orzu-ideal, bir tomondan, badiiy asarda yuksak insoniy faoliyatni, fazilatni, ijodkorning unga ijobiy munosabatini ifodalash orqali namoyon bo'ladi. Ahmad Donish yozadiki, san'atda «agar ma'noning natijasi odamni poklik olamiga tortmas ekan, u shaytoniy ilmlardan hisoblanadi. She'r aytish muxak (tilloning sisatini aniqlab beradigan tosh — mualliflar) tosh kabidir. U odamlarning yaxshi-yomonligini, ayb va hunarlarini yaxshi ko'rsatadi: har kimning yashirin sirlarini yuzaga chiqaradi»<sup>2</sup>.

Ikkinci tomondan, estetik ideal san'atkorning hayotga tanqidiy qarashi, boshqa so'z bilan aytganda, «xunuklik» va «yovuzlikka» munosabatining gavdalanishida ko'zga tashlanadi. Bu usul ma'rifatchilikda dastavval Muqimi, Donish, Zavqiy, Furqat, keyinroq esa ancha baquvvat g'oyaviy asosda Fitrat, Behbudiy, Avloniy va boshqalar ijodida aks etadi. Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida axloqiy sisatlarni mazmunan yaxshi va yomonga bo'ladi, unda tarbiyaning o'rniga alohida e'tibor beradi. Insonning matonat, diyonat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq,

<sup>1</sup> Abay. «Tanlangan asarlar». Toshkent, «O'zdavlash», 1964, 18-bet.

<sup>2</sup> Ahmad Donish. «Navodirul vaqoye». 366-, 367-betlar.

haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sado-qat, adolat, muhabbat, olyihimmat, afv kabi ijobili xususiyatlari majmuini ijtimoiy-estetik idealga muvofiq holda «yaxshi xulqlar» ostida beradi. Yomon xulqlar axloqiy-estetik jihatdan «xunuklik» va «turbanlik»ni ifodalaydi, g'azab, shahvat, jaholat, razolat, xasosat, adovat, g'iybat, haqorat, hasad, ta'ma, zulm kabi tushunchalarni aks ettiradi. «Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga, — deydi u, — tarbiyaning zo'r ta'siri bordir!».

Ijtimoiy-estetik idealning san'atda ifodalanishida satira va humor o'ziga xos o'rin tutadi. Muqimiyning «Tanobchilar», «Dodxohim», Avaz O'tarning «Si pohiylargi», shuningdek, Furqat va Zav-qiyning ko'plab asarlari ana shu ruh bilan sug'orilgan. Ularda shoh, xon, hokim vabeklarning salbiy xatti-harakatlarini fosh etishga nisbatan feodal tuzumning yemirilishi, o'lkaga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi, milliy burjuazianing tug'ilishi va uning kapital toplashdagi ochko'zligi, «qonxo'rliги», raqobat va tanazzul, son-sanoqsiz soliqlar, burjuacha axloq, qalbaki say-lovlardan shunga o'xshagan hodisalar hajv ostiga olingan. Bunday sharoitda komiklik tushunchasi o'tkir siyosiy mazmun kasb etadi, xonu beklar, shoxu hokimlar o'rniga «maskovchi boylar», fabrikantlar, gumashtalar, firibgarlar «bekturlar», chor chinovniklar tanqid qilinadi.

San'atning voqelikka estetik munosabati badiiylik kategoriysi bilan uzviy bog'langandir. Ma'rifatparvarlar fikricha, yozuvchi, shoir, umuman, san'atkor hayotga munosabatini adabiyot va san'atning qonuniyatlarini chuqur egallash, turli uslubiy imkoniyatlardan foydalanib badiiy obraz yaratish orqali ifoda etadi. Shu ma'noda Furqatning badiiylik ko'p jihatdan so'zga bog'liqligi, badiiy ijodning asosiy va zaruriy materialini so'z tashkil etishi to'g'risidagi qarashlari muhimdir. San'atkor so'zni isrof qilmasligi lozim, har bir so'z va iborani avaylashi, uni to'g'ri ishlata bilishi, tasviriy va ifodaviy, ma'noli, ayni vaqtida qisqa bo'lishini ta'minlashi, badiiy usullarini tinmay mukammallashtirib borishi kerak. «Shoir ahvoli va she'r mubo-

---

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». Toshkent, «O'qituvchi», 1992, 13-bet.

lag‘asi xususida» asarida Furqat obraz yaratishda mubolag‘aning ahamiyatini, uning asar ta’sir kuchi va emotsionalligini oshirish-dagi o‘rnini yuqori baholaydi.

Furqat badiiy asar hayotiy voqealarni, aniq faktlarni oddiy tasvir etish bilan cheklanib qolmasligi, balki ularni jozibador, kuchli hissiy ehtiroslar bilan jonli ifodalamog‘i lozim, deb hisoblaydi: «Bahol hol yaxshi so‘z bo‘lsa taqrir etib, qilurmiz bayon elga tahrir etib»<sup>1</sup>.

Furqat estetik kategoriyalarni tushuntirishda insonning real ehtiyoj va talablariga suyanadi, real go‘zallikni idrok etish tufayli hosil bo‘ladigan estetik zavqning mohiyatini ochishga harakat qiladi: «Kishi tubiyu kavsar, jannatu rizvonni na qilsin, Jahon avyonida hosil bu yanglig‘ anjuman bo‘lsa»<sup>2</sup>. Shoир jannatu rivzonni emas, shu dunyo kishilarini, ularning hayotini kuylashni maqsad qilib oladi.

Shubha yo‘qki, bunday estetik tamoyillar san’atkorni olam voqealarini to‘g‘ri, real tasvirlashga da’vat etadi. Binobarin, badiiy asar mazmuni hayotiylik bilan belgilanadi.

Bu davr badiiy-estetik tafakkurning yirik vakillaridan biri Anbar Otin «hayotiylik kasb etmaydigan g‘azalni xushomadgo‘y bir shoircha g‘azaliyot» deb atagan edi. «She’rning mavzusi mardumlarni maqtash emas, balki dilning fikri-xayoli» bo‘lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi.

O‘zining «Risolai falsafai siyohon» («Qarolar falsafasi risolasi») asarida faqat narigi olam to‘g‘risida xayol surish, yolg‘iz ishq muhabbat haqida so‘z yuritishning o‘zi yetarli emasligini, aksincha, dunyoviy hayot sururini tarannum etish lozimligini uqtiradi, buning uchun shoir: — «ijodkorda hayot ichidagi sirlarni ko‘ra oladigan nozik did», estetik mushohada bo‘lishligi lozim: «Maxfiy emaski, har shoirda o‘tkir botindagi, ya’ni hayot ichidagi sirlarni ko‘rodigan ko‘z bo‘lur. O‘shal o‘tkir ko‘z ilan boshqalar ko‘rmagan sirlarni mushohada qilub, adab haririga burkab, arzi ma’nisini nafis iboralar bilan tarannum etar. Shundog‘ shoirni shoir desa bo‘lur»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> «Furqat she’riyatidan», Toshkent, 1980, 61-bet.

<sup>2</sup> O‘sha yerda, 76-bet.

<sup>3</sup> Dilshod. «Anbar Otin». — T.: «Fan», 1994, 161-bet.

Ma'rifatparvarlar estetikasida haqiqat mezoni san'at va ada-biyotning obyekti real hayot bo'lishini nazarda tutadi. «Rost so'z», haqiqatgo'ylik san'atning asosiy estetik tamoyili bo'lishi kerak: «Gar qilich boshimga kelsa, degayman rostin» deb Muqimiy<sup>1</sup> o'zining shoirlik burchini bayon etsa, Abay «yolg'on o'lan va yolg'on so'zdan olam bezor» bo'lganligini yozadi<sup>2</sup>. Shunday qilib, san'atning asosiy vazifasi xalq uchun yozish, xalq mansaatlарини real tasvirlashdan iboratdir.

Go'zallik va estetik tafakkurning boshqa tushunchalari. Ma'lumki, har qanday estetik tafakkur negizini go'zallik to'g'risidagi g'oyalari tashkil etadi. Ma'rifatparvarlik estetikasi go'zallikni, asosan, dunyoviy hayotdan izlab topishga harakat qiladi: go'zallikning manbai — hayot, tabiat. Go'zallik har bir inson, har bir mavjudotga xos narsa, biroq u har bir sohada o'ziga xos namoyon bo'ladi.

Demak, go'zallik real moddiy dunyodadir, degan fikr ma'rifatparvarlik estetikasining bosh g'oyasidir. San'at hayotni real aks ettirishi, insonga ma'naviy oziq berishi, ayni vaqtida olamni estetik idrok etish uchun muayyan bilimga ega bo'lish kerakligini ham isodalashi lozim.

Ma'rifatchilar sikricha, inson go'zalligining asosiy mazmuni uning komilligidadir, komillik nafaqat jismoniy, balki ma'naviy barkamollikning yuksak cho'qqisisidir. Komillik — go'zallik mezoni. Ma'rifatparvarlar ham tasavvufiy aqidalarga sodiq holda ma'naviylikda aql va adabning uyg'unligiga alohida ahamiyat beradilar. Abay bu haqda shunday yozadi: «Kimki, dunyoda ko'pni ko'rsa, ko'p narsa eshitsa, ana shu odam bilimdon bo'ladi. Inson uchun faqat aqli bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Agar u aqli kishilardan eshitgan, bilgan, ko'rgan narsalarini amalda qilsa, yomon narsalardan o'zini saqlasa — shundagina u aqli, qo'lidan ish keladigan, kiroyi odam desang arziydigan bo'ladi»<sup>3</sup>. Ahmad Donishning inson go'zalligining ma'naviy asoslari haqidagi fikrlari yanada ibratlidir: «Agar inson ich-tashqini toza tutib, riyozat, mehnat chekib tangriga toat-ibodat qilsa, uning ruhi yuqorigi olamning aql va nafslariga o'xshab qoladi, ya'ni o'z asliga tortib, farishtalar bilan aloqa

<sup>1</sup> Muqimiy. «Asarlar». 1974, 159-bet.

<sup>2</sup> Abay. «She'rlar va poemalar», 5-bet.

<sup>3</sup> Abay. «Tanlangan asarlar», 153-bet.

bog'laydi. Bunday odam o'lsa ham uning ruhi doimiy rohatda bo'ladi. Agar odam bunday qilmasa, yeb-ichib, uxlab va har xil hayvonlik bilan shug'ullanib, shu bilan umr o'tkazib o'lgan bo'lsa, bunday odam o'lgandan keyin ham uning ruhi o'sha sisatga ega bo'lgan hayvoning gavdasiga kirib joylashadi»<sup>1</sup>.

Tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish butun estetik tafakkurning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Ma'rifatparvarlar estetikasiga ko'ra, tabiatning narsa-hodisalarida ijtimoiy mazmun aks etsa, u go'zallikni ifodalagan bo'ladi. Shu sababli «sabza bo'lgan bog'lar» tarovatidan zavq-shavqqa to'lish, yaxshi do'stlar suhbatidan bahramand bo'lish katta estetik ma'no kasb etadi.

Ma'rifatparvarlik estetikasida xalqchilik san'atning muhim estetik tamoyili sisatida baholanadi. San'atning haqiqiy tasvir obyekti xalq hayoti, voqelikni shu nuqtai nazardan baholash, jontli tilning jozibasini berish, xalqning eng yuksak orzu-umidlarini badiiy ifodalashdan iboratdir. Shuningdek, san'atning bosh vazifasi xalqqa xizmat qilishdir, xalqning o'zligini uning o'ziga tanitishdir. San'at ayni vaqtida ijtimoiy g'oyalar uchun kurash quroli hamdir. Shunga ko'ra xalqning ijtimoiy-estetik ideallarini kuylagan va uning yuksak fazilatlarini qadrlagan san'atning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'ladi. Ahmad Donish fikricha, shoirming yaxshi-yomonligi uning she'rida aks etib turadi. Shu sababli shoirlar haqgo'y bo'lishlari kerak. Tam'a bilan yaratilgan she'r mualliflari achinarlidir, bunday shoirlar past odamlarni maqtab o'z obro'larini oyoqosti qiladilar. Donish o'g'llariga nasixat maktubida shunday fikrlarni bildiradi: «Shoir tuzgan muammosidan o'limtik (tam'a)ning oti chiqsa, unga yuz xayfdir. Har ma'noning musaffo, tiniqlik oynasidan tam'aning shum yuzi ko'rinar ekan, u so'z mahbubining gul yuziga tushgan ketmas dog'li aybdir»<sup>2</sup>.

Ahmad Donish san'atning asosiy vazifasini xalqqa xizmat qilishda ko'radi. «Birov biror ilmni, biror hunarni o'rgansa, undan xalq foydalansin uchun yuzaga chiqarsin», — deydi.

**Ma'rifatparvarlik estetikasi tizimida san'at turlari.** Ma'rifatparvarlar san'atni turlarga bo'lish, har bir turning o'ziga xosligi, imkoniyatlari, janr xususiyatlari to'g'risida muayyan qarashlarni

<sup>1</sup> Ahmad Donish. «Navodirul vaqoye», 110- bet.

<sup>2</sup> Ahmad Donish. O'sha asar, 376- bet.

ilgari surganlar. Donish, Muqimiy, Furqat, Abay san'atning rang-barang turlari — rassomlik, she'riyat, publisistika, musiqa, ashula, teatr asarlariga alohida e'tibor beradilar, ularning estetik xususiyatlarini, ifodaviy va tasviriy imkoniyatlarini asoslab beradilar. Chunonchi, Furqat «Toshqand shahrida bo'lg'on nag'ma bazmida» — konsertda bo'lganligini, undan estetik huzur olganligini yozgan edi: «Mendin ketmish erdi aqlu hush, lahza-lahza shavq o'ti aylardi jo'sh». «Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida» yozganda musiqaning zamonaviy asbobi — roydalan ta'sirlanganligini bayon etadi: «menga ul nag'ma andoq qildi ta'sir, jigardin o'tti guyo tez par tayr»<sup>1</sup>. Donish musiqa san'atini «so'z qilib, qalamga keltirib yozib bo'lmas»ligini<sup>2</sup> ta'kidlab, uni ifodaviy san'at turiga kiritadi.

Teatr san'ati masalalari ham ma'rifatparvarlarning diqqatini o'ziga jalgan etadi. Furqat «Suvorov» asarida teatrning estetik imkoniyatlarini yuqori baholaydi, tarbiyaviy ahamiyatini uqtirib: «Teatr tamoshasi bizning masharaboz va qiziqchilarimizga o'xshab kulgu uchun xizmat qilmaydi, — deydi u, — uning vazifasi nashat berishdan iboratdir». Furqatning aytishicha, bu tomoshalar o'tmish kishilari hayoti, ularning se'l-atvori va o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. Bordi-yu teatrda kulgili tomoshalar ko'rsatilsa, undan tomoshabinlar nafaqat huzur-halovat, balki o'rnak bo'lsa arziyidigan saboq ham oladi».

«Qalam ahllarining hunarlaridan biri naqqoshlik va surat chizishlikdir, — deydi Donish. — Bu ham xattotlikka o'xshagan, madaniy taraqqiyot uchun kerak san'atdir»<sup>3</sup>.

Ma'rifatparvarlarning san'at turlari va ularning badiiy taraqqiyotda tutgan o'rni haqida qarashlari jadidizm estetikasining Hamza, Fitrat, Behbudiy, Cho'lpon kabi namoyandalari tomonidan rivojlantirildi. Ular san'atni nafaqat yangi janr va turlar, balki yangicha dunyoqarash bilan ham boyitdi.

Jadidizmning asosiy g'oyaviy-falsafiy platformasi asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan ta'lim va milliy kadrlar tayyorlash tizimini

<sup>1</sup> Furqat. «Tanlangan asarlar». Ikki tomlik. 1-tom. Toshkent, O'zdav-nashr, 1959, 29—30-betlar.

<sup>2</sup> Ahmad Donish. O'sha asar, 194-bet.

<sup>3</sup> Ahmad Donish. Yuqoridagi asar, 368-bet.

isloh qilishga qaratiladi. Jadidizmning ma'rifatparvarlik falsafasi maktablarni isloh qilish, gazeta-jurnallar tashkil etish, erkinlik, mustaqillik va milliy o'z-o'zini anglash muammolarini yoritish, omma orasida ma'rifat tarqatish, ma'rifatli milliy kadrlarni tayyorlash, professional teatrni yaratish, adabiyot va san'atning yangi tur va janrlarini rivojlantirish, xalqning estetik ongini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida yuksaltirishni nazarda tutadi.

Jadidchilikning asoschisi Ismoil Gaspirali Turkistonga yangi ijtimoiy-falsafiy va badiiy estetik qarashlarning tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu haqda o'sha davrda Hamza, Tavallo, Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat singari allomalar ta'kidlab o'tganlar. I.Gaspiralining yangi «usuli jadid» maktabi, uning milliy til va adabiyotni rivojlantirish haqidagi g'oyalari Turkiston jadidlarining faoliyatiga yangicha ruh bag'ishladi.

Asr boshlarida keskin ziddiyatlar bilan bog'liq holda jadidchilik harakati kengayadi, bu davrda, bir tomonidan, diniy aqidaparastlarning ta'siri kuchayadi; ikkinchi tomonidan, yangi ma'rifat-parvarlar goh ochiq, goh yashirin tarzda «usuli jadid» maktablarini ochainilar. Bu ishda Behbudiy, Munavvar qori, S.Ayniy, Hamza, Fitrat va boshqalar tashabbuskor bo'ladir.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875—1919) ning asarlarini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, uning ezbilik va go'zallik haqidagi sikrlari xalqning tarixiy va milliy qadriyatlari negizida shakllanadi. M.Behbudiy hayotda, ongda, ursf-odatlarda yuz berayotgan yangiliklarni idrok etganda qo'llaganidek, estetik faoliyatga ham tarixiy tamoyillar asosida yondoshadi. Uning falsafiy qarashlarini belgilashda «Omolimiz yoki maqsadimiz» («Oyna» jurnali, 1913-yil, 6—7-sonlar) maqolasi muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiy milliy ursf-odat va an'ana, ideal va maqsad tushunchalariga alohida e'tibor qaratadi. Uning sikricha, ursf-odat va an'analarda turg'unlikning ta'siri kuchli. Shuning uchun nafaqat xalqning turnushida, balki uning ongi va ursf-odatlarida ham islohotlar o'tkazish zarur. Behbudiy din rahnamosi — mufti sifatida «usuli jadid» maktablarini ochishni qo'llab-quvvatlaydi, adabiy faoliyati orqali esa jadidlarning falsafiy-estetik g'oyalarini xalqqa yetkazishga harakat qiladi.

Jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishda Abdurauf Fitratning o'z o'rni bor. Uning «Maorif», «Maktab kerak», «Maorif ishlari» kabi maqolalarida nafaqat yangi maktablar ochish, balki muhim

axloqiy-estetik g'oyalari ham aks etgan. Bu sohada Munavvar qori Abdurashidxonov (1878 — 1931) ning ishlari ham ibratlidir. 1907-yilda «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi risolalarni chop ettiradi, ularda muhim estetik fikrlarni ilgari suradi. Abdulla Avloniy (1878 — 1934) ning falsafiy-estetik g'oyalari asosida e兹gulik va yovuzlik, bilim va ma'naviy kemtiklik, go'zallik va xunuklik masalalari turadi, uning axloqiy-pedagogik qarashlari estetik fikr-mulohazalar orqali aks etadi, estetik g'oyalari esa axloqiy-ma'naviy tamoyillaridan mantiqan kelib chiqadi. Ularning tajrijiy ifodasini allomaning «Turkiy Guliston yoki axloq» asarida ko'rishimiz mumkin.

Avloniy fikricha, insonning axloqiy-estetik kamoloti uning fan, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni ko'paytirishga intilishi bilan uzviy bog'langandir. Bunday an'analar Sidqiy Hondaliqiy (1884—1934) qarashlarida ham o'ziga xos ifodalanadi. Uning poema va diniy-falsafiy risolalarida oddiy inson timsoli ulug'lanadi. Uning ijodida jadidizm g'oyalari shaxsning axloqiy-estetik fazilatlarini kuylash orqali badiiy gavdalananadi. Alloma fikricha, maorif, ta'lif, shuningdek, soflik, chidamlilik va vijdonlilik inson go'zalligini belgilaydigan omillardir.

Jadidizm harakati XX ast bosqlarida Turkistonda ulkan ijtimoiy-tarixiy va ma'rifiy-falsafiy hodisa sisatida yuzaga keldi. Yangi ziyorilar nasaqt badiiy ijod bilan shug'ullandilar, shu bilan birga ular o'z ijodlarini ma'rifa-parvarlik g'oyalari bilan sug'ordilar, natijada an'anaviy badiiy tasakkur ijtimoiy hayotga tobora yaqinlasha bordi, badiiy ti piklashtirish va umumlashtirish usuli qaror topdi.

Jadidlarning axloqiy-estetik qarashlari mohiyati va mazmunini ular tashkil etgan teatr larning ma'rifiy-tarbiyaviy faoliyatisiz to'la tasavvur etish qiyin. Ma'lumki, Turkistonda professional teatr rus, tatar va ozarbayjon teatrлари ta'sirida yuzaga kelgan edi. Jadidlar esa bu ma'naviy hodisaga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lganlar. Munavvar qori fikricha, turkistonliklar tilida birorta ham sahna asari qo'yilmaganligi sababli teatrni ba'zilar yengiltak tomosha deb hisoblaydilar. Vaholanki, teatr go'zallik va xunuklikni, yaxshilik va kamchiliklarni ko'rsatib beradigan ibrat maktabidir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: S. Ahmad. «Munavvar qori». «Sharq yulduzi», 1992, 2 — 3-sonlar, 57- bet.

Munavvar qori teatrning xalqni axloqiy-estetik tarbiyalashdagi rolini yuqori qo'yadi, o'zbek professional teatrining asoschilaridan M.Behbudiyning teatr estetikasiga oid qarashlarini himoya qiladi. M.Behbudi «Teatr nimadur?» maqolasida yozishicha, teatr bir ko'zgu, unda voqealar ko'zga yaqqol tashlanib turgan obrazlar orqali gavdalanadi.

Jadid teatrlarining ma'rifiy yo'nalishi asosan ikki omilga suyanar edi. Birinchidan, teatr san'atning alohida turi bo'lib, xalqning xulq-atvorini yomon odatlardan saqlaydi, go'zallik fazilatlarining tarkib topishiga ko'maklashadi. Ikkinchidan, teatr muayyan daromad ham keltiradi, modomiki, shunday ekan, bu imkoniyatdan maorif va maktablarni rivojlantirishda foydalanish joizdir.

O'sha davrda M.Behbudiyning «Padarkush», A.Qodiriyning «Baxtsiz kuyov», A. Avloniyning «Biz va siz», Hamzaning «Zaharli hayat» kabi 20 dan ortiq dramatik asarlari vujudga keldi va xalqni axloqiy-estetik tarbiyalashda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, ma'rifatparvarlik estetikasi yangi yo'nalishga qadam qo'ydi. Biroq kommunistik maskura yakka hukmronligi sharoitida xalqning azaliy qadriyatlari bilan uzviy bog'langan ma'rifatparvarlik va jadidizm estetikasi har tomonlama rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum etildi.

## SHARQ VA YEVROPA MAMLAKATLARIDA ESTETIK QARASHLAR TARIXI

Biz bilamizki, o'tmishta estetik qarashlar, g'oyalar, fikr-mulohazalar, ta'limot va nazariyalar falsafa fani bag'rida paydo bo'ldi. Ayni paytda falsafiy ta'limotlardagi xilma-xil yo'nalishlar estetik qarashlarning ham turli ko'rinishi va yo'nalishlariga kuchli ta'sir o'tkazib keldi.

Nafosat mohiyati, estetik ong va estetik faoliyat tabiatni, san'atning voqelikka munosabati masalalarida turlicha qarashlar paydo bo'ldi.

Estetik g'oyalar dastavval qadimgi Sharq o'lkalarida, jumladan, Misr, Mesopotamiya, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon mamlakatlarida vujudga keldi.

## ANTIK DUNYO ESTETIKASI

Qadimgi Sharq mamlakatlarining xalqlari bizga meros qilib qoldirgan yozuvlar (Finikiya alisbosi, O'rxun-Enasoy bitiklari, Xorazm alisbosi, qimmatbaho ma'danlardan ishlangan san'at asarlari, Misrda sir'avn Tutanhamon maqbarasidan topilgan osoriatiqalar, Amudaryo xazinasi, Doro I tasviri solingen oltin buyumlari va boshqalar) qimmatli va bebahodir. Afsuski, mazkur boy estetik meros hozirgacha deyarli o'rganilmagan va ilmiy jihatdan sharhlab berilmagan.

Qadimgi Yunoniston ziyolilaridan Gerodot Sharq mamlakatlarining ko'plarida bo'lib, ular haqida o'z tarixiy asarlarida bayon qilgan. Qadimgi Sharq estetik qarashlarini o'rghanib, ularni umumlashtirib, nazariy jihatdan yanada boyitish xalqlar tarixida muhim ahamiyatga ega. Boshqa hayot jabhalarida bo'lganidek, estetik qarashlar tarixida ham qadimgi Sharq mamlakatlari erishgan yutuqlar zaminida Yevropa mamlakatlari badiiy madaniyati tarkib topganligi sir emas.

Qadimgi Yunon san'atkorlari va faylasuflari qadimgi Sharq badiiy madaniyati merosiga tayangan holda estetik g'oyalar va fikrmulohazalarni ishlab chiqdilar. Shu asos tartibga solingen estetik maktablar hamda oqimlarga zamin bo'lib xizmat qildi.

Qadimgi yunon estetik ta'limotining ibtidosi mashhur matematik olim va faylasuf Pifagor (eramizdan avvalgi VI—V asrlar), yunon shoiri Homer (eramizdan avvalgi XII—XI asr) «Iliada» va «Odisseya» dostonlarida, Aristofan (eramizdan avvalgi 446—385-yillar), Arxilox, Gesiod (eramizdan avvalgi XII asr) ning poemalarida, Sofokl (eramizdan avvalgi 497—406-yillar), Esxil (eramizdan avvalgi 525—456-yillar tragediyalarida, Aflatunning «Dialoglar»ida, Arrestotelnning «Poetika», «Ritorika» asarlarida insoniy go'zallik, hayot nafosati, ulug'vorlik, oljanoblik ulug'langan.

Yunon olimi Demokrit (eramizdan avvalgi 460—370-yillar) birinchi bo'lib san'atning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilgan. U poeziya, san'atga oid asarlar yozadi. U san'at tabiatga taqlid asosida shakllangan, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

Qadimgi yunon estetik ta'limoti mashhur matematik olim va faylasuf Pifagor (eramizdan avvalgi VI—V asrlar) nomi va u



Tutanhamon asori atiqalari.

yaratgan maktab bilan bog'liq. Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarning mohiyatini raqamlar va ularning o'zaro munosabatlari tashkil etadi, — deb uqtirdilar.

Ular mazkur qarashlarini nafosat olamiga ham tatbiq etib, estetik tafakkurni boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari, ya'ni «xilma-xil ovozli tomonlarning kelishuvi» umumbashariy hamohanglik (garmoniya) ekanligi haqidagi qarashlar va g'oyalar estetik tafakkur tarixida muhim o'rinni tutadi.

Qadimgi estetika tafakkurida moddiyunchnilik (materialistik) yo'nalishni Geraklit (e.a. 540—480-yillar) boshlab bergan edi. Unafosat xossalari moddiy dunyoning o'zidan kelib chiqqan, nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qaramaqarshiliklar birligini tashkil etadi deb ko'rsatadi va nafosatning nisbiyligi g'oyasini ilgari suradi.

Demokrit (e.a. 460—370-yillar) go'zallikni hamohanglikda, bo'laklarning to'g'ri mutanosibligida, tomonlar mosligi (simmetriya)da deb bildi va uni me'yor tushunchasi bilan bog'laydi, usan'at insonning dastlabki ehtiyojlari qondirilgandagina vujudga keladi, deb uqtirdi. Demokrit san'atning mohiyatini voqelikka taqlid qilish (mimesis)da ko'rdi.

Suqrot (e.a. 470—399-yillar) ta'limotida go'zallik koinotdan inson turmushiga, uning ichki kechinmalariga ko'chirilgan bo'lib, go'zallik va ezzulik birligi yoki hozirgi ta'bir bilan aytganda, estetika va axloq birligi yetakchi g'oya sifatida bayon qilinadi. Suqrot estetik tasavvurlarning nisbiyligi g'oyasini ilgari surib, estetik va mansaftli belgilarni o'rtasidagi yaqin aloqadorlik mavjudligini ko'rsatib berdi.

Aflatun (e.a. 427—347-yillar) qarashlarida estetika ham go'zallik falsafasi, ham san'at falsafasi sifatida ta'riflanadi. Aflatun fikricha,

nafosat manbaini avvalo g'oyalar tashkil etadi. His-tuyg'u beradi-gan barcha narsalarni abadiy, o'zgarmas g'oya «yoritib tur-gan»dagina go'zallik kashf etiladi. Uning fikricha, go'zallik o'ta hissiyotli bo'lgani tufayli uning mohiyatini his-tuyg'u bilan emas, balki aql-idrok bilan anglash mumkin.

Qadim Yunon ilk afromalariga asoslangan Homer eposlari san'atning, adabiyotning tub ma'nosini, obrazli tafakkurning buyuk vazifasini, badiiy so'zning qudrati va o'lmasligini eslatib, ta'kidlab, isbotlab kelmoqda. U davrlarda bu buyuk asarlar axloq, go'zallik va tarbiya muassasalarining ham, dorilfununlarda falsafa va tarix darsliklarining ham o'mini bosgan va qadim dunyo qomusi deb atalgan.

Bu asarlarning boqiyligi shundaki, u xalq afromalari va tarixiy voqealarga asoslangan, dostonlarda qahramonlik va xiyonat, muhabbat va nafrat, ezbilik va yovuzlik, sadoqat va intiqom, hijron, vafo, taqdir, vijdon, gunoh kabi azaliy insoniy muammolar o'zining yuksak badiiy-epik ifodasini topgan.

Bu dostonlarning umrboqiyligini ta'min etgan yana bir sabab, axloqiy va estetik idealning mustahkamligi, hayotbaxshligi, ezbilik va halollikka, jahoni yug'unlik va mangu go'zallikka intilishdir.

«Iliada» va «Odisseya» dostonlari kitobxonni hozirgacha hayratga soladigan minglab ruhiy kashfiyotlar, inson vujudini titratuvchi tasvirlar, kulfat va sojilar, muhabbat va oddiy insoniy quvonchlar asrlardan-asarlarga o'tib keladi.

Chernishevskiy aytganidek, bu asarlar «kishilarni kurashga o'rgatadi, ozodlikka intiladigan qilib tarbiyalaydi, xalqqa sadoqat va unga xizmat qilish istagini yaratadi».

Hegelning aytishicha, Homerning obrazlar dunyosida qahramonlik holati hamisha ustun, bu asarlarda qahramonlar idealga yaqin turadi. Shu bilan birga, xususiy va umumiy xususiyatlarning birligi tufayli ular hamma vaqt hayotiydir.

V.G.Belinskiyning aytishicha, insoniyat hozirgi ma'naviy balog'ati uchun Homerdan, «Iliada»dagi o'sha tong musafoligidan qarzdordir. «Iliada» asarini o'zbek tiliga H. Mirmuhamedov tarjima qilgan.

L. N. Tolstoy Homer eposlarini originalda o'qish uchun keksa yoshida atay qadim yunon tilini o'rgandi. Homer poemalari, Horatsiy, Ovidiy kitoblari A. S. Pushkin, N. V. Gogol, Oybek va Usmon Nosirning sevib o'qiydigan asarlari edi.

Estetik qarashlar Platonning «Dialoglar», «Ziyofat», «Davalat» traktati kabi asarlarida, Aristotelning (eramizdan avvalgi 384—322-yillar) «Poetika», «Ritorika» asarlarida estetik qarashlar yaqqol o‘z aksini topgan. Bu qarashlar Qadimgi dunyo estetik tafakkuri cho‘qqisidir.

Arastu (miloddan avvalgi IV asr) barcha zamonlarning olimlari uchun ustoz hisoblangan buyuk yunon faylasuslaridan biri. Miloddan avvalgi 384-yilda Egey dengizi bo‘yidagi Stagir shahrida tug‘iladi. Arastu go‘zallik yoki ajiblik haqidagi sikrlaridan aqliy idrok va hissiy idrok uyg‘unligiga e’tibor beradi. Arastu fikricha, har qanday sezgi, istak-mayl yoki o‘y-xayol biror narsa, hodisaga intilar ekan, o‘sha narsadan qandaydir rohat-farog‘at oladi, shu ma’noda o‘sha narsa ajib yoki go‘zal bo‘ladi. Fojiali voqeа-hodisalar zaminida Arastu vahima, dahshat, rahm-shafqat, hamdardlik orqali inson ruhini poklantirish («katarsis») ta’limotini ilgari suradi. Arastu fikricha, hayot voqeasini ko‘rib, tinglab yoki o‘qib dahshatga tushish va qayg‘urishdan estetik, hissiy lazzat olinadi, undan olisdagi inson taqdiri, qismati uchun qo‘rquvga tushish, qayg‘urish hislari insonni poklaydi, olijanob-lashtiradi.

Qadimgi Rim estetikasida Lukresiy Karnning (eramizdan avvalgi 99—55-yillar) «Buyumlar tabiatи to‘g‘risida»gi asari alohida o‘rin tutadi. Bu olimlarning g‘oyalari faqat qadimgi san va san’atgagina emas, balki undan keyingi davrlardagi san’at va estetik qarashlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Ba‘zan Sharq estetik tafakkuri Eron, Xitoy, Hindiston mamlakatlari badiiy madaniyati va san’ati bilan bog‘liq. Sharq Uyg‘onish davri, xususan, Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri ruhi bilan chambarchas bog‘liqlikda taraqqiy etdi.

### QADIMGI XITOYDA ESTETIK TARAQQIYOT

Xitoyda estetik tushunchalar, qarashlar, nazariyalar ma’lum ilm sifatida juda qadim zamonlardayoq vujudga kelgan va o‘z taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu qarashlarga ko‘ra Osmon va Yer (In va Yan) ruhlari bir-biriga intiladi va shu bilan olam tartibga tushadi.

Buni biz «Shi Szin» («Qo'shiqlar kitobi», «I Szin» («O'z-garishlar kitobi»), «Shu Szin» («Tarix kitobi»), «In su szin» («Nur va zulmat garmoniyasi haqida kitob»), «Dio de szin» («Osmon va Yer kitobi») kabi asarlarda ko'ramiz. Unda insonlarning ijtimoiy hayoti va xulq-atvoridagi real hodisalarning Osmon bilan aloqadorligi, o'zgaruvchanligi haqida fikr yuritiladi.

Bundan 2500 yil ilgari yashab o'tgan Xitoy donishmandi Konfutsiy qarashlarida ham insonlarning taqdiri Osmonga va Yerdagi tabiatga bog'liq ekanligi aytildi.

Konfutsiy ta'limoti qadimgi an'analarga va ajdodlarga hurmat bilan qarashga asoslangan, zero uning qat'iy ishonchiga ko'ra, qadimgi hukmdorlar dono, amaldorlar beg'araz va ta'masiz bo'lib, xalq himmat va muruvvatli edi. Bu haqda «Qadimgi xitoy falsafasi» kitobida musassal yozilgan.

U 6 ta yaxshi fazilatga ega bo'lган komil inson, olijanob arbob (szyun szi) timsolini ko'rasatadi.

Bu fazilatlar: insonparvarlik(chi), burch(i), axloq-odob me'yorlari(li), bilim(chji), sodiqlik(sin), farzandlik hurmati(syao)dan iboratdir.

Konfutsiy davlatni boshqarishni bunday tushuntiradi.

«Buyuk davlatni boshqarishda:

- siyosiy amallarga o'ta jiddiy e'tibor bergin;
- aytgan gaplarining vijdowan bajarilmog'i lozim;
- asosiy boyliklarni tejab-tergab sarf qilgin;
- odamlarni yaxshi ko'rgin;
- xalqdan zamonga qarab foydalan».

Konfutsiy: «Xalqqa rahmdillik bilan muomala qilinglar, shunda odamlar g'ayrat bilan mehnat qiladilar», «Agar o'zing to'g'ri bo'lsang, buyruqsiz ham barcha narsani bajaradilar. Agar o'zing to'g'ri bo'lmasang, hatto buyruq berilganda ham senga itoat qilmaydilar», — deb yozadi. Konfutsiy ta'limotlari hozirgi kunda ham Xitoy xalqining ma'naviy madaniyati xazinasidan mustahkam o'rın olgan bo'lib, inson xulqini go'zallashtirishga xizmat qilmoqda. Qadimgi Xitoy donishmandi Yan Chju falsafasi konfutsiy chilikdan farqlanib, Epikur ta'limotiga yaqin turadi. Ayni vaqtida Yan Chju falsafasi tasavvusga ham yaqindir. Uning fikricha, insonlar o'n ming yil yashasa ham, agar odamiy fazilatlari bo'lmasa, befoydadir.

## HINDISTONDA ESTETIK QARASHLAR

Hindiston Sharq mamlakatlari orasida eng ko‘hna va qadimiy madaniyat maskanlaridan biridir.

Hindiston mutafakkirlarining estetik qarashlari jamiyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Hind xalqi badiiy ijodi taraqqiyoti alohida ta’limotlar asosida rivojlangan. Hind poetikasi alankara, ras, dxvani haqidagi ta’limotlar yo‘lidan borgan va taraqqiyot bosqichlarini bosib o’tgan.

Alankara ta’limoti — poetik nutqini tovush va ma’nodor tasvir vositalari bilan bezash uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

Ras ta’limoti — san’at va adabiyotning insondagi muayyan ruhiy kechinmalarini, kayfiyat va holatlarini tasvirlash va qo‘z-g‘atish qobiliyatini ochib beradi.

Dxvani haqidagi ta’limot — poeziyaning kishilarda qo’shimcha obrazlarni paydo qiluvchi ajoyib qobiliyatini tahlil qilishga asoslanadi.

Dxvani uslubi hind poetikasida haqli ravishda badiiy mahoratning oliy shakli hisoblanadi.

«Alankara, ras, dxvani to‘g‘risidagi ta’limot hind poetikasi tayangan uch ustundir. Uni poetik ijodning har qanday shakliga tatbiq etsa bo‘ladi», deb yozgan edi rus akademigi A. P. Barannikov.

Hindiston eng qadimiy madaniyat markazlaridan biridir. Unda miloddan uch ming yil avval Yerni sun’iy sug‘orish taraqqiyot etgan, anhorlar qazilgan, to‘qimachilik, zargarlik rivojlangan, pishiq g‘ishtdan ikki va uch qavatli binolar qurilgan. Milodning birinchi asrlaridayoq tib, riyoziyot, ilmi nujum, kimyo, hikmat kabi fanlar rivojlangan, turli janrlarda badiiy adabiyotlar vujudga kelgan. «Rigveda», «Ramayana», «Mahobxorat», «Dashakumacharita», «Xitopadesha», «Shakuntala», «Malyavikava Agnimitra», «Mudarakshasa» kabi mashhur ma’lum asarlar shular jumlasidandir. Bular orasida dunyoga eng ko‘p tarqalgan va o‘zining hikmatli fikrlari bilan ajralib turadigani «Kalila va Dimna»dir. Bu asardagi hikmatlar hayvonlar tilidan olib borilsa-da, ijtimoiy hayot, odamlar orasidagi munosabatlar ko‘zda tutiladi.

Asarda vogelikdagi salbiy hodisalarga qarshi o‘t ochiladi, adolat, odamgarchilik tarannum etiladi. Unda o‘sha jamiyatdagi

barcha nuqsonlar, xiyonat va jinoyat, pastkashlik, ig'vo, fisq-fasod, zulm-dahshat fosh qilinadi. «Kalila va Dimna» asarida «Shohlar saroyiga yaqin odamlarning ishi ig'vo, hasad, adovat, chaqimchilik va bir-birini yomonlashdan iboratdir. Kecha-kunduz ular bir-birlarining payiga tushib, bir-birlarini g'iybat qiladilar. Kim iste'dodli bo'lsa, uning haqida shuncha ko'p mish-mishlar to'qiydilar», — deb yozilgan edi. «Kalila va Dimna» asari boshidan-oyoq g'oyat qiziqarli va ibratli, shaklan juda boy, badiiy, mazmunan hayratli hikmatlar, hikoyalari, masallar, naqlar, rivoyatlar, asorizmlar bilan to'la bebahoh xazinadir. Har biri o'zicha mustaqil badiiy lavhalardan iborat, shu bilan birga, asosiy qismi ma'lum jihatlardan bir umumi syujetga ega bo'lgan yaxlit asardir. Unda, avvalo, hind xalqining nafis didi, boy hamda ko'p qirrali estetik olami, kuchli zakovat dahosi o'z ifodasini topgandir.

Bu asar shu xalqning uzoq moziydayoq insoniyatga baxsh etgan va asrlar davomida unga xizmat qilib kelayotgan ajoyib tortiqlardandir. «Kalila va Dimna» dunyoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga birinchi marta VIII asrdayoq tarjima qilingan. Ikkinci marta XIX asrda xorazmlik Mulla Muhammad Niyozi tomonidan tarjima qilingan, 1966-yilda bu asar uchinchi marta tarjima qilindi.

Asarda «So'z tajribaga asoslanmagan bo'lsa, shakl mazmunsiz, davlat adolatsiz, do'stlik sadoqatsiz, boylik saxovatsiz, ilm hikmatsiz, hayot osoyishtaliksiz bo'lsa, ular besoydadir. Saxovatli va adolatli shohning vaziri yomon niyatli, raiyatga zulmkor bo'lsa, fuqaro shoh adolatidan mahrum etiladi, marhamat eshlari ular yuziga bekiladi», deb yoziladi. Shuni ta'kidlash lozimki, hind xalqi bilan boshqa Sharq xalqlari, shu jumladan, O'rta Osiyo xalqlari orasida qadim zamonlardan buyon juda yaqin madaniy aloqa bo'lgan. Ular bir-birlaridan o'rganganlar, bir-birlarining an'analarini ijobiy tarzda o'zlashtirganlar va davom ettirganlar.

«Mahobxorat» — («Bxarat avlodlari jangnomasi») 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Asar miloddan avvalgi X—VIII asrlarda yoki uch ming yillar ilgari yozilgan. Asarda afsonaviy shoh Bxaratning avlodlaridan ikki toifasi — kavlavlar va nandavatlarning o'zaro adovatlari va urushlari tarixi talqin etiladi. Bunda bahodirlarning ko'rsatgan ajoyib qahramonliklari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, shuningdek, qadimiy hind

xalqlarining o'ziga xos urf-odatlari tasvirlanadi. Bu jangnomalar orqali qadimiy xalqlarning orzu-umidlari, intilishlarini bilib olamiz. Hindiston san'at mo'jizalariga boy mamlakatdir.

Agra shahridagi «Tojmahal» hayratomuzligi bilan estetika tarixidagi mo'jizalardan biri hisoblanadi. Ijodkor mehnati mahsuli va behad yuksak nasosat obidasi bo'lgan, oq marmarlariga 2 million rang-barang gul o'yib solingan «Tojmahal»ni bunyod etishda O'rta osiyolik me'mor va naqqoshlar o'zlarining katta hissalarini qo'shganlar.

O'zbekistonda tug'ilib, Hindistonga borib, yashab qolgan His-rav Dehlaviy va Abduqodir Bedillar hind xalqining an'analaridan hayratlanib, o'lmas badiiy asarlar yaratganlar. J. Neruning Bobur, Akbarshohlarga bergen baholarida hind xalqining badiiy an'analaridan ilhomlanib o'lmas asarlar yaratgan yana bir qator allomalarni ko'rish mumkin.

## YEVROPA UYG'ONISH DAVRI ESTETIK TARAQQIYOTI

Yevropa Uyg'onish davrida estetik tafakkur kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlарining bevosa ta'siri ostida rivojlana boshladi. Taraqqiy ctgan burjua insonparvarlik g'oyalari va san'at buyuk muvaffaqiyatlarga erishib borgan sari estetik qarashlar va g'oyalar ham shu qadar tez sur'atlar bilan rivojlanib bordi.

Yevropa Uyg'onish davri estetikasining muhim xususiyati shundaki, uning mohiyati va mazmuni yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan va u badiiy amaliyat bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi.

Yevropa Uyg'onish davrida yashagan buyuk ijodkorlar Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, A. Dyurer, M. Servantes, V. Shekspir va boshqalar estetik tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ayniqsa, buyuk musavvir, iste'dodli muhandis, atoqli tabiatshunos olim Leonardo da Vinchi o'zining estetik qarashlarida o'ziga xos xususiyatlarini e'tiboridan qochirmaslikka da'vat etdi. San'atning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — narsalarning o'ziga xos sifatlarini, ularning go'zalligini izlab topa bilish va ommalashtirishdir, deb ta'kidlaydi olim. Leonardo da Vinchi san'atga voqelikning in'ikosi sifatida qarab, bu in'ikos etish



**Mikelanjelo. Sikstin kopellasidagi devoriy rasmdan lava.**

shunchaki bir urinish emas, balki qayta takrorlash jarayoni ekanligini uqtirib o'tadi.

Yevropa Uyg'onish davrining aks-sadosi tarzida klassitsizm estetikasi vujudga keldi. N. Bualoning «Nazm san'ati» risolasida klassitsizm estetikasining asosiy belgilari ifodalangan. Bu estetikaga xos aqida-qoidalar mohiyati shundan iborat ediki, ular zo'ravonlik xususiyatiga ega bo'lib, klassitsizm ishlab chiqqan aqida qoidalarga har qanday ijodkor bo'ysunishi shart bo'lgan, erkin ijodkor shaxsi «shaxsdan yuqori», «davlat ibtidosi» bo'lgan

mavhum narsaga bo'ysundirilgan edi. Ya'ni, estetik me'yor bilan uning burch vazifalari bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan edi.

G'ayritarixiy va tabaqaviy cheklanganlik ruhi bilan sug'orilgan klassitsizm estetikasi badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarni qoidalar bilan belgilab qo'yilgan qolipdan chiqmaslikka, oldindan tanlab qo'yilgan va mavhumlashtirilgan mavzu chegarasidan o'tmaslikka mahkum etib qo'ydi va bu bilan estetik tafakkur tarixida ma'lum darajada salbiy ahamiyat kasb etdi. Shunga qaramay, klassitsizm san'atkorlari Jan Rasin, Per Kornel va boshqalar dramaturgiyada mumtoz asarlar yaratdilar.

## OLMONIYA MA'RIFATPARVARLIGI ESTETIKASI

*XIX* asrning boshida ijtimoiy va aniq fanlarning taraqqiyoti estetikani yanada yuksak bosqichga ko'tarishga yordam beradi.

Ayniqsa nemis faylasufi G.F. Hegelning asarlari estetika, san'atshunoslik va adabiyotshunoslik rivoji uchun xizmat qildi. Uning «Estetikadan ma'ruzalar»ida estetika nazariyasining juda ko'p muhim masalalari chuqur va keng yoritib berildi.

Hegel estetikasining ulug' fazilatlaridan biri uning dunyo xalqlari va hamma davrlar san'atining materiallarini qamrab olganligidir. Hegelning tushunishicha, jahon san'ati uch katta taraqqiyot bosqichini o'tdi.

1. Sharq xalqlari san'ati bilan bog'liq bo'lib, Hegel uni san'atning «simvolik shakli» deb ataydi.

2. Qadim dunyo san'ati birinchi navbatda Yunonistonning san'atidir (klassik shakli).

3. San'atning eng oliy shakli — romantik ruhdagi san'atdir.

Hegel ta'limotida san'at va adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari Hofiz, Firdavsiy, Shekspir, Homer, Shiller ijodi asosida izchil ravishda aniqlandi. Hegel falsafasi va estetikasi o'zidan keyingi hamma estetik qarashlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Immanuil Kant (1724—1804) ning «Sof aqlning tanqidi» (1778), «Amaliy aqlning tanqidi» (1788), «Muhokama qobiliyatining tanqidi» (1790) asarlarida bilihning tanqidiy nazariyasi, etika, estetika va tabiatning maqsadga muvosifligi haqidagi ta'limot izchil suratda bayon qilinadi.

### **YANGI DAVR ESTETIKASIDAGI ASOSIY OQIM VA YO'NALISHLAR**

Yevropa ma'rifatparvarlari estetikasi deganda XVII asr ingliz olimi O. Berk estetik qarashlarini misol keltirish mumkin. Uning estetik qarashlarida ulug'verlikning go'zallik singari obyektga bog'liqligi ta'kidlanadi. Uning fikricha, ulug'verlik tuyg'usining manbai dahshat yoki shunga o'xhash tuyg'ular qo'zg'atadigan barcha narsalar, voqeа-hodisalardir. Berk ulug'verlikning inson ruhiga ta'sir kuchi haqida gapirib, uni insonga his-tuyg'uni ta'sir o'tkazish shakllari ichida eng kuchlisi bo'lgan qoniqmaslik tuyg'usi bilan bog'laydi. Uning fikricha, go'zallik qoniqish asosidagi estetik lazzat baxsh etsa, ulug'verlik zahmat va qoniqmaslik tuyg'usini vujudga keltiradi.

David Yum Britaniya burjua yangi davr falsafasining so'nggi vakili edi. Uning ta'kidlashicha, biz tashqi olamning mavjudligini sezgilarimizning manbai deb isbotlay olmaymiz. Yum barcha hissiy qabullashni 2 turga: taassurotlar va g'oyalarga bo'ladi. Taassurotlar birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Birlamchilari — bu tashqi tajriba

to'g'risidagi taassurotlar, ikkilamchilari esa ichki tajriba haqidagi taassurotlardir.

Agar birinchisiga sezgilar taalluqli bo'lsa, ikkinchisiga xohish, chtiros va boshqalar taalluqlidir. Uning fikricha, go'zallik narsalar sifatini bildirmay inson ruhiyati amal qiladi deb uqtiradi.

Estetik tafakkur tarixida Deni Didro haqida ham to'xtalish lozim (1713—1784). Uning ta'kidlashicha, sezish — bu yashash demakdir. Sezish asablar orqali yuzaga keladi. Jon harakatchan ko'lamga ega. U quvnoq, g'amgin, jahldor, nafis, ikki yuzli, shahvatparast bo'lmasin, u tanasiz hech narsa emas.

Immanuil Kant (1724—1984) g'arb estetikasining ko'zga ko'ringan namoyandasi Kant ta'limoti asosan 3 qismga bo'linadi:

1. Nazariy aqlning tanqidi.

2. Amaliy aqlning tanqidi yoki ma'naviyat haqidagi ta'limot.

3. Estetik mulohazaning tanqidi.

Kant ta'limoti axloqqa asoslangan. XVIII asr nemis ma'rifat-chilining eng yirik vakillaridan biri Fridrix Shiller (1759—1805) estetik tarbiya masalasiga to'xlanib, shunday deydi: «Insonni tarbiyalash — san'atning vazifasi. San'atkori — asr farzandi. Odamlar tarbiyaga muhtoj. San'atkori uni go'zallik yordamida tarbiyalashi mumkin va zarur». Uning fikricha, go'zallik insonning tabiatiga mos keladi. Inson kabi go'zallik ham ikki tomonlama xarakterga ega.

Shiller insonga xos ikki qarama-qarshi intilish haqida gapiradi. Birinchisi, fizik tabiatga xos bo'lgan intilish, ikkinchisi, ruhiyat, ya'ni axloqiy va aqliy xatti-harakat. Lekin shu bilan birga, alohida o'rta kaysiyat ham mavjudki, unda ruh jismoniy holatni ham, axloqiy holatni ham his qilmaydi. Lekin har ikki sohada ham faoliyat ko'rsatadi. Bu holatni Shiller estetik holat deb ataydi.

Bundan go'zallikning ikki tomonlama xarakteri kelib chiqadi. U ham moddiy, ham ruhiy, ham obyektiv, ham subyektivdir. Shillerning fikricha, yaxshi did — shaxs fazilatining bir tomoni. Go'zallik faoliyat uchun sharoit yaratadi. Go'zallik bizning ikkinchi ijodkorimiz» deb ataydi.

Fridrix Vilgelm Yozef Shelling (1775—1854) Leonberg shahrida ruhoniy oilasida tug'ilgan. Uning «san'at falsafasi» «Transsensual idealizm tizimi»ning yakuniy qismi bo'lib, san'atga u alohida e'tibor beradi va unga qadriyat sifatida qaraydi.

Uning fikricha, san'at falsafaning hujjatidir. San'at uning birdan-bir azaliy va haqiqiy quroldir. San'at azaldan mavjud bo'lgan birdan-bir bashoratdir. Shuningdek, san'at bu mutlaq (xudoni) bilishning oliy shaklidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda san'at fanning muayyan ko'rinishidir.

Georg Vilgelm Fridrix Gegel Shtutgart shahrida zodagon oilasida 1770-yilda dunyoga kelgan. U barcha estetik muammolar ustida to'xtalib, ularni san'at asarlari asosida mushohada etadi. Uning fikricha, ulug'vorlikning eng yorqin ifodasi — bu diniy va ilohiy san'atdir.

Gegel ta'limotining oqilligi qo'rquv zaminida yuksak histuyg'ular o'yg'otish va bu g'oya ulug'vorlikka yaqin bo'lgan yuksaklik va qahramonlik tushunchalarning chuqur tahlil qilishda ifodalanadi.

Yevropa estetikasida XIX—XX asrlarga kelib bir qator noratsional yo'nalishlar qaror topdi. Chunki bu davr estetikasi g'oyatda murakkab turli-tuman fikrlarga boyidi. Bu davrga kelib ilm-fan sohasida katta tarixiy voqealar barobarida insoniy munosabatlar, shuningdek, borliqqa munosabat, o'zlikni anglash va ichki imkoniyatlarni to'laroq o'rganish masalalarini chuqurroq anglash imkoni tug'ildi.

1789-yilda Fransiyada bo'lib o'tgan inqilob insoniyat tarixidagi muhim davr voqeasi, yangi eraning boshlanishi edi. Gegel bu inqilobga quyidagicha ta'rif beradi: «Bu qudratli quyosh chiqishidir. Barcha fikrlovchi mahluqotlar yangi davrning boshlanishini quvonch bilan kutib oldilar».

Gegel tomonidan ishlab chiqilgan ta'limot XIX asr estetik tasakkur rivojida alohida ahamiyatga ega edi. Ammo bu ta'limot sovet davriga kelib mutlaqlashtirildi, uning g'oyalari barcha fanlarning metodologik asosini tashkil etadi, deb talqin qilindi. Sotsializm dunyosida ro'y berayotgan voqealar va hodisalarini tushuntirishda sinsiylik, maskuraviylik, g'oyaviylik bosh mezon qilib olindi.

XIX—XX asrlar g'arb olimlari marksistik estetikaga o'z munosabatlarini bildirib, bu sohadagi mavjud ta'limotlar yangi davrda ro'y berayotgan o'zgarishlarni izohlashga ojizligini ko'rsatdi. Shu tariqa bir qator noan'anaviy yo'nalishdagi bir qator oqimlar yuzaga kela boshladi. Daniyalik S. K'erkegor, nemis faylasufi F.

Nisshe, O. Shpengler va Shopengauerlar «hayot falsafasi» oqimi tarasdorlari edilar. Uning asoschilari Fridrix Nisshe va Vilgelm Diltey hisoblanadi. Shuningdek, neokantchilik, freydchilik, ekzistensiallik, falsafiy germeneftika va boshqa yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

«Kantga qaytish!» shiori bilan chiqqan faylasuf Otto Libman (1890—1914) hisoblanadi. Shuningdek, G. Gelmgols (1821—1894), Fridrix Albert Lange (1828—1875), German Kogen (1842—1918) larning falsafiy ta’limotlari Gegel estetikasiga qarama-qarshi bo‘lgan Neokantchilik yo‘nalishida faoliyat olib boradilar.

### ***Sinov savollari***

1. O‘rta Osiyoda estetik qarashlarning xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat?
  2. Alisher Navoiyning badiiy estetik qarashlari haqida so‘zlab bering.
  3. Amir Temur davridagi estetik taraqqiyot haqida nimalarni bilih oldingiz?
  4. Sharq xalqlari estetik tafakkuri haqida nimalarni bilasiz?
  5. Antik dunyo estetik qarashlari nimalarda ifodalanadi?
  6. Xitoyda estetik qarashlar rivoji haqida nimalarni bilasiz?
  7. Konfutsiy ta’limotining asosi nimada?
  8. Yan Chju ta’limoti haqida nimani bilasiz?
  9. Hind xalq estetik tafakkuri nimalarda ifodalangan?
  10. Olmon klassik estetikasining o‘ziga xosligi nimada?
  11. Hegel ta’limotida estetik qarashlar qanday ifodalangan?
-

### **III BOB. ESTETIK ONG VA ESTETIK FAOLIYAT**

#### **ESTETIK ONG**

*«Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan  
turib biz ko'zlagan oliy maqsad --  
ozod va obod jamiyatni harpo etib bo'lmaydi».*  
*Islom Karimov*

Estetik ong va estetik faoliyat o'zaro bog'liq bo'lib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi, ya'ni estetik faoliyat ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirishdir. Agar muayyan talab-echtiyojlar bo'lmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmaydi.

Estetik talab-echtiyojlar insonni faoliyatga undaydi.

Faoliyat esa yangi talab va chtiyojlarni keltirib chiqaradi. Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini — mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Estetik faoliyat san'atda eng sof holda ko'rindi. Chunki mehnat va san'at go'zallik qonunlariga rioya qilgan holda yaratiladi.

Olimlarning salohiyati, ijodiy mehnati natijalari va samaralarini ularning estetik madaniyati darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Faraz — estetik his-tuyg'u bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Fahm-farosat — bu haqiqatni bevosita mushohada etishdir.

Fahm-farosatsiz ijodiy faoliyat bo'lishi mumkin emas. Ilmiy ijodning estetik mazmuni quvonch, shodlik hissini qondirishdagina emas, balki ilmiy izlanishlar natijalari va ularga erishish usullarida ham ifodalananadi. Bular estetik his-tuyg'u bilan bevosita aloqada va bog'liqlikda amalga oshadi.

Insonning har qanday faoliyatida estetik manba manbai mavjud bo'lib, u o'z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma'naviyatga, ya'ni shodlik, sevinch, orzu-umid, erk-ozodlik tuyg'ulariga suyanib yashaydi, voqeа-hodisalarни ijtimoiy baholashga harakat qiladi.

Inson o‘zining bu xususiyatini yo‘qotib qo‘ysa, uning faoliyati mohiyat tabiatidan mahrum bo‘lib qoladi.

Inson amaliy faoliyati jarayonida vogelikka bo‘lgan munosabatining amaliy-nazariy, axloqiy va estetik shakllari vujudga keladi. Insonning vogelikka bo‘lgan munosabati xilma-xil, ko‘p qiyofali va rang-barangdir. Ular, bir tomondan, voqe-a-hodisalarining o‘zi ko‘p qiyofaliligi, serqirraliligi, ko‘p sisatliligidan, ikkinchi tomongan esa, faoliyat jarayonida tug‘iladigan inson ehtiyojlari va mansaftalaridan kelib chiqadi.

Estetik ong (go‘zallik, xunuklik haqidagi tasavvurlar) hamda san’atning vogelikka munosabati to‘g‘risidagi masala estetika va san’atshunoslikning tub masalalaridan biri bo‘lib qoldi. Bu masalani faylasuflar, san’at nazariyotchilar, rassomlar turlichal hal qilib kelganlar.

Estetik ong kishining tabiat va jamiyat bilan o‘zaro aloqasi jarayonida, mehnat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Masalan, dastlabki davrda stixiyali, keyin ongli ravishda ehtiyojni qondirish uchun, san’atkorona ish bajarish orqali rivojlangan. Hayotning o‘zi go‘zallik manbaidir. Ong esa uni aks ettiradi.

Estetik ong hayotning hamma sohalarini — tabiatni ham, kishining olamni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatini ham qamrab oladi.

Estetik ong bir necha turlarga bo‘linadi:

1. Estetik his-tuyg‘u.
2. Estetik did.
3. Estetik baho.
4. Estetik ideal yoki estetik orzu.
5. Estetik nazariya (konsepsiylar va boshqalar).

Insonning olamni estetik o‘zlashtirishi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan uch jihatdan iboratdir:

1. Obyektiv vogelikdagi estetikklik.
2. Subyektiv estetikklik (estetik ong).
3. San’at (subyektiv va obyektiv estetikklikning o‘ziga xos birligi).

Estetika bu jihatlarning mohiyatini, qonuniyatlarini va muayyan ko‘rinishlarini ularning dialektik birligida o‘rganadi.

## ESTETIK HIS-TUYG'U

«Inson – butun bir olam,  
faqat undagi asosiy tuyg'u –  
olijanoblik bo'lsa bas».

F. M. Dostoyevskiy

Estetik his-tuyg'u — insonning vogelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga nisbatan munosabatdir. Bu tuyg'u bizni o'rab turgan voqelikni estetik jihatdan his etish qobiliyatidir, uning go'zalligini, uyg'unligini sezishdir.

Estetik tuyg'u ijtimoiy va tabiat hodisalarining go'zalligidan, inson go'zallidan, inson mehnati, ijtimoiy faoliyat va san'at go'zallidan zavq olishda namoyon bo'ladi.

Estetik his-tuyg'u — bu chuqur ma'naviy tuyg'udir. O'z ishini vijdongan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, hayotidan mammunlik tuyg'usi kuchli bo'ladi, shunday tuyg'u bilan yashash insonga estetik zavq beradi.

Estetik his-tuyg'u haqida Belinskiy shunday deydi: «Ularda (bolalarda) estetik tuyg'uni ham tarbiyalang. Bu barcha go'zallik va oljanoblik manbaidir».

Umar Xayyom estetik tuyg'u haqida shunday deydi: «Asosiy tuyg'ular beshta: eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, his etish va bu, badandagi jonga o'xshagan barcha besh tuyg'uning o'rni boshdadir. Shuning uchun ular toj yasadilar va uni boshga kiygizdilar, sirg'a yasab qulorra taqdilar, bilakuzuk yasab qo'lga taqdilar, uzuk yasadilar va barmoqqa taqdilar va dedilarki, qilich qo'lning fazilati va kuchi bilan harakat qiladi. Shuning uchun bilakuzuk sharasi zarur, qalam bo'lsa, barmoqning kuchi va iste'dodi bilan harakat qiladi».

Estetik his-tuyg'ular murakkab ijtimoiy hodisa sifatida nafosat, hamohanglik, ohang, shakllar, uyg'unlik, moslik kabi tushunchalar bilan birga shodlik, hayratlanish, ajablanish, rohatlanish, lazzatlanish, ehtirom, zavq-shavq, nafrat kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asarida his-tuyg'u a'zolarining ahamiyati to'g'risida: «Qachonki, sezgilaring ishdan chiqib eshitmoq, ko'rmoq, mazani bilmoq, qattiq va yumshoqni ushlab bilish

lazzatidan mahrum bo'lsang, bunday yashashdan o'zing ham shod bo'la olmaysan, boshqalarni ham shod qila olmaysan, boshqalarni bo'yniga tushgan og'ir yuk bo'lasan, bu xilda yashashdan o'lim yaxshiroqdir», — deyilgan.

Ulug' sharq mutasakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy tuyg'u a'zolari haqida shunday deydi: «Ko'z ko'rishiga kelsak, mahluqotdag'i hikmat izlarini kuzatib, undan xulosa chiqarish va yaratilgan narsalarning yaratuvchisi haqida fikrga kelish uchun xizmat qiladi. Eshitishga kelsak, quloq — Tangri so'zi va uning «qilgin» va «qilmagin» degan amr va qaytariqlarini eshitish uchundir. So'ngra quloq bunga qattiq bo'ysunib, Xudoga yaqinlashish va chinakam eminlikka yetishish uchun yaratilgan. Bu narsa donolardan ham, avomlardan ham yashirin emas».

Kaykovus «Qobusnomá» asarida: «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi, chunki boshqa jonivorlardan odam o'n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir: beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo'ladi va beshi ichida yashiringandir».

1. Bir narsani yod qilmoq.
2. Hamisha esda saqlamoq.
3. Xayol qilish.
4. Farq qila bilish.
5. Nutq.

Beshtasi odam tanasining sezgi a'zolari bilan bog'liq:

1. Eshitish.
2. Ko'rish.
3. Hid bilish.
4. Ta'm bilish.
5. Sezish.

«Bular boshqa jonivorlarda ham bor, ammo odamdagidek emas. Shunga ko'ra, odamzod boshqa jonivorlar ustidan hukmronlik qiluvechi podshodir», — deb ta'kidlanadi.

Estetik his-tuyg'ular bilan axloqiy va aqliy bilish his-tuyg'ularini tarbiyalash jarayoni yaxlit bo'lib, yakka insonning, ayniqsa, bolalarning axloqiy tarbiyasi va aqliy ravnaqi ularning estetik his-tuyg'ularini rivojlantirish bilan qo'shib olib boriladi. Shu asosda estetik did tarbiyalanadi.

## ESTETIK DID

Estetik did murakkab va ko‘p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma’naviy ijodkorligi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik did voqeahodisalarning estetik sisatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg‘usi orqali ifoda topadi. Estetik did zaminida go‘zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg‘araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg‘ular bilan ish ko‘radi, ya’ni hayot go‘zalliklari va voqealarni his eta bilish, voqeali to‘qna-shuvlarda farqlay olish qibiliyati orqali namoyon bo‘ladi.

Estetik did odamlarning dunyoqarashi, ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq ko‘rinadi. Lekin estetik qarashlar va bilimlar hamma vaqt ham estetik didni ifodalamaydi. Ba’zan inson muayyan estetik qarashlar va estetik bilimlarga ega bo‘la turib ham past yoki rivojlanmagan estetik did egasi bo‘lib qolishi mumkin.

Musiqa eshita olish qobiliyati va bu jihatdan estetik didni tarbiyalash masalasi sharq allomalaridan Forobiyning mulohazalaridan chetda qolmaydi.

Estetik did go‘zallik yoki xunuklik to‘g‘risida hukm chiqarish qobiliyatimizdir. U bir o‘rinda estetik baholash hamdir, masalan biron tomoshadan so‘ng kishilar «yoqdi», «yoqmadi», «maroqli», «zerikarli» deb hukm chiqaradilar. Bu hukm didning sof bahosi hisoblanadi. Insonning ibtidosida, avvalo, «oziqlantiruvchi quvvat» paydo bo‘lib, uning yordamida inson oziqlanadi. Shundan so‘ng «tashqi va ichki quvvatlar» yuzaga keladi. Tashqi «quvvat», ya’ni bevosita tashqi ta’sir natijasida sezgi a’zolari orqali vujudga keladi. Tashqi quvvatlar 5 turlidir:

1. Teri-badan sezgisi.
2. Ta’m bilish sezgisi.
3. Hid bilish sezgisi.
4. Eshitish sezgisi.
5. Ko‘rish sezgisi.

Bularning hammasi hissiyot quvvati deb ataladi. Ichki quvvatlarga:

1. Esda olib qolish.
2. Xayol (xotira, tasavvur).
3. His-tuyg'u.
4. Nutq (fikrlash) quvvatlari kiradi.

Bunda u aqliy bilish nazariyasining bosqichini nazarda tutadi.

Abu Rayhon Beruniy his-tuyg'u a'zolari haqida quyidagicha ta'rif keltiradi: «Ularni pancha modali, ya'ni besh ona deb ataydilar va sezish orqali bilinadigan beshta narsalar»:

1. Sodda unsur bo'lgan osmon — shabada, ya'ni eshitilib bilinadigan.
2. Shamol — sparma, ya'ni tegib bilinadigan.
3. Olov — ro'pa, ya'ni ko'rilib bilinadigan.
4. Suv — rasa, ya'ni tatilib bilinadigan.
5. Tuproq — gandha, ya'ni hidlanib bilinadigan narsalardir.

## ESTETIK BAHO

Estetik baho predmet yoki hodisaning qiymati va kamchilik-nuqsoni haqida hukm chiqara olishdir. Biz voqelikka estetik baho berar ekanmiz, emotsiyal jihatdan o'sha narsa bizda uyg'otgan tuyg'uni ifodalaymiz. Masalan, nurafshon ko'cha, sershovqin shahar, ajoyib inson va hokazo.

Estetik baho umuman voqelikka, jumladan, istagan bir aniq buyumga bo'lgan nuqtai nazarimizning ajralmas bir qismidir.

Estetik baho — bu go'zallikning hodisa va faktlarning estetik qimmatini bevosita emas, balki ma'nosiga to'la tushungan holda bilishdir. Estetik baho bu oddiy sevgi, kechinma (ba'zan chuqur, lekin stixiyali kechinma) emas, balki ma'lum estetik tamoyillarga, estetika sohasining mohiyatini chuqur tushunishga asoslangan baho berishdir. Bunday baho berish — tahlil etish, isbotlash, asoslash mumkinligini nazarda tutadi.

Estetik did bilan estetik baholash o'rtasida farqli va umumiyl tomonlar mavjud. Estetik baholash — didning aynan o'zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og'zaki ifodasidir. Uning fikr-mulohazalarida aqliy tomon ko'proq o'rinn egallaydi. Did fikr-mulohazalari (aqliy) doimo baholanayotgan narsaning, voqe-hodisaning anglab o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, boshqalarga

mo'ljallangan holda dalillaming mantiqiy isbotlanishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, estetik baho jamiyat va tabiat hodisalari, inson mehnatining, san'at asarlarining mahsuli haqida asosli estetik muhokamaning natijasidir.

## ESTETIK IDEAL

«Ideal yo'chi yulduzdir. Usiz aniq yo'ni topish qiyin, aniq yo'l bo'lmasa hayot ham yo'q».

L. N. Tolstoy

Estetik ideal — bu grekcha «tasavvur» yoki «orzu» demakdir. Idealni asosan ijtimoiy ideal, axloqiy ideal va estetik idealga bo'lish mumkin.

1. *Ijtimoiy ideal* — biron-bir ijtimoiy guruhning intilishlari va faoliyatining oliy maqsadi mansaftalariga muvofiq kladigan tasavvur.

2. *Axloqiy ideal* — axloqiy kamolot haqidagi tasavvurlardir, ya'ni o'rtoqlarcha o'zaro yordam, adolatparvarlik, ijtimoiy burchni yuksak darajada bajarish, haqqoniylig, kamtarlik va shu kabi xislatlarni nazarda tutadi.

3. *Estetik ideal* — subyekt bilan obyekt, inson bilan ijtimoiy butunlikning tarixan eng to'liq uzviy birligi bo'lib, bu birlik tub maqsadlar sifatidagi inson ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o'z ifodasini topadi.

Idealsiz, ya'ni ma'lum darajada qandaydir ezgulikka intilishsiz hech qachon hech qanday yaxshi jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Inson go'zalligining har tomonlama mukammalligi kishi go'zalligining estetik ideali hisoblanadi.

Ideal tushunchasi to'g'risida Lev Tolstoy o'zbek ziyolisi, marhum (1938- yilda qatl etilgan) Ubaydullaxo'ja Asadulloxo'ja o'g'liga yozgan xatida (1909- yil) shunday deydi: «Idealni taomilning oddiy qoidasi deb bilish katta xato yoki o'z-o'zini aldashdir. Bu hayotda hech qachon to'la crishib bo'lmaydigan, yetuk kamolotni talab etuvchi idealgina ideal bo'la oladi. U hayotda Rahnamo sifatida

zarurdir, hayotda erishib bo'lmaydigan ana shu kamolotdan dalolat bergandagina zarurdir. Mehr-muhabbat ideali haqida ham shuni aytish mumkin».

Ideal — jamiyatning yuksak va oljanob maqsadi, kelajakdan ko'zlangan g'oyasi, orzusi. Ijtimoiy ideal misoli mayoq bo'lib jamiyat qayoqqa va qanday maqsadda qadam tashlashida g'oyaviy-maskuraviy va ma'naviy-ruhiy yo'l ko'rsatib turishi lozim. Ijtimoiy ideal zaruriyati shunda. Estetik orzu muayyan shaxsga taalluqli xususiyat bo'lib, shaxs ma'naviy dunyosining tarbiyi qismidir.

Barcha ulug' ijodkorlar avvalgi davrlarning ijtimoiy ideallari dan ham kuch-quvvat olganiga tarix guvoh.

Ijtimoiy ideal aniq bo'lsagina jamiyatda badiiy adabiyotga sog'lom ehtiyoj paydo bo'ladi. Millatning butun ma'naviy-ruhiy quvvati ijtimoiy idealda jamlanadi va aniq maqsadga yo'naltiradi. Ayni shunday sog'lom ehtiyoj katta adabiyotni vujudga keltiradi. Bu hol badiiy adabiyotning erkinligiga rahna solmaydi. Chunki erkinlik boshboshdoqlik bo'lmay, ko'zlangan oliy maqsad sari sobitqadam bilan yurishdir. Aks holda, adabiyot yo'lini yo'qotgan odam kabi to'rt tarafga alanglab, joyidadepsinib qolishi mumkin.

Buyuk adabiyot kuchli va barqaror davlat hamda kuchli jamiyatga xos hodisadir. Bir so'z bilan aytganda, estetik ideal bu mukammallik to'g'risidagi orzu. Inson mavjud ekan, beixtiyor mukammallikka — tobora yuksaklikka intilaveradi. O'zbek xalq ertaklarida xalq o'zining go'zallik idealini parilar timsolida ko'radi. Parilar go'zallik idealigina bo'lib qolmay, adolatparvarlik, insonparvarlik orzusi hamdir. Go'zallik esa g'oyat nafis. Uni avaylab-asrash lozim.

Mirzo Bedilning dunyonи bilish, estetik ong haqidagi qarashlari quyidagilardan iborat:

Faylasuf bilishning birinchi bosqichi tashqi, moddiy borliq ta'siri bilan hosil bo'lувчи hislar, tuyg'ular bilan bog'liq ekanligini yozadi va hidlash (shoma), ko'rish (binoi), ta'm tuyg'usi maza (zoika), eshitish (shunidan) va teri, sezish, paypaslash (lomiso)ning xizmatlari haqida birma-bir gapiradi.

Ana shu sezgi a'zolariga tashqi dunyoning ta'siri natijasida insonda sezish, his etish boshlanadi, so'ngra esa tasavvur, shuur, idrok, fikr (xayol) paydo bo'ladi.

Bedilning fikricha, sezgi, tasavvur va fikrning manbai inson dan tashqaridagi mavjud obyektdadir.

Nazarda, ko'zgu oldida boshqa obyekt bo'lmasa, hech kimda tasavvur hosil bo'lmaydi. Demak, inson his, tasavvur, o'ylash, tushuncha hosil qilmog'i uchun uning oldida biror boshqa obyekt bo'lmosh'i lozim. Bu boshqa narsa — obyekt inson bilishining manbai hisoblanadi.

Hidlash — isni, ko'z — rangni, tanglay va lab — ta'mni, qulqoq — tovushni tanlab oladi. Bularidan boshqa nimaiki xayolfikr ko'rmoqchi bo'lsang behuda uringan bo'lasan. Chanqoq har joyda ham suvni, nurga muhtoj — quyoshni xohlaydi. Bedilning nuqtai nazarida, hislar orqali obyektdan olingan sezgilar zehnda saqlanib, ong (aql) oynasida jilvalanadi.

Bedil aqlini, ongni xuddi oynaga o'xshatadi: unda tashqi ashyolar o'z izlarini qoldiradilar, o'z suratlarini, obrazlarini yasaydilar, shu tufayli miyamizda fikrlar tug'iladi.

### SEZGI, TASAVVUR VA TAFAKKUR HAQIDA

Bedil tafakkurning ma'nosi, ashyoning — narsaning tubiga — negiziga yetishdadir hamda ashyo — narsaning haqiqatni suratlar shakllarida ko'rsatishdadir, deb hisoblaydi.

Yuqorida aytilganlardan u sezgi, tasavvur, tushuncha, aql, tabiatda, olamda o'z manbalariga egadir, deb aniq-ravshan so'zlaydi.

Bedilning fikricha, insonda uch xil kuch bor:

1. Jismoniy kuch.
2. Aqliy kuch.
3. Ruhiy kuch.

Jismoniy kuchning dalili — insonning harakati, mehnat qilishidir.

Aqliy quvvatning shohidi — insonning bilim olishi.

Ruhiy quvvatning belgisi — insonning yolg'iz Xudoni tanishga va unga e'tiqod qilishga urinishidadir.

Shunisi muhimki, sezgi a'zolarining ong va uning faoliyatidagi roli masalasi Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Kaykovus, Forobiyl, Beruniy, Umar Xayyomlarni ham qiziqtirib kelgan. Shunisi ajablanarlik, ularning sezgi a'zolarining ong faoliyatidagi roli haqidagi fikrlari ong haqidagi hozirgi falsafiy, ruhiy tushunchalarga g'oyat yaqindir.

Masalan, Ibn Sino «Urjuza»da sezgi a'zolariga shunday ta'rif beradi:

*To 'qqiz erur nafsoniy quvvat son-hisobda.  
Andin biri sezgiga xos ushbu bobda  
Qulog'u ko'z, so'ngra burun sezgi miza,  
Komil bo'lur hislar agar tegib sezsa.*

Bu yerda buyuk hakim tashqi sezgilarga baho bergan bo'lsa, ichki sezgilar haqida shunday deydi:

*Alar ichra bordur shunday quvvat,  
Narsa esda aks etadi xuddi suvrat,  
Boshqa quvvat bordir – andin hosil fikr,  
O'zgasi-la hosil bo'lar xotir zikr.*

Demak, bu yerda Ibn Sino tafsakkur, his-tuyg'u, tasavvur, xayol, did kabi kishi ongidagi ichki sezgilarni ko'zda tutadi.

### ESTETIK QARASH VA NAZARIYALAR

Estetik ongning yana bir tarkibiy qismi estetik qarashlar va nazariyalar bo'lib, ular estetik ongning g'oyaviy sohasini tashkil etadi va ular tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimini anglatadi.

Mafkura sohasiga xos bo'lgan barcha belgilar estetik qarashlarga ham taalluqlidir. Mafkuraning barcha turlari kabi estetik qarashlar ham da'satan tartibga tushmagan, o'zidan-o'zi vujudga kelmagan, balki jamiyatning ilg'or namoyandalari amalga oshirayotgan ongli faoliyatları natijasida ishlab chiqilgandir.

Estetika sohasi mutaxassislari vogelikning estetik tomonlarini, odatdag'i estetik his-tuyg'u, did, odamlar kayfiyatlarini umumlashtirib, g'oyalar va tushunchalar tizimi orqali ifodalash qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardir.

Nafosat, oljanoblik, fojaviylik, kulgililik, san'atning mohiyati va burchi masalalarini qamrab olgan estetik qarashlar va nazariyalar estetik ongning barcha qismlariga ta'sir o'tkazadi. Estetik his-tuyg'ular, didlar, ayniqsa, orzular xususiyati ko'p jihatdan estetik qarashlar va 'azariyalarga bog'liq bo'ladi.

Estetik qarashlar va nazariyalar u yoki bu estetik hodisalarga taalluqli g'oyalar va tushunchalar, ta'limotlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Estetik nazariya — bu estetik obyektni butunligicha qamrab oladigan tamoyillar, qarashlar, tushunchalar, qoidalar, aqidalar, bilimlar tizimidir. Estetik nazariya mantiqqa, tamoyil-tizimlarga, dalil-isbotlarga, falsafiy uslubiyotga asoslanadi.

## **ESTETIK FAOLIYAT**

Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Inson faoliyatining xususiyati ana shu talab va ehtiyoj tabiatini bilan belgilanadi.

Estetik faoliyatning asosiy xususiyatlari ham estetik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bo'ladi.

Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma'naviy faoliyatining o'zagi bo'lib, uning barcha shakllari inson kuch-qudrati mohiyatining erkin ifodasi bo'lib borgani sari estetik mazmun kasb etaveradi. Shunday qilib, estetik faoliyat inson faoliyati boshqa shakllarining «insoniylik» mezoniga aylanadi.

Estetik faoliyat ilmiy ijodning ham estetik tomonini tashkil qiladi. lekin estetik omillar ilmiy ijodga tarkiban xos bo'lib, unga yordamchi omil vazifasini o'taydi. Juda ko'p ilmiy tadqiqotlar va atoqli olimlar guvohlik berishlaricha, olimning salohiyati, ijodiy mehnati natijalari va samaradorligi uning estetik madaniyati darajasiga bevosita bog'liq ekan.

Estetik faoliyat ilmiy izlanishlarning hamma bosqichlarida ilmiy muammolarning qo'yilishi, ularning yechimi, olingan ilmiy natjalarni baholash jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

Eng yaxshi san'at asarlari insonlarda xayol-farazni vujudga keltiradi va yaxlitlik, nafosat his-tuyg'usini uyg'unlashtiradi, tasakkur qilish qobiliyatini oshiradi, erkin dunyoqarash baxsh etadi, yuksak muloqot madaniyatini shakllantiradi, hozirgi fan ravnaqi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadigan barcha qobiliyat imkoniyatlarini safarbar qilishga undaydi.

Estetik ong oddiy his-tuyg'u emas, balki muayyan axloqiy, huquqiy, ilmiy-maskuraviy qadriyatlarga asoslangan e'tiqoddir.

Demak, estetik ongning mohiyati, mazmuni insonning o‘zini anglash darajasi bilan bog‘liq. Estetik ong shakllangan e’tiqodlar, maqsad va mansaatlар tizimi, o‘z-o‘zini anglash esa shu tizimning shakllanish jarayonidir.

Estetik faoliyat nisbatan badiiy faoliyatda, ya’ni san’atda eng sof holda ko‘rinadi. Shu bois san’at estetik faoliyatning ixtisoslashgan ko‘rinishidir. Inson faoliyatining asl xususiyatlarini anglash uchun san’atga murojaat qilish maqsadga muvofiq keladi. Chunki san’at o‘z tabiatiga ko‘ra ijodiy maqsadga qaratilgan, «nafosat qonunlariga rioya qilingan» bo‘lib, undan inson faoliyatining eng muhim belgilari ko‘rinadi.

Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Mehnat insonning jismoniy va ma’naviy kuch-qudratining mohiyatini ko‘proq ifodalasa, uning estetik ahamiyati ham shunchalik ko‘proq ortib boradi.

Mehnatning estetik jihatdan to‘laqonli bo‘lishi, birinchi navbatda, obyektiv omillarga, qolaversa, ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Bu yerda mehnat sharoitlari ham muhim o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarish muhitining estetik jihatlarini vujudga keltirish, unga «ma’naviy qadriyat» maqomini berish dizayn (sanoat estetikasi)ga oid rasm chizmalar, modellar, bezaklar vositasida ham amalga oshiriladi. Hozircha estetik adabiyotda dizaynning yagona hammabop yaxlit qoidaga aylangan ilmiy ta’rifi yaratilmagan. Lekin ko‘pchilik tadqiqotlar dizayn badiiy-texnik faoliyat turidir, deb qarashga moyildirlar.

Texnik estetika o‘zining tadbiqiyl tomoni bilan bevosita texnika bilan qorishib ketadi. Dizayn dunyoqarashga ham taalluqli bo‘lib, u umumiy estetik nazariya oqimiga kelib quyiladi. Bu yerda dizaynning maxsus faoliyat turi sisatidagi xususiyatlarini, dizayn va san’atning o‘zaro munosabatlari sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda badiiy ijod ishtiroki, ular o‘rtasidagi umumiylilik va farqlar, texnikaning estetik jihozlanishi va estetik qiymati kabi muammolar tahlili estetik faoliyat uchun ko‘p samaralar berishi mumkin.

Dizayn muhandislik, ilmiy va badiiy faoliyat qorishiq holda namoyon bo‘ladi, lekin dizayn ularning birontasiga aylanib

qolmadi. Dizayn san'atdan bahra oladi. San'at bilan dizayn o'rtaсидаги үмумиyylik bo'lsa-da, ular estetik faoliyatning ikki xil turlaridir. Dizayn san'atdan qanday farq qiladi? Ayonki badiiy faoliyat u yoki bu ko'rinishida faqat g'oyalargina emas, balki narsalar ishlab chiqarish bilan bog'liq. San'at avvalo ma'naviy ishlab chiqarish turi, ong va bilish sohasidir. U san'atning tub mohiyatini ifodalaydi.

San'at estetik qadriyati ma'lum darajada «soyda» qadriyatlariiga ziddir, ya'ni san'at asari moddiylikdan ko'ra ko'proq ma'naviy chtiyojlarni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Dizayn mahsulotlari mashinalar, binolar keng iste'mol, ya'ni moddiy «soyda» xususiyati bo'rtib turadi.

Bu yerda narsaning burch- vazifasi uning ijtimoiy ahamiyati, inson ehtiyojini qondirish qobiliyati bilan aniqlanadi.

San'at bilan dizayn o'rtaсидаги farq haqida gapirganda, san'at, asari qaysi moddiy tizimga mansubligidan, qaysi muhitda vujudga kelganligidan qat'i nazar, mustaqil qiymatga ega ekanini ta'kidlash kerak.

Dizayn mahsuloti esa narsalar tizimining ajralmas qismi bo'lib, undan tashqarida amal qila olmaydi. Uning estetik qiymati va muayyan narsalar «tizimi»ga qanchalik mos kelishi bilan o'chanadi, ya'ni dizayn faoliyatining obyektini alohida olingan mashina emas, balki o'zining barcha jihozlari, tashqi va ichki bezaklari ko'rinishi va hokazo shakllari bilan birgalikda yaxlit olingan «mashinalar tizimi»ni tashkil etishi shart.

Hozirgi sharoitda dizayn tobora umumbashariyat muammolari bo'lgan tabiiy boyliklardan oqilonan foydalanish, inson salomatligini va uni qurshab turgan muhitni himoya qilish vazifalarini bajarishga faol ishtirok etmoqda.

## DIZAYN — ESTETIK FAOLIYATNING O'ZIGA XOS TURI SIFATIDA

1. Dizayn nazariyasi — umumiyyestetikaning bir qismi sifatida.
2. Loyiha faoliyati tizimida dizaynning tutgan o'rni.
3. Badiiy madaniyat tizimida dizaynning tutgan o'rni.
  1. Dizayn zamonaliviy madaniyatning eng yosh va tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Shu munosabat bilan uning naza-

riyasiini ishlab chiqishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu o'z-o'zidan tushunarlidir, chunki shunday qilinganda uning oldiga zamонавијамалијот томонидан qо'yilgan dolzарб muammolarni shunchalik tez hal etish mumkindir. Shu haqiqatni ochiq aytish lozim: bizning mamlakatimizda dizayn imkoniyatlaridan to'la ravishda foydalanilayotgani yo'q. Bu borada vujudga kelgan muammoni tushunish mumkin; chunki birinchidan, dizaynerlik faoliyatining nihoyatda murakkabligi bo'lsa, ikkinchidan, uning fan-texnika, muhandislik-konstrukturlik, iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqligidir, uchinchidan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayoti bilan chambarchas bog'lanib ketganligidir.

Shu boisdan, dizaynning nazariy muammolari ko'p qirrali bo'lib, u turli nazariy bosqichlarda o'zining o'rganib chiqilishini talab etadi. Madomiki, dizayn ommaviy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda soydalanilar ekan, uni moddiy ishlab chiqarish va iste'mol tizimida ro'y beradigan jarayonlar munosabati bilan ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Ayni zamonda dizayn muammoosini nazariy jihatdan ishlab chiqishni uning zamонавијамаданийhayot tizimida yetakchi o'rın tutishidan ayricha holatda hisobga olmasdan turib, hal etish mumkin emas, zero dizayn moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda, texnika va san'at o'rtasida o'ziga xos ko'priк vazifasini bajaradi.

Shu sababli texnik estetika masalani ishlab chiqarish va iste'molning texnika, ijtimoiy-iqtisodiy, ergonomik hamda estetik aspektlari bilan bog'liq holda sanoat mahsulotlarining shaklini vujudga keltirish, badiiy konstruksiyalashning asosiy tamoyillari va metodlari bilan bog'liq holda ko'p muammolar nuqtai nazaridan turib o'rganadi.

Siz bilan biz yashayotgan hozirgi kunlarda texnik estetika oyoqqa turish bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu sohada mehnat qilayotgan mutaxassislar favqulodda faoliy ko'rsatayotganliklariga qaramasdan, dizayn muammolarini tushunishda hamon biron-bir to'la va qat'iy nazariya vujudga kelmagan. Dizaynning umumiy nazariyasi roliga da'vo qilayotgan bir qator taniqli konsepsiylar amalda uning mazmuni bilan bog'liq u yoxud bu jihatni aks ettirishdan o'zga narsa emas.

Hozirgi zamonga kelib, dizaynning bir necha ishchi definitsiyalaridan foydalanilmoqda. Ayrim mualliflar «industrial dizayn»,

«sanoat san'ati», «sanoat estetikasi» tushunchalarini bir-biridan farqlasalar, boshqa mualliflar esa ularni sinonimlar deb da'vo qiladilar.

Masalaning bunday turli-tuman shaklda qo'yilishi estetik va badiiy faoliyatning nisbati to'g'risidagi masala, jumladan, yarim-yorti yoritilgani, dizayn nazariyasi uning amaliyotidan orqada qolayotganligi bilan izohlanadi. Biroq dizayn nazariyasi oldida terminologiyani tartibga keltirishdan ham muhimroq vazifalar turibdiki, bularning qay darajada hal etilishiga qarab badiiy konstruksiyalash amaliyoti rivojlanadi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni iste'mol qilish o'rtasidagi garmonizatsiyalash muammosi ularning iste'mol qilinishini prognozlashtirish maqsadida ijtimoiy iste'mollar dinamikasini o'rganishni taqozo etadi. Bu muammolarni chuqur va har tomonlama o'rgansasdan turib, dizaynning ongli ravishda o'zlashtirilgan hamda ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ta'minlash mumkin emas. Ushbu ulkan muammoni hal etish uchun, avvalo, estetik ijtimoiy iste'molning predmeti va mohiyati to'g'risida qo'shimcha ravishda qoniqarli javob topish lozim bo'ladi, chunki estetik iste'mol, umuman, qadriyat nima, degan savolga javob topishni talab qiladi. Bu savollarga qoniqarli javob berish — butun boshli estetik konsepsiyanı qurish demak. Bu a'molni birgina texnik estetik vositasida hal etib bo'lmaydi. Bunday konsepsiyanı qurish yuqori darajadagi texnik abstrakchilashning yanada yuqori bosqichga ega bo'lishini talab qiladi. Bunday qiyinchiliklarga barham berish uchun texnik estetika, umumiyl estetika, san'at sotsiologiyasi, aksiologiya, semiotika va boshqa fanlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yurgizishi lozim bo'ladi. Shunisi maqtovga sazovorki, so'nggi yillarda umumiyl estetik va texnik estetik sohasida ish olib borayotgan tadqiqotchilar o'rtasida yaqin munosabat o'rnatildi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, boshqa fanlar tomonidan ko'rsatiladigan bunday yordamga birgina estetika fani ehtiyoj sezayotgani yo'q. Biroq texnik estetika ko'pgina dolzarb muammolarni kun tartibiga qo'yishi bilanoq umumiyl estetikaning olg'a siljishiga katta yordam bermoqda. Ko'pgina munozarali masalalar (estetik va badiiy faoliyat hamda uning mahsulot nisbati, estetik qadriyatlar tabiatи va ularni baholash, notasviriy san'atda badiiy obraz muammosi, buyumda shakllar va funksiyalar nisbati va

hokazo) umumiy estetika fani qarshisida o'zlarining yangi qirralari bilan namoyon bo'ldi.

Gap shundaki, dizaynni vujudga keltiruvchi ko'rgazmali muhit san'atga nisbatan ma'lum ma'noda ishonchliroq estetik xarakteristika bera oladi. O'z vaqtida taniqli rus san'atshunosi V. V. Stasov shunday deb yozgandi: «Haqiqiy, xayoliy bo'limgan xalq san'ati faqat mening zinapoyam ham, xonam ham, stakanim ham, qoshig'im ham, stolim ham, shkasim ham, pechkam ham, shamonim ham, shu qabilda eng so'nggi buyumimgacha go'zal bo'lgan joydagina mavjuddir... u yerda yashashga zarur bo'lgan mayda buyumlar badiiy bo'lmos'i uchun ehtiyoj yo'qdir, u yerda san'at hali qumda o'smoqda, haqiqiy ildiz otishga ulgurmagan... Estetik buyum (ommaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish) va subyekt (ommaviy iste'molchi) o'rtasidagi o'zaro aloqa obyektiv tadqiqot uchun ancha qulaydir, bu esa turli-tuman, jumladan, tahsilning statistik metodidan foydalanish imkonini beradiki, bularning hammasi estetik sir-asror olami sari dadil qadam qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalar umumiy va texnik estetika sohasida mutaxassislarning o'zaro bir-birlarini tushunishlari yuqori darajada bo'lishligiga erishmoq har ikki sohaning nazariyasi rivojlanishiga ko'maklashadi.

2. Dizaynning maqsadi — inson bilan uni qurshab turgan mehnatga, turmushga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli muhit bilan maksimum darajadagi uyg'unlikni vujudga keltirishdan iborat. Xo'sh, dizayn bu maqsadni qanday qilib amalga oshiradi? Ko'p hollarda biz dizaynerning ishi ilmiy-tadqiqot, muhandislik-texnik va badiiy faoliyat sifatida behoslanishiga o'rganib qolganmiz. Haqiqatan ham, dizaynerning mazkur sohalar bo'yicha faoliyatni nisbatini o'rganar ekanmiz, ular o'rtasida juda ko'p umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi. Biroq uni faoliyatning u yoki bu sohasidagi o'ziga xos xususiyatlarni olami bilan qorishtirib yuborish yoki ikki qo'shiluvchi umumiy so'mi sifatida namoyish etish yaramaydi. Afsuski, bunday amaliyot hayotda tez-tez uchrab turadi.

Dizaynerdan profesional sifatida iste'dodning turli qirralarga ega bo'lishi talab qilinadiki, bu iste'dod birgina rassomning iste'dodi bilan yoxud mutaxassis sifatida faqatgina loyihalash tasakkuri bilan chegaralanishni tan olmaydi, uning uchun yuksak

darajada rivojlangan keng tafakkurni, jismoniy o'ziga xos xususiyatlarni, materialning tabiiy go'zalligini nozik fahmlovchi, yuqori darajada rivojlangan didni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi biluvchi sifatlar ham xos bo'lmog'i lozim. Dizaynerlik kasbi maqomi yuqori ixtisos, o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyati uchun mas'uliyatni his etish, sanoat mahsulotlari assortimentini optimallashtirish orqali xalq turmush darajasini oshirish natijasida shakllanadi. Dizayner kasbiga bo'lgan talab maxsus o'quv adabiyotida ana shu tartibda qo'yilgan. Haqiqatan ham dizayner u yoxud bu ishlab chiqarish jamoasida muhandis, konstruktor, texnolog, ergonomik, muhandislik ruhiyatni bo'yicha ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Bu uning faoliyatidagi zarur, ammo yetarli darajada bo'lmagan shart-sharoitdir. Bu sifatlarsiz uning turli soha mutaxassislari bilan muloqotga kirishishi mumkin emas. Faoliyatning ana shu turlaridan har biri maxsus va uzoq tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi. Shu boisdan dizayner ushbu bilimlar borasida hech qachon ular bilan bir bosqichga ko'tarila olmaydi.

Rassom-konstruktor —sanoat mahsulotlarini umumiy loyihalashda ishtirok etuvchi mutaxassislardan biri sanaladi. Shuni qayd etish o'rinni bo'lur ediki, moddiy ishlab chiqarish rivojlangan hozirgi davrda loyihalash faoliyatning mustaqil sohasi sifatida ajralib chiqdi, bu esa sanoatning differensiatsiyasi va cerebralizatsiyasida oqibat hamda zarur bosqich sifatida ahamiyat kasb etdi. Texnik loyihalashning industriyadan ajralib chiqishi bu sohada qo'yilgan muhim odim bo'ldiki, bundan keyin bizning davrimizga kelib, dizaynning texnik loyihalashdan ajralib chiqishiga navbat keladi.

Shunday qilib, dizayn moddiy ishlab chiqarish ustidan keyingi o'rinda turuvchi ustqurmadir. U sanoatning hamma jabhasida ham loyihalashning alohida turi sifatida ajralib chiqmagan. Ko'p hollarda dizayner fan-teknika jamoasi bilan birga ishlaydi. Qisqacha isodalaganimizda, mazkur jamoaning faoliyatini, asosan, quyida-gicha isodalash mumkin:

— Ixtirochilik, ya'ni yangi ish qurollari, asboblar, mashinalar va hokazo; hamisha yagona, inventariantlilikni ixtiro etish;

— obyektlar o'rtasidagi yoki obyektlar qismi o'rtasidagi yangi aloqalarni o'rnatish bilan joylashtirish; bu faoliyat o'zining mohiyatiga ko'ra ko'p variantlidir;

— konstruksiyalash, ya’ni mavjud texnikani takomillashtirish uchun ma’lum dastur bo‘yicha konstruksiyalash.

Konstruktorlarni bejiz texnik taraqqiyotning askarlari demaydilar. Axir domna pechlarini, seriyali tayyoralarni, nabor mashinalarini va hokazolarni shular loyihalaydilar-da?! Xuddi shu yerda o’tmishda hunarmand sifatida maydonga chiqqan dizayner ichki mehnatning turlari — sanoat yoki muhandislik dizayni bilan yaqindan tanishadi.

Dizayncerning mchnat faoliyatini to’rtta bo‘lakka bo‘lish mumkin:

1) asos qilib olingan maqsadning mavjud bo‘lishi; 2) asos qilib olingan maqsad yoxud prototipning mavjud bo‘lishi; 3) asos qilib olingan topshiriqlarni kompanovka metodi ostida bajarish; 4) asos qilib olingan obyekt ishida yangi sifatga ega bo‘lish yoxud yangi obyektlarni barpo etish.

Shuni ta’kidlash kerakki, texnika taraqqiyoti dizaynning ayrim namunalari umrini qisqartiradi, joylashtirishning ba’zi tamoyillari esa goho asrlar, hatto ming yillar davomida foydalilanadi. Dizayn tomonidan qo‘yilgan maqsad ikki xil tabiatga ega bo‘lib, u ham konkret-utilitar, ham ijtimoiy xarakterga molikdir. Stixiyali dizaynerlik faoliyati XIX asrning oxiriga kelib o‘z oldiga tanho utilitar maqsadlarni qo‘ydi. Faqat XX asr boshiga kelib dizayn stixiyali faoliyat maqomiga ega bo‘la olgach, uning predmeti komplekslarga bo‘lgan munosabati aniqlashdi, bunda u yoxud buyumlar guruhining ijtimoiy oqibatlari ham aniq ajralib chiqdi. Buyumlar o‘rtasida ishlab chiqaruvchilar bilan dizaynerlar o‘rtasida aloqa mustahkamlandi. Keyinchalik dizayn maqsadi ham progressiv, ham konservativ, ham reaksiyon bo‘lishi mumkinligini dizaynerlar birinchi bo‘lib belgilab berdilar. Keyinchalik amaliyot ularning dunyoqarashi to‘g‘ri ekanligini isbotladi.

Dizaynning kundalik loyihadan farqi shundaki, dizayn ishtirot etishi bilan biz sifat jihatdangina emas, samara jihatidan ham yangi bosqichga ega bo‘lamiz. Texnik loyihalash u yoxud bu buyumga yangi funksiya bag‘ishlay olmaydi yoxud o’sha buyumni saqat bitta, ixtisoslashgan funksiyasiga moslashtiradi. Hali bu sikrlarning hammasi ham dizayn haqida hamma sikrlarni anglata olmaydi. «Sanoat mohiyatida, — deb yozgan edi K. M. Kantor, — dizayn yetakchi o‘rin tutadi. Dizayn orqali sanoat loyihalashi ijtimoiy-

madaniy impulslar kasb etadi, dizayn orqali madaniyat va texnikaning hukmronlik qiluvchi aloqasi hukm suradi».

Rassom-konstruktur loyihalash va ishlab chiqarishning hamma ishtirokchilari bilan birgalikda chiqarilgan mahsulot uchun baravar javobgar bo'lsa-da, dizaynerlik loyihalashi bari bir loyihalash faoliyatining bir turidan boshqa narsaga da'vo qilolmaydi. Dizaynerni mahsulotlarni loyihalash faoliyatining sohasi bo'yicha vakili deb atashadi. Xuddi ana shu yerdan uning muhandislik faoliyati farq qilib turuvchi topshiriqlar ajralib chiqadi. Vazifalar bunday sinsining turli obyektlarni loyihalash chog'ida ularning konkret funksiyasiga umumiy jihatlari bo'lmashligi mumkin. Bu vazifalar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida «inson omili» bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Agar vazifa texnika talablarining hamma shartlariga javob bersa, u holda ish muvafaqiyatli bajarilgan deb hisoblanadi.

Biroq bunda mahsulot bilan insonning optimal o'zaro aloqasi muhandislarning e'tiboridan tashqarida qoladi.

Texnik loyihalash doirasiga quyidagilar kiradi: buyumning ishonchli bo'lishiga, mustahkamligiga, samarador faoliyat ko'r-satishiga erishish. Bunday taqqoslash muhandisning faoliyatini rassom-konstruktorming mehnati bilan taqqoslash chog'ida aslo kamsitilmaydi. Shunchaki ularning oldiga qo'ygan vazifalari turli-tuman bo'lib, ular bu vazifalarni turli-tuman yo'llar bilan: ham ijodiy, ham ijodiy bo'Imagan omillar vositasida bajarishlari mumkin.

Hayotda dizaynga bo'lган talab yil sayin oshib bormoqda, chunki ishlab chiqarishda, transportda, maishiy turmushda va hokazo sohalarda yil sayin an'anaviy loyihalar yaratishda uzilishi borgan sari oshib bormoqda.

Shu narsa haqiqat bo'lib qoldiki, keyingi yillarga kelib, samolyotlarning, temir yo'l poyezdlarining va avtomobilarning tezligi oshishi natijasida mazkur transport vositalarida halokatlarning soni ko'paydi. Nega? Chunki uchuvchi, mashinist yoki haydovchi tezlikni oshirar ekan, texnikani boshqara olmaydi, vaziyatni to'g'ri baholay olmay, boshqarish uchun zarur bo'lган operatsiyani boshqara olmay qoladi. Shuningdek, yana bir haqiqat yuzaga qalqib chiqdiki, stanok yoki murakkab texnik kompleks yonida band bo'lган xodimning ko'p vaqtı aksar hollarda boshqaruv organlari konstruksiyasining, axborot beruvchi priborlarning va hokazo-

larning yetarli darajada mukammal bo'Imaganini yengib o'tish uchun sarflanar ekan.

Bularning natijasi yangi tipdagi dizaynerlik ixtisosining may-donga chiqishiga olib keldi.

Mazkur ixtisosning asosiy vazifasi muhandislik yo'li bilan ishlab chiqilgan u yoki bu texnik qurilma o'rtaida va ana shunday qurilmani boshqarishi lozim bo'lgan operator o'rtaida kelishuvga erishishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, dizaynerning oldiga qo'yilgan inson-operator, inson-haydovchi (qisqasi, iste'molchi) bevosita qaddi-qomati bilan aloqaga kirishadi, uni — obyektni bevosita his etadi). Xullas, dizaynerni loyihalash bo'yicha muhandislik konstruksiyalari bilan inson-iste'molchi o'rtaсидаги kelishtiruvchi halqa deb atash mumkin ekan.

Mashinalarning xarakteristikasi o'zgargan chog'da, inson omili, qat'iy qilib gapirganimizda, antropometriya, ergonomika, psixofiziologiya va hokazo bilan chegaralanadi.

Biroq u haqiqat ham c'tibordan tashqarida qolmasinki, inson badanining eng yaqin antropometrik parametrlari ifodalanishi ham stereometriya namunalarida yoki differensial tenglamalar tizimida qo'pol qurilmalarning vujudga kelishiga olib kelgan bo'lur ediki, buning natijasida bunday qurilmalardan bugungi kunda amalda foydalanish mumkin emasdir.

Insonning mushak faoliyati haqida shuni aytish mumkin: eng oddiy xatti-harakatlarda bunday mushak juda katta erkinlikka ega. Zamонавиу математик аппарат esa bunday murakkab tizimni moddalashtira olmaydi. Demak, muhandis inson to'g'risidagi tabiiy fanlarni o'z faoliyatiga jalb etish bilan birga, insonning obyekt bilan o'zaro aloqasini ifodalaydigan muhim parametrlarni va xarakteristikalarini ochib bera olmaydi.

Rassom-konstruktor yuqorida nomlari keltirilgan fanlar chiqarib berishga qodir bo'Imagan fanlarga hukm chiqarib berishga jalb etilgandir.

### **Sinov savollari**

1. Estetik ong va estetik faoliyat deganda nimalarni tushunasiz?
2. Estetik ong turlari va ularning o'ziga xosligi haqida nimalar deya olasiz?

## IV BOB. ASOSIY ESTETIK KATEGORIYALAR (TUSHUNCHALAR)

Estetika, ya'ni nafosatshunoslik fani o'zining boy va murakkab kategoriyalar tizimini ishlab chiqdi. Bular go'zallik, ulug'vorlik, oljanoblik, fojiaviylik, kulgililikdir. Kategoriyalar ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida — ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, tabiatga munosabatda, madaniyat, turmush va hokazolarda olamni estetik o'zlashtirishning o'ziga xos ko'rinishidir.

### GO'ZALLIK

«Go'zallik har yerda orzu qilingan mehmondir».

I. Gyote.

Estetika fanining asosiy tushunchasi — go'zallik zohiriylari va botiniy ma'noga ega. Voqeа-hodisa, buyum zohiran go'zal, botinan xunuk bo'lsa, bu yerda go'zallik tushunchasi kemtikdir. Oltin zirak tashqi jihatdan go'zal bo'lsa, uning oltin sifatida ichki mohiyati haqiqiy qimmatga egadir. Bu chin ma'nodagi go'zallikdir.

Donishmandlar tashqi va ichki go'zallik mutanosibligiga alohida e'tibor berganlar, ya'ni uning botiniy olami — xulqi, fe'l-atvori, mchnatsevarligi, czgulikka intilishi va boshqa jihatlari tashqi go'zallik xislatlari bilan muvosiq bo'lsa, ular mukammal go'zallik sifatini oladi. Go'zallikka intilish tabiiy chtiyojdir. Bu chtiyoj tarbiya vositasida namoyon bo'ladi. Go'zallik qurshovida yashagan inson bilan xunuk muhitda o'sgan odam o'rtasida katta farq bor.

Go'zal, ijobjiy his-tuyg'u uyg'otadigan narsani ko'rsatish ancha oson. Lekin o'sha narsa nima uchun go'zal ekanligini tushuntirib berish qiyin. Go'zallikning tabiatini va mohiyati haqidagi savolga

aniq javob berish jarayonida juda ko'p fikr-mulohazalarning vujudga kelishi — uning murakkabligi va ko'p qirraligidadir.

Qadimgi yunon saylasusini Aflatun bu muammoni ilk bor «Nima go'zal?» va «Go'zallik nima?» degan savollarga ajratish bilan go'zallik to'g'risidagi falsafiy ta'limotga asos solgan edi.

Aflatun ta'limotida go'zallik jonli, hissiyotli, o'zgaruvchan narsalar olamidan ajralib qolgan abadiy ruh, g'oya sifatida ta'rislanadi.

Uning sikricha, go'zallik vujudga kelmaydi va barbod bo'lmaydi, balki u vaqt va makon tashqarisida amal qiladi. Go'zallik tuyg'udan yuqoriroq tabiatga molik bo'lgani uchun uni his-tuyg'u vositasida emas, balki aql vositasida anglash mumkin bo'ladi.

Go'zallikni hayot haqiqatidan ayricha tushunish san'atni halokatga yo'liqtiradi, uning faol, o'zgaruvchan ahamiyatini pasaytiradi. Ijodkor badiiy faoliyati fidoiylik qobiliyatini, safar-barlikni talab qiladigan eng murakkab va nozik mehnatdir. Inson faoliyatida kamolotga, go'zallikka intilish ko'p jihatlardan eng muvofiq shaklni izlab topishda ko'rindi. Bu shakl faoliyat burchiga, vazifasiga, mazmuniga mos kelishini taqozo etadi.

Shaklning mazmuniga mos kelishi san'atdagi go'zallik mezonidir. Taniqli shoirimiz Erkin Vohidov yozadi:

*Mulki borliq ichra bir mahal,  
Ko'rksizgina olam yaralgan.  
Bermoq uchun olamga sayqal,  
Olam aro odam yaralgan.  
Shundan beri inson tinmayin  
Shu yer uzra ter to'kar hamon.  
Yerni go'zal qilgani sayin,  
Go'zal bo'lur o'zi ham inson.*

Go'zallik quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

1. Me'yor.
2. Estetik shakl.
3. Uyg'unlik.
4. Yaxlitlik.
5. Maqsadga muvofiqlik.

Me'yor — lotincha «o'lchayman» ma'nosini anglatadi.

Ma'lumki, ulug' yozuvchilar, shoirlar tabiat manzaralarini aks ettirishga juda katta e'tibor bergenlar. U o'quvchining didini

oshiradi, nozik va latif hissiyotini uyg'otadi, go'zallikka undaydi, chuqur, keng o'ylashga va atrofni idrok etishga o'rgatadi. Yuksak ilhom manbai bo'lib ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, go'zallikning eng qadimiy va boy manbai tabiatdir. Inson tabiatni sevibgina qolmaydi, uni saqlaydi, o'z ijodiy mehnati bilan uni o'zgartiradi, yanada go'zallashtiradi. Yaratishga, ijod qilishga intilish insonning undan ajralmas xislatidir. Shu sababli ham biz Ona-tabiatga zo'ravonlik qiluvchi kimsalarga besarq qarab turolmaymiz. Axir tabiatga muhabbat — o'z uyiga, o'z Vataniga muhabbat demakdir.

Inson — tabiatning eng go'zal mahsuli, aql-zakovat, iroda egasi. U tabiatdagi go'zalliklarni o'z aql-zakovati bilan bilib oladi, moddalarning qonunlari va xossalarni ochib, o'z ijodiy mehnati bilan ularni yanada takomillashtiradi.

Insonning go'zalligi jamiyatga, uning yuksak g'oyalariga xizmat qilishida, ishga, o'z do'stlariga bo'lgan munosabatida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.

Go'zal narsa bizni hamisha zavqlantiradi, yorqin his-tuyg'ular uyg'otadi, kayfiyatimizni chog' qiladi. «Go'zallik kishida hosil qiladigan his, — deb yozgan edi N. G. Chernishevskiy, — erkin quvonch, sevgan kishimiz yonimizda bo'lganda qalbimizni qanday quvonch bilan to'ldirsa, xuddi shunday cheksiz quvonch tuyg'usidan iboratdir. Biz go'zallikni sevamiz, uni ko'rib quvonamiz, sevgan kishimizni ko'rib qanday xursand bo'lsak, uni ko'rib shunday xursand bo'lamiz».

Shunday qilib, go'zallik turli xil ko'rinish va shakllarda, voqeahodisalarda namoyon bo'ladi, shu tusayli unga faqat bir xilda ta'rif berish qiyin. Tabiatdagi, jamiyatdagi kishining ijodiy faoliyatidagi, odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatlaridagi jamiki ijobjiy voqealarni — quvonch, his-tuyg'u paydo qiluvchi, kuch-quvvat beruvchi, kayfiyatni ko'taruvchi barcha omillarni biz go'zallik deb atashimiz mumkin.

Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Leonardo da Vinchi, Shekspir, Galiley kabi ulug' insonlar faqat san'at durdonalarini yaratgan buyuk iste'dod sohiblari emas, balki o'zlarining ilmlar sohasidagi kamolotlari, bilim va qiziqishlarining cheksizligi, kengligi bilan ham yetuk siymolar edi. Zo'r g'ayrat va shijoatga ega bo'lgan bu kishilar o'z davrlarining eng ilg'or

g'oyalarining targ'ibotchilari edilar. Ayniqsa, o'zbek mumtoz ada-biyotining Alisher Navoiy, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Zavqiy kabi namoyandalari o'z ijodlarida xalqning eng go'zal fikr va tuyg'ularini, uning adolat, aql va ilmning tantanasi haqidagi umid va orzularni tarannum etdilar.

Go'zallik — tabiatning yaxshi ne'matlardan biridir. Har bir faslning o'z ziynati bor. Qish faslida oppoq qorga, kuzda daraxtlardan ohista yerga tushayotgan quyoshga, bahor kezлari rang-barang gullarga ko'milgan daraxtlarni, chaman dalalarni ko'rganimizda beixtiyor: «Naqadar go'zal!» deb yuboramiz. Inson hech qachon mehr bilan go'zallikka to'ymas ekan-da...

Ammo go'zallikning eng yuksagi, eng chiroylisi, mazmunlisi insonda, Olloh insonni mukammal qilib yaratdi. Uni boshqa mahluqotlardan ustun tarzda aql, tasakkur, ong, idrok bilan siyladi. Bir-birini sevsin, c'zoz etsin, deya qalbiga mehr-muhabbat soldi. Olloh go'zaldir, u go'zallikni xush ko'radi.

Jaloliddin Rumiy yozadi: Majnunning zamonida ham go'zallar bor edi va ular Laylidan xusnliroq edilar. Majnunga «Laylidan chiroylirog'ini, husnlirog'ini ko'rsataylik, beraylik», dedilar. Biroq Majnun ularni sevmadi. Ularga qarata: «Layli mening qo'limdag'i bir qadah kabidur. Men shu qadahdan sharob ichayotirman. Chunki men sharobga oshiqman. Sizning ko'zingiz esa faqat qadahda, ichidagidan xabaringiz yo'q, g'ofsilsiz», dedi.

Inson tirikligida ham, dunyodan o'tganida ham, uning ayni-maydigan husni, abadiy siymosi bo'lib qoladigan go'zallik — bu xulq-atvor, insoniy fazilatdir.

K. Kolton aytganidek, tan go'zalligi haqiqiy oshiqlarni shaydo qilishi mumkin, ularni bir umir maftun etish uchun esa qalb go'zalligi talab etiladi.

### FOJIAVIYLIK

Fojaviylik muammosi har doim falsafiy estetik tasakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Fojaviylik tabiatini to'g'risida juda ko'p mutasakkirlar fikr-mulohaza bildirganlar. Zero, fojaviylikda voqeanning chuqr ziddiyatlari va to'qnashuvlari: hayot va o'lim, erkinlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Buyuk san'atkorlar yaratgan fojiaviy asarlarda go'zal ohanglar mavjudligini juda ko'p misollarda ko'rishimiz mumkin. Masalan, M. Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug'bek» asarlarida boshdan-oxirigacha fojiali ohanglar sezilib, eshitilib turadi. Bu asarlarda fojiali ohanglar ustuvor darajada ifodalangan. San'atda fojiali to'qnashuvlar, qiyofalar, vaziyatlar chuqur badiiy tahlil etiladi.

Shiroq, To'maris, Najmuddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi obrazlari fojiaviyligi bilan xalqni larzaga soladi. Go'zallik ko'pincha fojia orqali qaror topadi. Masalan,adolatsizlikka qarshi kurashda xuddi shunday bo'lishi mumkin, bu kurash nafaqat og'ir, balki xavfli hamdir. Fojaviylik — ijtimoiy xususiyatga molik tushuncha sifatida yolg'iz insonga xos his-tuyg'u ekanligi, faqat ijtimoiy munosabatlar jarayonidagina namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

San'at asarlarida fojiaviylik yaxlit namoyon bo'ladi. Fojaviy holat insonning u yoki bu xatti-harakati natijasida paydo bo'ladi, bu harakat turli-tuman hayotiy kuchlar to'qnashuvi jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Fojaviylik boshqa estetik tushunchalardan qanchalik farq qilmasin, ularni go'zallik va xunuklik kabi ijtimoiy estetik orzular bilan bog'liq holda, ularning tarixiy va nisbiy tabiatini inobatga olgan holda mushohada qilish zarur bo'ladi.

Fojia birinchi navbatdaadolatsizlikka, kishini-kishi ezishiga qarshi, umuman, insonlarni xo'rslash va haq-huquqididan mahrum etishlariga qarshi fidokorona, olijanoblarcha kurashni ifodalaydi. Masalan, Go'ro'g'li fojiali sharoitda tug'iladi ammo u ko'p jasoratlar, qahramonliklar ko'rsatadi.

Fojia qahramoni hayotni sevadi, aks holda u bu hayot uchun shunchalik shiddat bilan kurashmagan bo'lar edi. U xuddi shu hayot yo'lida jon fido qiladi va bu o'lim bekor ketmaydi, qahramonning kurashini boshqalar davom ettiradi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida fojiaviylik quyidagicha ifodalanganadi:

*Nafs – shayton asir qildi odam o'g'lin,  
Shu turlayin bog'lab oldi ikki qo'lin,  
Na mushkuldir, o'ngu so'lni bilmay yo'lin,  
Vo darig'o, hasrat bilan borg'um-mano...*

yoki

*Ayo, do'star nodon birla ulfat bo'lib,  
Bag'rim kuyib, jondin to'yib o'ldim mano.  
To'g'ri aytsam egri yo'lga bo'ynim to'lg'ar,  
Qonlar yutub, g'am zahriga to'ydim mano.*

Bunday sojiaviylik doston va ertaklarda ham ko'p uchraydi. Masalan, Islom shoir Nazar o'g'lining «Orzigel» dostonida Qoraxon podshoga xotini qiz tuqqanligi to'g'risidagi xabarni yetkazishadi. Podsho farzandi qiz ekanligini eshitib, g'azablanadi va xotinini o'ldirishga, qizini esa sahroga eltib tashlashga farmon beradi. Yillar o'tib, podsho safarga chiqqan chog'ida bir go'zal qizni uchratib, uni o'z xaramiga eltishni buyuradi. A'yonlari bu qiz podshoning sahroga eltib tashlangan o'z qizi ekanligini, uni bir cho'pon topib olib, tarbiyalaganini aytishadi.

Fojiaviylik hodisalari insonlarni ana shunday mash'um hollar-dan forig' va saqlanishga chorlaydi, ular qalbida baxt uchun kurash hislari, czgulik qaror topishiga xizmat qiladi.

Yevropa Uyg'onish davri sojiasi o'zining eng to'liq badiiy ifodasini Shekspir ijodida topdi. Shekspir o'zining sojiaviy asar-larida kuchli, jasoratli, g'ururli, erkin, barqaror insonlar qiyofasini yaratib berdi.

## KULGILILIK

*«Kulgi – beba ho narsa: u jonni ham, mol-mulkni  
ham olmaydi, ammo kulgi qarshisida aybdor  
misoli qo'lga tushgan quyonday gap».*

*N. V. Gogol*

Estetik kategoriyalarning navbatdagisi — kulgiliklidan. Biz bila-mizki, san'at juda qadim zamonlardan beri faqat jiddiy nar-salarnigina emas, balki hayotdagi kulgilikni ham tasvirlab keladi. Kishilar hayotidagi kulgili voqealarни san'atning har bir janri — quvnoq, sho'x qo'shiq, o'tkir hajviy hikoya, teatr yoki kinoko-mediya o'ziga xos usulda ifoda etadi.

Kulgili voqeа-hodisalar, ko'pincha munosiqlik, tekinxo'rlik, yolg'onchilik, kekkayishlik, johillik, yengil tabiatlilik kabi kamchiliklar, nuqsonlardan kulish bilan bog'liq bo'ladi.

Vogelikdagi kulgilik holatiga faqat insongina kulgi bilan javob beradigan qobiliyatga ega bo'lib, boshqa jonzotlar bunday qobiliyatdan mahrumdirlar. Kulgilik tushunchasi talqini o'zining aniq mazmuniga ega bo'lib, haqiqatan ham kulgiga xos bo'lgan tomonlarini ochib beradi. Ba'zilar Arastu fikr-mulohazalariga qo'shilgan holda kulgining obyektiv asoslariiga e'tibor qaratsalar, T. Gobbs izdoshlari esa kulgining subyektiv tuyg'u ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Kulgi, ko'pincha, shunchaki kulgili vaziyat tufayli sodir bo'lib qolmay, balki qahramonlarning o'zlarini tutishlari, xarakterlarning o'sib borishi, alohida qobiliyatga ega bo'lgan kishilarga taqlid qilishlari tufayli yaraladi. Masalan, Muqimiyning quyidagi she'ri bunga misol bo'ladi:

*Oh, soqol qadri o'tib, ko'ngulda armon ko'samen,  
Haftada oyinag'a boqqanda hayron ko'samen.  
Barchada bo'lsa soqolu, menda bir tuk bo'lmasa,  
Yig'labon ushbu alamdin goh pinhon ko'samen.  
Sen yoshim so'rma, hilolmaysan, o'zim ham shundayin,  
Katta-katta mo'ysafidlarga padarxol ko'samen.  
Jag'larim Shaytonning dashtidek giyoh yo'q, yap-yalang,  
Engakimdin bir olo Mahram namoyon ko'samen.  
Bir faqirdin bir paqimi, do'stlar, tutmang darig'  
Bir duogo 'yi Muqimiyy men qadrdon ko'samen.*

Satira hayotdagi yaramas hodisalarini, yovuzliklarni fosh etadi. Satirik qahramon, odatda, mansaatparast bo'ladi, u boshqa odamlardan o'z mansati yo'lida foydalanishga intilar ekan, bu yo'lida barcha vositalarni ishga solishdan qaytmaydi. U ko'pincha, jinoyat qilishgacha borib yetadi, bu yo'lida o'z mansabidan foydalanadi, odamlarni tahqirlaydi va shunday qilishga haqqim bor, deb o'laydi.

Abddulla Qodiriy va Abdulla Qahhor ijodlarida ham bir qator satira janridagi asarlarni ko'rish mumkin. Qodiriyning «Og'zingga qarab gapir», «Po'st kallasi» kabi asarlari, Abdulla Qahhorning «Tobutdan tovush», «Ayajonlarim», «Og'riq tishlar» komediylarida goho kulgili to'qnashuvlar mohiyati yangilik bilan eskilik o'rtaсидаги kurashda ko'rindi.

Bu fikr saqat komediyaga emas, balki hamma dramatik asarlarga xosdir. Kulgili mazmun, qiziq tabiatli qahramonlar, to‘qna-shuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari turli kulgi vositalarini taqozo etib, ular har xil mubolag‘alar, xayoliy to‘qimalar ko‘rinishida bo‘lishi ham mumkin.

## ULUG‘VORLIK

Estetik kategoriyalardan yana biri — ulug‘vorlikdir. Estetik ulug‘vorlik — bu so‘zsiz buyuk, salmog‘i bo‘yicha ulkan hodisadir.


Ulug‘vorlik kategoriyasi voqeqlikdagi aniq narsalar va hodisalarni aks ettiradiki, ular tabiatda va jamiyat hayotida obyektiv mavjuddir.

Ulug‘vorlikning namoyon bo‘lish shakllari xilma-xildir. U be-had ulkan shaklning butun ulug‘vorligini bevosita ifoda etishi mumkin bo‘lgan (jo‘sinqin okean, zilzila, jang manzarasi), osmonning butun rang-barangligini, okean va dengizlarning sokin sathi va bepoyonligini, qudratli to‘lqinlarning, tog‘larning yuksakligini, vulqonlarning qaynashi manzarasini, qutb shu’lasini ko‘rsatishi mumkin. Ulkan arxitektura inshootlari — Misr piramidalari, Gotika uslubida qurilgan ibodatxonalar, O‘rta Osiyo va Hindistondagi tarixiy yodgorliklar ulug‘vorlikka misol bo‘la oladi.

Ulug‘vorlik haykaltaroshlikda, poetik asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ulug‘vorlik — ijtimoiy hayotdagি buyuk tarixiy voqealar, jang manzaralari, xalq bayramlari, insonning tabiat ofatlari bilan kurashini aks ettiruvchi manzaralarda namoyon bo‘ladi.

Ulug‘vorlik — estetik va axloqiy sifatlar kasb etib, hayotda ko‘p qo‘llaniladigan estetik tushunchadir. Qadimda estetikada «ulug‘vorlik» iborasi o‘zining tantanaliligi va ahamiyatliligi bilan ajralib turadigan nutqning alohida uslubini tavsiflash uchun ishlatilgan. Ulug‘vorlik muammosiga estetik yondoshishni «Ulug‘vorlik to‘g‘risida»gi risola bilan bog‘laydilar va uni III asr notig‘i Longin yozgan, deb taxmin qiladilar.

Mazkur risolada ulug‘vorlikning inson ruhiga qanday ta’sir o‘tkazishi mumkinligi masalasiga katta e’tibor berilgan. Risola muallifi ulug‘vorlikni nutq go‘zalligi bilan bog‘lanib ketgan odatdan tashqari fikrlar va ehtiroslar sifatida tushunib, u inson his-tuyg‘ulariga ta’sir etuvchi, uni quvonch va hayratga soluvchi kuch, deb uqtiradi.



**Tabiatning ulug'vor manzarasi.**

XVII asr ingliz olimi E. Berk estetik qarashlarida ulug'vorlikning go'zallik singari obyektga bog'liqligi ta'kidlanadi. Uning fikricha, ulug'vorlik tuyg'usining manbai — dahshat yoki hayratomuz tuyg'ular qo'zg'atadigan barcha narsalar, voqeа-hodisalardir.

Berk ulug'vorlikning inson ruhiga ta'sir kuchi haqida gapirib, uni insonga his-tuyg'uli ta'sir o'tkazish shakllari ichida eng kuchlisi bo'lgan qoniqmaslik tuyg'usi bilan bog'laydi.

Boshqa ingliz estetik tadqiqotchisi G.Xoum ulug'vorlik va go'zallik mutanosibligi masalalarida Berkka qarama-qarshi mavqeda turadi. Uning fikricha, ulug'vorlik go'zallikdan faqat o'zining ko'lami bilan farq qiladi va ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

I.Kant ijodida ulug'vorlik nazariyasi yanada rivojlantirildi.

U ulug'vorlikka estetikaning boshqa tushunchalari tizimi doirasida qarab, go'zallik va ulug'vorlik barcha o'xshashliklari hamda farqlari bilan bir butun umumiylikka ega ekanini asoslab berdi. Uning fikricha, go'zallik ham, ulug'vorlik ham qo'pol, sof foyda ma'nosidagi manfaatdan xoli bo'lib, hamma uchun umumiyligi ahamiyatli, maqsadga muvosiflik va zarurlik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgandir.

Kant ulug'vorlik to'g'risidagi fikr-mulohazalar tahliliga alohida e'tiborni qaratadi. Go'zallik va ulug'vorlik haqidagi fikr-mulohazalarni qiyosiy tahlil etib, u shuni ta'kidlaydiki, go'zallik haqidagi fikr-mulohazalarga nisbatan ulug'vorlik haqidagi fikr-mulohazalarda umumiy kelishuv darajasi ancha yuqoridir.

Kantga qarama-qarshi o'laroq, Hegel ulug'vorlikni boshqa barsha estetik muammolar qatorida, asosan, san'at asarlari zaminda mushohada etadi. Uning fikricha, ulug'vorlik san'atning estetik xususiyati bilan ko'proq bog'langan. Shu bois ulug'vorlikning eng yorqin ifodasi — bu diniy va ilohiy san'atdir.

Chernishevskiyning qarashlariga ko'ra, ulug'vorlik tabiiy hodisalarga ham xos estetik tushunchadir. Masalan, oddiy shamoldan bir necha yuz marta kuchli bo'lgan bo'ron ulug'vordir, pastkash hisob-kitob va intilishlardan yuz karra kuchli bo'lgan sevgi ulug'vordir.

Ulug'vorlik sifatiga ega bo'lgan narsalardan lazzatlanish o'sha narsalarning sifatiga bog'liq bo'lmay, balki ulardan lazzatlanayotgan insonning tarbiyasiga ham bog'liqdir.

Qahramonlikda ulug'vorlikka xos estetik va axloqiy sifat to'la namoyon bo'ladi. Xalq fidoiylari, elu yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o'zida ham ulug'vorlikni, ham mardonalityni namoyon qiladi. Qahramonlik tom ma'noda odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisa bo'lib tuyuladi. Lekin u kundalik hayotda oddiy sharoitda eng sodda, hamma amal qiladigan axloqiy qoidalar doirasida ham sodir bo'lishi mumkinligining o'zi ulug'vor ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nazdidagi qahramonlik mardlik, ulug'vorlik halol mehnatda, yaxshi axloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda o'z ifodasini topadi.

Ulug'vorlik san'atda har tomonlama ifodalananadi, chunki u san'atning barcha ko'rinishlari uchun asosiy mavzudir. Shubhasiz, san'atning turli shakllarida ulug'vorlik xilma-xil tasvirlanadi. Qahramonlik dostonlari, lirik dostonlar, qahramonlik fojiasi, qahramonlik musiqa asarlari, me'morchilik kabi san'at asarlari ulug'vorlik mavzuini badiiy o'zlashtirish jarayonida vujudga kelgandir.

Ulug'vorlik kategoriyasini quyidagi tarixiy hikoyat bilan bog'lash mumkin. Ne'matullo Ibrohimov «Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati» kitobida shunday hikoyatni keltiradi.

...Abbosiyarning Balxdagi noibining xotini masjid qurdiradi. Shu vaqtida Xalifa ulardan katta xiroj — o'lpou undirib kelgani o'zining amirini Balxga yuboradi. Balx shahri ayollari bola-chaqalari bilan noibning xotini huzuriga kelishib, haddan ziyod katta xiroj solinganini aytib, arz qilishadi. Shunda noibning xotini boj yig'uvchi amirni chaqirib, o'zining qimmatbaho javohirlar qadab tikilgan ko'ylagini unga berib: «Balx aholisi bunday katta xirojni to'lay olmaydi, mana shu ko'yakni boj hisobiga ol-da, uni Xalisaga olib borib ber, xiroj o'rniiga shu ko'yakni olsin», — deydi. Amir ko'yakni olib borib, Xalisaga bo'lgan voqeani aytadi. Xalisa bu gaplarni eshitib, xijolat bo'lib: «Nahotki bir ayolning himmati bizning himmatimizdan a'llo bo'lsa?» — deb ko'yakni egasiga olib borib berishni buyuradi va: «Shahar aholisini bir yillik xirojdan ozod qildim!» — deb farmon beradi. Ayol amirdan: «Bu ko'yakni Xalisa ko'rdimi?» — deb so'raydi. «Ha, ko'rdi,» — deb tasdiqlaganidan so'ng, ayol: «Begona odamning nazari tushgan ko'yakni hech qachon kiymayman, bu ko'yakni sotib, puliga masjid quringlar», — deya farmon beradi. Pulga masjid, xonoqoh, karvonsaroy qurdiradilar. Pulning uchdan biri ortib qoladi. Uni ayol olmaydi, masjid ustunlarining birini tagiga ko'mib qo'yinglar, kerak bo'lganda xalq yaxshi kunlariga ishlatsin», deydi.

Chingizzonga bu voqeani aytishganda, u ustunlarning tagini kavlab, masjidni buzib tashlaydi, ammo pulni topolmaydi.

Bu hikoyatda Chingizxon — pastkashlik timsoli, noibning xotini — ulug'vorlik timsoli sifatida gavdalanadi.

Demak, turli estetik hodisalar bir vaqtning o'zida jamiyatda mavjud bo'ladi va bu xilma-xillik insonning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi hamda uning ma'naviy, ruhiy kamoloti ko'rsatkichi bo'lib boraveradi.

### ***Sinov savollari***

- 1. Asosiy estetik tushunchalar nimalardan iborat?*
- 2. Ulug'vorlik, go'zallik va kulgililik tushunchalarini qanday ta'riflaysiz?*

## V BOB. MUSTAQILLIK MA'NAVIYATI VA ESTETIK MADANIYAT

### MILLIY ISTIQLOL MA'NAVIYATI

«Ma'naviyat — taqdirning ehsoni emas  
Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi  
uchun u qalban va vijdonan, aql va qo'l bilan  
mehnat qilishi kerak».

*Islom Karimov*

Milliy istiqlol ma'naviyati va shu ruhdagi madaniyat masalasi muhim tarbiyaviy muammolarni hal etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan milliy mustaqillik ma'naviyati va uning tarbiyaviy asoslarini o'rganishda alohida sinchkovlik, qunt, sabot, madaniyatllilik va tarbiyaviy onglilik talab etiladi.

Ma'naviyat o'zi nima? Milliy ma'naviyat qanday xususiyatlarga ega? Bu savollarga aniq javob berish muhim va dolzarb muammodir. Ma'naviyati qashshoq yoki madaniyatsiz odamdan biror yaxshi narsa kutish aslo mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o'ylamaydi. U o'zi va qarindosh-urug'lari taqdiriga ham besarq, loqayd holda, shunchaki yashaydi.

Yuksak ma'naviyatli va estetik madaniyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, qayg'uradi, shuningdek, kelgusi hayoti va turmushining ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Zotan, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, estetik madaniyatli, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun Yurtboshimiz Islom Karimov: «Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori», — degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruri tamoyillardan biridir.

Ma'naviyat va estetik madaniyat — mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Bu esa insonning o'zligini anglashi, xalqining madaniyerosini, san'at va badiiy boyliklarini bilishi, qadrlashi, bor imkoniyatini Vatan ravnaqi yo'lida sarflashi, halol mehnat qilishi,

go'zal g'oya, kashfiyotlarni e'zozlashi va bu yo'lida fidoiy bo'lishdan iboratdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ma'naviy va madaniy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishga bevosita yordam ko'rsatuvchi davlat siyosati ilgari surilmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, ma'naviyatdan madaniyat va ma'rifatni ajratish aslo mumkin emas. Ular egizak tarbiya sohalaridir. Masalan, san'at maskanlari, teatrlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, madaniyat saroylari, muzeylar, konserst zallari va madaniy-ma'rifiy muassasalarda olib boriladigan ishlar insonlarning madaniy va estetik qarashlarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Ma'naviyat — bir chinor bo'lsa, estetik madaniyat, ma'rifat uning asosiy ildizlari, qon tomiridir. Teatrлarda sahnalashtrilgan spektakllar, konserst zallarida yangraydigan qo'shiqlar, madaniyat uylarida uyushtiriladigan va olib boriladigan tadbirlar, chop etilgan kitoblar, gazeta-jurmallar u yoki bu shaklda kishilar oniga ma'naviy-madaniy ta'sir ko'rsatish usullaridir. Insonlar mana shu madaniyat gulshanlariga hech qanday da'vatsiz yoki chaqiriqsiz o'z ixtiyorlari bilan ruhiy tashnaligi, tabiiy ehtiyoj tusayli o'z xohishlari bilan boradilar. Joylarda estetik madaniyat taqdiri mahalliy rahbarlar faoliyati, ularning shaxsiy ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy qarashlari bilan bog'liq bo'ladi. Ma'naviy barkamollik va axloqiy go'zallik bir-biri bilan chambarchas aloqada bo'ladi. Ma'naviy madaniyat estetik ehtiyoj zaminida rivojlanadi. Ilm-fan taraqqiyoti va san'at insonlarda qadriyatlar asosida go'zal axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Ma'naviy tiklanish, poklanish mustaqil O'zbekiston sharoiti-dagi yangi muhim nazariy va amaliy muammolarni hal etishda katta ahamiyatga ega. Ma'naviyat masalalariga oqilona, muayyan sharoitni hisobga olib yondashish komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini izlashdir. Buyuk mutafakkir Bedil aytganidek, me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyishiq bo'lib qolaveradi. Bu fikr birinchi navbatda ta'lim-tarbiya ishlariga taalluqlidir.

Ma'naviyat insonning tug'ma xususiyati emas, u faqat insonga xos fazilat bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllanadi. Shu sababli, ma'naviyatlilik va estetik madaniyatlilik insoniy kamolotning asosiy belgilari hisoblanadi.

Insonda ma'naviyatni egallahash va rivojlantirishga imkon bera-digan, irsiyat qonunlari bilan belgilangan tug'ma iste'dod va imkoniyatlar ham bor. Tug'ma irsiy imkoniyatlar mehnat, hayot tajribasi, jamoatchilik ta'siri asosida sayqal topib, e'tiqodga, ruhiy mohiyatga aylanadi va inson ongida, qalbida chuqur o'rashadi. Islom Karimov ma'naviyatning ijtimoiy mohiyati ustida alohida to'xtalib: «...insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi», -- degan chuqur falsafiy fikrni aytgan edi.

Demak, ma'naviyat insonga xos bo'lган irsiy imkoniyatlar, qobiliyat kurtaklarining hayot tajribasi, ajdodlar merosi va namunasi, bilim, axloq, odob asosida shakllanib boruvchi, shaxsning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo'naliш beruvchi ruhiy asosdir.

Ma'naviyat saqat insonga xos bo'lган fazilatdir. U insonga xos bo'lган ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs rivojlanishi va kamolotining asosiy omilidir. Shuning uchun ham ma'naviyat — davlatimiz va jamiyatimizning qudratli tayanchidir.

Ma'naviyat mazmun jihatidan serqirra va keng ko'lamlidir.

Ma'naviyatning cheksiz va bepoyonligi tarixiy taraqqiyotning cheksizligi bilan belgilanadi. Ma'naviy yetuklik ayrim shaxslarni emas, balki barcha jamiyat a'zolarini qamrab olgandagina katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy kamolot ma'naviy ehtiyojlarning mazmuni va darajasi bilan bog'liq. Jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy kuch — iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyot zaruriylari bilan belgilangan, ma'naviyat bilan mushtarak chtyojdir. Ehtiyoj bo'lмаган joyda hech qanday taraqqiyot va yuksalish bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Sahrodagi sayyohlar doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar, qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi».

Ma'naviyat va estetik madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'langan aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, maskuraviy sifat va fazilatlarning yaxlit tizimidir.

Ma'naviy kamolot bilan ijtimoiy, milliy, axloqiy, estetik ong yuksalishi o'zaro bog'liqdir.

Ma'naviyat rivojlanishi bilan o'lkamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy islohotlar o'rtasida chuqur aloqadorlik mavjud.

Shuningdek, xalqning moddiy turmush darajasi va ma'naviyat bir-biri bilan bog'liqdir. Estetik tafakkur estetik ongning aqliy faoliyat, amaliyat borasida namoyon bo'lishidir, milliy manfaatlarni anglash va ularni amalga oshirish yo'llarini topishga yordam beradi. Estetik tafakkurga millatning axloqi, ruhiyati, tarixiy an'analar, turmush tarzi, mehnat faoliyatining xususiyati va yo'naliishlari bevosita ta'sir etadi.

Yoshlarmi tarbiyalashda estetik ongning quyidagi jihatlariga asosiy e'tibor berish zatur. Estetik ong — estetik did va fahm-farosat tuygusi shakllanishi va rivojlanishining asosidir. Estetik onglilik — o'z-o'zini idora qila bilish madaniyati hamdir. Nafosatlilik esa oljanoblik va birdamlik barqaror bo'lgan joyda milliy davlat, til, madaniyat, qadriyatlar, an'analar yuksalishi uchun xizmat qiladi.

Har bir tadbir millatning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. Millat istiqboli bilan bog'liq tadbirlar zaminida milliy manfaatlarni anglash yotadi. Estetik ong har bir xalqning tarixiy rivojlanishi jarayonida o'zgarib, takomillashib boradi. Estetik ong shakllanishi va rivojlanishi milliy qadriyatlarni tiklash, o'rghanish, hayotga keng joriy etish bilan bog'liqdir.

## MA'NAVIYAT VA ESTETIK MEROS

«Xulqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat maktabi bo'lib xizmat qilgan».

*Islom Karimov*

O'zbek xalqi insoniyatning ma'naviy kamolotiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasidir. Ota-bobolarimizdan qolgan ulkan moddiy va madaniy micosni bir daryo deb tasavvur etsak, bu boradagi bilimlarimiz undan bir tomchi, xolos. Hozirga qadar o'tmish ajdodlarimizning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra dunyodagi ko'plab mamlakatlarda ma'lum va mashhur edi.

1993-yil buyuk mutafakkir Abduxoliq G'ijduvoniyning tug'ilganiga 850 yil to'lishiga bag'ishlangan ilmiy anjumanda Italiya davlatining O'zbekistondagi elchisi so'zga chiqib: «Men dunyoning ko'plab mamlakatlarda bo'lganman. O'sha yirik mamlakatlarda shu

o'lkada yashab, jahon sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan bir yoki ikki olimning nomini eshitganman. O'zbekiston tuprog'ida bunday buyuk siymolar shunchalik ko'p yashab ijod etganki, ularning nomini sanab chiqish ham qiyin. Shunday buyuk allomalarни jahonga yetkazib bergen mamlakatning xalqiga va tarixiga hurmat bilan qaramaslik aslo mumkin emas», — degan edi. Bu fikrlarda juda katta haqiqat bor. So'nggi o'n yil mobaynida tariximiz va ma'naviy merosimizni o'rganish borasida katta tadbirlar o'tkazildi. Jumladan, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Najmuddin Kubro, az-Zamaxshariy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg'oniy va boshqa-larning tavalludiga bag'ishlangan yirik anjumanlar, tantanalar shular jumlasidandir.

Buyuk Amir Temur bobomiz haqidagi tarixiy haqiqatning tiklanishi ham madaniy hayotimizda ulkan voqeа bo'ldi.

Tarix haqiqatini tiklash — o'zbek millatining obro'-e'tiborini tiklash, qadr-qimmatini, o'ziga ishonchini tiklash demakdir.

Xalqimizga uzoq o'tmishtan meros qolgan mehmondo'stlik, saxiylik, tantilik, sadoqatlilik, poklik kabi fazilatlar milliy xususiyatning eng muhim jihatni bo'lib hisoblanadi.

Bu xislatlarni yosh avlod ongiga singdirish, ruhiyatini esa xalq durdonalari — o'gitlarimiz bilan boyitish va ushbu qadriyatlarimizni e'zozlashga o'rgatishimiz lozim.

Ma'lumki, inson oilada shakllanadi. Sharqda bola tarbiyasi alohida e'tiborda turgan, yaxshi tarbiya ko'rgan kishi nihoyatda ulug'langan.

Tarbiyalilik deganda nafaqat yurish-turishi, balki shirin zabonu, ochiq chehrilik ham nazarda tutilgan. Hadisi sharfsda ham: «Yaxshilikni chehralari ochiq, xushro'y odamlardan kutinglar», deyiladi. Insonni har doim ma'naviy pok bo'lib yurishi, kiyimlarini ozoda tutishi, xushmuomala bo'lishi hamisha ulug'lanadi. Masakan, Rim arxitektura san'atiga nazar tashlasak, ular beton qilib, uy-joy qurilishida undan ustalik bilan soydalanganlar, hammomlarini shunaqa mukammal qurishganki, u yerda dam olish xonalari, ovqatlanish zallari, hattoki kutubxonalari mayjud bo'lган. Ya'ni, ular «tanasi toza, pok odamning miyasi ham yaxshi ishlaydi» degan tushunchaga ega bo'lганlar. Demakki, inson ko'proq vaqtini hammomda o'tkazishi uchun ham shunday qilingan bo'lsa ajab emas.

Fazilatlarimizning yuksagi birinchi navbatda poklik sanaladi. Bu ruhiy ma'naviy poklilikdir.

Donolarimiz o'gitlarida shunday ajoyib so'zlar keltiriladi. «Og'zingni misvoq bilan poklading, qani endi uni g'iybat, bo'xton kabi so'zlar bilan yana islos qilmasayding...». Tarbiyaning muhim quroli nutq hisoblanadi. Shuning uchun ham insonlar o'z nutqlarida yoqimsiz ohang bilan mantiqsiz so'zlarni ishlatish, qo'pol, behayo, beandisha so'zlarni ishlatish bilan ularda kattalarga bo'lgan hurmatni so'ndirmasliklari kerak.

Ba'zan o'quvchi, talaba yoshlarimizning ham og'zilaridan chiqayotgan haqoratomuz so'zlarni eshitib yoqa ushlaymiz. Besabr «katta»lar esa ba'zan ularga tanbeh tarzida «bunaqa gapingni otangga yoki onangga gapirasan», «bunaqa beadablikni borib otangga yoki onangga qil» deyishadi. To'xtang... biz ularga bunaqa xunuk qiliqni, hayosiz so'zlarni hech qachon ishlatma, yomon bo'ladi, deb vaqtida to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerakku. Axir boyagi gapimiz bilan ota-onangni behurmat qil, deb o'rgatishimiz emasmi?...

Murg'ak tasavvurli bola ilk namuna va malakalarini biz kattalardan oladi.

Agarda katta yoshdagilar o'zlarining xulq-odoblari, xatti-harakatlari bilan yoshlar o'rtasida hurmat qozona olsalar, ularga ma'naviyatli, madaniyatli inson sisatida ruhiy ozuqa bera oladilar.

«Ey farzand, agar farzanding bo'lsa anga yaxshi ot qo'ygil, nedinkim otadan farzand haqlaridan biri unga yaxshi ot qo'ymoqdir. Yana biri uldurkim, farzandingni oqil va mehribon doyalarga topshirgaysen, sunnat qilur vaqtida sunnat qilgaysan, qudratingga loyiq to'y va tomosha qilgaysan hamda o'qishni o'rgatgaysan. Agar qizing bo'lsa uni yaxshi doyalarga topshirgil, toki yaxshi parvarish qilgaylar, kattaroq bo'lq'ondan so'ng muallimga topshirgil. Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib erga bergil, unga shafqat va marhamat ko'rgizgil, nedinkin qiz otaning asiri bulur...». «Qobusnoma»dan.

Sharq allomalarining biror-bir asari yo'qliki, ularda komil inson haqida so'z yuritilmagan bo'lsin. Ularning sikricha, agar inson axloq-odobli bo'lishini istasa, yurish-turish va hayot kechirishning, madaniyatning me'yorlariga rioya qilishi lozim.

Axloq va odob malakalarini puxta egallah, ota-ona, keksalarni hurmat qilish, samimiylilik, vijdonlilik, sadoqat, o'zaro yordam

singari insoniy xislatlar millatimiz ma'naviyat ramzi hisoblanadi. Milliy ruhiyatimizni aks ettiradigan o'zaro iliq munosabat, qarindosh-urug'chilik, mehr-muruvvat kabilarning barchasi xalqimizning boy madaniyati, tili, adabiyoti, san'atiyu obidalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

## DIN — ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING OMILI

«Ey ko'ngil, qilding gunoh, hargiz pushaymon  
bo 'Imading,  
So 'simen deb lof urib, tolibi jonon bo 'Imading.  
Xayf umring o'tti bir lahza giryon bo 'Imading,  
So finaqsh bo 'ldung vale, hargiz musulmon bo 'Imading».

Xoja Ahmad Yassaviy

Qur'on, hadislari, shariat qoidalari islam huquqi asoslarida oldinga surilgan barcha g'oyalar zaminida ruhiy poklanish, go'-zallik, imon, vijdon, e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan dunyoviy muammolar o'rtaqa qo'yilgan. Jamiyat hayoti va shaxsiy hayotdagi barcha muammolarni hal etish uchun inson o'zi ruhan va vijdonan pok, imonli, halol, e'tiqodli bo'lishi kerak, degan g'oya islam dinining asosini tashkil etadi.

Hadislari, shariat qoidalari inson ma'naviy kamolotining asosiy yo'llari va mezonlarini belgilab beradi.

Hadislarda ilm va ma'rifat egallashga da'vat etiladi: «Ilm egal-lang! Ilm — sahroda do'st, hayot yo'llarida — tayanch, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg'uli onlarda — madadkor, odamlar orasida — zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda — quroldir».

Din insonga ma'naviy, estetik ta'sir etuvchi katta kuchga ega. Dinga chtiyoj go'zallikka bo'lgan chtiyojning bir ko'rinishidir. Diniy va dunyoviy bilimlarni egallashga intilishni, olimlarni qadrlashni ham islam dini muqaddas burch deb biladi. Tasavvusdagi komil inson tushunchasi odamlarning olamni butunlikda, uyg'unlikda ko'rishdir.

Chunki komil inson barcha zohiriylari va botiniy bilimlardan xabardor buyuk zot deb tasavvur qilingan.

XIII asrda yashab ijod etgan Shayx Aziziddin Nasafiy o'zining «Komil inson» risolasida: «Jumla mavjudot odamzotga shuning

uchun sajda qiladiki, odamlar orasida komil inson bor. Mayjudot ichra komil insondan ulug'roq, sharafliroq va donoroq zot yo'q. Chunki komil inson eng pastdan eng yuqorigacha martabalardagi mavjudotning xulosasi va qaymog'idir», — deb yozgan edi. Komil inson bo'lib yetishish uchun odamzod o'z tabiatidagi baxillik, ochko'zlik, yolg'onchilik kabi illatlardan voz kechishi, yaxshi xislatlar, fazilatlarga ega bo'lishi zarur.

Shayx Farididdin Attor aytadi: «...o'sha so'fiylarga muhabbatim shu qadar baland va jo'shqin ediki, o'sha toifaning chiroyli so'zлari meni o'ziga tortar, dilimda bu so'zlardan quvonch jilvalanar, ul so'zлar qanchalik mahobatli, pardali bo'lmasin, ularni tanib oladigan bo'ldim».

Farididdin Attorning kuzatishicha, avliyolar bir necha xilga bo'linadi, ma'rifat ahli, muomilot ahli, muhabbat ahli, tawhid ahli, miskin va faqirlar ahli va boshqalar. Ma'naviy kamolot va estetik madaniyatga erishishning eng maqbul yo'li — qanoatdir. Qalbida go'zallikka intilish bo'lgan har bir inson kamolotga ana shu jism talablarini yenga borish va ruh talablarini ko'paytirish bilan erishadi. Qanoat insonni inson qiladi, ma'naviyat bezagi bilan bezatadi.

Demak, din ma'naviy kamolot va estetik madaniyatga erishishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### *Sinov savollari*

1. *Ma'naviyat o'zi nima?*
  2. *Milliy ma'naviyat qanday xususiyatlarga ega?*
  3. *Estetik madaniyatning qanday omillarini bilasiz?*
-

## VI BOB. AMALIY ESTETIKA

### SAN'AT ESTETIKASI

«San'at — mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin».

Ibn Sino

San'at — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. San'atning turli ko'rinishlari voqelikni, undagi hodisa, narsa va holatlarni o'zlariga xos usullar yordamida aks ettiradi (masalan, musiqada — tovushlar, ularning o'zaro bog'lanishi, uyg'unligi orqali, badiiy adabiyotda — so'z, obrazlar orqali). Lekin shu bilan birga, ular o'rtasida ma'lum umumiylilik mavjud. Bu umumiylilik shundan iboratki, ularning hammasida voqelik badiiy-obrazli tarzda aks ettiriladi.

San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuv-larga sabab bo'lib kelgan.

Masalan, ba'zi san'atkor va san'atshunoslar uni «tabiatning taqlidi» yo «voqelikning aks ettirilishi» deb hisoblasalar, boshqalari san'atni «san'atkorning sof shaxsiy ijodiy mahsuli», «o'z-o'zini izhor etishi»dir, deb bilganlar. Bu san'at predmetining murakkabligi, uning xususiyatlari va shakllari, mujassamlantirish usullarining xilma-xilligi hamda turli davrlarda san'at nazariyot-chilarining sinsiy va g'oyaviy fikrlari o'rtasidagi tasovutlar bilan izohlanadi.

San'atda go'zallik kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Estetika fani — go'zallik san'atning zarur sharti ekanligini, go'zalliksiz san'atning yo'qligi va bo'lishi mumkin emasligini uqtiradi. San'atda mazmun va shaklni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. San'atning o'ziga xos xususiyati uning voqelikni ilg'or g'oyaviy nuqtai nazardan turib badiiy obrazlarda aks ettirishdir. San'atning

badiiy shakli til, uslub, obraz kabilar bo'lib, ular mazmunni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Insonning badiiy-ijodiy faoliyati rang-barang bo'lib, u san'at turlari yoki janrlarida namoyon bo'ladi. Ular o'z navbatida qator ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Umuman olganda, san'at dunyoni badiiy- obrazli anglashning turli, ya'ni umumiy va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan usullar majmuasidan iborat tarixiy tizimdir.

San'at juda qadimiy tarixga ega. U jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan.

San'atshunoslik — keng ma'noda jamiyatning badiiy madaniyatini, umuman, san'atni o'rganish, tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy fanlar majmuidir. Bu majmuaga kiruvchi ada-biyotshunoslik (filologaya fanlari sirasiga ham kiradi), musi-qashunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik va tor ma'nodagi san'atshunoslikdan iborat. Tor ma'nodagi san'atshunoslik tasviriy san'at, amaliy-bezak san'ati va me'morchilikni tadqiq etish bilan shug'ullanadigan ijtimoiy fan bo'lib, san'atshunoslik deganda, ko'pincha uning shu ma'nosini ko'zda tutiladi va keng ishlataladi. Shu ma'nodagi san'at bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uch tarmoq: a) san'at nazariyasi; b) san'at tarixi; d) badiiy tanqididan iborat.

San'atshunoslik, umuman, ana shu tarmoqlar doirasida san'atning borliqqa munosabati, uning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy roli, jamiyat tarixiy taraqqiyoti obyektiv qonunlari bilan bog'ligi, ijtimoiy tuzum va ishlab chiqarish kuchlari darajasining san'at va me'morchilikka ta'siri, san'atning mazmuni va shakllari bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. San'atkorlarning ijodiy yo'llarini tavsiflaydi, san'at asarlarini tahlil etadi, ommalashtiradi va targ'ib qiladi.

### SAN'ATNING PAYDO BO'LISHI

San'atshunoslik alohida san sisatida XVI—XIX asrlar mobaynida shakllandidi. San'atga doir ma'lumotlar dastlab Yunonistonda qadimdan o'rjanila boshlangani ma'lum. Aristotel, Platon kabi o'sha davrning yirik faylasuflari Yunonistonda san'at tarixi bilan

ham shug'ullanganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan. Qadimgi Rimda yunon san'atiga katta e'tibor bilan qaralgan. Milodiy dastlabki asrlarda O'rta Osiyo mamlakatlarida me'morchilik va san'atga oid risolalar yaratilgan. Ular mazmuni jihatdan hammabop bo'lib, ham metodik qo'llanma, ham o'qish kitobi sisatida xizmat qilar, kitobxon e'tiboriga tarix, hikoyat, nasihat va mushohadalar havola qilinardi. O'rta asrlarda Yevropada san'at ilohiyot (teologiya)ning bir qismi bo'lib qoldi. O'rta asr san'atshunoslari san'atni narigi dunyoning bu dunyodagi moddiy obrazi deb baholadilar. Uygonish davri san'at rivojida muhim davr bo'lib tarixga kirdi. XIV—XVI asrlarda insonparvarlik va realizm g'oyalari bilan bir qatorda, san'atni cherkov ta'siridan ajratishga intilish kuchaydi va uni ilmiy tavsiflash yo'lida muhim qadam qo'yildi. Bu davrda yaratilgan ko'p risolalarda rassom, haykaltaroshlarga asosiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi, umuman, san'at, uning nazariyasi va tarixi bo'yicha qimmatli asarlar vujudga keldi. Leonardo da Vinci kabi rassom va me'morlar rassomlik, uning ilmiy asoslari va imkoniyatlari, tasviriy san'atda inson ma'naviy hayotining aks ettirilishi kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan fikrlarni bayon etdilar. XVI asrda Olmoniyada A. Dyurerning proporsiyalar haqidagi ilmiy fikrlari, Venetsiyada P. Arctinoning borliqni to'g'ri aks ettirish bo'yicha rassomlar oldiga qo'ygan talablari san'atga muhim hissa bo'lib qo'shildi. XVII asrda risola, qo'llanma, Yevropa san'atiga bag'ishlangan sharhlar, Italiyaga doir yo'l ko'rsatkichlar, rassomlarning hayoti va ijodiy faoliyati, badiiy hayot tarziga oid ada-biyotlar yaratildi. San'atning XVIII asrdan boshlab mustaqil fan sisatida shakllanishi shu asr oxiridagi fransuz burjua revolyutsiyasini tayyorlash va uni amalga oshirish davrida eski tartiblar hamda feodalizmga qarshi g'oyalaming kurashi bilan bog'liq bo'ldi. Ijtimoiy-tanqidiy tafakkur rivoji oqibatida tanqidiy etyud janri shakllandı, san'atda g'oyaviylik va realizm uchun kurash avj oldi. Olmoniyada G.E. Lessing realizm nazariyotchisi sisatida «tasviriy san'at» terminini fanga kiritdi.

XIX asrda san'atning ilmiy-tarixiy asoslari mustahkamlandi, san'at fan sisatida shakllanib takomiliga yetdi, o'z uslubiyotiga ega bo'ldi. Fransiyada Stendal, G. Kurbe, Olmoniyada I. Gyote va H. Heynening asarlari, san'atshunoslik fanida katta rol o'ynadi, arxologik tadqiqotlar ko'lami kengaydi, badiiy muzeylar ochildi.

Bu davrda, ayniqsa, buyuk fransuz revolyutsiyasi g'oyalari, I.Kant, A.Shopengauer, G.F.Hegel estetik qarashlari, Rossiyada esa V.V.Stasov, I.N.Kramskoy, I.Ye.Repin va boshqalarning san'atning hayotiy bo'lishi va ijod erkinligi xususidagi qimmatli fikrlari, V.G.Belinskiy, A.I.Gersen goyalari san'atning realistik yo'naliishi rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, bu davrda san'at din bilan ham mustahkam aloqada rivojlandi. Juhon san'ati durdonalari — buyuk arxitektura inshootlari, Vergiliy, Dante, Milton, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelo tasvirlari, I.S. Bax, I.Gaydn, V.A. Motsart musiqalari, Sharqda esa F.Attor, J. Rumiy, A. Jomiy, A. Navoiy asarlari diniy manbalardan ilhom olib yaralgan edi.

### SAN'AT VA MAFKURA

*Milliy istiqlol maskurasini yoshlar ongiga singdirish jarayonida san'at alohida o'rinn tutadi. Shuningdek, san'at inson ma'naviy dunyoqarashini kengaytiruvchi, uni shaxs sifatida tarbiyalovchi vositalardan biridir. San'at insoniyatning ezgulik tomon harakati uchun zarur bo'lgan o'zaro muloqotlar vositasi bo'lib, turli qit'alar va davlatlarni o'zaro bog'laydi. San'at odamlarning his-tuyg'ularini, tafakkurini mavhum tarzda emas, balki jonli badiiy qiyofalarda aks ettiradi, chinki u o'ziga xos his-tuyg'ular xazinasidir.*

San'at badiiy qiyosa-obraz vositasida to'la namoyon bo'ladi. Badiiy qiyosa san'atkori o'zlashtirib olgan tashqi dunyo bilan uning ichki dunyosi birligida ko'rindi. Iste'dodli aktyorlar haqqoniy hayot manzarasini yaratib, o'z his-tuyg'ulari va kechinmalari bilan zavqlantirib, o'zligini to'la namoyon qila olishi mumkin. San'atkoring ichki kechinmalari bilan sug'orilgan badiiy qiyofaga hech narsa teng kelmaydi. Badiiy qiyofaning ichki va tashqi tomonlari san'atning turlarida har xil tarzda amal qiladi.

Teatr, musiqa, kino, «oynai jahon» kabi talqiniy san'at turlarida badiiy qiyosa o'sha qiyosa timsolini talqin qilish jarayoniga bog'liq. Bu yerda yozuvchi yoki bastakor ijodi mahsuli, ular yaratgan badiiy qiyofalar talqini san'atkori mahorati tusayli yuzaga chiqadi. Masalan: Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Hamza Umarov, Razzoq Hamroyev, Olim Xo'jayev, Zaynab Sadriyeva, Nabi Rahimov kabi ijodkorlar ijrosida «Navoiy», «Jaloliddin

Manguberdi», «Otello», «Hamlet», «Qirol Lir», «Nurxon», «Qaynona», «Ota» kabi asarlardagi badiiy qiyofalar bunga misol bo'ladi.

San'atkoring dunyoqarashi qanchalik keng va aqliy tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning ijodi ham shunchalik samarali va mazmundor bo'ladi. San'atni idrok etish insonga hamma vaqt o'zini yaxshi anglashga imkoniyat yaratadi, badiiy asar individual ijod mahsulidir.

San'at asarlari yaratilishi ikki narsani, ya'ni badiiy obrazli tasakkur qilishni hamda uni amalda ifoda eta olish malakasini o'z ichiga oladi. San'at ilohiyotning tuhfasi, ijodiy mehnat mahsulidir. Agar badiiy obrazli fikr yuritish voqelikni badiiy o'zlashtirish imkonini tug'dirgan bo'lsa, faqat ijodiy mehnatgina uning voqelikka aylanishiga asos bo'la oladi.

Hayotni kuzatish san'atkorga ham, olimga ham juda zarur. San'atda voqelik badiiy to'qimasiz, to'qima esa voqeiy narsalarsiz aks etmaydi. Voqelik xayol, tasavvur hosil qiladi. San'at voqelikning obrazli aks ettiruvchi shaklidir. Badiiy qiyofa mazmuni uning shakli yaratilishi jarayonida o'zgarib ketishi, ba'zan uni qayta mushohada qilish sodir bo'lishi mumkin.

### SAN'ATDA MAZMUN VA SHAKL BIRIJI

San'atda badiiy qiyosa uning mazmuni va shakli tushunchalari orqali yorqinroq anglashiladi. San'at mazmuni va shakli masalasi estetik nazariyada muhim o'rinn tutadi. San'atda mazmun va shakl asarni badiiy idrok etish xususiyatlari, mahorat masalalari kabi badiiy madaniyat nazariyasi hamda amaliyotining asosiy masalalari bilan chambarchas bog'lanib ketgandir. San'atda mazmun va shakl bir-birini izohlaydi, shakl muayyan bir mazmunni ifodalasa, mazmun ham muayyan shaklda namoyon bo'ladi. Har bir narsaning o'zgarishi, avvalo, mazmun o'zgarishidan boshlanadi. Mazmunga bo'ysunadigan shakl birligida mazmun yetakchilik qiladi. Mazmunga bo'ysunadigan shakl ham nisbiy mustaqillikka egadir. San'atning barcha turlari badiiy shaklga ega bo'lib, u ko'proq asar tuzilishi (kompozitsiya) bilan bog'liq. Asar tuzilishi tomoshabin yoki o'quvchi diqqat-e'tiborini goyaviy muddaoga qaratish imkonini beradi.

San'at turlarida qo'llaniladigan ijodiy uslub yoki san'at uslubi ham jiddiy ahamiyatga egadir. San'at mahorati faqat texnika bilan o'lchanmasa ham, uni egallamay turib, mohir usta bo'lib yetishish mumkin emas. Barcha san'at turlari yuksak ifodalilik qonuniga bo'y sunadi.

Demak, san'at turlarida badiiy tuzilma (kompozitsiya), vazn, tasviriy-ifodaviy va moddiy vositalar majmui san'at shaklini tashkil etadi. Shakl hamma vaqt muayyan mazmunni ifodalaydi. San'at asarlarida mavzu syujet yordamida oydinlashadi. Syujet asarda ko'rsatilmogchi bo'lgan hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, u o'z navbatida asar personajlarini bir-biriga bog'lab turadi.

G'oya asar mazmunining asosini tashkil qiladi. Asarning g'oya-viyligi uning mazmundorligidan darak beradi. Shunday qilib, san'at asarlarining mazmuni badiiy g'oya, asar mavzusi, asar syujeti hamda san'atkori tomonidan baholangan hayot hodisalarining yig'indisini tashkil qiladi. Badiiy shakl tarkibiy qismlarining asosini kompozitsiya tashkil qiladi.

Kompozitsiya o'zi anglatgan ma'noga ko'ra syujetga yaqin turadi. Agar badiiy asarning syujeti voqealar rivoji bo'lsa, kompozitsiya ularni bir-biri bilan bog'laydi. U asar mazmunini ifodalovchi qismlarning yaxlitligini ta'minlaydi. Ko'rinish turibdiki, san'at asarlarining shakli tuzilish jihatidan xilma-xildir, mazmun va shakl elementlarining uzviy bog'liqligi san'at asarlarida badiiy uslub deb ham yuritiladi.

Demak, mazmun birlamchi va belgilovchi, shakl esa ikkilamchi. Shakl mazmunga bo'y sunadi.

## SAN'AT TURLARI

San'at turlari — san'at mavjudligining tarixan tarkib topgan barqaror shakllaridir. Biz endi san'at voqelikni inson tomonidan aks ettirishning alohida shakli, ijtimoiy ongning alohida shakli ekanligini bilib oldik. San'atning umumiyligini qonunlari va xususiyatlari bilan tanishdik, uning voqelikni badiiy obrazlarda aks ettirishini bildik, san'atning ijtimoiy vazifasi, uning boshqa xususiyatlari va o'ziga xosligi haqida tasavvur hosil qildik. Endi san'atning o'z ichida mavjud bo'lgan xilma-xilliklarini qarab chiqaylik. San'at badiiy adabiyot, me'morchilik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at,

grafika, musiqa, teatr, kinematografiya, xoreografiya (raqs san'ati), dekorativ-amaliy san'at va boshqa turlarga bo'linadi.

San'atning turlari ko'pligiga sabab, insonning san'at qondirishi lozim bo'lgan estetik ehtiyojlari har xil ekanligida, tashqi dunyoning ko'p qirraliligida, inson idrokining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligida, voqelikning o'zi xilma-xil va rang-barangligidadir. Ulardan har biri hayotning biror muayyan tomoninigina bir-biriga nisbatan yaxshiroq aks ettira olishi mumkin. Ba'zan hayotdagi ayni bir hodisa san'atning har xil turlarida aks ettirilgan bo'lishi mumkin. Ammo bu bir-birini takrorlash emas, chunki san'atning har bir turi ayni bir hodisani o'ziga xosligidan kelib chiqib, aks ettiradi. Masalan, ikkinchi jahon urushi haqida ko'plab roman va she'rlar yozildi, drama va kinofilmlar yaratildi. Rasmlar chizildi, haykallar qad ko'tardi.

Lekin har bir san'at turi o'zining takrorlanmas xususiyatlari bilan ajralib turadi. V.G.Belinskiy aytganidek: «Har qanday san'atning mazmuni — voqelikdir. Binobarin, u xuddi voqelikning o'zidek tiganmasdir». Demakki, uning voqelik singari rang-barang va turli-tuman bo'lishi tabiiydir. Chunki ularning har biri alohida san'at turiga mansubdir. San'at turlari esa bir-biridan doimo farqlanib turadi. Masalan, musiqada — tovush, tasviriy san'atda — rang va chiziq, adabiyotda — so'z, musiqa — eshitish vositasida, kinofilm va spektaklni esa ayni vaqtida ham eshitish, ham ko'rish yo'li bilan idrok etiladi. Bundan tashqari, san'atning turlarga bo'linishining sababi, ularda voqelikning badiiy aks ettirish usuli va vositalarining har xilligi, idrok etish usuli va badiiy obraz yaratishda soydalaniman materiallarning rang-barangligidadir. Shuningdek, har bir san'atning o'ziga xos obrazlar tizimi, o'zining isodali vositalari bor. Bundan tashqari, har bir san'at o'z ichida ham tur va janrlarga bo'linadi. Bu esa har bir san'at turini bevosita alohida-alohida ko'rib chiqishni taqozo qiladi. San'at turlari obrazlarning vaqt va makonda rivojlanishiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

1. Makon san'atiga — me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, grafika kiradi.

2. Vaqt san'atiga — musiqa, badiiy adabiyot kiradi.

3. Vaqt-makon (qorishiq, aralash) san'atiga — kino, teatr, qolgan barcha san'at turlari kiradi.

Makon san'atlarini, shuningdek, statik san'atlar deb, vaqt san'atlarini dinamik san'atlar ham deb aytildi. Vaqt-makon san'atlari sintetik san'atdir, chunki ularda badiiy obraz vaqt va makon san'atlari vositalari bilan yaratiladi. U ko'plab san'atkorlar jamoasi kuchi orqali dunyoga keladi. Chunonchi, teatrda spektaklda aktyorlardan tashqari rejissyor, bezovchi rassom, bastakor va boshqa soha mutaxassislari qatnashadi. Kinoda bular qatoriga yana operator, opera, balet va operettada esa dirijor, baletmeyster va xormeysterlar qo'shiladi.

San'at turlari shu bilan bir-biridan farq qiladiki, ulardan har biri hayotni o'zicha, o'ziga xos usul va vositalar yordamida aks ettiradi. Voqelikni aks ettirish usuli jihatidan san'at turlarining farqi shunday aniqki, hech kim raqsni surat bilan, me'morchilikni haykaltaroshlik bilan, qissa yoki romanni musiqa asari bilan chalkashtirib yubormaydi.


Bundan tashqari, san'atning har bir turi o'ziga xos qurilish materialiga ega bo'lib, u yordamida badiiy obraz yaratiladi. Me'morchilikda olamni estetik qayta aks ettirish binolar, inshootlar qurish orqali amalga oshiriladi.

### ME'MORCHILIK

«Qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing».

*Amir Temur*

Me'morchilik keng ma'noda inson mehnatining muayyan sohasi sisatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlari — uy-joyga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. U insonning turli-tuman amaliy-foydali, ijtimoiy-siyosiy, moddiy, diniy va boshqa ehtiyojlarini qondira oladi. Me'morchilik jamiyatning amaliy-foydali ehtiyojlarini qondirishni o'zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olgan. Bundan 2000 yil avval qadimgi Rim me'mori Vitruviy ifodalab bergen «triada» yoki uchlik qoidasi shu kungacha o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. U me'morchilikda uchta asosiy element bo'lishi, ya'ni, har qanday inshoot 1) foydali; 2) mustahkam; 3) go'zal bo'lishi shart, degan edi. Bu uch yo'nalish musulmon sharqi



**Me'morchilik namunaları.**

me'morchiligidagi ham ma'lum edi. Bu haqda Abu Ali ibn Sino shunday deydi: «O'ziga yashash joyi tanlaydigan kishi, tuproqning qanday ekanligini va yerning qanchalik baland va past ekanligini, suvning tashqariga chiqishini va uning yuqori yoki past joylashganligini, shuningdek, qanday dengizlar, botqoqliklar, tog'lar va ruda konlari... qabriston va hokazolar borligini bilishi lozim». Ibn Sinoning me'morchilikdagi bu «inson va muhit» nazariyasiga Mikelanjelo hamda Leonardo da Vinchilar ham keng to'xtalib o'tadi.

Abi Ali Ibn Sino o'zining «Tibbiy risolalar» asarida: «Qaysi shahar tog' ustida joylashgan bo'lsa, u yer sovuq bo'ladi, agar shahar tog'lar tagida joylashgan bo'lsa, uning issiqligi bor, deb hukm qil. Agar shahar tog'ning janubiga joylashgan bo'lsa, unda issiq shamol esib turishi hukm qilinadi. Agar tog'lar shu shaharning janubida bo'lsa, shimoliy shamolning sovug'i unga ta'sir qiladi. Agar tog'lar g'arb tomonda bo'lsa, u shaharning havosi og'ir bo'ladi. Sharq tomonda bo'lsa, toza bo'ladi», deb yozadi.

Me'morchilik kishilik jamiyatiga taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lган. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun zarurat tufayli oddiy boshpana va chayllalar qurgan. Asta-sekin u qurilayotgan binoning ko'rkmak bo'lishiga ham e'tibor berib, go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Me'morchilik (lat. Architectura so'zidan olingan) — me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bogliq alohida turidir. Me'morchilik — me'morlik san'ati tarixi, qonuniyatları, nazariyasi, binolarining turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarни o'rganuvchi san'at sohasidir. Me'morchilik jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy-badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Inson dahosi va mehnati bilan yaratilgan muhit — turli-tuman binolar (ularni qurish, loyihalash), inshootlar, shahar va qishloqlar (keng ma'nodagi) me'morchilik nomi bilan yuritiladi. Me'morchilik davr o'tishi bilan o'zgara borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Me'morchilik asari amaliy xizmati bilan bir qatorda, ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmunni ham ifoda etadi. Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtida san'at asari sifatida ham namoyon bo'ladi. Me'morchilik quldorlik jamiyatni davrida tez taraqqi, topdi. Jamiyatning sinfiy talabiga munosib uy-joy va jamoat binolari yaratildi. Me'morchilikning moddiy-texnik va badiiy imkoniyatlari ham kengaydi. Qadimgi Sharqda (Misr, Mesopotamiya) piramida, zikkurat kabi ulkan diniy binolar majmuasi, shohona saroy va boshqa me'moriy inshootlar barpo qilindi.

Me'morchilikning ba'zi amaliy va nazariy masalalari ishlab chiqildi. Qadimgi Yunonistonda binolarning maktab, stadion, teatr, ibodatxona, amfiteatr kabi turlari paydo bo'ldi. Ellinizm davriga kelib order tuzumi arxitektura tarixida keng va chuqur iz qoldirdi. Forum, Zafar darvozasi (Triumfal ark) kabi harbiy qudrat g'oyalarini namoyish etuvchi yangi inshootlar paydo bo'ldi. Binolar bezagiga e'tibor ortdi. O'rta asr arxitekturasida (asosan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida) (X—XII asrlar) roman-me'morchilik uslubi, keyinroq (XII—XIV asrlar) gotika-me'morchilik uslubi alohida o'rIN tutadi. Gotika uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoqlardan iborat konstruksiyali binolar ichida ulug'vor ibodatxonalar diqqatga sazovor.

Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixida yorqin sahifa ochgan Yevropa Uyg'onish davri — Renessans (XV asr oxiri — XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi davr klassik me'morchilik tamoyillarini yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etadi. Klassik qonunlarni uzviy rivojlantirish tamoyillari

binolar kompozitsiyasida yaqqol ko'rinadi. XVI asr o'rtalarida binolar haddan tashqari bezakdor qilib quriladigan bo'ldi.

Movarounnahrda XV—XVI asrlarda Samarqand va Hirotda me'morchilikning nodir namunalari yaratildi. Hashamatli jamoat binolari qad ko'tardi. «Shohizinda» majmuasidagi maqbaralar, Shahrisabzdagi «Ko'kgumbaz», Yassidagi «Ahmad Yassaviy» maqbaralari shular jumlasidandir. O'rta Osiyo me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar takomillashtirildi. Bu me'moriy obidalarni muhandisu me'morlari go'zallikning obyektiv qonunlarini chuqur bilganlar va o'z ijodlarida davrning goyasi va ruhini bera olganlar. Ularning bu me'moriy uslubi, naqshi va o'ziga xos bo'yoqlar jiłosi beqiyos va takrorlanmasdir.

## TASVIRIY SAN'AT

«*Ko 'hna dunyo yaralganidan buyon inson rang-tasvir olamining shaydosি. Zero, bu go'zallikka boy, mo'jizakor chizgilarda hamisha ezgulik ulug'langan».*

*Ortiqali Qozoqov*

Nafis san'at, rang-tasvir (jivopis) — tasviriy san'at turi bo'lib, u bo'yoq yordamida yaratiladi. Badiiy asar sisfatida insoniyat uchun ta'lim-tarbiya, estetik zavq berish vazifasini o'taydi, ayrim namunalari esa ma'rifiy ma'lumot qimmatiga ham ega. Ijodning bu turi bilan shug'ullanuvchi san'atkor — rassom ranglar vositasida tabiatni, muhitni (uning ma'lum bir qismini, ma'lum bir daqiqadagi holatini) gavdalantirish bilan birga, ro'y berayotgan voqeя, hodisa mohiyati, kishilarning ichki dunyosini va ma'lum bir g'oyani aks ettiradi.

Vazifasi va obrazlari xarakteriga ko'ra rassomlik san'atining me'moriy inshootlarda bezak bo'lib ham xizmat qiladigan monumental dekorativ, devoriy rasmlar (panno), teatr va kinofilm-lar uchun tayyorlanadigan dekoratsiya, panorama, kichik hajmli miniatyura xillari ham bor. Bo'yoq xili va tasvir hosil qilishdagi texnologik usullariga ko'ra moybo'yoq rassomligi, freska, keramika bo'yoqlari rassomligi (chinni va sopolga gul, naqsh, tasvir ishlaniб so'ng qattiq qizdiriladi), silikat bo'yoqlar rassomligi va h.k. turlariga bo'linadi. Mozaika, vitraj ham rassomlik san'ati xili bo'lib, mo-

numental-dekorativ san'at vazifasini bajaradi. Rassomlik san'ati asarlari akvarel, guash, pastel, tush bilan ham ishlanadi.

Rassomlik san'atida asosiy tasvir vositasi rang bo'lib, tasvir turli ranglar va bir rangning bir necha ko'rinishi (och, to'q va hokazolar)dan foydalanib hosil qilinadi. Rang va chiziqlar bilan hosil qilingan rasm rassom ko'zda tutgan kompozitsiyaga xizmat qilib, hayot lavhasini gavdalantiradi. Rassomlik san'ati asarlari mato, karton, qog'oz, yog'och, tosh, oyna, metall, ganch (yoki alebastr) va boshqalarga chiziladi. Rassomlik san'ati so'nggi paleolit — tosh davrida vujudga keldi. Antik davrda esa rassomlik san'ati me'morlik va haykaltaroshlik bilan uzviy bogliq ravishda rivojlanadi. O'rta asrlarda Yevropa va Kavkazda ibodatxonalarini, diniy qo'lyozma kitoblarni bezashga xizmat qildi, bu davrda Yaqin Sharq va O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Yaponiyada miniatyura san'ati rivojlandi.

Tasviriy san'at rivojiga Uyg'onish davrida katta hissa qo'shildi. Bu davrning insonparvarlik g'oyalari ta'sirida realistik tasvir avj oldi. Velaskes, Muriibo, Pero della Francheska, Bottichelli, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, Titsian kabi buyuk rassomlar estetik jihatdan beباho asarlari bilan tasviriy san'at tarixida unutilmas obrazlar yaratdilar. Movarounnahrda musavvir Kamoliddin Behzod boshchiligidagi bu san'at rivojlandi, estetik jihatdan yuksak pog'onaga ko'tarildi.

Humoyun asos solgan va Akbar davrida nihoyatda taraqqiy etgan musavvirlik va xattotlik maktabi haqida Qozi Ahmad Qumiyning «Gulistoni hunar», Mir Alouddavla Qazviniyning «Nafis ul-musavvir» asarlarida ajoyib ma'lumotlar bor. «Gulistoni hunar»da aytlishicha, Kamoliddin Behzodning shogirdi Do'st Devona mahoratda tengsiz bo'lgan musavvir sisatida Hindistonda nihoyatda shuhrat topgan ekan. Uning mashhur musavvir Mahmud Muzahhib bilan yaratgan suratlari, ziynatlagan nodir qo'lyozma kitoblari hozir jahon kutubxonalarini va muzeylarini bezab turibdi.

Ular «Nodir ul Mulki Humoyun» unvoniga sazovor bo'lgan Mir Said Ali rahbarligida «Qissai Amir Hamza» nomli asar uchun katta hajmli (52x68 sm) matoga rasm ishlash bilan mashg'ul bo'lganlar. 1570-yilgacha «Qissai Amir Hamza»ning har biri yuz rasmdan iborat bo'lgan to'rt jildi Mir Said Ali rahbarligida ishlangan bo'lsa, keyinchalik «Shirin qalam» unvoniga sazovor



### «Jokonda»

Insoniyat tarixi davomida yaratilgan eng mashhur san'at asarlaridan biri «Jokonda»dir. Unda yaqindagina o'z eridan judo bo'lgan yigirma olti yoshli juvon — florensiyalik Mona Liza tasviflangan. Bu ayolni sohibjamol deb bo'lmaydi, lekin u istarasingin issiqligi bilan bizni maftun etadi.

Mona Lizaning qiyofasi g'amgin, ammo biz uning siyemosida chuqur iztirobni ko'rmaymiz. Uning nigohi sehrli. Uning ko'zlarini har qanday bag'ritosh odamning ham yuragini jurbushga soladi.

Bu nigohni, bu tabassumni hech qachon eslab ham qololmaysiz, chunki suvratga har safar qaraganingizda, ular turlichcha bo'ladi: chunki ular sizning ruhiy holatingizga va Mona Lizaning ruhiy holatiga qarab o'zgaraveradi. U suvrat emas, balki o'zi tirik turgandek bo'laveradi.

Uning ijodkori XVI asrning iste'dodli musavviri, haykaltaroshi, faylasuf va olimi, Italiya Uyg'onish davrining atoqli namoyandasasi Leonardo da Vinci.

U ayolni bo'yoq bilan emas, yuragi bilan tasvirlagandir...

bo'lgan Abdusamad Sheroziy rahbarligida «Qissai Amir Hamza» rasmlari davom ettilgan va ularning soni 2800 ta ga yetkazilgan ekan. «Bunday ajoyib rasmlarni tabiatu osmon yaratilib, u yulduzlarga to'lgandan buyon hech kim ko'rgan emas», deb yozadi Qazviniy.

Akbar kitobat, xattotlik san'atiga mehr qo'ygan, uning kutubxonasida yigirma to'rt ming kitob bo'lib, bu nodir qo'lyozmalar musavvirlik san'ati bilan ziynatlangan. Jahongir Mirzo, Shoh Jahan, Avrangzeb davrlarida ham Hindistonda musavvirlik nihoyatda taraqqiy etdi.

XVI asrda yaratilgan Do'st Muhammadning «Holati hunarvon» («San'atkorlar ahvoli») va Qozi Ahmad Qumiyning «Gulistonni hunar» («San'at gulistonni») nomli xattotlik va kitobat san'atiga bag'ishlangan risolalarida Alisher Navoiy davrining mashhur xattotlari, naq-qosh musavvirlari va muzahiblari alohida e'tibor beradilar. Ayniqsa, ulug' allomalar Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy, Dehlaviy, Attor, Jomiy, Navoiy, Bobur asarlarini katta mahorat bilan bezatgan «asr nodirlari» ijodi to'g'risida hurnamat bilan yozadilar.

Mashhur xattot Do'st Muhammadning «Xattotlar va musavvirlar haqida risola»si san'at olamida mashhur xattotlar va musavvirlar hayoti hamda ijodi to'g'risidagi bebahoh manbalardan biridir. Mazkur risolada islom dini nima sababdan soyasi bor narsalarni tasvirlashni taqiqlagani, bu taqiqning nisbiy darajalari ham ko'rsatib o'tilgan. Demak, islomda tasviriy san'at xillari va ko'rinishlariga ko'proq soyasiz narsalarni chizishga, ayrim hollar-dagina jonzotlarni, jumladan, odam siymosini tasvirlashga e'tibor berilgan. Alisher Navoiy siymosini kichik zamondoshi buyuk musavvir Kamoliddin Behzod chizib qoldirgani hozir ko'pchilikka ma'lum.

Leonardo da Vinci (1452—1519) — Uyg'onish davri italyan rassomi va olimi. Florensiyadagi Vinci shaharchasida tug'ilgan. Mashhur haykaltarosh va rassom A. Verrokodan ta'lim olgan, matematika, anatomiya va boshqa fanlarga qiziqqan. Tasviriy san'at Leonardo da Vinci ijodining muhim qismini tashkil etadi. Leonardo da Vinci XV asrning 70—80-yillarida mayjud borliq go'zalligi, boyligini madh etuvchi «Gul tutgan Madonna» (Ermitaj), «Vahiy» (Uffitsi) ajoyib asarlar yaratgan. U asarlarida kishilarning ichki kechinmalarini ularning yuz qiyosalari, xatti-harakatlarida ko'rsatib, Uygonish davri san'atini boyitdi.

Leonardo da Vinci Medichi saroyidan taxminan 1482-yilda uzoqlashib, Milan hukmroni huzurida harbiy muhandis, me'mor, rassom va haykaltarosh bo'lib ishladi, bu yerda metall ishlash texnikasi bilan tanishib, fan sohasida ham muhim kashfiyotlar yaratdi. Bu davrda u «Madonna Litta» (Ermitaj), «Qoyadagi madonna» (Luvr) kartinalarini, «Maxfiy kechalar» (1495—1497) devoriy rasmini, «Jokonda» nomi bilan mashhur bo'lgan Mona Liza portretini (taxminan 1503, Luvr), «Avliyo Anna Maryam va go'dak Iso bilan», «Ioann cho'qintirgan ota» (1508, Luvr) kartinalarini yaratdi.

Me'mor sifatida ideal shahar loyihasini chizdi. U san'at, fan, texnikaning turli sohalariga oid yetti ming sahifaga yaqin qo'lyozma muallifi. Leonardo da Vinci to'quv dastgohlari, bosma mashinalarning ko'plab loyihalarini yaratgan edi. U biologiyada eksperimental usul tarasdori bo'lgan, rassom hamda olim sifatida odam va hayvon anatomiysi bilan shug'ullangan. U butun ijodini hayot talablariga javob bera oladigan fan va san'at yaratishga qaratgan ko'p qirrali iste'dod egasi bo'lgan.

## HAYKALTAROSHLIK

*Jaykaltaroshlik* — tasviri san'atning turi bo'lib, tasvirlanadigan narsani hajmli, uch o'lchovli (uzunlik, kenglik, balandlikka ega) qilib aks ettilish tamoyiliga asoslangan san'at turi. Asosan, inson, qisman hayvon va qushlar, tabiat (manzara), narsalar (natyurmort) ifodalananadi. Haykaltaroshlik asarlari, asosan, 2 turga: hamma tomonidan ko'rish imkonini bo'lgani mukammal shaklli haykalga va bir tomondangina ko'rildigani relyesga bo'linadi. Haykalda kishining boshi, beligacha (byust), tizzasiga-cha, butun gavdasi (bularda muayyan shaxs aks ettililgan bo'lsa — portret), ikki yoki bir necha kishi (muayyan shaxslar aks ettililgan bo'lsa — guruh portret) ishlanishi mumkin. Relyesning hajmi va shakli uning o'rnatiladigan joyiga, qanday maqsadda xizmat qilishiga qarab tanlanadi, undan ko'pincha me'morchilik (friz, fronton, plafon va boshqalar)da foydalilanadi. Relyesning past (barelyef), baland tasvir (gorelyef), fonda o'yib ishlanadigan xillari bor.

Mazmuni va vazifasiga ko'ra haykaltaroshlik monumental haykaltaroshlik (yirik haykal, yodgorlik, memorial inshootlar — jamoat joylariga o'rnatiladi, yirik hajmda ishlanadi, muhim g'oyalilar targ'ibotiga xizmat qiladi) va monumental bezak haykaltaroshlikka (binolar, turli inshootlarga, bog', hiyobon, maydon, yo'l va boshqa joylarda muhitga moslab, bezak tarzida o'rnatiladi, hajmi har xil; badiiy favoralar ham unga kiradi) bo'linadi. Dastgohli haykaltaroshlik (muzey, ko'rgazma zallariga, binolarning interyerlariga qo'yiladi, hajmi asliga yaqin yoki sal yirik; yaqindan ko'rindi) va juda kichik haykaltaroshlik asarlari (sopol va chinni haykalchalar, shuningdek, plaketka (relyef, tasvirli plastinka) o'yib ishlangan shakllar, uy-ro'zg'or buyumlari, jihozlar, quroq va idishlardagi shakl-tasvirlar, zargarlikda relyef hosil qilib tayyorlangan bezaklar va shu kabilalar)ga bo'linadi.

Monumental, monumental bezak, qisman dastgohli haykaltaroshlik asarlari aralash san'at turiga kiradi. Kichik haykaltaroshlik asarlari ko'pincha uy ichini bezaydi, jihoz, quroq, idish va boshqa buyumlarni badiiy buyumga aylantiradi. Haykaltaroshlikning buturi juda qadim zamonlardan rivoj topgan.

Metall (bronza, mis, qalay, cho'yan, po'lat, alyumin), gips, beton, shisha, plastmassa kabi materiallardan asar quyib, qotiriladi (boshqa materialdan tayyorlangan modeldan shakl-qolip tayyorlab quyiladi). Tayyor metallga zarb berib, ishlov berib, bog'lab ham haykaltaroshlik asari ishlanadi.

Tosh (marmar, granit, ohaktosh, qumtosh, bazalt, diorit va boshqalar), suyak, yog'ochni kesib, yo'nib, o'yib tasvir ishlanadi. Tosh shakl tayyor bo'lganda sayqal beriladi. Yog'och, odatda, nim rangga bo'yaladi.

Haykaltaroshlik tarixi qadimiy paleolit va neolit davrlardayoq sopol, suyak, shox, toshning yumshoq xillaridan hayvon, qush, kishilarning tasvirlari tayyorlangani ma'lum. Qadimgi Misrda toshdan ulkan sfinkslar ishlandi, sir'avnlarning katta haykal va relyeflari yaratildi. Ularda sir'avnning qudrati ifodalandi, ko'pincha ilohiyashtirib aks ettirildi. Qadimda ham, bugungi kunda ham haykaltaroshlik insonparvarlik g'oyalariga xizmat qilmoqda.

### AMALIY BEZAK SAN'ATI

«Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi».

S. Bulatov

Xalqimizning amaliy san'ati boy an'analarga va uzoq tarixga ega. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'z madaniy merosini o'zi vujudga keltirgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan badiiy ijod namunalari xalq amaliy san'atining tarixi tosh asriga borib taqalishini ko'rsatadi.

Asrlar o'tadi, bir ijtimoiy tuzum o'rnidagi ikkinchisi paydo bo'ladi, ammo xalq moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda davom etaveradi. Xalq amaliy san'ati doimo kishilarni turmush farovonligini oshirishga va ularga estetik zavq baxsh etishga xizmat qilib keladi. O'zbek xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan yuksak san'at namunalari jahoning turli shaharlaridagi amaliy san'at va etnografiya muzeylarida namoyish etilib, katta olqishlarga sazovor bo'lgan.

Bezakli amaliy san'at turi tasviriy san'atga yaqinroq turadi. U amaliy maqsadlarga mo'ljallangan bo'ladi. Bezakli amaliy san'at,

asosan, maishiy turmush ehtiyojlariga xizmat qiladigan narsa, buyumlar yaratadi.

O'zbekiston amaliy bezakli san'ati dastgohli tasvir shakllaridan farq qilib, xalq tarixi bilan bog'liq holda murakkab va ko'p asrli rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Bu san'at turi voqelikni estetik idrok etib, yangiliklar yaratishga qaratilgan san'atdir. Hozir nafis gazlamalar, gilamlar to'qish, sopol idishlarga gul solish, do'ppi tikish, zardo'zlik, kashtachilik, so'zanaga gul tikish, misgarlik, kulolchilik, zargarlik, musiqa asboblari yasash kabi san'at turlari keng tarqalgan. Zardo'zlik san'ati ustalari turmush buyumlar, bejirim do'ppilar, milliy kiyimlar, ajoyib pannolar yaratmoqdalar.

### NAQQOSHLIK SAN'ATI

«Agar kimki rasmdagi har bir chiziqla jon bag'ishlay olar ekan, u san'at kalitini egallagan bo'ladi».

*Naqqosh Maoniy*

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur yuksak did bilan ishlangan naqshlari bizni doim hayratga solib keladi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, qush, hayvon, o'simlik, geometrik shakllar va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishdan hosil qilingan bezakdir.

Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga; geografik o'miga, o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi.

O'zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya viloyatlarida naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxon vohasidagi Fayoztepa (I—II asr) Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalar qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar.

Tuproqqa'l'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar o'yma naqshlar va tasvirlar bilan bezatilgan.

VII asr oxiri — VIII asr boshlariga kelib, O'rta Osiyoda islom dini qaror topdi va bu yangi din O'rta Osiyo tasviriy san'atiga o'z

ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlar suratini chizish man etildi. Islom talablari asosida naqqoshlia rivoj topdi. Arab yozuvi o'z-lashtirildi. Naqshlar bilan birgalikda unvnli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi

O'zbek naqqoshlari, asosan, ko'k (lojuvard), zangori (havo rang, moviy), yashil, sariq, qizil, oq, qora ranglar bilan naqsh ishlaydilar. Naqqoshlikning usul va uslublari avloddan-avlodga o'tgan (masalan, bo'yoq tayyorlash, oldin naqshning asosiy chiziqlarini chizib zaminni bo'yab olish va hokazolar), lekin yozib qoldirilmagan. Ustaning naqsh ishlash sirlarini faqat shogirdlarigina yaxshi bilganlar.

XV asr boshlarida yozilgan «Tasviriy ish ustalari kasb uyushmasining nizomi» nomli risola o'ziga xos axloqiy qoidalar majmuasi bo'lib, unda naqqoshlik ustalari Ubayd Buxoriy, Abdujalol Toshkandiy, Jaloliddin Andijoni kabi hassos san'atkorlar nomlari hurmat va ehtirom bilan tilga olinadi, naqqoshlik san'ati O'rta Osiyo hududida keng tarqalib, xalq tomonidan bu san'at turi nihoyat darajada e'zozlangani to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Naqqoshlik san'ati «Nizomi»ning yozilishi va bizgacha yetib kelishi bu san'at turining uzoq tarixini, unga izehil amal qiliniganini, u binolar va kitoblarni badiiy bezashda, o'ymakorlikda



Naqqoshlik san'ati namunalari.

keng o'rin egallaganini ko'rsatib turibdi. Naqqoshlik va xattotlik san'atining keng yoyilganligi insonlarning ilohiy va dunyoviy go'zalliklardan bahramand bo'lishga intilish maylidan dalolat beradi.

Naqqoshlar naqsh tushiriladigan joyning nihoyatda silliq bo'-lishiga alohida ahamiyat beradilar, bu — naqshning jozibador chiqishiga, bo'yq tejalishiga imkon bergan. Naqqoshlarning mehnat qurollari, asosan, naqsh chizmasi, turli hayvonlarning mayin junidan tayyorlanadigan katta-kichik mo'yqalam (cho'tka)lar, chizg'ichlardir.

Naqsh tayyor bo'lgandan so'ng bo'yalib va o'chib ketmasligi uchun uni loklaganlar. Lokni, asosan, ustalarning o'zлari tayyorlaganlar. Hozir esa naqqoshlar fabrikada tayyorlangan moyli bo'yoqlardan, tez quruvchi emal bo'yoqlardan foydalanadilar. Daraxt, marmar, ganchga murakkab guldor bo'rttirmalar o'yish, yog'och bezash va naqshin panjaralar ishlash sohasidagi nodir asarlar me'morchilik bilan bog'liq monumental amaliy bezakli san'at doirasida yaratilyapti.

## XATTOTLIK SAN'ATI

Naqqoshlik va xattotlik san'atining islom aqidalariga muvosiq keng yoyilganligi insonning ilohiy va dunyoviy go'zalliklardan bahramandlikka intilish maylidan dalolat beradi.

Bu davrda kitoblar qo'lda ko'chirilar, bu mehnat turi san'at darajasiga ko'tarilgan edi. Go'zallik qonunlariga riosa qilib ishlangan qo'lyozma kitoblar «Nafis kitob» va xattotlik san'ati deb yuritilgan. Nafis kitob san'at turi sifatida kitobxonga estetik zavq bag'ishlashi lozim bo'lib, bu sohada mashhur xattotlar, naqqoshlar yetishib chiqqan edi. Mohir xattotlar va naqqoshlarning o'z usul va an'analari qaror topgan edi.

XIV—XV asrlarda nafis kitob va xattotlik san'ati yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Mashhur xattot Ali Tabriziy (1330—1404- y.) nasta'liq xatini kashf qildi. Bu uslub xatti kusiy, xatti shikasta, nasx va boshqa uslubdag'i xatlar o'rnnini keng egalladi. Nasta'liq uslubi Sulton Ali Mashhadiy tomonidan yanada takomillashtirildi. «Xatti hirotiy» nomi bilan mashhur bo'lgan bu uslub XX asr boshlarigacha davom etdi.



### Xattotlik san'ati.

naqshlar turli-tuman bo'lib, har bir devon tuzuvchining sahilarga oro berishda o'ziga xos uslubi bo'lган. Shu bois qo'lyozmalarni ko'chirish va ziynatlashda qo'llaniladigan naqsh va jilo turli-tuman ko'rinishda bo'lганligi sababli, har bir bezak xili alohida nomga ega bo'lган. Sharq kitobati va me'morchiligidagi, asosan, «islimi», «xitoyi» bezaklari ko'п ishlatalgan. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Samarqandda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan masjidi Muqatta'ning «qit'a-qit'a yig'ochlari tarosh qilib islamiy va xitoiy naqshlar solib-turlar, tamom devorlari va saqsi ushbu yo'sunluq» ekanligini aytib o'tadi.

Sulton Ali Mashhadiy «Qubtat ul kuttab» («Kotiblar sardori») va «Sulton ul xattotin» unvoni bilan sharaflangan. Mashhur xattot, naqqosh, shoir bo'lган Sultan Ali Mashhadiy ko'chirgan Nizomiy, Attor, Sa'diy, Jomiy, Navoiyning nafis kitoblari jahon kutubxonalarida hozir ham nodir san'at asarlari sifatida c'zozlanib saqlanadi.

Sulton Ali Mashhadiyning 1514-yilda yozilgan «Xattotlar va musavvirlar haqida risola»sida aytilishicha, husnixat (xattotlik) san'atining o'ziga xos maxsus maktabi bo'lган. O'sha davrda zabbardast ijodkorlar asarlari musavvirlar tomonidan rango-rang bezatilib, uning matnlari husnixat orqali maxsus xattotlar tomonidan bitilgan.

Bu esa o'sha asarlarning xalq orasida keng tarqalishiga va sevib o'qilishiga sabab bo'lган.

Qo'lyozma devonlarni bezatishda qo'llaniladigan bezak va

119

## NOTIQLIK SAN'ATI

«Nutq — qudratli kuch: u ishontiradi,  
undaydi, majbur etadi».

R. Emerson

Jamoat oldida so‘zga chiqib, biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zaruriyati qadimdan odamlarni so‘zamollikka rag‘batlantirib kelgan. Hatto Gomer ham o‘z poemalarida Nestor, Menelay va Odisseyning gapga nihoyatda chechan bo‘lganliklarini qayd etib o‘tadi.

Biroq notiqlikning qadimgi namunalari yozma shaklda bizga yetib kelgan emas.

Qadimgi Afina davlatidagi sud tartiblari ham notiqlik san’atining keng rivoj topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Sudga ishi tushgan odam sud majlisiga kelib da’volarini bayon etishi yoki o‘zini himoya qilishi lozim edi. Shu tariqa sudda gapirish uchun maxsus nutqlar yozib beradigan bilimdon va tajribali qonunshunoslarga katta chtiyoj tug‘iladi. Natijada hozirgi advokatlarga o‘xshagan «logograflar» deb ataluvchi maxsus kasb kishilar paydo bo‘ladi.

Notiqlik san’atining 2 turi maydonga keladi: siyosiy notiqlik, sud notiqligi. Keyinchalik uchinchi turi — epidertik, ya’ni tantanali nutq notiqlari paydo bo‘ldi.

Epidertik notiqlar ulug‘ zotlarni va mashhur voqealarni madh etib, tantanali yig‘inlarda nutq so‘zlaganlar. Notiqlik san’atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko‘targan kishilar sofiylar bo‘lgan.

Ular notiqlik san’atining nazariy asoslарини, ya’ni «ritorika» ilmini yaratadilar... «Ritor» so‘zi, umuman, notiqlarga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik notiqlik san’atiga o‘rgatuvchi maxsus mualliflarni shu nom bilan ataydilar.

Notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni mastun qilish, rom etishdir.

Xususan, notiqlar vatandoshlariga murojaat qilib, yurt baxti, el ozodligi yo‘lida ularni bir yoqadan bosh chiqarib yovuz dushmanga qarshi ko‘tarilishiga chaqiradi. Vatandoshlariga o‘tmishidagi shonli davrlarni eslatib, ularni jangovar ruhini

uyg'otishga, xudbinlik, beg'amlikka barham berib, vatan istiqbolini o'ylashga da'vat etadi.

Elmillin davri olimlari Afinada yashab, bu yerda ijod qilgan mashhur so'z san'atkorlari orasidan eng ulug'lari deb 10 ta lotiqni tanlaganlar va ritorika ilmini o'rganishda ularning asarlarini tavsiya etganlar. Bular orasida eng mashhurlari Eshil, Demosfen, Lisiy, Giperidlardir. Ular usbulining butun latofati vadilbar fusunkorligi tilining soddaligi, lo'ndaligi va ravshanligidadir.

Qadimda so'z aytuvchi notiqni — voiz, uning nutqini esa va'z deb ataganlar. Ming-minglab xalq oldida va'z aytish juda og'ir yumush bo'lib, uni hamma ham uddalay olmasdi. Chunki voizlik bilimdonlikni, salohiyatni, so'zga boylikni, va'z ayta olish iste'dodini, yoqimli ovozni talab etardi. Biron gapni xalqqa ma'qul qilish, ularga oddiy, sodda qilib tushuntirish uchun notiqlar so'zlarning tovlanishini, sinonim-omoniimlarni bilish bilan birgalikda davlat qonun-qoidalaridan, mamlakat hayotidan to'la xabardor bo'lishlarini taqozo etardi. O'z fikrini xalqqa manzur qila olmagan notiq ikkinchi marta minbarga chiqqa olmas edi. Shuning uchun notiqlar minbarga chiqishdan oldin doimo puxta tayyorgarlik ko'rardilar. So'z aytishning turli-tuman xillarini, vositalarini o'ylab topardilar. Shuning uchun O'rta asrlarda notiqlik san'ati, ayniqsa, O'rta Osiyoda keng rivojlandi.

XII asrda Bahovuddin Valad, XIII asrda Jaloliddin Rumiy, XV asrda Husayn Koshisiy, Mu'inuddin Voiz, Voiz Haraviy, Zayniddin Vosifiy kabi notiqlik san'atini puxta egallagan so'z ustalari yetishib chiqdilar. XVI asrga kelib notiqlik san'ati turlari, qonun-qoidalarini aks ettiruvchi bir necha ilmiy-uslubiy qo'llanmalar vujudga keldi. Ayniqsa, Muhammad Rosi Voizning «Avbobul-jinon», Voiz Qazviniyning «Zilolu maqol», Voiz Shirvoniyning «Ahsan-ul-ahodis», Muhammad Bobur binni Muhammad Voizning «Hidoyat ut-taqdim», Kuraysh Sindiyning «Anis ul voizin», Mullo Kalon Voiz Samarqandiyning «Ravzat ul voizin», Qozi Ushiyning «Mirmoh un-najoh» kabi asarlari yosh voizlar uchun qo'llanma vazifalarini bajargan. Bundan tashqari tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Alisher Navoiyning «Majolis un nafois», Zayniddin Vosifiyning «Bado'e ul-vaqoye」, Xondamirning «Makorim ul-axloq» kabi asarlarida ham notiqlik, ya'ni voizlik san'ati haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Notiqlik qadimda, ayniqsa, Sharq mamlakatlarida umum davlat ahamiyatiga molik ish hisoblanib, bir necha turga ajratilgan. Ilmiy-siyosiy nutq, babs-munozarali nutq, targ'ib va tashviq qilish ruhidagi nutq, marsiya nutqi, tabrik nutqi va boshqalar.

Notiqlik san'ati qadimda voizlik san'ati deb yuritilgan. «Qomusi usmoniy» nomli lug'atda va'z «kishilarning qalbini yumshtadigan pand-nasihatlar» deb ta'rif beriladi. Haqiqatan ham voiz har gal so'zga chiqishida ma'lum bir g'oyani ilgari surishni maqsad qilib oladi. Umum mansaatiga xizmat qilib, shu bilan o'zları yanada olajanobroq bo'lgan kishilarni tarix ulug' kishilar deb hisoblaydi. Husayn Voiz Koshifiy xuddi mana shunday ulug' kishilardan biri bo'lib, u umummansaat uchun ko'p xizmat qilgan, o'z davrining mutafakkiri darajasiga ko'tarilgan, u yaratgan qo'llanmalar, darsliklar madrasalarda o'qitilgan edi. Koshifiyning estetik qarashlari hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

### GANCHKORLIK SAN'ATI

«Bo'lib ganchkorlig' siylin ravoqi,

Nechunkim, qosh ichinda ko'zning oqi».

Alisher Navoiy

Xalq hunarmandchiligidagi ganchkorlik san'ati ham o'zining estetik zavq beruvchi, nafosatga boy va serqirra asarlari bilan muhim o'rinni tutadi. Qadimdan bu san'at me'morchilik bilan uzviy holda rivojlanib kelgan. O'rta Osiyo va Sharq xalqlarining estetik didi naqadar yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beruvchi Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Farg'ona va boshqa shaharlardagi ganchdan ishlangan san'at asari namunalarini ko'rib ajdodlarimizning iste'dodlariga tasannolar aytamiz.

Ganch o'z xususiyatiga ko'ra issiq va sovuqni kam o'tkazuvchi bo'lib, tabiiy holda tog' jinsidan olinadi. Tabiiy va mustahkamlik quvvati yo'qolganda qayta ishlanishi bilan sun'iy ganch hosil qilinadi, chunki u namlikka chidamsiz. Xonaki usulda ishlov berish bilan ganchdan binolarning ichki va tashqi bezaklarida keng foydalilanildi.

Har bir usta o'z maktabi, o'z uslubiga ega bo'lib, me'moriy va badiiy jihatdan sermazmun, betakror naqshlar yordamida yarat-



O'yma-ganch kompozitsiyasi.

gan asarlari kishilarga ma'naviy oziq va estetik zavq bag'ishlaydi. Ganch qorishmasi yangiligidagi oson kesiladi, undan xohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin.

Lekin u qotgach, qattiq toshga o'xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu xususiyatidan foydalanib, tarixiy an'ana sifatida rivojlantirib kelmoqdalar. Ganch mahalliy qurilish materiali bo'lib, uning rangi ko'kish, sarg'ish va oq bo'ladi. Ganch 2 xil: tabiiy va sun'iy. Ganch tayyorlaydigan ustalarni ganchkorlar deb yuritishgan. Eng mayin, donachali ganchlar gulgang deb yuritilgan. Ganch o'yma-korligi bilan shug'ullangan ustalar ganchkorlar deb ataladi.

## MUSIQA SAN'ATI

«Musiqa — tafakkurning quadratli manbai.  
Musiqiy tarbiyasiz tom ma'nodagi aqliy kamolot  
bo'lishi mumkin emas».

V. A. Suxomlinskiy

Yana bir qadimiy san'at turi — musiqadir. U san'atning bir turi sifatida qadimiy tarixga ega. Bu san'at turi barcha davr daholari e'tiborini o'ziga jalb qilib keldi. Arastu: «Musiqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musiqa shunday hislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim», — deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda musiqa tengsiz ahamiyat kasb etadi.

Musiqa san'ati Sharqning buyuk allomalari Beruniy, Forobiy, Ibn Sinolarni ham qiziqtirib kelgan. Bu haqda ular maxsus asarlar ham bitganlar. Masalan, Ibn Sinoning «Al-muddohil ila san'atal musiqiy» asari fikrimizning dalilidir. U mazkur asarda shunday

yozadi: «Musiqa hayotbaxsh, olijanob, axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi. Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi». Olimning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir.

Bundan tashqari, Ibn Sino o'zining tibbiyatga oid «Kitoban-Najot», «Kitob ash-Shifo», «Donishnoma» kabi asarlarida ham musiqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan.

O'rta Osiyo olimlari Forobi, Ibn Sino, Najmuddin Kavkabiy, Darveshali Changiy kabi allomalarning musiqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda.

Shuni ham aytish lozimki, Sharq mutasakkirlari musiqa, ashula va maqomlarning yaratilish tarixi, shuningdek, kuylarni tinglash va ijro etishda vaqt va makonning roli xususida ham ibratli fikrlarni bayon etadilar.

Masalan, Mirzo Ulug'bek «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon» va «Usuli otlig» kuylarini, Alisher Navoiy «Isfazoniy» kuyini ijod qiladilar. Jomiy va Binoiylar musiqaga oid asarlar yozadilar. Musiqa san'ati ahllarining ijodiy faoliyati bilan IX—XII asrlarda vujudga kelgan duvozda (12) maqom kui bu davrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi, takomillashadi va yangi kuylar bilan boyiydi.

Demak, musiqa san'ati ham san'atning boshqa turlari va she'riyat bilan uzviy aloqada rivojlandi, mohir san'atkor mashshoqlar, bastakor va hofizlar yetishib chiqdi. Nodir va bebahosu musiqiy asarlar yaratildi.

Sharq va G'arb tillaridagi ko'pgina manbalarda Forobiyning musiqa nazariyasiga bag'ishlangan qomusiy xarakterdagi «Kitob al musiqiy al kabir» («Buyuk musiqa kitobi») yaratganligi va bu kitob so'nggi davrlargacha O'rta va Yaqin Sharqda musiqa nazariyasi va san'atning rivojlanishida muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilganligi aytildi.

Shunday qilib, musiqa deb atalmish ilohiy bu mo'jizada shunday bir sehr mujassamki, uni tushunish ta'sirini sezish uchun hech qanday tarjimonning keragi yo'q.

## MAQOM SAN'ATI

«Ul parivashkim, bo'lubmen zoru sargardon anga,  
Ishqidin olam manga hayronu men hayron anga!»

A. Navoiy

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga ega. Maqom kuylarining ibtidoiy shakllari eramizdan avvalgi uzoq davrlar musiqa madaniyatiga borib taqaladi. Bunda xalq musiqasining kuy, ohang va ritm usuli bobida erishgan natijalari murakkab maqom san'atining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Sharq olamida mashur bo'lgan o'n ikki maqom tizimining saroy musiqasidan munosib o'rincil olishida Amir Temurning xizmatlari katta bo'lgan. Sohib-qironning harakati bilan bu murakkab san'at ilmining bilimdon ustozlari turli mamlakatlardan bizning diyorimizga keltirilgan edi. Alisher Navoiy aytadi:

*Ey Navoiy, sen dog'i qilsang tama'sayri Hijoz  
Qil Iroq ohangi, tark aylab Xuroson men kibi,*

Bu g'azalda Iroq, Hijoz nomlari bilan ulug' Haj safariga ishora qilingan.

Maqom asli arabcha so'z bo'lib, o'rincil, joy, daraja, martaba, manzilgoh kabi tushunchalarni ifodalaydi. Maqom mukammal pardalar uyushmasi doira usullari mushtarakligida ijod etilgan cholg'u kuy va ashulalar majmuasi mazmunini ham ifodalaydi. Hozir O'zbekistonda maqomlarning uch turi mayjud:

1. Olti maqom (Shashmaqom yoki Buxoro maqomlari).
2. Xorazm maqomlari.
3. Farg'ona — Toshkent maqomlari.

Shu kunga qadar xalqning sevimli kuylari bo'lib kelayotgan Shashmaqom (olti maqom) duvozdah maqom zaminida shakllanib bordi. Shashmaqom olti turkumdag'i maqomlarni o'z ichiga oladi. Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq.

Bu maqomlardan har biri uch butoqdan tashkil topadi:

1. Mushkilot — faqat cholg'u asboblari bilangina ijro etiladi.
2. Nasr — cholg'u va ashula bilan ijro etiladi.
3. Ufor — cholgu, ashula va o'yin bilan ijro etiladi.




### Maqomechilar ansamblı.

XIV—XV asrlarda ajoyib musiqiy san'atkorlar — sozandalar, bastakorlar, hofizlar, raqqoslar faoliyat ko'rsatdilar. Abduqodir Noyi, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Mavlono Qosim Rabboniy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Hoja Yusuf Andijoniy, Ustod Shodiy, Mavlono Najmuddin Kavkabiy o'sha davrning mashhur san'atkorlari edilar. Ulugbek, Jomiy, Navoiy, Binoiy kabi allomalar ham musiqa ijrochiligi, musiqa nazariyasi bilan shug'ullandilar.

Tanbur, chang, qonun, ud, barbat, rubob, qo'buz, ro'd, g'ijjak, shamoma (musiqor), chag'ona, kungura, arg'unun (hozirgi organ cholg'u asbobi shundan olingan) va boshqalar asosiy cholg'u asboblari bo'lgan.

Bu cholg'u asboblari malakali ustalar tomonidan yasalgan, ustalar ko'pincha tut yog'ochini ishlatganlar, torni ipakdan yasanlar, cholg'u asboblarini qimmatbaho tosh va boshqa bezaklar bilan chiroyli qilib bezatganlar.

Dunyoda musiqani sevmaydigan, undan ta'sirlanmaydigan inson bo'lmasa kerak. Go'zal kuy-qo'shiq kishi kayfiyatini ko'taradi. Musiqani tushunish uchun tarjimonning keragi yo'q. Shu sababli ham Shopen, Betxoven, Motsart, Bax, Chaykovskiy, Shostakovich kabi buyuk insonlar yaratgan asarlar hamma millatlarning



Musiqa asboblari.

faxri hisoblanadi. Chunki bu nodir musiqa asarlari insaniyatning bebahoyligidir.

Qadimda har bir o'zbek xonardonida biron-bir cholg'u asbobi osig'liq turgan. Shu xonodon sohiblari bu musiqa asbobini chalishni yaxshi o'zlashtirganlar.

Xorazmda bir qator uslublar mavjud bo'lib, ular sozan-dachilik, dostonchilik, yalla-chilik, xalfachilik kabi yo'naliishlarda ko'rindi. Xorazm suvoralarini tinglash har bir insonga estetik zavq bag'ishlaydi:

*Ko'nglima bir gul g'amidin sanchilibdur xorlar,  
Oh kim, har xordin jonimdadur ozorlar.  
Aylamish ko'nglimni jilvayi laylivashi,  
Kim asiri g'amzasidirlar pari ruxsorlar...  
... Muniso, ag'yor gar hamsuhbat o'lsa yor ila,  
Bo'lma mahzun hamdam'i gul bo'lgusidir xorlar.*

### QO'SHIQCHILIK VA RAQS SAN'ATI

Qo'shiqchilik va raqs san'ati O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlarda turmush sharoiti, marosimlar, bayramlar bilan bog'liq holda qadim zamonalardan beri rivoj topgan. Qoltoshlardan topilgan rasmlar, arxeologik materiallar buni tasdiqlaydi.

Zamonaviy xoreografiya janr, tur va uslublarga boy. O'zbek raqslari gavdaning nafis harakatidan iborat, klassik raqlarda baxt va baxtsizlik, quvonch va xafagarchilik, hayat va o'lim qayg'usi bilan ifodalanadi.

Klassik raqsning Farg'ona, Xorazm, Buxoro uslublari mash-hurdir. Tarixiy sharoit taqozosi bilan Farg'onacha uslub keng rivoj topgan.

1923-yilda atoqli o'zbek ashulachisi M. Qoriyoqubov mashhur musiqachi va yosh raqs ustalaridan iborat konsert truppassi tuzdi. Truppa qatnashchilaridan Tamaraxonim va M. Qoriyoqubov Parijda o'tkazilgan I jahon bezak san'ati ko'rgazmasida ishtirok etib, muvaffaqiyat qozonganlar. O'tgan asr 20-yillarda o'zbek davlat konsert etnografik ansamblining faoliyati qo'shiqchilik va raqs san'ati rivojida muhim rol o'ynadi. Dastlabki o'zbek ommaviy raqsi usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziqlar boshechiligida yaratildi.

1928-yilda birinchi eksperimental musiqa teatri tashkil topdi. 1956-yilda «Shodlik» ashula va raqs ansambli tashkil etildi va bu ansambl o'zbek klassik va xalq raqs san'atining eng yaxshi an'analarini rivojlantirdi. 1957-yilda «Bahor», 1958-yilda «Lazgi» xorazmcha ashula va raqs ansambli tashkil etildi. O'zbek raqslari orasida «Munojot», «Tanovor», «Dilxiroy», «Lazgi», «Dildor», «Uchrashuv», «Tong navosi», «Andijon polkasi», «Go'zal» kabi raqslar keng tarqalgan.

Hozirgi kunda ham ko'plab qo'shiqchilik va raqs dastalari kishilarga estetik zavq bag'ishlab kelmoqda. Balet san'ati 1928-yilda etnografiya truppa qoshidagi studiyada Tamaraxonim tashabbusi bilan yigit va qizlar Yevropa klassik baleti elementlarini o'rgana boshladilar. Keyinchalik o'zbek musiqali teatrda balet-meysterlar balet san'atini o'rgatishdi.

1939-yilda o'zbek Davlat muzika teatri o'zbek Davlat opera va balet teatriga aylantirilib, milliy balet spektakllari yaratildi. Hozirgi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri jahon balet san'atining mashhur asarlarini muvaffaqiyat bilan sahnalashtirmoqda.

## BADIY ADABIYOT

«Adabiyot yashusa, millat yashar: adabiyoti gullagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, inqiroz bo'lur».

*Cho'Ipou*

San'atning eng qadimiy va ommaviy turlaridan biri badiiy adabiyotdir. Adabiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri — bu san'at insonshunosligidir. Badiiy adabiyot so'z orqali namoyon

bo'ladi. Shuning uchun badiiy adabiyot so'z san'ati ham deb ataladi. So'z san'ati ikki xil, yozma va og'zaki ko'rinishga ega. Har bir badiiy asarni o'qigandan keyin zehnimizda asarda tasvir etilgan kishilarning obrazlari qoladi. Alisher Navoiyning dostonlarini o'qib, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Iskandar, Bahrom, Hisrav kabi qahramonlarning obrazlarini eslab qolamiz. Yozuvchi har bir muayyan tarixiy davr va sharoitda yashagan insonni o'rGANADI, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida bizga aniq va ravshan tasavvur beradi. Badiiy adabiyot — badiiy tafakkur mahsulidir.

Bu vazifani badiiy adabiyot obraz yaratish yo'li bilan bajaradi. Obraz — insonning tasviri bo'lib, u hayotdagi odamning asl nusxasini emas, balki yozuvchining ma'lum davrda va sharoitda yashovchi insonlar haqidagi tasavvurining ifodasidir. Badiiy adabiyotda tasvir etilgan barcha inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma'lum davr va muhit kishisining xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi. Shu sababli, obrazlilik — badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

Badiiy adabiyot san'at turi sifatida o'zining ichki tizimiga, uslubiga va o'ziga xos ko'rinishga ega. Masalan, qadimgi Yunoniston badiiy madaniyati tarixida badiiy adabiyot doirasi uning uch katta adabiy turini — epik, lirk, dramatik ko'rinishlarini qamrab olgan edi. Epik tur, avvalo, voqealarni badiiy o'zlashtirish bilan, lirk tur — kayfiyat yoki ruhiy holat bilan, dramatik tur — harakat bilan bog'liq holda amal qiladi. Bu uch turning barcha belgilari badiiy aks ettirish uchun zarur bo'lgan voqelik bilan chambarchas bog'liq edi.

Badiiy adabiyotning epik turi muayyan badiiy sifat ham kasb etadi. Shu bois, ba'zi san'at asarlariga nisbatan «epik roman», «epik kenglik», «epik osoyishtalik» kabi iboralar qo'llaniladi. Badiiy asar muayyan inson taqdirini aks ettirish va uni davr ma'naviy hayotining bir qismi sifatida tasvirlaydi.

Adabiyotning epik turi haqida so'z yuritilganda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Firdavsiyning «Shohnoma», Navoiyning «Xamsa»siga kiritilgan «Hayrat-ul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari, A. Qodiriyning «O'tgan kunlar», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Oybekning «Navoiy», Pirimqul Qodirovning

«Bobur», «Humoyun va Akbar» kabi asarlari ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Navoiy dostonlarida epik mazmunni nazm shakllarida bayon qilish mahorati barq urib tursa, Qodiriy romanidagi nasriy bayonni epik mazmunning lirik ohangdagi ifodasi deb baholashimiz mumkin. «O‘tgan kunlar»da epik mazmunning lirik ohangi chin insoniy his-tuyg‘u ramzi, pok sevgi timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Navoiy dostonlarida esa epik mazmunning lirik shakl (she‘r)da aks etishi shoirning «Xamsa» yaratish an’anasida to‘la ifoda topgan. Ular mohiyat mazmun jihatidan hatto ba’zi bir maxsus yaratilgan falsafiy risolalardan ustun turadi. Bu lirik xazinada jozibali va chtiroslis his-tuyg‘u katta ifoda kuchi orqali sayqal topib, lirik-falsafiy ma’nodorlik kasb etgan.

Lirika bevosita tasvir uslubidan foydalanmasligi jihatidan musiqa va raqsga yaqin bo‘lsa-da, o‘zining so‘z bilan qat’iy birligi tufayli u inson ma’naviy hayotining hamma qirralarini ifodalash imkoniyatiga egadir.

Badiiy adabiyotning ko‘pgina asarlari bir vaqtning o‘zida ham epik, ham lirik tur belgilariiga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek adabiyotida Cho‘lpon va Usmon Nosir, Abdulla Ori pov va Erkin Vohidov lirikasida badiiy uslub xilma-xilligidan qat’i nazar, ular ijodida lirik va epik tomonlar hamjihatlikda mavjudligini ko‘ramiz. Ularning ham lirik, ham epik asarlar yaratishga moyilliklari mantiqiy tarzda bu shoirlar ijodida dramaturgik turni paydo qiladi.

Dramaturgiya asarlari, avvalo, sahnalashtirishga mo‘ljallangan bo‘lib, uni ham adabiyot turi, ham teatr qismi deb ataydilar. Bu tur hayotning dramatik lahzalari va tomonlarini yanada to‘laroq aks ettirish talab-echtiyojlaridan kelib chiqqan bo‘lib, har qanday dramatik asar asosini ziddiyat (konflikt) tashkil qiladi. Dramatik asarlarda kundalik hayotning tub o‘zgarishlarga moyilligidan dalolat beruvchi tomonlarini to‘laqonli ochib berish asosiy o‘rin egallaydi.

Badiiy adabiyot san’atning barcha turlariga ta’sir o‘tkazib keladi. Bu san’at turi ta’siridan xoli badiiy ijod sohasi yo‘q bo‘lib, unda ilk bor qalamga olingan mavzu, g‘oya, ohang, qiyosa, xulqatvor, keyinroq san’atning boshqa turlariga ham ko‘chish mumkin. San’atning teatr va kino kabi aralash, tomoshaviy turlariga ham

badiiy adabiyot ilk asos vazifasini bajaradi. Nihoyat, san'at taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan badiiy asarlar vujudga kelishida ham adabiyot asosiy uyg'unlashtiruvchi va jamlovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bu fikr-mulohazalardan badiiy adabiyot barcha san'at turlaridan ustun turadi yoki boshqa turlar o'mnini ham bosa oladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. U qaysidir jihatlari bilan boshqa san'at turlaridan ustun bo'lsa, qaysidir jihatlari bilan ularga «yo'l» beradi, ular bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Shu tariqa, badiiy adabiyot boshqa san'at turlarini boyitadi, ayni vaqtida uning o'zi ham boyib boradi.

Xalq dostonlari adabiy musiqiy asarlardir. Ularning tarkibida nasriy va nazmiy (she'riy) qismlar bo'lib, ular mazmuni o'zaro bog'liq bo'ladi. Doston ijrochilarini shoir yoki baxshi deb ataydilar. Baxshilar san'atida so'z, qo'shiq, soz (do'mbira) cholg'uchiligi birlashgan bo'ladi. Asrlar osha sevib ijro etib kelinayotgan «Al-pomish», «Go'ro'g'li», «Avazxon» kabi dostonlar xalqimizning estetik tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

*Termani qo'yaylik, aytaylik doston,  
Quloq soling, yig'ilgan do'st-qadrdon.  
Olamda mashhurdir Go'ro'g'li sulton,  
Go'ro'g'lidan aytaylikmi bir suxan.*

### ARALASH SAN'AT TURLARI

Jomosha san'ati yoki aralash san'at turlariga teatr, ochiq sahna (estrada), sirk, kino, «oynai jahon» (televideniye) kiradi. Ularni murakkab tarkiblar va «o'yin» birlashtirib turadi.

Ochiq sahna (estrada) va sirk san'ati teatr san'atiga yaqin turadi. Ochiq sahna san'atining asosiy xususiyati, u tomoshabin bilan to'g'ridan-to'g'ri va bevosita, yengil va samimiy muloqotda sodir etiladi. Sirk san'ati, dorbozlik, qiziqchilik ham eng qadimiy san'at turlaridan bo'lib, ular keng xalq ommasi e'zoziga sazovor bo'lgan.

Sirk turli yoshdag'i va turli didli insonlarning sevimli tomoshasi bo'lib qolgan. Dorbozlik (dor o'yin) — baland dor ustida tomosha ko'rsatish san'ati.

U taxminan ikki yarim ming yil muqaddam Sharqda paydo bo'lib, so'ng butun dunyoga tarqalgan. Dor dastlab past qurilgan, mashqlar ham sodda bo'lган.

Davr o'tishi bilan dor tobora balandroq qurilib, o'yinlari murakkablashib borgan. Mashhur fransuz dorbozi K.E. Blonden hatto Niagara sharsharasi ustida dor qurib o'ynagan.

O'zbekistonda dorbozlik qadim tarixga ega. Ba'zi manbalar Amir Temur saroyida ajoyib dor o'yinlar ko'rsatilganini tasdiqlaydi. O'zbekistonning barcha yirik shaharlarida, ayniqsa, Quva va Asakada taraqqiy etgan dor o'yinlari tagida raqqoslarning o'yinlari, qiziqchilar, askiyachilarining chiqishlari bilan birga olib borilgan.

Dorbozlik, qiziqchilik va sirk tomoshasi ham eng qadimiy san'at turlaridan bo'lib, ular keng xalq ommasi e'zoziga sazovor bo'lган. Sirk artisti qiyosa mag'ziga kirib borishga intilmaydi, ba'zi «xavf-xatar»larni yengib o'tish orqali mahoratini namoyish etadi. Sirk san'atida g'aroyib moslamalarda hunar ko'rsatish (ekssentrik) va qiziqchilik-masxarabozlik, murakkab jismoniy tarbiya san'ati (akrobatika) va jonivorlarni o'rgatish (dressirovka) bir-biri bilan chatishib ketadi.


Bular sirk artistidan epehillik talab etadi. Bu san'at turi ajoyib-g'aroyib hunar ko'rsatish va voqelikni mubolag'alar tarzida o'zlashtirishga moyildir.

Sirk san'ati asosini murakkab mashqlar tashkil qiladi. U mustaqil estetik qiymatga ega bo'lib, sirk dasturining tarkibiy qismidir. Sirk tomoshalari xilma-xil san'at ko'rinishlarini jamlab namoyon etadi.

Shu bois sirk turli yoshdag'i va turli did-farosatli odamlarning sevimli tomoshasi bo'lib qolgandir.

## TEATR

Jomosha san'ati turlaridan biri — teatrdir. Bu san'at turi qadimiy Yunonistonda paydo bo'lган. Buyuk dramaturglar Esxil, Sofokl, Evripid va boshqalar yetishib chiqdi va ilk teatr binolari shu yerda qurildi. Bu san'at turi yillar o'tishi bilan Rimga va Rim orqali boshqa Yevropa mamlakatlariga kirib bordi. O'rta Osiyoda qiziqchilar, askiyachilar, ko'zbo'ylog'ichlar, dorbozlar



### Teatr.

— bularning hammasi xalq teatrini tashkil qilar edi.

V.G.Belinskiy aytganidek: «Teatr — bu san'at qasri, muqaddas koshona, u ezgulik mehrobi. Shoshiling teatrga, teatrga boring, tabarruk ostonaga qadam qo'ying».

Teatr san'ati vaqt va o'rin belgilariga ega. Spektaklda ko'pgina san'at turlari qatnashadi. Undagi buyum-jihozlar muhit, sahna bezaklari, kiyim-kechak va nihoyat aktyorning o'zi muayyan fazoli xususiyatga ega.

Spektaklda vaqt mezoni ham

muhim o'rin tutadi. Sahna asari doimo biror-bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladigan alohida harakatni namoyish etadi.

Teatrning o'rin, vaqt tomonlarini aktyor birlashtirib turadi. Aktyordan alohida iste'dod, xotira, ehtiros, tasavvur, ifoda etish mahorati talab etiladi. Aktyor mahorati teatr san'atining barcha shakllari uchun muhim xususiyatdir.

Teatr san'atining tub va nodir xususiyatini aktyor mahorati tashkil etadi. Teatr san'atining boshqa qismlari aktyor ijodini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Teatr so'zi yunoncha «teatron» so'zidan olingan bo'lib, qadimda yunonlar ommaviy tomoshalar bo'ladigan joylarni «teatron» deb ataganlar. O'sha zamon yunon tomoshagohlari minglab odamlarni bag'riga olar, ular ovoz eshitilishi (akustika) qonunlariga rioya qilingan holda yirik shaharlar yaqinida qurilar edi.

Teatrning bir qancha turlari mavjud. Masalan, drama teatri, qo'g'irchoq teatri, opera va balet teatri, musiqiy drama teatri, bir aktyor teatri. Bunday teatrlar O'zbekistonning barcha viloyat va shaharlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Shunday san'atkorlar bo'ladiki, ismi sharifini tilga olsangiz, ularning sahnada ijro etgan obrazlari ko'z oldingizda gavdalanadi. Abror Hidoyatov — Otello, Shukur Burxonov — Shoh Edip, Sora Eshonto'rayeva — Jamila, Nabi Rahimov — Xlestakov,

Zaynab Sadriyeva — Farmonbibi, Soyib Xo'jayev — Toshbolta, G'ani A'zamov — usta Mo'min, Obid Yunusov — O'tkuriy, Mahmudjon G'ofurov — Tohir. Umuman olganda, jahon teatr san'atida bunday holatlar ko'p uchraydi. Demak, teatr san'ati aktyorlarning ijrochilik mahoratiga bog'liq izlanishlari natijasida shakllanadi.

Qo'g'irchoq teatriga qadam qo'yar ekanmiz, xuddi bolalik dunyosiga qaytganday, sehrli, mo'jizakor olamga kirib qolganday bo'lamiz. Pardalar ochilib spektakl boshlangach, sahnada hayvonu qushlar, sehrgaru jodugarlar, afsonaviy mahluqlar ijobiy va salbiy qahramonlarni ko'rib, hayratga tushamiz. Bunday mo'jizakor olamning yaratuvchisi oddiy inson emas, sehrgar bo'lishi lozim, deb o'ylaymiz. Bolalarni estetik go'zallik olamiga yetaklovchi bu san'at turi necha asrlardan buyon o'z vazifasini to'liq ado etib kelmoqda. Qo'g'irchoq teatrida nafaqat sahna bezaklari, balki boshqa san'at turlari, grafika, rang-tasvir, dizayn, karikatura, haykaltaroshlik kabilardan keng foydalaniadi.

## KINO SAN'ATI

Kino ham san'at turi bo'lib, hayotdagি voqealarni o'z holicha yo maxsus inssenirovka qilib yoki multiplikatsiya, kompyuter vositasida qayta tasvirlab suratga tushirish yo'li bilan asarlar yaratadi.



«Bog'» filmidan lavha.

Kino san'atida adabiyot, teatr va tasviriy san'at, musiqa-ning o'ziga xos estetik jihatlari ifoda vositalari bilan uyg'unlashib ketadi.

Bu san'at tomoshabinlarni voqelik haqidagi tasavvurlarini, estetik didini shakllantirishda muhim vositadir.

Ushbu san'atning to'rt asosiy turi mavjud: badiiy kinematografiya, hujjatli kinematografiya, ilmiy-ommabop kinematografiya, multiplikatsiya.



«Lafz» filmidan lavha.

taraqqiyoti mo'jizasiga aylandi. Kino boshqa san'at turlari, xillari, ko'rinishlari, ifoda vositalaridan qorishma hosil qiladi. Kino san'atiga adabiyotning ta'siri juda kuehli. Yetuk adabiy manba yetuk kinofilm yaratish garovidir.

Harakatdagi kinokamera tomoshabin va san'atkori o'rtasidagi munosabatlarni tubdan o'zgartiradi. Eng avvalo ular o'rtasidagi masosa qisqaradi, tomoshabin his-tuyg'usi o'sadi, u voqeа-hodisalarning ishtirokchisiga aylanadi.

Ayni mahalda, operator qo'lidagi kinokamera film ijodkorlari fikr-tuyg'ularini aks ettiruvchi, ularni tomoshabinga yetkazuvchi nozik ijod jihoziga aylanadi. Kino san'ati kinoaktyor oldiga ham o'ziga xos talablar qo'yadi, u ko'proq o'zini tabiiy, samimiy, erkin, vazmin va bemalol tutadi.

Badiiy kinematografiyada epos, lirika, drama imkoniyatlaridan soydalaniladi.

Hujjatli kinematografiya adabiyot, jurnalistika janrlarining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ilmiy-ommabop kinematografiya tabiat va jamiyat hayoti va kashfiyotlar bilan tanishtiradi.

Multiplikatsion kinematografiya ko'pincha bolalarga mo'ljallangan bo'lib, grafik obrazlar yoki qo'g'irchoq personajlarni jonlantirish orqali yaratiladi.

Kino san'ati — fan-teknika



«Mahallada duv-duv gap» filmidan lavha.



«Bog» filmidan lavha.

Bu bilan kinoaktyor o'zining jozibadorligi va ehtiroslitilagini yo'qotmaydi, balki u yaratayotgan abzazning estetik ta'sir kuchi ortadi.

XX asrning ikkinchi yarmida «Oynai jahon» (televideniye) ravnraq topdi.

Shu bilan bog'liq o'zbek teleseriali ham shakllanmoqda. «Charxpalak» (pej. Sh. Junaydullayev), «Lafz», «Bog» (rej. B. Ahmedov) shular jumlasidandir.

### TELEVIDEНИYENING IJTIMOIY AHAMIYATI

Televideniye ijtimoiy ahamiyati jihatidan keng miqyosdag'i san'at turlarini o'z ichiga olib, u siyosiy, ilmiy-texnik, estetik va boshqa axborotni tezkor sur'atda yetkazib berishning eng muhim vositasidir.

«Oynai jahon»ning ilk badiiy vazifasi san'at turlari, xillari, ko'rinishlari samaralarini namoyish qilishdan iborat bo'lган. «Oynai jahon» estetik faoliyatning alohida sohasi sifatida qaror topdi. Chunki u shu qadar murakkab va aralash ijod sohasiki,

uni voqelikni badiiy idrok etishning yoki estetik faoliyatning bir turi deb atash ma'quldir.

### ***Sinov savollari***

1. *San'atning tarixiy taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?*
  2. *San'atda mazmun va shakl birligi haqida nimalar deya olasiz?*
  3. *San'atning qanday turlarini bilasiz?*
  4. *Xalq amaliy bezakli san'atiga misollar keltiring.*
-

## VII BOB. NAFOSAT TARBIYASI ASOSLARI

### ESTETIK TARBIYA — NAFOSAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSI

«*Har kishining dunyoda oromi joni — tarbiya,  
Baxtu iqboli saodatning makoni — tarbiya.  
Ey otalar, jonlaringizdan aziz farzandingiz,  
G'ayrat aylang, o 'tmasun vaqtu zamoni — tarbiya».*

*Abdulla Avloniy*

Estetik tarbiya — insonning voqelikdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o'stiradi. Estetik tarbiya, shuningdek, insoniyat faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, ya'ni go'zallik qonuni bo'yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiya ijtimoiy sharoitlarga bog'liq.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi — jamiyat a'zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go'zallikni to'laqonli his etishga ko'maklashishdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning hayotiy omillari faqat estetika, madaniyat, san'at, adabiyotdangina iborat emas. Ijtimoiy ong ko'rinishlari va estetik qarashlar bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, turmush va texnika, sport va milliy urs-odatlar ham nafosat tarbiyasining nihoyatda muhim omillaridandir.

Estetik tarbiyani to'la amalga oshirmay turib axloqiy, g'oyaviy-siyosiy tarbiya asosida rivojlangan barkamol shaxsni voyaga yetkazib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning asosiy ma'nosi va vazifasi kishilarda dunyo go'zalligi to'g'risida his-tuyg'ular, tasavvur va fikrlarni tarbiyalash va takomillashtirish orqali inson shaxsining har tomonlama va uyg'un rivojlanishiga ko'maklashishdan iborat.

Estetik tarbiya, eng avvalo, tabiat va jamiyatda hamda san'at asarlarida go'zallikni ko'ra bilish, uni to'g'ri tushunish va qadrlash qibiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go'zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, hayot va

san'atda bema'nilikka, xunuklikka qarshi kurash hamda qobiliyatiga qarab san'atda o'zining ijodiy kamolotini ko'rsatishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiyaning asl mohiyati insonni real dunyoda mavjud bo'lgan go'zallikni to'g'ri idrok qilishga va hayotda haqiqiy go'zallik uchun kurashga o'rgatishdan iboratdir.

Yuqorida aytilganlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

**Birinchidan**, inson o'zining mehnat faoliyati natijasida voqelikni estetik o'zlashtiradi. Undagi go'zalliklarni kashf etadi va idrok qiladi.

**Ikkinchidan**, estetik tarbiya ishining barcha usul va vositalari kishida to'g'ri estetik fikr va idrok qilishni rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Ya'ni, kishining estetik bahosi, mulohazasi va idroki voqelikda mavjud bo'lgan go'zallikni yoki xunuklikni to'g'ri aks ettirishi kerak.

**Uchinchidan**, estetik tarbiya kishida har tomonlama va keng estetik did va mansaatlarni rivojlantirishni, kishilarni har qanday xunuklik, yaramaslikka nafrat ko'zi bilan qarash, go'zallikni ijod qilish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Estetikaning maqsadi — insonda hayotdagi, san'atdagi go'zalliklarni umumjahon qadriyatları nuqtai nazaridan idrok eta bilish va baho bera olish qobiliyatini tarbiyalash va o'stirishdan iboratdir.

Biz estetik jihatdan yaxshi tarbiya olgan odam deb, o'z mehnati bilan hayot go'zalligiga go'zallik qo'shuvchi, mehnat va ijtimoiy faoliyatini estetik kamolot darajasiga ko'taruvchi komil insonni tushunamiz.

«Agar kishini turmush ustozni dono qilmasa, hech dono unga so'z o'rgatmoq uchun ovora bo'lmasinki, mehnati zoye ketadi», — deydi Kaykovus. Demak, kishini tarbiyalashda hayotiy ta'sirning roli Kaykovusning diqqatidan chetda qolmagan. Yana u tarbiyanı inson aqlini, shaxsiy hayotini shakllantiruvchi omillardan deb biladi. Uning fikricha, dunyonı bilishdan maqsad undan soy-dalanishdir.

Oddiy musiqa kuyi, chiroyli gullar, suratlar dastlabki estetik kechinmani keltirib chiqaradi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, avvalo, ularning «ko'rish», «eshitish», tabiat ko'rinishlari, atrof-muhitdagi go'zallikni ajrata

bilish va baholash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Buning uchun ashula, musiqali o'yin, rasm solish, haykalchalar yasash mashg'ulotlari keng qo'llaniladi. Estetik tarbiya aqliy, axloqiy va jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'liq.

Estetik tarbiya yosh avlodning axloq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. San'atga ehtiyojni, uni tushunishni, badiiy ijodda faol qatnashishga intilishni tarbiyalash estetik tarbiyaning birinchi navbatdagi vazifasidir. O'z navbatida san'at ham biror maqsadga qaratilgan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi.

Estetik hissiyot hayot hodisalarini yoki san'at asarlarini estetik idrok etish jarayonida paydo bo'ladi.

Estetik hissiyot shu idrok yuzaga keltiradigan o'ziga xos kechinmadan iborat bo'lib, go'zallikni va yuksaklikni, sojiaviylik yoki kulgililikni his qilish sifatida yuz beradi. Insonning hayotga estetik munosabati nozik hissiyot tarixiy taraqqiyot mahsulidir. U jamiyat estetik ongingin darajasini aks ettiradi.

Estetik did turli estetik hodisalarga nozik baho berish, avvalo, chiroylilikni, go'zallikni xunuklikdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatidir. San'at asarlariga baho beriladigan hollarda estetik did badiiy did ham deb ataladi. Yaxshi estetik did chinakam go'zallikdan lazzat ola bilish, mehnatda, turmushda, yurish-turishda, san'atda go'zallikni idrok etish va yaratishga ehtiyoj sezish demakdir. Aksincha, yomon estetik did insonning voqelikka estetik munosabatini buzadi, chinakam go'zallikka uni loqayd qilib qo'yadi, ba'zan esa hatto shunga olib keladiki, inson xunuk narsadan lazzat oladigan bo'ladi. Rivojlangan estetik didni shakllantirish — estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvurlariga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazisaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi

dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarni har tomonlama rivojlanishga, «ruh va badan» hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi.

Aflatun va Arastu kabi zabardast mutasakkirlar ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylig ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik xislat-fazilat-larni shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Bugungi kunda estetik tarbiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchidan, mustaqillik sharoitida inson omili ortib bormoqda, hayotning barcha jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ezgu xislat-fazilatlari, ongliligi, faolligi, ijodiy qobiliyatlar o'smoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston aholisining ko'pchiligining umumiy madaniyati yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib boryapti.

Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyotining keng o'rinni egallab borayotganligi, qonunchilikning yanada rivojlanib, amal qilayotganligi fuqarolarning umumiy madaniyati, ayniqsa, estetik madaniyati darajasining yuksalib borishini taqozo etmoqda.

To'rtinchidan, hozirgi davr ilmiy-texnika inqilobi sharoitida elektronika, avtomatika, kibernetika, informatika kabi fanlar ishlab chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib berayapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruhiy holatining ham tubdan o'zgarishini, ijtimoiy-ruhiy, axloqiy-estetik saviyasini oshirishni taqozo etmoqda.

Beshinchidan, radio, matbuot, ayniqsa, «oynai jahon» kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rinni olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiyaga yanada ko'proq e'tibor berishni talab etmoqda.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinar, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilar edi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmuni va maqsad-yo'nalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato bo'lardi. Shuni esda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi.

Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezcgulik va yaxshilikdan, beg'arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning mehnat tarbiyasi bilan birlashib ketishi, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi.

Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog'liqligi esa tabiatga beg'araz, insoniy munosabatda bo'lishda, jamiyat bilan tabiat o'rtaida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o'rnatishda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, estetik tarbiya — bu estetik jihatdan rivojlangan va ijodiy faol bo'lgan inson shaxsini shakllantirish demakdir. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qodir bo'lgan inson shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida san'at nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi muhimdir. Buning uchun esa ularda estetik did-farosat va estetik talab-ehtiyojlari rivojlangan bo'lishi zarur.

Estetik tarbiya ijtimoiy faol, har tomonlama va hamohang rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Yoshlarni har tomonlama ham aqlan, ham jismonan barkamol, axloqan yetuk, ma'naviy pok, estetik idrokli qilib tarbiyalashdek muhim va dolzarb muammolarni hal etishni taqozo qiladi.

## ESTETIK MADANIYAT

*Madaniyat taraqqiyoti darjasи jamiyatning ma'naviy ahvolini belgilab beradigan, uning oliv maqsadlarga, gumanistik idealga nechog'li muvosiq kelishini ko'rsatadigan muhim omillardan biridir. Ana shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, xalq ma'naviyatini mustahkamlash va rivojlantirish muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, jamiyatning fazilatlaridan biri madaniyat va ma'naviyat, kishilarining ma'naviy olami, ularning hissiy qabul qilishi, ya'ni insoniyat degan umumiy tushunchani o'zida mujassamlashtirishida namoyondir.*

Bugungi kunga kelib insonning estetik madaniyati shakllanishi qaysi yo'naliislarda olib borilmoqda? Respublikamizda ma'naviyatni yuksaltirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Bu savollarga javob berish uchun, eng avvalo, «estetik madaniyat» tushunchasiga aniqlik kiritib olaylik.

Estetik madaniyat — bu inson chtiyojlarining murakkab tizimi bo'lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko'nikmalari, bilimlari, me'yorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligini ko'ramiz. Chunonchi, estetik hissiyotlar insonning hayot faoliyati to'laligini bildirsa, me'yorlar ijod va faoliyatning mezonga solinishi vositasini anglatadi, bilimlar insonning dunyoqarashini, ishonchini, estetik baholashning yo'naliishlarini, didlarini, qarashlarini belgilab beradi. Ha, estetik munosabatlar odamlarni, ularning faoliyatidagi turli qarashlarni, shakl-shamoyillarini ma'lum bir maqsadga qaratadi.

Darhaqiqat, estetik madaniyat — bu faqat go'zallik qonunlari va me'yorlari asosida ijod qilishnigina anglatmaydi, shuningdek, u insonning tevarak-olamga nisbatan bo'lgan faoliyatini va munosabatini ham bildiradi, mazkur omillar inson, birinchi navbatda, gumanistik, umuminsoniy g'oyalarni, idecallarni o'z-lashtirishi lozimligini nazarda tutadi.

Shuning uchun estetik madaniyat juda ko'p vazifalarni bajaradi. Informativ, bilim orttirishga xizmat qilishlik, aksilogik (baholash-orientatsiyalash), kommunikativ, regulyativ, tarbiya, prognozlash estetik madaniyatning muhim funksiyalariga kiradi. Bu yerdan estetik madaniyatning yuqorida keltirilgan har-

bir funksiyasini alohida tahlil qilib o'tirmasdan, faqat mazkur funksiyalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini va biri ikkinchisidan ajralmasligini eslatmoqchimiz, xolos.

Estetik madaniyat tabiatni o'zlashtirish jarayoni va uning natijalarini, mehnat faoliyati, maishiy hayot, ijtimoiy hayotning estetik lahzalarini, sinflar va ruhlarning, estetik tarbiyaning nazarasi hamda amaliyotini xarakterlaydi, odamlar ijtimoiy-estetik faolligining turli-tuman shakllarini anglatadi, chunki amaliyot asosida odamlarning real ijtimoiy-estetik chtiyojlari qondiriladi. Shu boisdan, uning jamiyat estetik madaniyati va shaxs estetik madaniyati kabi turlari mavjudligini yodda tutishimiz lozim bo'ladi.

Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra, jamiyatning estetik madaniyati o'zida estetik obyektlarni va hodisalarini, estetik qadriyat-larning barcha turlarini, ularning tabiatini va faoliyat ko'rsatishlari haqidagi bilimlarni mujassamlashtiradi. Estetik ong odamlarning estetik faoliyati va ularning o'zaro munosabati estetik qadriyatlar, estetik trabiya asosida o'sib kelayotgan yosh avlodga estetik-madaniy fazilatlarni, voqelikni estetik qabul qilishi, shuningdek, estetik ong va estetik xatti-harakatlar ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shaxsning estetik madaniyati to'g'risida gap ketar ekan, bu tushuncha o'zida jamiyatning estetik madaniyatini, faqatgina o'z xalqining estetik va badiiy qadriyatlarini emas, balki butun insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni o'zlashtirishni, san'atni baholash va muhokama etish, ishga ijodiy munosabatda bo'lish, tabiatni e'zozlash va uni hurmat qilishni ham nazarda tutish lozim bo'ladi.

Shaxsning estetik madaniyati inson faoliyatining barcha turlarida va shakllarida namoyon bo'ladi, u inson ma'naviy madaniyatining umumiyligi darajasining emas, balki individual estetik tasavvurlarni, munosabatlarni, xalq-atvorni, tafakkur va nutqni, hayot va mehnatni qamrab oladi, shaxslararo munosabatlarni va hokazo tushunchalarni o'zida gavdalantiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, estetik madaniyatning muhim jihatlaridan biri o'tmisht ma'naviy qadriyatlarini ijodiy o'zlashtirish bilan o'chanadi. Ma'lumki, sho'ro estetikasida masalaning bu jihatiga kam e'tibor berilar edi yoki umuman e'tibor berilmas

edi. O'tmish qadriyatlari partiyaviy va sinfiy pozitsiya nuqtai nazaridan turib baholanar, ajdodlarimiz ma'naviy madaniyatining yaxlit-yaxlit qatlamlari nazar-pisand qilinmasdi.

Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan ma'naviy- estetik hodisalar — so'siylik, jadidchilik, kalom va boshqalar o'rganish doirasidan tashqarida turdi yoki ular to'g'ridan-to'g'ri reaksiyon oqim deb baholandi. Ansoriy, Sanoiy, Attor, Rumiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro va boshqa o'nlab buyuk zotlar ijodi yosh avlodni tarbiyalashda biror soydaga ega emas, deb baholandi. Ha, Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy, diniy, badiiy merosi sho'ro davrida, asosan, inkor etildi yoki bu haqda hech narsa deyilmadi. Bunda insoniyatning o'tgan asrlarda yaratgan ma'naviy olami namunalari to'la ravishda o'z ifodasini topa olmadi. Bu esa, oqibatda, insoniyat bilan tarix, shaxs bilan jamiyat o'rtaida uzilishga, sun'iy passivlikka, besarqlikka, o'tmish ma'naviy-estetik madaniyatiga mensimasdan qarashga olib keldi. Buning natijasida ijtimoiy loqaydlik o'zining eng oliy nuqtasiga yetdi. Bunday sog'lom aqlga zid hodisa yozuvchi Chingiz Aytmatovning «Bo'ronli bekat» («Asrlarni qaritgan kun») romanida o'z haqqoniy badiiy ifodasini topgan edi. «Manqurtlik» tushunchasi jamiyatdagi ma'naviyat va estetik madaniyat inqirozini chuqr ifodalab berdi. Holbuki, estetik madaniyat jamiyat taraqqiyotining zarur unsuri hisoblanadi, u inson mohiyatini ro'yobga chiqarish va tasdiqlashda muhim omil sisatida yaqqol ko'zga tashlanadi, shu bilan u jamiyat hayotining eng tub asoslardida insoniylik taraqqiyotiga ko'maklashadi.

O'zbek xalqining estetik madaniyat ibtidosi uzoq asrlar qa'rige borib qadaladi. Ana shu madaniyat xalqimizning juda ko'p tarixiy va ijtimoiy narsalarni yengib o'tishida yaqindan ko'maklashdi. Bizgacha yetib kelgan madaniyat yodgorliklarida o'zbek xalqi o'tmish madaniyatining turli jihatlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz.

Shu haqiqatni ham qayd etmoq lozimki, estetik madaniyat jamiyat va insonning ma'naviy hayotida muhim omil bo'lishiga qaramasdan, u faqatgina ma'naviy omillar bilan chegaralanib qolmaydi yoxud ijtimoiy ong shaklidagina saqlanmaydi. U moddiy madaniyat buyumlarida ham, ijtimoiy munosabatlarda va ma-

lakalarda ham «mana man» deb ko'zga tashlanishi mumkin. Boshqacha so'z bilan ifodalaganimizda, «estetik madaniyat» tushunchasini insoniyatning tarixiy tajribalarida, ijtimoiy-puhiy fenomenlarda va hokazolarda aks etishi mumkin, ya'ni estetik madaniyat — bu tarixiy jihatdan vujudga kelgan va moddiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy sohani, insonning ijtimoiy subyekt sifatida estetik ehtiyojlarini qondirishni nazarda tutadi.

Estetik madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga, ayniqsa, san'at (me'morchilik, raqs, musiqa) shaklida juda tez o'tadi. Chunki aynan san'at insonga ko'p asrlik haqiqat jarayonini izlashga daxldorlik imkonini beradi, o'tgan asrlar osha bizgacha yetib kelgan ajdodlarimizning dramatizmga yoxud fojiaviylikka to'la hayotini, quvonchini, qayg'u-alamini anglashga, insoniyat tajribasini o'rghanishga yaqindan ko'maklashadi.

Bu tajriba, ayni mahalda, tarixiy mahorat, odamzodning ijtimoiy xotirasi, insoniyat taraqqiyotining obrazi, maqsadi, ideali sifatida maydonga chiqadi.

Estetik madaniyat insoniyatni bir butun organizm sifatida birlashtiruvchi kuchdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Samarqand va Buxorodagi me'morchilikka tegishli shoh asarlar — Shohi Zinda yodgorligi, Bibixonim madrasasi, Go'ri Amir, Ismoil Somoniylar maqbaralari va boshqa binolar kishilikni yagona safga birlashishga da'vat etuvchi o'ziga xos chaqiriqlar bo'lib, asrlar osha yangrab turibdi.

Mazkur me'moriy yodgorliklar asrlar davomida ijtimoiy ideallarga xizmat qilib kelar ekan, ular faqatgina o'tgan avlodlarning ijtimoiy-tarixiy hayotini qayd etib qolmasdan, bizga, kelgusi avlodlarga ham murojaat qilib, ma'naviy jihatdan safarbar etib, qalbimizga vatanparvarlik, xalqchillik, gumanizm, mehnatsavarlik tuyg'ularini payvand etadi.

Umuman olganda, estetik madaniyatni shakllantirish ulkan mehnatni talab qiluvchi, botinan — ma'lum darajada qaramaqarshi jarayondir. Inson hamisha ham biror-bir holat ta'siri ostida, ichki olami tadriji, mustaqil o'rganishi, o'z bilimini takomillashtirishi natijasida shaxsiy hayotida yuz bergan o'zgarishlarni darhol fahmlashi yoki ifodalashi oson kechmaydi.

Aytish mumkinki, ijtimoiy tub islohotlar, ma'naviy yangilanishlar shart-sharoitida estetik madaniyat muhim ahamiyat kasb

etadi, ya'ni u har bir shaxsga yo'naltirilgan hissiyotlar tili vositasida muloqotga chorlaydi, har bir kishini aql-idrokka, sahm-farosatga da'vat etadi, uning qalbiga kirib boradi.

Estetik madaniyat tushunchasi tabiatda estetik munosabatda bo'lishni ham o'z ichiga oladi. Estetik madaniyat orqali odamlarning «estetik mas'uliyati», «estetik xulq-atvori»ni yuksaltirish ancha o'ng'ay kechadi. Tabiatni asrab-avaylash tuyg'usi barcha odamlarning yorqin anglashilgan hissiyoti, odati, qat'iy ifodalangan tamoyiliga aylanishi muhimdir.

Tabiat hamisha ham insonga katta estetik ta'sir ko'rsatib keldi va shunday bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqining o'tmishdagi, hozirgi kundagi hayoti bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Buyuk ajodlarimiz, chunonchi, Alisher Navoiy inson tabiat bilan muvosiq tarzda yashamog'i kerakligini muttasil ta'kidlaganlar. Siz-u biz yashab turgan hozirgi kunlarda ana shu tushunchani va tabiatga ehtirom bilan munosabatda bo'lish an'anasi qayta tiklamog'imiz lozim. Zero, estetik madaniyatning maqsadi — inson va tabiatning yaxlit tushuncha ekanligini angashdan, tabiatning taqdiri uchun mas'uliyatni his etishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bu yerda biz tabiatni estetik asosda egallash lozimligini nazarda tutmoqdamiz. Kishilarda avlodma-avlod asrlar davomida shakllangan tabiat (hayvonlar, o'simliklar, daraxtlar, parrandalar)ga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish tuyg'usi ma'lum empirik bilimlar asosida vujudga kelganligi endi hech kimga sir bo'lmay qoldi. Biroq estetik madaniyat ekologik madaniyatni shakllantirishni, ya'ni tabiatning bir butunligini nazarda tutuvchi bilimlarning yuksak darajasini nazarda tutadi.

Xullas, estetik madaniyat milliy ongni, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyotni nazarda tutuvchi omillardan biri bo'lib, u ulkan ijtimoiy vazifani bajaradi.

## **ESTETIK TARBIYA USULLARI VA VOSITALARI**

Estetik tarbiya shaxsning estetik kamolotiga ta'sir o'tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog'liqdir. Estetik tarbiya vositalari deb, shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga

xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy va shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi va aksineha bo'lishi ham mumkin.

Yoshlarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri tushunish, oljanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarining kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar shakllantiriladi.

Ayrim yoshlар yasama, sun'iy «go'zallik» bilan o'zlarini badbashara qilib qo'yadilar, ular haqiqiy go'zallik yuzning tabiiy latofatida, sodda va xushbichim kiyimda ekanini unutib qo'yadilar. Kishining tashqi go'zalligi kiyim ranglarining bir-biriga mos kelishida, tabiiylik va soddalikda yaqqol ko'rindi. Ko'zga tashlanmagan holda husniga tabiiy latofat va nafosat beradigan, ayrim kamchiliklarini bilintirmay ketadigan ust-bosh kiygan inson ko'rkmаn va go'zaldir.

Insonning did-farosati kiyim-boshida, xatti-harakatlarida, o'zini tuta bilishida ko'zga tashlanadi. Samimiyl, oqko'ngil, o'ziga talabchan, tarbiyalangan inson tashqi ko'rinishida sun'iylik, qalbakilikni ko'rsatuvchi biron-bir be'manilikka yo'l qo'ymaydigan tarzda kiyinishga, o'zini shunga munosib tutishga harakat qiladi. Didli-farosatli kishi hamisha ana shu qiyofani saqlab qoladi. Tashqi qiyofaga e'tibor berish ichki, ma'naviy go'zallikning ifodasi hisoblanadi.

Estetik taraqqiyot shaxsnинг estetik ongi va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqtни talab etadigan jarayondir. Shaxsnинг estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsnинг estetik jihatdan rivojlanishida ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasi estetikaning «go'zallik — hayot demakdir» degan qoidasidan kelib chiqib, o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotdagi, mehnatdagi, turmushdagi, kishilar munosabatidagi go'zallikda ishtirot etishini, uning hayotni, san'atni idrok eta bilish qobiliyatini shakllantirishni o'zining bosh vazifasi deb hisoblaydi.

Agar inson estetik jihatdan tarbiyalangan bo'lsa, u har qanday qiyin ishda ham go'zallikni ko'ra oladi va uni zavq-shavq bilan bajaradi.

Estetik kechinmalarda har doim xayol ishtirok etadi, busiz go'zallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi. O'yin, rasm chizish, ertaklarni eshitish xayolning ishlashini talab etadi. Dastlabki vaqtarda xayol faoliyat jarayonida narsalar bilan ta'sir etish natijasida yuzaga keladi.

Keyingi bosqichlarda esa ijodiy faollikning tashqi shakllaridan asta-sekin sikrlashga o'tadi.

Estetik tarbiya — o'quvchining estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik chtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashini o'z ichiga oladi.

Bular o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda, ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali, san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berishdan iborat.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari quyidagilardir:

- badiiy adabiyot, tabiat, mehnat;
- insonlarni o'rabi turgan muhit, turmush estetikasi;
- tabiat manzaralaridan olingen taassurotlar;
- san'at asarlari;
- o'quvchilarining tasviriy faoliyatları;
- bayramlar, ko'ngilochar tadbirlar, urf-odatlar, an'analar;
- ma'lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan tadbirlar.

Bunday ta'lim-tarbiya va go'zallik muhiti insonlarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi.

### **YOSHLAR HAYOTINI GO'ZALLIK ASOSIDA TASHKIL ETISH**

Pedagogika tizimiga xos bo'lgan estetika va etikaning tarbiyaviy usullarini birgalikda oila hamda ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya jarayonida bemalol qo'llash numkin. Haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun esa o'qituvchi va ota-onalarning yuqori ma-

daniyatli, yaxshi xulqli, yuksak badiiy didli, xushmuomala bo'lishlari talab etiladi.

Bolalarni o'rab turadigan chiroyli narsalarning o'zi boiaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko'rishga, qadrlashga, baholay bilishga o'rgatish kerak. O'qituvchi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, yaxshilab joy-joyiga qo'yilgan mebelga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi. Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko'rib chiqiladi. Eng muhimi, narsalarni bolalarda estetik zavq uyg'ota oladigan qilib ko'rsatish kerak.

Estetik zavq uyg'otish uchun kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas, muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. O'qituvchining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz o'quvchilarda go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va ularda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Jonajon ona tabiat — estetik tarbiyaning qudratli vositasi va manbaidir. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Tabiatning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi, ayniqsa, bolalikda yorqin va chuqr idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Yoshlarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning har xil turlari va janrlari (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati, badiiy adabiyot va hokazolar)dan keng foydalaniladi.

San'at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir insonning rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham zarur vositadir.

Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, bu hissiy kechinmalar unda fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi.

Gilamdo'zlik, to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, kashta-chilik, popochilik mahsulotlari, badiiy oyna, metall patnislar, to'qilgan va tikib gul solingan buyumlar tasviriy san'atning manzarali shakliga kiradi.

Ta'llim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Milliy naqshlar tushirilgan chiroyli guldor matolar, oyna pardalari, dasturxon kabi uy-ro'zg'or buyumlari kishilarda estetik zavq uyg'otadi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio va «oynai jahon»da san'at ustalari hamda tengdoshlari ijro etgan asarlardan bahramand bo'lishi bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Laparlarni ijro etishda, asosan, xalq og'zaki ijodi asarlardan foydalilaniladi. Bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli visitadir. Bolalar xalq kuylari va raqslarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining ohangdorligini, ravnligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqiy didni shakllantiradi, ularni zamonaviy va mumtoz kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula aytish va raqsga tushishga o'rgatishda so'zlarni to'g'ri aytish va chiroyli harakat qilishnigina emas, balki ifodali aytish va yengil, latofat bilan ijro etishga ahamiyat beriladi.

Maktabda o'tkaziladigan turli bayramlar o'quvchilar ongiga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy va estetik ahamiyati, avvalo, san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u o'ziga xos yorqin obrazlar orqali o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar katta rol o'ynaydi. Kitoblar faqat o'quvchilarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, balki bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim bir qismi bo'lib, aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan chambarchas bog'langan holda amalga oshiriladi.

## O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA NAFOSAT TARBIYASI

«Xalqning baxt-saodati bolalarni to'g'ri tarbiyalashga bog'liq».

J. Lokk

O'zbek xalqi boy an'ana va udumlarga ega, u to'y tantanalari, marosimlari, mehmon kutish, dasturxon tuzash, milliy taomlar pishirish va boshqa jihatlari bilan butun dunyoga mashhur. Asrlar mobaynida xalqning har qanday rasm-rusumlari, urf-odatlari,

qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib keldi. Mustaqillikka erishgach, bu odatlar, udumlar, qadriyatlar yanada mukammallahdi, rivoj topdi.

Yoshlarni har tomonlama estetik idrokli qilib tarbiyalash muammolarini hal etishda jamiyatimizning eng ishonchli tayanchi oiladir. Yoshlarni estetik tarbiyalash, avvalo, ularning, urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni tiklashda faol ishtirok etrishlarini taqozo etadi. Bugungi kun oila masalasini, er bilan xotin orasidagi, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri va ijobjiy hal etish farzandlar tarbiyasida asosiy shartlardan biri bo'lib qolmoqda.

Darhaqiqat, o'tmishda xalq pedagogikasi asosida tarbiya topgan komil insonlar ijobjiy xislatlar sohibi sifatida barchaga namuna bo'lishgan. Tarbiya tarixidan ma'lumki, jamiyatning o'zagi sanalmish har bir xonadonda bolaga yoshligidanoq sharqona go'zal odobning ilk saboqlari erinmay o'rgatilgan. Milliy tarbiya bolani ko'p tomonlama tarbiyalashni maslahat beradi. Bular badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, go'zallik va nasosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, vijdony-nassiy tarbiya. Bu borada oila va jamiyat maqsadlari o'xshashdir.

Ma'lumki, oila totuvligi masalasi insoniyatning doimiy muammolaridan biri bo'lib kelgan, chunki oila yoshlarni tarbiyalashning eng ishonchli maskanidir va unda estetik tarbiyaning ahamiyati kattadir.

Mustaqilligimizni mustahkamlash, har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish, yuksak estetik madaniyatni qaror toptirish hamda xalqning estetik qarashlarini shakllantirish singari ulkan vazifalarni oila tarbiyasisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Nasosat shunday gavhardirki, u har qanday o'rinda kattaga ham, kichikka ham birdek yarashadi. Shuning uchun ham bobokalonlarimiz hamisha go'zal axloqqa intilib yashaganlar.

Insoniyat jamiyatida oilaning o'rni beqiyos. Oilada otaning o'rni qanchalik yuksak bo'lsa, onaning obro'si ham shunchalik ulug'dir. Har bir ota-onalar farzandi siyosida o'zining yoshligini, umrining bahorini va orzu umidlarini ko'rishni istaydi. Ular oila bilan jamiyatni bog'lab turuvchi ma'naviy ip, oila a'zolarini jamiyat qonun-qoidalariiga mos ruhda tarbiyalovchi murabbiyidir. Ota-onaga ehtirom ko'rsatish, xizmatlarida bo'lish har birimizning insoniy burchimizdir. Zero, buyuk Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek:

*Onalarning oyog'i ostidadur,  
Ravzayi jannatu jinon bog'i,  
Ravza bog'i visolin istar esang,  
Bo'l anoning oyog'in tufrog'i.*

Hazrati inson... Dunyoda undan azizu mukarram xilqat bormi? Tangri Taolo insonni azizu mo'tabar etib, «Bandam — mening yerdagi xalifam» degan. Uning uchun hamma narsani, chtiyorjiga kerakli barcha noz-ne'matni ham muhayyo qilgan. Yer, samo, tog'u toshlar, jannatmakon bog'u roq'lar, sharqirab oqqan ming dardga davo obi hayot, qiru, o'rmonu, dengizlar, hamma-hammasini inson mansaati uchun bunyod etgan. Boshqa mahluqotlardan ustun tarzda insonga go'zal siymo, aqlu idrok, sahmu farosat, yuksak did ato etgan. Bir-birini sevsin, hurmatu e'zoz etsin deya qalbiga mehru muhabbat hissini solgan.

Insonni to'g'rilikka, oqibatli bo'lishlikka chaqirgan.

Insonning olamdag'i barcha mavjudotdan sharifligining boisi, uning qalbi, ko'ngli, ruhi Arshi A'lordan berilganidur. Ammo shuni bilmoq kerakkim, dil odamining go'zalligi insonni farish-talar olamiga yaqinlashtiradi. Va, aksincha, inson dilining nopolig'i, uni hayvonot olamiga teng qiladi.

Alisher Navoiy 18 ming olam haqida gapirib, bunday deydi: «Yer uzra yuz minglab ajoyib shakllar bor. Har bir shaklning o'ziga xos tovlanishlari, turlanishlari bor. Tasavvur qilaylik; tevarak-atrofda dengizlar yoki tog'lar, dashtu sahrolar yoki gulschanlar, to'rg'ay va bulbullarni mastun etuvechi rango-rang nafis gul va lolalar, turli iqlimlar va mamlakatlar, daryolar, buloqlar va hokazolar mavjud. Bular atrosida yana 9 qavatli osmon, sobitu sayyoralar, yulduzlar, mamlakatlar bo'lib, bari son-sanoqsizdir. To'rt unsur, yetti osmon va olti tomon koinotning nodir va oliv asosidir. Koinotdag'i barcha mavjudotlar ichida eng ulug'i Inson va uning ko'nglidir».

Dil boyliklari, ruh olamining go'zalliklari inson foniylaridan ketayotganida ham u bilan birga abadiyat olamiga hamroh bo'lib boradi. Hamrohgina emas, odamning jonu dili, asosiy mohiyati bo'lib, mangu rohat-farog'at topadi.

Inson dili ilohiy sirlarning gulshani bo'lib, uni pokiza saqlash, aziz, muqaddas bilish har kimning insoniylik shartidur.

O'zbek oilasi zimmasiga yosh avlodni har tomonlama mu-kammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oila muhitidan boshlanadi, xususan, oilada fe'l-atvor, odatlar, tevarak-atrosga munosabat, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar vujudga keladi. Eng yuksak insoniy his-tuyg'ular, ezgu niyatlar, betakror ma'naviyat, iqtidor, fahm-farosat, salohiyat, aql-zakovat ham oila bag'rida kamol topadi.

Ma'lumki, oila ijtimoiy-tarixiy xususiyatga va muayyan tuzilishga ega bo'lган ijtimoiy guruhning ko'rinishidir. Chunonchi, uning a'zolarini qarindosh-urug'lik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-axloq umumiyligi, ma'naviy chtiyoj mosligi kabi xususiyatlar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, ijtimoiy, axloqiy, maskuraviy, ruhiy munosabatlarning uzviy bir-lashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatidagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, tabiatdagi butun mavjudot, tirik organizm borki, barchasining justlikda yashashi hayotiy qonuniyatdir. Shunday ekan, insoniyat tabiat mavjudoti sisatida, kishi shaxs sisatida ajralib chiqishga qadar ham shunday tabiiy zaruratga chtiyoj sezgan.

Ibtidoiy zamonlar jinsiy jihatdan tartibsiz yashash davri edi. Qadim zamonlarda bir nikohdan tashqari, Sharqda ko'p xotinlilik, Hindiston va Tibetda esa ko'p erlilik odat tusiga kirib qolganligi erkak bilan ayol o'rtasidagi besfarqlik shakli sisatida namoyon bo'lardi. Uyushgan nikoh sharoitida ba'zi erkaklar bilan ayollar uzoq vaqtlar just-just bo'lib yashaganlar. Erkakning ko'p xotinlari orasida «seviklisi» bosh xotin hisoblangan, bu erkak boshqa erlar orasida, mazkur xotinning bosh cri bo'lган, just oila uyushgan nikohlarni siqib chiqargan, bu bosqichda erkak bir xotin bilan yashagan, biroq ko'p xotinlilik erkakning o'z huquqi bo'lib qolgan, bu narsa ko'proq iqtisodiy sabablarga ko'ra ayol kishining qaramligidan kelib chiqqan.

Barcha narsa just-just bo'lib yaratilgan ekan, just bo'lib yashash tabiat taqozosidir. Lekin oila bo'lib yashash barcha mahluqot orasida faqat odam nasliga xosdir. Yer yuzida birinchi oilani Odam Ato bilan Momo Havo tuzishgan. Ular uzoq ayriliqdandan keyin bir-birlarini juda sog'inib qolishgach, diydor ko'rishganlar. Muhabbat

tarixi ham birinchi otamiz va birinchi onamizdan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Muhabbat juda qadim narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi.

Oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog'lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'p. Shu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha, nikoh — ilohiy ahd, oila — muqaddasdir.

Estetik tarbiya masalalari va estetikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish mutasakkirlarning ijtimoiy qarashlarining eng muhim qismidir.

Forobiy o'zining estetik qarashlarida inson shaxsini g'oyat ulug'-laydi. Insonni «ojiz banda», «hech narsaga qodir bo'lman mavjudot» darajasigacha yerga uruvchi hukmron aqidalarga zid o'laroq, mutasakkir nazarida inson eng oliv kamolot bo'lib, «aql idrok ziyoysiga ega» o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni yaratishga qodir borliqdir.

Agar inson faqat o'zi uchungina mehnat qilsa, u aytaylik, atoqli olim, buyuk donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, ammo hech qachon chinakam mukammal va ulug' inson bo'la olmaydi.

Beruniyning fikricha, faqat tashqi jihatdangina emas, balki ichki mazmun jihatdan ham ko'rkar bo'lgan kishigina maqtovga munosibdir.

Insonning ichki va tashqi go'zalligi bir bo'lgandagina u ideal kamolotga erishadi. Muallif: «ozodalik va orastalik — oljanoblikning o'zagidir», deb uqtiradi. Yuksak madaniyatli kishi bo'lgan Beruniy insonning tashqi yoqimli qiyofasi to'g'ridan-to'g'ri uning axloqiy qiyofasiga bog'liqligini uqtiradi.

A. Avloniy bolalarga ilk yoshidan boshlab estetik tarbiya berish kerakligini ta'kidlaydi. «Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, axloqimizni kuchlantirmak kerak, zehnimizni ravshanlantirmak lozim... «Agar tarbiya qiluvchi muallif olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon ta'sir

ko'rsatadi...» «Axloq sohibi, iffat egasi «qalbini, vijdonini pok va tilini yolg'on, g'iybat bo'hton kabi so'zlardan saqlar...»

Ayloni muhabbat masalasida fikr yuritib, muhabbat insonning ma'naviy sifatini boyitadi, kishilar bir-birlari bilan muhabbat hissi bilan bog'lanadilar, muhabbat kishilar o'rtasidagi munosabatni mustahkamlovchi qudratli kuchdir, — deydi.

## YIGIT-QIZLAR TARBIYASI

Odam bolasi insoniy go'zallik uchun kurashishi, shu oliv maqsad sari doimo intilishi lozim. Chunki insonga haqiqiy husnni insoniy xulq-atvor, insoniy fazilat beradi. Bunday go'zallik inson tirikligida ham, dunyodan o'tganda ham, uning aynimaydigan husni, abadiy siyomosi bo'lib qoladi. Shuning uchun A.P.Chexov: «Insonda hamma narsa go'zal bo'lmog'i lozim: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, sikri ham», — degan edi. Qog'oz gulni hech kim dimog'iga keltirib hidlamaydi, tutmaydi. Chunki uning hidi yo'q, chakkasiga taqmaydi — nafosati yo'q. Lekin nash'alari balqib turgan eng oddiy gulni ham odam sevadi, hidlaydi, ardoqlab, chakkasiga taqadi. Donolar aytadilarki: «sharmu hayo niqobidagi chehra qutida saqlangan qimmatbaho gavharga o'xshaydi».

Qizlar hamisha chiroyli bo'lishni istaydilar, ammo chiroy, husn, yoshlik hamishalik emas. Shu bois go'zal husn hamisha ham baxt-tolega kafil bo'lolmaydi. Qiz bolaning baxti uchun husn-chiroyidan tashqari aql-idrok, hayo, iffat, did-farosat, odob, uquv ham mujassam bo'lmog'i lozim. Chunki jamiyatda ham, oilada ham, bola tarbiyasidan tortib, kishilar bilan muomala-munosabatda ham qizlarning — bo'lg'usi onalarning husni, kelishgan qaddi-qomati emas, ko'proq aql-idroki, uquvliligi, ijobiy xulqi qadrlanadi.

Qiz ham, yigit ham yomon yoki yaxshi bo'lib tug'ilmaydilar, uni yomon qilgan ham, yaxshi qilgan ham tarbiyadir. Yigitlar qizlarning faqat chiroyi uchun emas, balki dildorligi, lobarligi va nazokati uchun hurmat qilib, sevadilar. Chunki nazokat — ichki go'zallikdir. Bu xislatlarning barchasi oilada tarbiyalanadi.

Kiyinish — ma'naviyatning bir qirrasi. Qanday kiyinish har bir insonning o'z shaxsiy didi, madaniy saviyasiga bog'liq. Libosi, kiyinishi orqali inson atrofdagilarga o'zi nimaga havas qilayotgani

to‘g‘risida ma’lumot tarqatadi. Insonlarning kiyinish madaniyati va muomala odobida millatning qiyofasi ko‘rinadi. Kiyim tanlanayotganda insonni shu libos oldida to‘xtatgan kuch — fikr, tushuncha va unda shakllangan did hisoblanadi.

Kiyinishda zamonaviylik, milliylik kabi jihatlar barobarida uning qulayligi, ko‘rkamligi, iqlim sharoiti va boshqa omillar hisobga olinishi lozim. Qalbida chinakam g‘urur, or va mas‘uliyat hissi bo‘limgan insonlar o‘zini jimjimador buyumlar, turli taqinchoqlar orqali namoyon etishga intiladi.

Xalqimizda: «Kiyimiga qarab kutib, aqliga qarab kuza-tadilar», — degan naql bejiz aytilmagan. Biz ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilgan, intilib yashagan, go‘zal axloqli, yuksak madaniyatli, fahm-farosatli insonlar jamiyatini qurish uchun mas‘ulmiz.

### TABIAT — ESTETIK TARBIYA VOSITASI

Bundan 1000 yil burun ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniy: «Agar insonlar tabiatga nisbatan zo‘ravonlik qilib, uning qonunlarini qo‘pollik bilan buzsalar, bir kun kelib tabiat ularning boshiga shunday kunlarni solishi mumkin, buni hech qanday kuch qaytarolmaydi», degan edi. Bugun biz buni Orol fojiasi misolida ko‘rib turibmiz.

Komil inson tarbiyasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, yoshlarda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik hislarini uyg‘otish, ularga ekologik tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. Ularning ekologik va estetik madaniyatni shakllantirishda oiladagi sog‘lom muhit muhim o‘rin tutadi.

Ota-bobolarimiz oilada yangi farzand dunyoga kelishi bilan terak qalamchalari va mevali daraxtlar ekishgan. Bola bo‘yi yetib, uylanadigan yoki tur mushga chiqadigan bo‘lguncha ekilgan daraxtlar ham bo‘y cho‘zib, qurilish uchun kerakli xomashyoga aylangan. Mevali daraxtlar ham hosilga kirib, salomatlik uchun foydali moddalarga boyligi bilan inson umriga umr qo‘sghan, toza havo manbai bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbek oilalarida, odatga ko‘ra, ota-onalar yoshlarga «harom-halol», «uvol», «gunoh-savob» kabi pand-nasihatlar asosida dastlabki ekologik tushunchalar berib borganlar.

Bolaning ongi, xulqi, madaniyati, yurish-turishi tabiat bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Ekologik madaniyatni yoshlar ongiga singdirish uchun mamlakatimiz tabiatini hayvon va o'simliklarni muhofaza qilish, suvlarni ifoslantirmaslik, qushlarga ziyon yetkazmaslik, eng muhimmi, ona zaminni bezavol asrashning aniq tuzilgan rejasi bo'lishi lozim. Bu ezgu maqsadga erishish har bir insonning ekologik dunyoqarashiga va jamiyatimizning muhim tarbiya o'chog'i bo'lgan oilada ushbu masala qanday hal etilishiga ham bog'liq.

Yoshlarimizdagi estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg'un shakllana borgandagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchogida bo'lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshiradi.


Vatanni sevish — tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go'zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuygusini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas.

### EKOLOGIYA VA ESTETIK MADANIYAT

O'zbekiston mustaqillikka erishmasidan avval Bo'stonliq, Oq-tosh, Parkent, Kumushkent kabi go'zal tabiat maskanlarida ham sobiq SSSR markazining qarori bilan turli kimyo va texnika zavodlari qurilaverar, zaharli chiqindilari daryoga tashlanaverar, dalalarimizga turli zaharli kimyoviy moddalar, desoliantlar sepi-laverardi. Mol-hollar, odamlar zaharlanib, o'lib ketsa ham bu haqda yozish, gapirish man etilgan edi. To'g'ri, o'sha vaqlarda ham tabiat musaffoligini asrash haqida qonunlar bor edi, ammo ularga amal qilinmasdi.

Vatanimiz istiqlolga erishganidan so'ng tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, musaffoligini asrash haqida bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ammo, gap shundaki, tevarak-atrof, tabiatga mehr bilan qarash, avaylab-asrash qonun-qoidalardan ko'ra odamlarning ekologik ongi, tarbiyasi, tuyg'ulari madaniyatiga ko'p jihatdan bog'liqidir. Inson ongida va qalbida ona tabiatga mehr tuyg'ulari jo'sh urmas ekan, odamlar vaqtinchalik iqtisodiy, moddiy mansaattlarini vatan kelajagi, tabiatini asrashdan ustun qo'ya-



Go'zal tabiat.

veradi: atrof-muhit ifloslansa ham, odamlar zaharli chiqindilardan kasallansa ham, zavod, sex yoki firma egalari tabiatni zaharlashni davom etti-raveradilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov «XXI asr bo'sag'asida» kitobida tabiatga, o'zbek zaminiga avaylab munosabatda bo'lish haqida yozadi: «O'zbekiston juda katta tabiiy boyliklarga ega va bu boyliklardan oqilona foydalanish zarur». O'zbekiston zaminini, dalalari, tog'laru o'rmonlari, daryolari va bog'-rog'-larini avaylab-asrash barcha

suqarolarning insoniy burchi, vijdon, iymon talabidir». O'zbekiston tabiatidan, yeri suvlaridan tejamkorlik bilan foydalanish zarurligini ko'pchilik biladi.

Ba'zi odamlar qanchalik moddiy boyliklarga ega bo'lsa ham to'ymaydilar, buning boisi — ularning tabiat go'zalliklaridan, ruhiy olamning go'zalliklaridan, ma'naviy, axloqiy musaffolikdan uzoqlashib, ma'naviy qashshoqlashib ketganligidir. Ariq, anhorlar, daryo suvini tiniq va toza ekologik va iqtisodiy muammolar axloqiy muammolarga, axloqiy, ma'naviy go'zallik his-tuyg'ular musafoligiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Buyuk Sharq mutafakkirlaridan Sa'diy Sheroziy bundan yetti asr avval tabiatni asrash, falokatlarning oldini olish haqida bunday yozgan edi:

*Suv boshin bog'lashga yetar bitta bel,  
Agar toshib ketsa o'tolmaydi fil.*

Ko'ngil musaffoligi, tiniqligi haqida shoir bunday deydi:

*Tiniqlik kash etib ol, ey qaro dil,  
Ko'zgu ham ko'rsatmas bo'lsa xira yuz.*



### Tabiat ko'rki.

Tabiatga zarar keltirish naqadar og'ir falokatlar keltirishini Sa'diyning zamondoshi Mahmud ibn Yamin bunday ifodalaydi:

*Qayta sof suv oqsa qurigan joyda,  
Baliq o'lganidan keyin ne foyda?*

Orol dengizi o'z qirg'oqlaridan necha yuz kilometrlab uzoqlashgani, shuncha olis joylarda baliqlar o'lib ketganligi, o'sha mintaqada yashovchi xalqning sog'lik-salomatligi jiddiy yomonlashgani, bolalar o'limi, turli kasalliklarning ko'paygani jahon jamoatchiligini va, ayniqsa, O'zbekiston xalqini tashvishga solgani tabiiydir. Alisher Navoiy «Sab'ai sayyor» dostonida shoh Bahromning sevgilisi Diloromdan ayriganidan keyin mast-alastlikka, ko'ngilxushliklarga berilib, dashtda shikor-ov paytida minglab ohular, jayronlarni qirib tashlashi tasvirlanadi. Dasht, sahro o'q yegan jonzodlarning vujudidan oqqan qonlardan botqoqlikka aylanadi. Uning ustiga tinimsiz yomg'ir, jala quyib, shoh Bahromni ham, uning beklari, amirlarini ham yer yutib ketadi. Ovchilarni begunoh o'lgan kiyiklarning qoni tutadi. Alisher Navoiy tabiatga vahshiyona munosabatni shunday qoralaydi va jazosiz qolmasligini tushuntiradi.

Alisher Navoiy bundan avvalroq yozilgan «Hayrat ul-abror» falsafiy dostonida ham insonlar ta'magirligi, ochko'zligi ma'naviy tanazzulga olib kelishini tasvirlaydi: «Oltin, kumush bilan zebu ziynatlarni boylik deb bilmay, balki haqiqiy boylik sabr-qanoat oltinlaridir. Qanoat oltini hech qachon yo'qolmaydi. Kulbada

qanoat qilib o'tirgan darvesh ta'magir podshohdan afzaldir. Chunki ta'ma qilish gadoylarning ishidir... Boshiga toj kiygan odam shoh bo'lavermaydi. Hech narsaga ehtiyoj bildirmagan (muh-tojligini bildirmagan) odamni shoh deb bil».

Ayniqsa, bozor iqtisodiga o'tish davrida ozga qanoat qilmay, katta daromad, boylik orttirishga ruju qilgan odamlar ko'paydi. Bunday odamlar boylik orttirish uchun ta'magirlig qo'lini poraga cho'zadi, o'z vazifasiga ko'ra bajarish kerak bo'lgan ishlarni ham xolis bajarmaydi, ta'magirligi sababli, idorasiga kelayotgan odamlarning ishini bitirmay, ovorayu sarson qiladi. Odamlar qalbi, ruhiy olamining ifloslanishi, ma'naviy iqlimning buzilishi vatanimiz tabiatining ham ifloslanishiga olib keladi.

Necha ming yillik badiiy madaniyatga, axloqiy, estetik qadratiylar xazinasiga ega bo'la turib, estetik tuyg'ularning o'tmaslashuvi, pokiza tuyg'ular, hissiyotlarning yo'qolishi, ko'ngil daryolarining qurishi odamlarni bemehr, beoqibat, ota-onaga, qarindosh-urug'larga, do'stlarga ham faqat foyda olish nuqtai nazaridan qaraydigan ta'magir odamga aylantirib qo'yadi.

Alisher Navoiy fikricha, duru gavhar qulooqqa ozor beradi, qulooq uchun eng yaxshi dur va gavhar yaxshi, shirin so'zdir. «Odam cho'lda tiniq buloqni topib olsa, oltin qadah qidirib o'tirmasdan, sopol idishda ham suv ichaveradi. Suv sopol idishda yaxshi turadi. Shoir yana aytadiki, chiroyli bo'lsin deb, kim oshiga sabzi o'rniga oltin, kumush, no'xat o'rniga qimmatbaho dur soladi? Tovoq ustida non o'rniga oy kulchasi, non ustidagi ko'k o'rniga, zumrad, dasturxonda bodring o'rniga ko'k tosh bo'lsa, xudo haqqi, o'zing insof bilan ayt, och odam bu narsalarni qanday qilib yeydi?»

Navoiyning bu ajoyib fikrlari «Avval iqtisod, keyin siyosat» degan fikrning to'g'riligini isbotlaydi. Shoir bu fikrini davom ettirib aytadi: «Hashamat uchun qilingan bu osh yeyiladigan bo'lsa, u osh emas, balki bir necha bo'lak toshdir. Ularni sen yeyish mumkin bo'lgan ovqat deb hisoblama, ular boshdan-oyoq odamni o'ldiradigan zahardir».

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida yana yozadi: «Boylik bilan o'zingni katta deb bilma; qanoat boyligi bilan boshingni ko'tarib yur. Butun osmon bitta non (quyosh) bilan kun kechiradi. Oyning gardishini esa ko'ksiga tosh qilib bog'lab olgan. Zebu ziynat va ta'madan yiroq turgan odamning ko'ngli



Qushlarni asraylik.

ham tang bo'ladi». Darhaqiqat, ta'magirlilik, ochko'zlik, zebu hashamat, dabdabali to'ylar bilan, o'z molu dunyosi bilan maqtangan mansabdorlar oxiri sharmanda bo'lib, mansablaridan chetlashtirilganligini Qashqadaryo, Samarqand, Nakhimlari misolida ko'rdik.

Prezidentimiz I. Karimov xalqni, mehnatkashlarni mensimay qo'ygan, kibru havoga, nafs balosiga berilgan bunday rahbarlar haqida achchiq haqiqatlarni ro'y-rost aytди.

Bu so'zlar boshqa rahbar uchun ham saboq, ibrat bo'lishi kerak.

Qanoatli odamni Alisher Navoiy bunday shoh satrlarda ulug'laydi: Osmon qasri qanoatli odamning saroyidir. «O'zi xor, qamishning ildizi bilan kun ko'rsa ham, lekin bu ildiz unga gulbashakarning ta'mini bersin...»

Chakmonning yirtiq chocklarini saodat gulshanidan esgan shabadaga yo'l deb bilsin... Uning kulbasi Oy shamiday yorishsin, yel-shamol qo'li eshigini doimo ochiq tutsin. Egnidagi ko'k chakmon, uning oq yamoqlari ko'k osmon va oq tongday yoqimli bo'lsin... Qanoat qilish odati uni odamlar orasida boylarning boyiga aylantirsin! Qiyomat kuni ham azob undan ketib, ko'nglida hisob kунинг dahshati bo'lmaydi. Kimki Xudoning bergen ehsonidan xursand bo'lsa, bu dunyoda ham, u dunyoda ham baxtli bo'ladi...»

Ilgarigi vaqtarda keragidan ziyoda tor ilmiy ixtisoslashuv tufayli tabiatshunoslik, kimyo, etika va estetika ilmlarini bir-biridan ayirib, alohida o'rganar edilar. Shuning oqibatida axloqli, ma'naviy fazilatlar egasi bo'lish boshqa, badiyat, nafosatni his etish, tuyg'ular nozikligi (estetika) hayotda alohida amal qiladi, deb o'ylar edilar. Holbuki, bu qarashlar noto'g'ri edi.

Chunki axloqiy poklik bo'lmasa, odam har qancha o'tkir olim bo'lgani bilan jamiyatga foyda keltirmaydi, aksincha, qirg'in

qurollari ixtiro qilib, zarar keltirishi mumkin. Ekologik mada-niyatga e'tibor bermaslik qanday oqibatlarga olib kelishi Pre-zidentimiz I. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida ravshan ochib berilgan. «Ayni chog'da tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga tuproq nurashi, sho'rланishi, yer usti va yerosti suvlarining sathi pasayishi va boshqa hodisalar ro'y bermoqda». (18-sah.)

Ma'naviyat muammolariga Prezidentimiz va davlatimiz katta e'tibor bilan qarayotgani bejiz emas. Ma'naviyatga esa axloqiy tarbiya va ma'rifat orqali erishiladi. Axloqiy tarbiya bilan estetik tarbiya (tuyg'ular go'zalligini, pokizaligini tarbiyalash) ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu ikkala fanning tarbiyaviy funksiyasi vositasida ekologik madaniyatni shakllantirish yaxshi samaralar beradi.

### MEHNATDAGI GO'ZALLIK

*Ma'lumki, har birimizni xilma-xil murakkab va jozibador go'zalliklar dunyosi qurshab olgan. Go'zallik tabiatda, mehnatda, insoniy munosabatlarda, san'atda namoyon bo'ladi. Go'zallik, ayniqsa, yoshlik, o'smirlik davrida, shaxsning ma'naviy dunyosi tarkib topishi jarayonida ko'proq mastun etadi. Shu tufayli ham teatr va kinoteatrлarda, konservtarbiya va ko'rgazmalarda ko'pincha yoshlarni uchratishimiz mumkin.*

Insonning go'zalligi mehnati orqali namoyon bo'ladi. Mehnat takomillashgan sari, ayniqsa, jismoniy mehnat turlari texnika zimmasiga o'tgani sari, ularning ko'ngilli va ijodiy tabiatni ortib boradi. Shu tariqa, mehnat estetik tarbiyaning eng muhim omili bo'lib qoladi. Chunki qoloq ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida mehnat turi insonga estetik ta'sir ko'rsata olmaydi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan har bir inson o'z mehnatidan moddiy va ma'naviy mansatdor bo'lsagina, bu mehnat estetik tarbiya omili bo'la oladi.

Shaxs hayotida mehnatning estetik ta'sirini kuchaytirishda ishlab chiqarish jarayonlariga estetik texnika (dizayn)ni keng ravishda joriy qilish kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish muhitini nasosat qonunlariga mos tarzda qayta qurishni taqozo etadi. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun baxsh etish omili insonni estetik kamol toptirish bilan birga, uning



### Dugonalar.

foydali-amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar qiladi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligi va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

Go'zallik hamisha insonga, jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy foyda keltiradi. Estetik tarbiyada shaxs estetik madaniyati shakllanishining tashqi va ichki omillari uyg'unligidan, tarbiyaviy faoliyatning o'ziga xos usullaridan foydalanilgandagina mo'ljaldagi samaralar va muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Mustaqil O'zbekiston davlati fuqarolarining estetik ongini oshirish estetik tarbiya oldidagi dolzarb vazifa bo'lib, u estetik madaniyatni yanada yuksaltirishga, estetik talab-ehtiyojlar va qadriyatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### SPORT ESTETIKASI

Sport estetikasi deganda, inson harakati go'zalligi va ulug'-vorligini estetik anglab yetish tushuniladi. Sport estetikasining rivojlanish jarayonlari insonning ma'naviy va jismoniy yetuklik uyg'unligining in'ikosidir. Bunda insonda jismoniy rivojlanish,

jismoniy tayyorgarlik, jismoniy kamolot, jismoniy ta'lif, jismoniy madaniyat kabi bosqichlar kuzatiladi.

**Jismoniy rivojlanish** — kishi organizmi shakli va funksiyalarining o'zgarish jarayoni bo'lib, asosan, atropometrik va biometrik ko'rsatkichlarni anglatadi. Ya'ni, bo'y, gavda og'irligi, qaddi-qomati, o'pkalarning tiriklik sig'imi, shuningdek, tezkorlik, epchillik, egiluvchanlik, kuch-chidamlilik kabilarni o'z ichiga oladi.

**Jismoniy tayyorgarlik** — bu harakat ko'nikmalarini malakalari, jismoniy sisatlarining sport razryadlari va unvonlar, talab va me'yorlar bilan belgilanadigan rivojlanish darajasidir.

**Jismoniy kamolot** — bu jismoniy rivojlanishning tarixan shakllangan daroji va sog'liqning, hayotga, mehnatga, vatan himoyasiga har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yuqori bosqichidir.

**Sport** — bu musobaqa jarayonida namoyon bo'ladigan u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo'naltirilgan maxsus faoliyatdir.

**Jismoniy madaniyat** — umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan inson jismoniy kamoloti sohasidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining majmuidir. Moddiy boyliklarga sport inshootlari, stadionlar, sport zallari, basseyn, kortlar, jismoniy tarbiya jihozlari, maxsus kiyim, poyabzal, shuningdek, sport sohasida erishilgan yutuqlar, ya'ni kamolot daroji kiradi. Ma'naviy boyliklarga jismoniy tarbiya haqidagi san, san'at asarlari, adabiyot, haykal-taroshlik, rang-tasvir, musiqa va boshqalar kiradi.

Shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun sport turlarining ahamiyati katta. Sport, avvalo, chiniqtiradi, tarbiyalaydi, shu bilan birga, go'zallikka va ezungulikka chorlaydi.

Championlar millionlab muxlislar oldida ajoyib kombinatsiyalar yaratadilar. Shu bilan birga, estetik zavq uyg'otadilar. Sportning estetik turlari figurali uchish, badiiy gimnastika, sinxron suzish, ot sporti, qilichbozlik va boshqalardir.

Bu sport turlari mohiyati jihatidan san'at darojasida ijro etiladi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sport ishlariiga alohida ahamiyat berilmoxda. Yoshlarimiz jahon arenalarida O'zbekiston san'atini dunyoga ko'z-ko'z qilmoqda. O'zbekiston bayrog'i Yer sharining deyarli har yerida baland ko'tarilmoqda.

## TURMUSH ESTETIKASI

*Inson — ijtimoiy hodisa.* Lekin u hamisha tabiat bilan aloqadorlikda shakllanadi. Shu tariqa insoniy madaniyatni ham vujudga keladi. Madaniyat haqida gapirar ekanmiz, ichki va tashqi madaniyatni farqlash lozim. Ichki madaniyat — insoniyat ma'naviy boyligi, aqliy va axloqiy rivojlanganligi darajasi, dunyoqarashi, hissiyoti, vijdon, imon va diyonat, ezgulik va hamdardligidir.

Tashqi madaniyat — axloq qoidalari, yurish-turish, xatti-harakat, odob normalariga rioya qilish. Shuningdek, shaxsning tashqi madaniyatiga so'zlashish, kiyinish madaniyatni ham kiradi. Insonlarda ichki va tashqi madaniyat uzviy bog'liq holda rivojlansa, shaxs barqarorligi, insonning munosabatlari go'zalligi, yigit-qizlar munosabati, do'stlik va o'rtoqlik munosabatlari odoblilik doirasida tarkib topadi. Do'stlik, muhabbat umumiy mansaat xayrixohlikka asoslangan o'zaro bog'liqdir. Odob tuyg'usi rivojlangan insonlar go'zal xatti-harakat sohibiga aylanadilar. Tavoze, odob, ohistalik, chtiyotkorlik, chirolyi muomala zaruriy jihat ekanligini ta'kidlash lozim. Insonning tashqi qiyofasi uning umumiy madaniyatni va saviyasidan dalolat beradi. Odamlar orasida go'zal va zamonaviy bo'lish istagi yoshlikning asosiy intilishidir. Lekin tashqi qiyosa go'zalligi uchun intilish yagona maqsad bo'lmasligi lozim. Shu bilan birga, insonning did bilan kiyinishi ham san'atdir.

Moda — ijtimoiy hodisa. U faqatgina kiyimda namoyon bo'lmaydi. Moda har doim kimgadir, nimagadir taqlid qilish chtiyojidir. Moda bo'lgani uchun shu rangni tanlash, hamma kiygani uchun shu kostyumni kiyish, moda bo'lgani uchun uyni shunday mebellar bilan jihozlash, moda bo'lgani uchun shunday so'zlashish kishilar orasida urs bo'lgan. Ammo madaniyatli kishilarning o'z madaniy saviyalaridan kelib chiqib modaga munosabat bildirishlari ham tarbiya ko'rsatkichidir.

### *Sinov savollari*

1. *Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Nafosat tarbiyasining vositalari haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Insonning tabiatga bo'lgan estetik munosabatining mazmuni nimalardan iborat?*
4. *Estetika fani sizga nima berdi?*

## ESTETIK MADANIYATNING BUYUK NAMOYANDALARI

«Ilm – sahroda do'st, hayot chorrahalarida – tayanch,  
yolg'iz damlarda – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda –  
rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida  
zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir».

*Hadisi sharifdan*

Jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniy tarixini chuqur o'zlashtirish, jahon madaniyati tarixida munosib o'rinn egallagan allomalarimizning merosini har tomonlama o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Madaniyat yutuqlari ma'naviy jarayonda voyaga yetgan va uni o'z faoliyatida gavdalantirgan, asarlarida moddiylashtirgan donishmandlar, olimlar, adiblar, din va ma'rifat arboblari qoldirgan tarixiy merosning mazmunini tashkil etadi. Shu sababli ular yaratgan qadriyatlar, ulkan asarlar haqida muayyan bilimga ega bo'lish o'zligimizni anglashda, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy asoslarini egallahda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyida mavjud adabiyotlardan foydalangan holda Vatanimiz madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar haqida qisqacha hikoya qilinadi. O'ylaymizki, bu ma'lumotlar bilan tanishish talabalar tomonidan madaniyatshunoslik ilmidan olin-gan nazari bilimlarni chuqurlashtirishda foydadan xoli bo'lmaydi.

---

**Borbad.** (589-yil Marvda tug'ilgan, VII asrning o'rtalarida Marvda vafot etgan).

Uning nomini Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Nizomiy, Jomiy, Navoiylar o'z asarlarida «Surudi Borbad», «Borbad ohangi», «Borbad usuli», «Borbadona tarona» kabi nomlar bilan ulug'laganlar. Sharqning mashhur sozandalari Nekiso Changiy, Ozodvor Changiy, Gesun Novagard, Sarkash va Sarkoblar bevosita yoki bilvosita Borbadning shogirdlari hisoblanadi.

Bastakor tadqiqotchilari uning «Gulzor», «Sabz bahor», «Rohi gul», «Oromim xur shodu shoh», «Abhari Kuhan»,

«Ravshan Charax», «Polizbon», «Dilangizon» singari asarlarida bevosita tabiat go‘zalligi aks etganligini uqdiradilar. U haftaning yetti kuniga nisbat berib, «Xusrovoni» ohanglar to‘plamini, oyning 30 kuniga qiyoslab «30 lash» (kuy, maqom yo‘li), yilning 360 kuniga bag‘ishlab shuncha tarona yaratgan.

Uning «Zeravkand», «Nuhufiy», «Gulpush», «Oromi ish jon», «Darkam» kabi kuy-ko‘shiqlarini arab, turk sozandalari hamda mashshoqlari to hanuz ijro etadilar. Borbadni arab mamlakatlarida Bahibad, Borid, Pahlapaz va Fahabaz taxalluslari bilan e’zozlaganlar. Aziz Sha’boniy o‘zining «Eron musiqasi bilan tanishish» kitobida: «Borbad Sharq musiqasi tarixida yorqin siymolardandir», deb yozadi.

Borbad o‘zi she‘r yozib, o‘zi kuy bastalar, tabiat ato qilgan noyob ovoz bilan ijro etar edi.

Shuningdek, Borbad ijodiga Forobi, Ibn Sino va Jomiylar musiqaga doir kitoblarida uning musiqiy iste’dodini e’zozlab unga yuksak baho bergenlar.

---

**Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783—850). Xorazmlik buyuk olim boshlang‘ich ta’limni o‘z yurtida xususiy muallimlardan oladi, so‘ngra Marvdagi madrasada o‘qydi, keyinchalik Bag‘doddagi «Bayt-ul hikma» («Donishmandlar uyi»)ga taklif qilinadi. Bu ilm maskanida o‘rta osiyolik Ahmad al-Farg‘oniy, Hamid ibn Abdumalik Marvarrudiy, Abbas Javhariy kabilalar bilan hamkorlikda ishlaydi.

**Asarlari:** «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob». «Al-jabr»dan bizga ma’lum bo‘lgan «algebra», «algoritm» kabi atamalar kelib chiqqan. «Hind hisobi bo‘yicha kitob». «Astronomik zij». Asarda astronomiyaga oid muammolar haqida so‘z yuritiladi. Oylar, shamsiy va qamariy hijriy hisoblar tavsifi, sayyoralarning harakatlari, oy kenglamasi va uning harakati, sinusni yoyga ko‘ra aniqlash, teskari sinuslar jadvali, soyalar jadvali beriladi. «Yer surati haqida kitob». Bu yerda 2400 ta shahar, dengiz, orol va boshqa obyektlarning joylanishi, koordinatalari va holatlari haqida ma’lumot beriladi. Nil daryosi, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarining jug‘rosiy xaritalari manzaralari chizib berilgan. «As-turlob bilan ishlash haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida kitob»,

«Yahudiylar eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola», «Kitob at-tarix», «Kitob ar-ruhnama».

---

**Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni** (taxminan 797—865-yillarda yashagan). Manbalarda aytishicha, u boshlang'ich ta'limni olgach, o'sha davrning ma'muriy markazi va yirik ilm dargohi Marv shahriga borgan. Xalifa al-Ma'mun Bag'dodda taxtga o'tirganda, Marvdagi tashkil etilgan ilmiy jamoani ham o'zi bilan birga o'sha yerga olib ketgan. Ahmad al-Farg'oni Bag'dodda tashkil etilgan «Bayt ul-hikma»da faoliyat ko'rsatgan. Tadqiqotchilar uning sakkizta asarini qayd etadilar.

**Asarlari:** «Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi' ilm annujum» («Samoviy harakatlardan va umumiy astronomiya kitobi»), «Kitob al-komil fiy san'a al-asturlob» («Asturlob yasash haqida kitob»), «Kitob amal bil asturlob» («Asturlob bilan ishlash kitobi»), «Jadval al-Farg'oni» («Al-Farg'oni jadvallari»), «Risola fiy ma'rifa al-avqot allatiy yakun al-qamar fiyho favq al-arz av tahtho» («Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtalarini aniqlash haqida risola»), «Hisob al-aqolim as-sab'a» («Yetti iglimni hisoblash»), «Kitob amal ar-ruhomat» («Quyosh soatini yasash kitobi»), «Ta'lil li zij al-Xorazmiy» (Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash»).

---

Al-Farg'oni o'z kashfiyotlarida geliosentrizmga o'tish uchun ilmiy zamin yaratdi; Ekvator va ekliptika tekisliklaridagi doimiy burchakni 23 daraja-yu 35 minut deb aniq o'chadi; sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi; Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi; Yer yoyining qaysi uzunligi  $1^{\circ}$  ga to'g'ri kelishini o'chab, bu miqdorni aniqladi, uni 360 ga ko'paytirib, 40800 km ni hosil qilishini qayd etgan. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi; Nil daryosi gidrometeorologik tabiatini aniqlaydigan asbob — «Miqyosi Nil»ni yasadi. Suv uchun to'lanadigan soliq shunga asoslandi, xalq uni «adolat tarozisi» deb atadi; inson yashaydigan maydonni yetti iglimga bo'ldi; vaqt o'chamini; osmonning kelajak manzarasini ifodalaydigan usturlob nazariyasini yaratdi va h. k.

**Imom al-Buxoriy** (810—870). Asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini sevib o‘rgangan, ularni yod olgan. 16 yoshida Imom Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga otlanadi. Uning xotirasi har qanday kitobni bir marta mutolaa qilishda yod olish qobiliyatiga ega bo‘lgan. U yuz ming sahih va ikki yuz ming g‘ayri sahih hadisni yoddan bilgan.

**Asarlari:** «Al-Jome’ as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «At-Tarix al-kabir» («Katta tarix»), «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «At-tarixal-avdot» («O‘rtacha tarix»), «Al-Jome’ al-kabir» («Katta hadislar to‘plami»), «Kitob al-ilal» («Nuqsonli hadislar kitobi»), «Barr — al-volidayn» («Ota-onani hurmat qilish»), «Kitob al-ashriba» («Ichimliklar kitobi»), «Kitob az-zuhfo» («Zaiflar kitobi»), «Asomius-sahoba» («Sahobalarning ismlari»), «Kitob al-Kuna» («Hadis roviylarining taxalluslari haqida»).

Imom Buxoriy Xartang qishlog‘i (Hozirgi Chelak tumani)da 870-yili vafot etgan. Bu yerda unga atab me’moriy majmua qurilgan (1998).

**Abu Iso Muhammad at-Termiziy** (824—892). Jahon e’tirof etgan buyuk alloma, mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziy Termizda olamga kelgan. Ko‘p yillar dunyoning turli shaharlarida bo‘lib, o‘z bilimini oshirgan.

U hadis ilmini chuqur o‘rgangan, ko‘plab shogirdlar yetishtirgan. 892-yili Termiz yaqinidagi Bug‘ qishlog‘ida vafot etgan.

**Asarlari:** «Al-jomi’» («Jamlovchi»), «Ash-shamoil an-nasavia» («Payg‘ambarning alohida fazilatlari»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi og‘ishishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»); «At-Tarix» («Tarix»), «Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob»).

At-Termiziy asarlari ichida eng mashhuri «Al-jomi’» bo‘lib, u payg‘ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim va ishonarli manbalardan biri hisoblanadi.

---

**Xolloj Husayn ibn-Mansur.** 858- yilda Tus shahrida tug'iladi va 922- yil Bog'dodda vafot etadi. Uni xudoga shak keltirganlikda ayblab, avval 8 oy zindonda qiyaydilar, o'z ahdidan qaytmagach, qo'l-oyog'ini kesadilar. Yana tavba qilmagach, dorga osib o'ldiradilar, jasadini kuydiradilar, kallasini esa, tarafdarlarini qo'rqitish uchun Xurosonga yuboradilar. Bu mudhish voqeasi Bog'dod shahrida 922- yil 26- martida sodir bo'lgan.

Xolloj Husayn ibn-Mansur «Xudo insonda namoyon bo'ladi, inson va umuman moddiy olam xudoning jonlanishi», «Men Haq (xudo)man», («Anal haq»), mening o'zligim xudoning o'zligidir», degan fikrni ilgari suradi. Shuning uchun bu mudhish voqeasi sodir bo'lgan edi. Uning «Kitobut-tavosin» («Qaysarlik kitobi») risolasi bizgacha yetib kelgan. U Samarqand, Buxoro, Termiz shaharlarida ham bo'lib, madrasalarda dars aytib kishilarni Alloh yo'liga chorlagan iymonli, e'tiqodli insondir.

---

**Abu Nasr Forobi** (873—950). Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Forobi Sirdaryo bo'yidagi Forob-O'tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Bag'dod shaharlarida o'z bilimini oshirgan. Forobi umrining so'nggi yillarini Halab, Damashq shaharlarida o'tkazgan. U 160 ga yaqin asar yozgan.

**Asarlari:** «Ihsa al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel logikasiga talqinlar», «Katta muzika kitobi», «Grajdanlik siyosati», «Fozil shahar aholilarining raylari», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Metafizika tezislari» va boshqalar.

Forobi dunyoqarashining asosini panteistik g'oya tashkil etadi. Uning fikricha, mavjudot emanatsiya yordamida ibtidodan bosqichma-bosqich paydo bo'lgan. Forobi o'zining ijtimoiy qarashlarida ma'naviy hayotga oid ko'pgina qimmatli fikrlarni olg'a surgan. U insoniyat jamiyatini vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini ko'rsatib bergen. Jamiyat axloqining vujudga kelishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabatini tekshirgan. Shuningdek, u insoniylik,adolat, yetuk jamoa, komil inson muammossini o'rtaqa qo'ygan va ularni nazariy jihatdan asoslab bergen.

**Abubakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy** (943). Buxoro viloyatiga qarashli Narshax mavzesida tavallud topgan. Yoshligidan qadimgi tarix, geografiya, arab tilini puxta o'rgangan.

**Asarlari:** «Buxoro tarixi». Bu asar turli tarixiy manbalarda «Tarixi Narshaxiy», «Axbori Buxoro», «Tarixi Buxoro», «Buxoro viloyatining tadqiqi» kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarda qadimgi Buxoro aholisining tarixiy kasb-korlari (ovchilik, baliq-chilik, dehqonchilik kabi), Afshona, Romiton, Varaxsha kabi qadimiy maskanlarning barpo etilishi, Markaziy Osiyo hududlarida arab hukmronligining o'rnatilishi, Islomning tarqalishi, Muqanna qo'zg'oloni, sosoniylar davlati, Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, yer-suv munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asar nafaqat Buxoro, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda noyob manba hisoblanadi. Kitob 1966—1991-yillarda chop etilgan.

**Abulqosim Firdavsiy** (940, 941—1025). Firdavsiy uning taxallusi («Firdavs» — jannat bog'i so'zidan olingan).

Xalq Firdavsiyning «Shohnoma»sini, «Shoh kitob» deb ol-qishlagan. Firdavsiy haqida Sa'di Sheroziy shunday yozadi: «Ne xush so'zlar demish Firdavsiy pokzal», «Uning pokiza qabri bo'lsin obod».

Firdavsiyning «Shohnomasasi»sida targ'ib qilingan umuminsoniy g'oya va tuyg'u chechaklari bahor bo'stonidek yashnab turadi va undan har bir davr kishisi o'z ko'ngliga mos guldstalar tera oladi. «Shohnoma» 60 ming bayt — 120000 misradan iborat. Unda 50 podsholikdan iborat lo'ri sulolaning hukmronlik tarixi g'oyat musassal bayon etilgan.

Shoir umrining oxirida o'z Vataniga kelib Tusda vafot etadi. Ruhoniylar uning jasadini qo'yish uchun musulmonlar mozoridan joy bermadilar. Firdavsiyning jasadi otasidan qolgan yerning bir chekkasida ko'milgan. Bu voqeа taxminan 1025-yillarda bo'lган edi. Firdavsiy islomgacha bo'lган zardo'shtiylik, otashparastlik dini tarasdori edi, xalq ozodlik harakatlarini, adolatni qo'llab-quvvatlardi. Hukmronlar, ularning yaqin odamlari bo'l mish ruhoniylarga yoqmas edi, albatta.

Firdavsiy «Shohnoma» asarning bosh g'oyasi — vatanni ulug'-lash, xalq qudratini ko'z-ko'z qilish, xalq bahodirlarning qahramonliklarini madh etishdir. Uning yana asosiy g'oyasi yaxshilik va yomonlik orasidagi azaliy va abadiy kurash g'oyasidir. «Shohnoma» muvaffaqiyatining asosiy sababi uning xalqchilligida, xalq orzu umidlarga tarannum etilganligidadir. Shoir podsholarni o'z xalqi holidan ogoh bo'lishga, unga mehribonlik ko'rsatishga chaqiradi, xalqni ortiqcha soliqlardan ozod etish, zolimlar zulmidan himoya etish lozimligini ukdiradi.

---

**Abu Mansur al-Moturidiy** (vafotи — 945). Asli ismi Abu Mansur ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy-as-Samarqandiy bo'lib, sunniy mazhabiga tegishli moturidiya oqimining asoschisidir. U Samarqandning Moturid (Jomboy) qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni o'z qishlog'ida olgach, o'qishni Samarqandda davom ettirgan. Manbalarda qayd etishlaricha, Moturidiy fiqh va kalom bilimlarini chuqur egallagan, hanasiya mazhabi mudarrislardan saboq olib, o'z tasavvurlarini chuqurlashtirgan. Keyinchalik shu e'tiqodni ilmiy asoslاب bergen.

**Asarlari:** «Kitabi Tavhid», «Kitab Maqomat», «Kitab Ta'vilot al-Qur'on», «Ma hazi ash-shari'a» («Shariat asoslari sarasi»), «Kitab al-jadal» («Dialektika haqida kitob»), «Kitab al-usul» («Diniy ta'lim usuli kitobi»). Uning eng nodir hisoblangan «Kitabi Tavhid» asari hozirgacha saqlanib qolgan. Al-Moturidiy islom olamida «Imom al-Xuda» va «Imom al-mutakallimin» («Hidayat yo'li imomi va mutakallimlar imomi») nomi bilan mashhur bo'lgan.

---

**Abu Abdulloh al-Xorazmiy** (vafotи — 997). Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiyning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o'tgan. Olim hayotining muayyan davri Xurosonda kechgan.

**Asarlari:** «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»). Bu qomusiy asar falsafa, mantiq, tib, ilmi nujum, musiqa va boshqa sohalarni qamrab olgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy ilmlar tasnifini yaratdi. U quyida-gilardan iborat:

«Shariat» ilmlari: Fiqh — ya'ni, islom huquqshunosligi, Kalom — ya'ni, islom asoslari; Grammatika (Sarf va nahv), Ish yuritish; She'riyat va aruz; Tarix.

Nazariy falsafa: Tabiiyot ilmlari va fizika (tib, ob-havoni aniqlash, mineralogiya, kimyo, mexanika kabilar); Ilohiyot, ya'ni metafizika — oliv ilm; Mantiq.

Amaliy falsafa: Etika (insonning o'zini-o'zi boshqarishi); Uyni boshqarish; Siyosat — shahar-davlatni boshqarish.



**Abu Ali ibn Sino** (980—1037). Ibn Sino asl ismi Husain, otasining ismi Abdulloh — mashhur qomusiy olim: tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, tilshunos, yozuvchi va shoir Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ibn Sino «Shayx-ur-rais» («Olimlar boshlig'i») deb nom qozongan. U 450 dan ortiq asar yozib qoldirdi. Shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, ruhshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan. Ibn Sino asarlarining 100 tasi bizgacha yetib kelgan.

**Asarlari:** «Al-qonun fit tibb» («Tib ilmlari qonuni»), «Kitob ash-shifo». U mantiq, fizika, matematika, metafizikani o‘z ichiga oladi, «Kitob ul-insof» (20 tomlik), «Kitob lison ul-arab» (10 jiddan iborat «Arab tili bo‘yicha kitob»), «Donishnama» (4 qismdan iborat), «Risola at-Tayr» («Qush tili»), «Salomon va Ibsol», «Hay ibn Yakson», «Kitob al ishorat», «Yusuf qissasi», «Urjuzalar — tibbiy dostonlar» va h.k.

Ibn Sino o‘z asarlarida ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy, ma'naviy masalalarga, ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor bergan. Tarbiyani aqliy tarbiya; jismoniy tarbiya; axloqiy tarbiya; nafosat tarbiyasi; yoshlarga hunar o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyadan iborat, deb hisoblagan.



**Abu Rayhon Beruniy** (973—1048). Abu Rayhon Beruniy Xorazmnning qadimiy poytaxti Kat shahridda dunyoga kelgan, Raznada vafot etgan.

**Asarlari:** «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mas’ud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana».

Beruniy ma’naviyat va madaniyat sohasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Fanning sofligi; Dunyoni deistik tushunadi: xudo dunyoni yaratib, uning ishlariga aralashmaydi degan diniy-falsafiy yo‘nalishga moyil bo‘lsa-da, dunyo yaratganligini tan olsa-da, tabiatni mustaqil deb hisoblaydi; Ibn Sino bilan qilgan ilmiy munozarada o‘ziga xos atomistik nazariyani himoya qiladi; geosentrik va geliosentrik nazariyalar tengligi haqidagi farazlarni ilgari suradi; inson hayvondan o‘z aqli bilan farq qilishini ta’kidlaydi.

Xalqning rang va til farqlari, urf-odatlari idagi tafovut geografik muhitga bog‘liq, deb hisoblaydi; jamiyat yuzaga kelishida kishilarining moddiy ehtiyojiga alohida etibor beradi; inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim g‘amxo‘rlik qilishi, o‘ylashi kerak, degan qoidani olg‘a suradi; insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishida, deb hisoblaydi; uning e’tirof etishicha, mamlakat ravnaqi fan taraqqiyotida, insonning eng katta baxti esa bilishdadir.

---

**Abdimuiniddin Nosir Xisraf** (1004—1088). Hozirgi Tojikistonning Kabodiyot shahrida tug‘ilgan.

«Haqiqat izlovchi» degan nom bilan mashhur bo‘lgan. Shahar qozisi shoirni shariatga shak keltirganlikda, dahriylikda ayblab, Xo‘jai A’lamzor tog‘idan tashlab o‘ldirish haqida hukm chiqaradi. Hukmni ijro etishni 2 jallodga topshiradi. Bu ikki jallod mahbusni bog‘lab shox yoniga olib borishadi. Tog‘ juda baland bo‘lganligi sababli, yuz mashaqqatlar bilan tepaga intiladilar. Shu orada qanday bo‘lib mahbus bog‘langan ipni qo‘yib yuboradilar. Fursatdan foydalanib balandroqqa chiqib olgan maxbus (Nosir Xisraf) shoxma-shox qochib yurib umrining 15 yilini Badaxshondagi Yumxon qishlog‘i g‘orida darbadarlikda yurib, tahqirlanib quvg‘inda 1088-yil vafot etadi.

---

**Ismoil Jurjoni** (1042—1136). Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoni al-Xorazmiy ulug‘ olim va eng mashhur

tabib hisoblangan. Ismoil Jurjon shahri (Eron shimoli)da tug'ilgan bo'lsa ham umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazgan va al-Jurjoniy al-Xorazmiy taxallusi bilan mashhur bo'lgan.

Jurjoniy Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097—1127) va uning o'g'li Alouddavla Otsiz (1127—1156) saroystida xizmat qilgan.

**Asarları:** «Al-Xuffayi al-a'lloiy» («Poyalarning yuqori qismi»), «At-Tibb al-mulukiy», «Kitob az-zahiraye Xorazmshohiy», «Kitob al-ahrod» («Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar»), «Kitob yodgor» («Esdalik kitobi»), «Kitob fi rad alal-falosafa» («Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi»), «Kitob vasiyatnama» va boshqalar.

Jurjoniy fikricha, haqiqiy lazzat to'kin-sochin hayot kechirishda emas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishuvdadır.

---

**Abul Qosim az-Zamaxshariy** (1075—1144). Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni o'qimishli otasidan olgan, 17 yoshga to'lganda Buxoroga borgan, shuningdek, bilimini oshirish yo'lida dunyoning ko'pgina shaharlarida bo'lgan.

U Shosh, Bag'dod, Hijozda, ikki marta Makka shahrida bo'lib, besh yilcha yashab Jorulloh («Ollohnning qo'shnisi») degan sharaflı nomga ega bo'lgan. U grammatika, lug'atshunoslik, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yozdi. Az-Zamaxshariy o'z ilmiy va ijodiy faoliyatida arab tili va adabiyotiga chuqur hurmat bilan qaragan, o'z asarlarini faqat arab tilida yaratgan.

**Asarları:** «Al-Mufassal» (arab tili grammatikasiga oid asar), «Muqaddimat ul-adab» («Adab ilmiga muqaddima»), «Asos ul-balogs'at» («Notiqlik asoslari» — lug'atshunoslikka bag'ishlangan, arab tili fasohati va mukammalligi haqida fikr yuritadi), «Rabiy'ul-abror va nusus axyar» («Ezgular bahori va yaxshilar bayoni» — asarda adabiyot va tarixga oid latifalar beriladi), «Al-Qustos fil-laruz» («Aruzda o'Ichov), «Al-Kashshof» (asar Qur'on haqiqatlariga bag'ishlangan), «Maqomat» («Maqomlar» asari ellik maqomdan iborat). Unga «Xorazm faxri», «Arab ustozি» kabi unvonlar berilgan.

**Burxoniddin al-Marg‘inoniy** (1123—1197). Jahon tan olgan faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniy Qur’on, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh — islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo‘lgan mutafakkirdir. U Burxon ud-din va-l-milla (Islom dalili) va Burhoniddin al-Marg‘inoniy nomlari bilan mashhur bo‘lgan.

Olim boshlang‘ich ta’limni Marg‘ilonda olgan, keyin Samarqandga ko‘chib borgan va butun umrini shu yerda o’tkazgan, 1149-yili olim haj safariga yo‘l olgan.

**Asarlari:** «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Hidoya».

«Hidoya» yuqoridagi asarlarining eng ixchami, izchil va mukammal shaklidir. U xanafiya mazhabidagi asosiy qo‘llanmadir.

«Hidoya» to‘rt juzdan iborat: birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular — namoz, ro‘za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinci juzdan nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik, vaqf mulki singari masalalar o‘rin olgan. Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o’tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikka qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, homiylik, qullar va bosqinchilik masalalariga oid muammolar haqida so‘z boradi.

To‘rtinchi juzda shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida, shartnama, qurbanlik qilish haqida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

«Hidoya» bir necha asrlardan buyon Sharqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

**Umar Xayyom** (1040—1123). G'iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopur shahrida tug'ilgan, g'aznaviyalar hokimiysi yemirilib, saljuqiylar davlati hukmronligi davrida yashab ijod etgan.

U Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy, falsafiy-ma'naviy merosini yanada rivojlantirgan. U olim sifatida falsafa, riyoziyot, falakiyat va fizikaga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning ruboilyari keng shuhrat qozongan («Ruboiyot»).

**Asarlari:** «Borliq va burchlanmoq to'g'risida risola», «Uch savolga javob», «Aql olami butun umumi y fanning predmeti to'g'risida», «Borliq to'g'risida risola», «Talab bo'yicha kitob» (Hamma mavjudot to'g'risida), «Ruboiyot», «Jaloliddin taqvimi», «Navro'znama» va h. k.

Umar Xayyom fikricha, narsalarda «umumi aql» saxovat va himmat ko'rsatuvchi, «ijodchi aql» mavjud. Undan «umumi yon», «umumi buyum» kelib chiqadi. «Yaratuvchi aql»dan paydo bo'lgan olam harakat va o'sish jarayonini boshidan kechirib turadi.

«Umumi buyumlar» tabiatga bo'ysunadi. Tabiat to'rt unsur: havo, suv, o't, yer (tuproq)dan tashkil topgan.

Inson hayvonlardan o'zining so'zlashish qobiliyati bilan farq qiladi, olam obyektiv qonunlar bilan rivojlanadi. «Sen, mendan oldin ham tun-kun bor edi», degan qoidaga asoslanadi Umar Xayyom.

**Xoja Ahmad Yassaviy** (1041—1167). Ahmad Yassaviy Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. U Buxoroda ta'lif olgan. «Yassaviya» tariqatining qoidalari Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmat» degan asarida bayon etilgan. Bu talablarga ko'ra, inson mehr-shafsat, halol-pok, o'z qo'l kuchi, halol mehnati bilan kun kechirish orqali Olloh visoliga yetishi mumkin.

Ahmad Yassaviy o'z she'rlarida mashhur mutasavvuf olim Mansur Halloj (858—922) nomini chuqrur hurmat bilan tilga oladi.

Yassaviy molu dunyo to'plashga harakat qilmagan, bechorahol umrguzaronlik qilgan. U mol-dunyo va davlat orttirishga mukkasi-

dan ketgan, xasis va oxiratni o'ylamaydigan kishilarni ogoh-lantirib, shunday deb yozgan edi:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o'taro,  
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro,  
Ota, ona, qarindosh, qayon ketdi, sikr qil,  
To'rt oyoqli cho'bin ot bir kun sango yetaro.*

Ahmad Yassaviy butun turkiyzabon xalqlarning madaniy hayotida muhim rol o'ynagan buyuk mutasavvuf olim, donishmand ulamo va ustoz sisatida shuhrat qozongan.



**Mahmud Qoshg'ariy** (XI asr). Mahmud Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalaridan biridir. U turkiy tillarni o'rganish sohasida keng shuhrat topgan. U XI asrda Mavarounnaxrda somoniylar o'rnini qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til keng urf bo'la boshlagan davrda yashagan. Mahmud Qoshg'ariy Qashg'arda tug'ilib o'sgan bo'lsada, turkiy o'lkalarning ko'pgina shaharlarida bo'lib, til sohasida boy material to'pladi.

**Asari:** «Devoni lug'atit turk». «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. Qoshg'ariy kishilarni ilm o'rganishga da'vat etgan, jaholat, kibru havoni, molu dunyoga hirs qo'yish, baxillik va ochko'zlikni qoralagan. Saxovat va himmat ko'rsatishni, ota-onani hurmat qilishni ulug'lagan.

Mahmud Qoshg'ariyning ma'naviy merosi jahon ilmiy ja-moatchiligi tomonidan yuksak qadrlangan va u qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan olingan. Olimlar yozishicha, «Devon»da dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan.



**Yusuf Xos Hojib** (XI asr). Yusuf Xos Hojib XI asrning ko'zga ko'ringan shoiri va mutafakkiri, u Boloso'g'un (Qirg'izistonidagi To'qmoq) shahri yaqinida tug'ilgan.

**Asari:** «Qutadg'u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim»). Doston Qash-qar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag'ishlangan (1069). Unga Xos Hojib, ya'ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi degan

unvon berilgan. Yusuf Xos Hojib inson kamoloti yo'llarini izlaydi. Uning fikricha, inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda, ijtimoiy-foydali mehnatda chinakam kamolotga etishadi. «Insonga foyda keltirmaydigan inson — o'likdir», deb hisoblaydi.

Xos Hojib hokimlarga davlatni boshqarishda adolatli bo'lishni maslahat bergen, ularni qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikka chaqirgan, aks holda zulm kuchayishi, norozilik kelib chiqishi mumkin, degan fikrni bergen. Hokim dono bo'lsa, boshqaruvning negizini aql va adolat tashkil qiladi. Bu esa yalpi baxt-saodatga va farovonlikka olib keladi.

Odam kimligidan qat'iy nazar, inson bo'lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul-abad qoladi. Shunga ko'ra, inson faqat yaxshilik qilishi kerak.

Yusuf Xos Hojib inson kamoloti ustida qayg'urar ekan, unga yaxshilik va ilm orqali erishish mumkin, deydi. Yusuf Xos Hojib ilm-fan, ma'rifat orqali jamiyatning axloqiy muhitini sog'lom-lashtirish g'oyasini targ'ib qilgan.

Turonliklar — «Qutadxu bilig».

Eronliklar — «Shohnomai Turkiy».

Chinlilar — «Adabul Muluk».

Mochinliklar — «Oynul mamlakat».

Sharqlilar — «Ziynatul umaro».

Yana boshqalar — «Pandnomai muluk» deb ta'riflagan va ataganlar.

---

**Abdulxoliq ibn Abdujamil G'ijduvoni** (1103—1179) Buxoro yaqinidagi G'ijduvon qishlog'ida tug'ilgan. G'ijduvoniy o'z ustozi Xoja Yusuf Hamadoniyga bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Maqomoti Xoja Yusuf Hamadoniy» («Xoja Yusuf Hamadoniy fazilatlari»), «Risolai shayx ush-shuyuk hazrati Xoja Abu Yusuf Hamadoniy».

Abdulxoliq G'ijduvoniy Yusuf Hamadoniying Buxorodagi to'rtinch shogirdi (halifasi) hisoblangan. G'ijduvoniy XIV asrda paydo bo'lgan «Naqshbandiya» tariqatining ma'naviy otasi va asoschisidir.

G'ijduvoniy Yassaviydan so'ng Hamadoniy o'rniga o'tirib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgan. G'ijduvoniy o'z tariqatining qonun-qoidalari mezonini ishlab chiqqan. Bu qoidalalar «Rashxalar», ya'ni qatra («Tomchi»)lar deb ataladi.

---

**Ahmad Yugnakiy** (XII asr oxiri — XIII asr boshlari). Mahmud o'g'li Ahmad Yugnakiy Samarqand yaqinidagi Yugnak shahrida dunyoga kelgan.

**Asari:** Uning turkiy tilda yozilgan «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfasi»). Asar axloqiy-didaktik yo'naliishga ega bo'lib, kishilarga «yxashilik urug'ini sepish» uchun yashashni maslahat beradi. Dunyo bevafo, o'tkinchi, rohat-farog'atga intilish befoya. Shuning uchun yaxshilik haqida o'ylash kerak. Inson taqdiri yaratuvchiga bog'liq. Lekin Olloh dunyoviy hayotning ma'nosi va go'zalligini inkor etmaydi. Izzat va hurmat mehnat, bilim va aql yordamida qo'lga kiritiladi. Kamtarlik insonni ulug'laydi, kalondimog'lik uni yerga uradi.

Yugnakiy, kishilarni saxovat va mehribonlik ko'rsatishga, sabr-toqatli bo'lishiga, do'stni ehtiyyot qilishga undagan.

---

**Najmuddin Kubro** (1145—1221). Ahmad ibn Umar Abul Jannob Najmuddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy Xivaq shahrida dunyoga kelgan. U yoshlik paytidayoq ilm istab Misrga borgan.

Musulmonlar sharqida keng shuhrat topgan mutafakkir va mutasavvuf olimlardan biri — Majiddin Bag'dodiy (Farididdin Attorning otasi) va Bahoviddin Valad (Jaloliddin Rumiyning otasi) kabi yirik mutasavvuf olimlar Najmuddin Kubroning shogirdlaridandir. Shayx Najmuddin Kubro mo'g'ul lashkarlariga qarshi Urganch qal'asini himoya qilishda bosh-qosh bo'lgan. 1221- yili u mo'g'ul bosqinchilar tomonidan vahshiyona o'ldiriladi.

Kubroviya tariqati musulmon sharqida keng tarqalgan. Undan quyidagi kichik tariqatlar kelib chiqqan: Firdavsiya (Hindiston); Nuriya tariqati (Bag'dod); Rukniya tariqati (Xuroson); Hamadoniya tariqati (Kashmir); Ig'tishoshiya tariqati (Xuroson); Nurbaxshiya

(Xuroson); Ne'matulloiya (Eron, G'arbda va AQSHda hozir ham faoliyat ko'rsatmoqda).

**Farididdin Attor** — (1136 yoki 119 yoki 1145-yillar tug'ilgan degan taxminlar bor. Asli ismi Muhammad. U 114 yoshga kirib shahid bo'ladi).

Muhammadni — «Farididdin» (dinning yagonasi), «Shayx», «Sultonda fifin», ya'ni fiflar sultonni, ilohiy ishq kuychisi, tahvid ilmini she'riy yil ila etgan zod, dunyoni ilohiy so'z bilan to'ldirgan, ma'nolar koshifi, ulug' shayx deb ulug'lagan. Davlatshoh Samarqandiy aytadi «U shariatu tariqatda, yagona shavq va niyozmandlik, o'rtanish-yonishda shamhi zamoni, irfon dengiziga cho'mgan va haqiqat daryosiga sho'ng'ib, durlar tergan kishi deb ulug'lagan edilar. Kishilar uni Muhammad Fariddin ibn Ibrohim Shayx Attori Nishopuri deb ataganlar.

Mo'g'ullar balo-qazoday Eron erlarini talaydilar, shaharlarini yondiradilar, kitoblarni kuydiradilar, ulamolarni qator qilib so'yadilar. Har bir mug'ul askari qo'liga tushgan narsasini o'marib ketar, istagan odamni asir qilib, qul sifatida sotar yoki qilich bilan chopib tashlar edi. Rivoyat qiladilarkim, bir mo'g'ul askari Attorni asir qilib, bog'lab, sudrab borardi. Cho'lda shoirni taniydigan bir odam uchrab qoladi. U shoirga rahmi kelib mo'g'ulga qarab: qulingni menga sotgil ming dinor beraman, deydi. Mo'g'ul rozi bo'lib turganda Attor: bu kam, sotma, men qimmatman, deb aytadi. Mo'g'ul ming dinorga bermay, yana sudrab ketadi. Yo'lda boshqa bir odam uchrab qoladi.

U odam: mayli, roziman. Bir qop somon beraman deydi. Shunda Attor mo'g'ulga qarab, tezda rozi bo'lgin, men bundan ortiqqa arzimayman, deydi. Jahli chiqqan mo'g'ul shoirni shu zahotiyoy qilich bilan chopib tashlaydi. U 114 yoshda edi.

A. Navoiy «Mahbubul qulub» asarida shoirlarni martabalariga qarab tasnif etar ekan, Shayx Attorni payg'ambarona valiylik va vahiylik ne'matidan bahramand «maqsadlari nazmdan asrori ilohiy adosi va ma'rifat nomutanohiy (tuganmas) imlosidan o'zga bo'Imagan sharif zotlarining sardaftari sifatida tilga oladi (4-bet).

Ijodi. Uning she'riy asarlari 250000 baytga yaqin: «Ilohiy-noma», «Asrornoma», «Musibatnoma», «Haydarnoma», «Maz-xarul ajoyib», «Javharuz zot», «Xayloj», «Muxtornoma», «Xusravnoma», «Sharhul qalb», «Mantiqut tayr», «Bulbulnoma» nomli dostonlaridan tashqari shayxlar hayotiga oid «Tazniratul avliyo» nomli nasriy asar hamda katta adabiy meros qoldirgan.

---

**Mahmud Chag'miniy (XII—XIII).** Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniy Xorazmda tug'ilgan.

Chag'miniy o'qishni davom ettirish maqsadida Samarqandga kelgan. Chag'miniy Abu Rayhon Beruniydan keyingi Xorazm ilmiy maktabining eng yirik olimi deb tan olingan. U astronomiya, riyoziyot, tabobat, jo'g'rofiya va boshqa sohalarda ham shug'ullangan. Shuning uchun uni qomus tuzgan alloma deb taniganlar.

**Asarlari:** «Mulaxxas fi-l-xay'a», «Saylanma», «To'qqiz sonining riyoziyotdagи o'rni haqida risola», «Merosni bo'lish masalalarida riyoziyot usullariga sharh» va boshqalar.

Chag'miniy aytadiki, «Quyoshni o'zidan nur tarqatuvchi sayyoralarning markazi deb hisoblash mumkin». «Oy o'z nuriga ega bo'lmasdan uni quyoshdan oladi». Uning tabiatga bergen ta'rifi diqqatga sazovor: «Tabiat har qanday harakat va sokinlikning manbai».

Chag'miniy o'sha davr astronomiyasini yangi pog'onaga ko'tardi.

---

**Bahovuddin Naqshband (1318—1389).** Markaziy Osiyoda XIV asrda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlaridan biri «Naqshbandiya» Xoja Muhammad Bahovuddin Naqshband nomi bilan bog'langan. Naqshband Buxoro yonidagi Qasri Orifon qishlog'ida tug'ilgan.

Naqshband Muhammad Boboi Samosi qo'lida tarbiya topgan, keyinchalik unga Sayid Mir Kulol rahnamolik qilgan. Bu inson atoqli mutasavvuf olim bo'lib, Bahovuddinni har tomonlama kamol toptiradi.

Naqshband ta'llimotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik va «Dil — ba yor-u, dast — ba kor» degan g'oya yotadi.

Naqshbandiya tariqatining poklik, to'g'rilik, adlu insof, mehru shafqat, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariy tamoyillari alohida ahamiyatga ega.

.....

**Taftazoniy** (1322—1392). Sa'duddin Taftazoniy Ashxabod shahri yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. U islom falsafasi, kalom, mantiq, handasa, she'riyat va arab tili grammatikasiga oid ko'plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» («Mantiq va kalemga sayqal berish»), «Maqosid fi ilm al-kalom» yoki «Maqosid at-tolibin fi usil ad-din» («Din asoslarni izlovlchilarining maqsadlari»), «As-Sa'diya» (Kotibiyning mantiqqa oid «Ash-shamsiya» risolasiga yozilgan sharh), «Al-mutavval» («Keng talqin»), «Muxtasar al-maoniy» («Qisqacha ma'nolar»), «Al irshod al-xodiy» («Yo'l boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid at-tolibin» («Tolibi ilmlarning maqsadlari»), «Risola fi zavoye al-musallas» («Uchburchakning burchaklari haqida risola») va boshqalar.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar muallifidir. Olimning e'tiqodiga ko'ra, xudo insonlarga xayrli ishlar qilishni buyurgan, g'ayrisha'riy ishlari uchun esa insonning o'zi javobgar bo'ladi.

U islom falsafasi — kalomga mantiqiy xulosalar tatbiq etib, uni boyitdi va ilohiyot fani rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

.....

**Mir Said Sharif Jurjoni** (1339—1413). To'liq ismi Ali binni Muhammad binni Ali Husayni Jurjoniy Astrobod shahri yaqinidagi Tog'u qishlog'ida dunyoga kelgan. Temur tomonidan Sheroz fath etilgach, boshqa olimlar qatori Samarqandga kelgan.

U o'z zamonasining yirik allomasi bo'lib, o'sha davr fanlarining barcha sohalarida faoliyat ko'rsatgan: islom falsafasi — Kalom, mantiq, til, tabiatshunoslik, huquq va falsafaga oid risolalar, shuningdek, ko'plab oimlarning asarlariga sharhlar yozgan.

**Asarlari:** «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o'rta xulosa»), «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu» (risola).

Jurjoniy Samarqandda 20 yildan ko'proq samarali ijod etgan, Amir Temur vasfotidan keyin Sherozga qaytib ketadi.

**Xoja Muhammad Porso** (1348—1420). Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (Hoja Porso) Buxoroda tavallud topgan. U naqshbandiya maktabining eng ko'zga ko'ringan olimlaridan biri. Xoja Porso Qur'on, hadis, kalom kabi turli diniy ilmlarni chuqur o'rgangan donishmand («Porso» dindor) edi. Porso Naqshbandning ikkinchi xalifasi bo'lgan.

**Asarlari:** «Risolai qudsiya («Xoja Bahovuddinning qudsiy kalimalari haqida risola»), «Az anfozi qudsiyai mashoyixi tariqat» («Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan»), «E'tiqodot» («E'tiqod haqida risola»), «Tahqiqot» («Tasavvuf istilohlari haqida risola»), «Tafsiri Qur'on» («Qur'on tafsiri»), «Al-hadis ul-arba'u-na» («Qirq hadis»), «Risola dar odobi murid» («Murid odoblari haqida risola»), «Sharhi «Fiqhi Kaydoniy» («Fiqh Kaydoniy» asarining sharhi»), «Fasl ul-xitob bi-vusuli-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishishda oq ila qorani ajratuvchi kitob»), «Muxtasari ta'rixi Makka» («Makka shahrining qisqacha tarixi»), «Maqomoti Hoja Alouddin Attor» («Alouddin Attor maqomati»), «Maqomoti Hoja Bahovuddin Naqshband» («Hoja Bahovuddin Naqshband maqomati»).

Porsoning shariat va tariqat masalalariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari — «Fasl ul-xitob bi-vusu-li-l-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob») risolasidir.

**Qozizoda Rumiy** (XIV asr oxiri — XV asr boshi). Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ijodiy ta'sir ko'rsatgan alloma Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumiy hozirgi Turkiyaning Bursa degan joyida tug'ilgan. Otasi Hoji Afandi Bursaning qozisi bo'lgan. Salohiddinning tug'ilgan yili ma'lum emas. Tavalludi 1354—1364-yillar orasida degan taxminlar bor. U Samarqand shahriga ilm olish maqsadida kelgan. Keyinchalik Amir Temur ulamolari qatoridan munosib o'rinn egallaydi. Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddin astronomiya va matematikadan tahsil olgan. Otasining qozilik lavozimi va rum (Kichik osiyo)lik ekanligiga ishora qilib u «Qozizoda Rumiy» nomi bilan shuhrat qozongan.

Temur vafotidan so'ng u Ulug'bek bilan birgalikda Hirotga boradi, astronomiya, matematika sohasida unga ustozlik qilgan, bir necha vaqt Samarqandda — Ulug'bek madrasasida ishlaydi. Jurjoniy bilan ilmiy muloqot va munozaralar olib borgan. Ulug'-bek rasadxonasini qurishda Qozizoda va Jamshid Koshiy faol ishtirok etganlar. Bu yerda ilmiy tekshirishlarga Qozizoda Rumiy boshchilik qilgan. Uning vafotidan so'ng Ali Qushchi bu ishni davom ettirgan.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»), «Sharhi mulaxxis fi-l-xay'a» («Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharhi»), «Sharhi ashkol at-ta'sis» («Asoslangan jumlalarga sharh»), «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»), «Dastur al-amal va tashiq al-jadval» («Amal dasturi va jadvallarini tuzish»), «Risola fi ilm al-hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»), «Risola fi rub' al-mujayab» («Sinus kvadrat haqida risola») va boshqalar.

---

**Ulug'bek** (1394—1449). Ulug'bek Eronning g'arbida joylashgan Sultonija shahrida bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ilgan. U Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan.

Shoxruh to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411-yili Movarounnaxr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi.

Ulug'bekning ustozlari Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiyalar bo'lган. Ular Ulug'bekka astronomiya va matematikadan ta'lif berganlar. 1420-yili Samarqandda Ulug'bek madrasasi ochiladi. Unda Qozizoda, Ulug'bek, Koshiy va Ali Qushchilar ta'lif berganlar.

**Asarlari:** «Ziji Ulug'bek», «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», «Risolayi Ulug'bek», «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi»). 1994-yilda Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda va chet ellarda katta tantanalar bo'lib o'tdi.

---

**Sharafiddin Ali Yazdiy** (vafoti — 1454-yil). Sharafiddin Ali Yazdiy Eronning Yazd shahriga qarashli Taft mavzeida taxminan XIV asrning oxirgi choragida tug'ilgan.

Ali Yazdiy «Zafarnoma» degan mashhur asarning muallifi. U she'rlar ham bitgan. Undan qolgan ilmiy-madaniy meros adabiyot va til uslubi, she'riyat nazariyasi, ilmi nujum, falsafa, tasavvusning nazariy masalalariga oiddir. U Hirot, Samarqand shaharlarida yashagan.

**Asarlari:** «Hulal-i multaraz dar muammo va lug'az» («Muammo va topishmoqlar borasida bezakli joma»), «Mavotin yo manozir dar muammo» («Muammo sanida turar joy va manzaralar»), «Kitob fi ilmi-usturlob» («Usturlob ilmi bo'yicha kitob»), «Devoni Sharafi Yazdiy» («Sharafi Yazdiyning she'rlar to'plami»), «Sharhi Asamoi Allah» («Allah ismlarining sharhi»), «Tuhfat ul-saqir va hadyat ul-haqir» («Faqirning tuhsasi-yu, haqirning hadyasi»), «Munshaot» («Xatlar to'plami»), Amir Temur tarixining she'riy bayoni «Zafarnoma» («Fathnomai Sohibqiron»).

---

**G'iyyosuddin al-Koshiy** (vafoti — 1429-yil). Jamshid ibn Ma'sud ibn Mahmud G'iyyosuddin al-Koshiy XIV—XV asrlarda yashagan eng mashhur siymolardan biridir. Uning bobosi Mahmud ibn Yah'yo ibn al-Hasan al-Koshiy ziyoli odam bo'lib, riyoziyot va astrologiyaga oid risolalar yozgan.

Qoqizoda Rumiyning maslahati bilan Ulug'bek 1416-yili al-Koshiyni Samarqandga taklif etgan.

Koshiy «Miftih al-hisob» («Hisob kaliti») asari bilan mashhur bo'lган. Bu asar riyoziyot qomusi deb tan olingan. Bunda o'nli kasrlar to'g'risida fikr yuritiladi.

**Asarlari:** «Jizi Hoqoniy», «Miftoh al-hisob» («Hisob kaliti»), «Risola al-muhitiya», «Sullam as-samovot» («Osmonlar narvonii»), «Nuzhad al-hadoyiq» («Bog'lar sayri»).

---

**Ali Qushchi** (vafoti — 1474-yil). Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi «o'z davrining Batlimusi» bo'lib tanilgan. Keyinchalik otasidan yetim qolgach, uni Ulug'bek o'z tarbiyasiga olgan. Ali Qushchi Ulug'bek rasadxonasida ishlagan, keyinchalik unga rahbarlik qilgan. Ali Qushchining targ'ibotchilik faoliyati tufayli Markaziy Osiyo olimlari, xususan, Ulug'bekning ilmiy ijodi Yevropaga keng tarqaladi.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»), «Risolai qusur» («Kasrlar risolasi»), «Risola al-fathiya» («G'alaba risolasi»), «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»), «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllarni o'l-chash haqida risola»), «Risola dar ilmi hay'at» («Astronomiya ilmi haqida risola»), «Sharhi Ziji Ulug'bek» («Ulug'bek «Ziji»ga sharh») fors tilida yozilgan, «Xitoynoma», «Risolai mantiq», «Risola al-Musradiya».

Ali Qushchi Markaziy Osiyo madaniyati va fani taraqqiyoti tarixida alohida o'rinni tutadi.

---

**Xoja Ahror** (1404—1490). Xazrat Xoja Ubaydulloh Ahror Shosh — Toshkent viloyati muzosotlaridan Bog'istonida tug'ilgan. 1490-yilda Samarqandda vafot etgan.

Dastlabki ma'lumotni Toshkentda olgan bo'lajak mutasavvuf tasavvuf ilmi asoslарini donishmand 1428—1431-yillarda Xirotda o'rgangan. Xoja Bahovuddin Naqshbandning shogirdi bo'lgan Ya'qub Charxiyga qo'l berib, undan ta'lim olgan.

1431—1432-yillar orasida Xoja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatini yanada rivojlantiradi. U dehqonchilik va tijorat ishlari bilan faol shug'ullangan.

**Asarlari:** «Faqarot ul-orifin» («Oriflar so'zlaridan parchalar»), «Voldiyya» (Tariqat yo'liga kirganlarning axloq odobi), «Havroiiyya» (mashhur mutasavvuf shoir Abu Sa'id Abdulkayrning (XI asr) «Havro» (hurlar) so'zi bilan boshlanadigan ruboisiyiga sharxlar).

---

**Abdurahmon Jomiy** (1414—1492). Abdurahmon Jomiy Nishapur yaqinidagi Jom shaxrida ruhoniylasida tavallud topgan. U o'z umrini asosan Hirotda o'tkazgan.

Jomiy boshlang'ich ma'lumotini otasidan oladi. Hirotda yirik olimlar tomonidan o'z bilimini oshiradi. So'ngra u Samarqandga borib, Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitgan.

Jomiy Shayx Sa'diddin Qoshg'ariydan tasavvuf ilmidan dars olgan. Tez orada unga qo'l beradi, so'ngra o'z pinning qiziga uylanadi. Alisher Navoiy Jomiyni o'ziga pir va ustoz deb hisoblagan.

**Asarlari:** «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashiat ul-lamaot», «Risolai musiqiy», «Risolai muammo», «Haf tavrang», («Silsilat uz-zahab», «Tuhfat ul-asror», «Suhbat ul-asror», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Salomon va Absol», «Xiradnomai Iskandariy»).

Bulardan tashqari ko'plab she'riy devonlar tuzgan.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega. U tasavvusning eng yirik arbobi bo'lib, o'z qarashlarini quyidagi asarlarida bayon qilgan: «Naqshi fusus» («Ma'nolar naqshi»), «Shavohidi nubuvva» («Payg'ambarlikka dalillar»), «Naqshbandiya ta'limoti haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola» va h.k.

Jomiy she'riyat nazariyasiga oid ko'plab asarlar yozgan: «Risolai aruz», «Sharhi bayt», «Masnaviy», «Sharhi ruboiyot», «Risolai qosfiya», «Risolayi muammoi manzum» va boshqalar. Musiqaga oid «Risolai musiqiy» asari shuhrat topgan.

Shayx Sa'diy yo'lidan borib Abdurahmon Jomiy «Rahoriston» deb nomlangan asar ham yaratgan.

---

**Alisher Navoiy (1441—1501).** Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy Hirot shahrida tavallud topgan. 1466—1468-yillarda u Samarqandda yashagan, 1469-yili Husayn Boyqaro iltimosiga ko'ra Hirotga qaytgan.

1472-yilda Boyqaro Navoiyni vazirlik lavozimiga tayinlaydi.

Hazrat Navoiy o'z zamonasining yetuk mutasakkiri, shoiri, davlat arbobi ekanligi tarixdan ma'lum.

**Asarlari:** «Badoye' ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), «Vaqsiya» (1481-yil), «Xamsa». Bu asar 3 yilda — 1483—1486-yillarda yozib tugallangan. U beshta dostonni o'z ichiga oladi: «Hayra-tul abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»), «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i»), «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»), «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi»), «Xazoyin ul-maoniyy» («Ma'nolar xazinasi»), «Chor devon» nomi bilan ma'lum bo'lgan bu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin she'rlarni o'z ichiga oladi.

Uning tarkibiga quyidagi asarlar kirgan: «G‘aroyib us-sig‘ar» («Bolalik ajoyibotlari»), «Navodir ush-shabob» («Yigitlik davri nodirliliklari»), «Badoye’ ul-vasat» («O‘rtta yosh kashfiyotlari»), «Favoyid ul-kibor» («Keksalikdagi foydali mulohazalar»).

«Mufradot» risolasi, «Sittai zaruriya», «Fusuli arbaa» turkum qissalari fors tilida yozildi. Ular 12 mingdan oshiq she’rlar va muammolardan iborat. «Foni» taxallusi bilan alohida devon tuzdi.

«Lison ut-tayr» (1499-yil); «Muhokamat ul-lug‘atayn» (1499-yil); «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani»).



**Davlatshoh Samarqandiy** (1435—1495-yillar). Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-Roziy as-Samarqandiy taxminan 1435-yilda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. U Shoxruh va Husayn Boyqaroning harbiy yurishlarida ishtirok etgan.

**Asari:** «Tazkirat ush-shuar» («Shoirlar tazkirasi»). Bu asar g‘oyat mashhur bo‘lib, uni yaratishda muallif o‘nlab manbalardan foydalangan. Tazkirada VII—XV asrlarda yashab ijod etgan 155 dan ortiq shoir haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.



**Kamoliddin Behzod** (1455—1537). Butun musulmon Sharqi san‘ati tarixida chuoqur iz qoldirgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda tavallud topadi. Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo uni o‘z tarbiyasiga oladi. Behzodning buyuk musavvir, naqqosh bo‘lib yetishishida Alisher Navoiyning roli katta.

**Asarlari:** Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan miniatyuralar, Husayn Boyqaroning majlislari tasvirlangan muraqqa’dagi 40 dan ortiq go‘zal miniatyura, Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol» asariga ishlangan rasmlar, Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»siga ishlangan 33 ta miniatyura, Sa’diyning «Bo‘ston» asariga ishlangan rasmlar, Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»iga chizilgan miniatyuralar, Abdulloh Xotisiyning «Temurnoma» asariga chizilgan rasmlar, Sa’diyning «Guliston» asariga chizilgan miniatyuralar, Abdurahmon Jomiy tasviri, Husayn Boyqaro tasviri, Shayboniyxon tasviri, Shoh Taxmas tasviri, Shoир Abdulloh Xotisiy tasviri, Tuyalar jangi, Raqsi darvish (Darvishlar raqsi), Samarqandda madrasa qurilishi va boshqalar.

---

**Xondamir** (1473—1534). G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomuddin ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Burxonuddin Xondamir Hirotda tug'ilgan. U ilm-fanning ko'pgina sohalarini puxta egallab o'z davrining taniqli tarixchi olimi bo'lib yetishgan.

Xondamirning olim bo'lib shakllanishida Alisher Navoiy katta rol o'ynagan. U Navoiy kutubxonasida xodim, keyinroq esa mudir bo'lib ishlagan.

**Asarlari:** «Ma'osir ul-muluk» («Hamasr podshohlarning tarixi»). Bu asarda ulug' siymolarning naqlari keltirilgan; «Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi»), «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar»), «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun qo'llanma»), «Nomai nomi» («Atoqli nomalar»), «Habib us-siyar» («Inson zoti xabarları va do'stning tarjimai holi»), «Humoyunnoma». Xondamir «Naqiy» taxallusi bilan she'rler yozgan.

---

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483—1530). Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida tug'ilgan.

Bobur adib, shoир, olim, ayni vaqtida, yirik davlat arbobi bo'lib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan.

**Asarlari:** «Boburnoma», «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari, «Mubayn», «Mufassal».

---

**Mahdumi A'zam** (1463—1542). Mahdumi A'zamning to'liq ismi — Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy bo'lib, u Farg'ona vodiysining Koson shahrida tug'ilgan.

U yirik diniy va siyosiy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchisi edi.

Mahdumi A'zamni ko'pgina sultonlar o'zlarining piri deb e'lon qilganlar. U tasavvuf nazariyasi, amaliyoti, xususan, naqshbandiya ta'limotini rivojlantirib, 30 dan ortiq kitoblar yozdi.

**Asarlari:** «Asror un-nikoh» («Nikoh sirlari»), «Ganjnoma», «Risolat un-sam’iyatun («Samo risolasi»), «Bayoni zikr» (Zikr bayoni), «Risolai silsilai Xo’jagon», «Sharhi g’azali Ubaydiy», «Risolai Naqshbandiyya», «Risolat un-vujudiyyatun» va bosh-qalar.

---

**Abulg’ozixon** (1605—1664). Abulg’ozixon Urganchda tug‘ilgan. U kishi tarixnavis olim. U Xiva xoni Arab Muhammadxonning o‘g‘li bo‘lib, yigirma yil davomida Xivada hukmronlik qilgan. Tib ilmini ham yaxshi o‘rgangan, maxsus tibbiy asar ham yozib qoldirgan.

Abulg’ozixon yaxshi hunar egasi, she’riyatni yaxshi bilgan, turli tillarni egallagan, o’tgan podshohlar, ularning faoliyatlaridan yaxshi xabardor, bilimdon, ajoyib muarrix bo‘lgan.

**Asarlari:** «Shajara i turk», «Shajara i tarokima» («Turkmanlar tarixi»), «Manose’ ul-inson». Bu asar tib ilmiga bag‘ishlangan.

---

**Muhammad Sharif Buxoriy** (XVII asr). Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy al-Alaviy al-Buxoriy (vafoti 1697-yil) Movarounnahrning yirik mutasakkirlaridan biri, falsafa, tarix, she’riyat, huquq, tilshunoslik kabi sohalarni chuqur egallagan olim bo‘lgan.

**Asarlari:** «Ar-risola ad-davriyya» («Davriylik haqida risola»), «Takammule at-tatime» («Takmilning to‘ldirilishi»), «Tahzib», «Kitobi favodi hoqoniyya» («Hoqonga foydali maslahatlar kitobi»), uning she’riy «Devon»i ham bo‘lgan.

---

**Turdi Farog‘iy** (XVII asr). Turdi Farog‘iy Jizzax hududidagi Farog‘ qishlog‘ida tug‘ilgan. Turdining hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalarda yetarli darajada ma’lumotlar qolmagan. U «Farog‘iy» taxallusi bilan o‘zbek va tojik tillarida she’rlar yozgan.

Turdining adabiy merosi 18 she’rdan iborat bo‘lib, ulardan 12 tasi g’azal, 5 tasi muxammas va bittasi fard turiga oiddir. Turdi she’rlarining aksariyat qismini Subhonqulixon to‘g’risidagi mash-hur hajviyalar tashkil qiladi.

**Boborahim Mashrab** (1640—1711). Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab Namanganda bo'zchi-kosib Valibobo oilasida dunyoga kelgan. Mashrab din asoslari va falsafadan kuchli bilim sohibi bo'lgan.

Uning asarlari tasavvufiy-axloqiy yo'nalishda bitilgan. Ularda pir-murshidlar nomini hurmat bilan tilga oladi. Shu bilan birga hayotiy ishq-muhabbat mavzui ham Mashrab ijodida g'azal, mustahzod, murabba' va muxammaslarda aks ctgan.

**Asarlari:** «Mabdai nur», «Kimyo», shuningdek, she'riy majmular.

**So'fi Olloyor** (1644—1724). So'fi Olloyor Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan. So'fi Olloyor dastlab Shayxlar qishlog'idagi diniy maktabda, so'ng Buxorodagi madrasalarda ta'lim olgan. So'fi Olloyor tasavvusni puxta o'rganish natijasida shayxlik martabasiga ko'tarilgan.

**Asarlari:** «Maslak ul-muttaqiyin», «Sabot ul- ojizin», «Murod ul-orisin», «Siroj ul-ojizin», «Mahzan ul-muti'n», «Najot ut-tolibin» kabi asarlar yaratgan.

So'fi Olloyor tasavvuf rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlari o'zbek tilida yozilgan bo'lib, til tarixini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Maxtumquli** (1733—1793). Mashhur turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli 1733-yilda dunyoga kelgan. O'z ilmini oshirish uchun Xiva, Buxoro va Andijon madrasalarida tahlil olgan. Maxtumquli tarqoq turkman qabilalarini birlashtirishni, yagona bir davlat barpo qilishni orzu qilgan.

Maxtumquli pandnomalarida inson o'z mohiyati va qadrini bilishga, avlodlarning yaxshi xislatlarini egallashga da'vat etiladi, takabburlik, dilozorlik, mol-davlatga hirs qo'yish kabi salbiy xislatlar qoralanadi. Uning asarlari asosan axloqiy-didaktik yo'nalishga ega bo'lib, kishilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi.

Maxtumquli Ahmad Yassaviy, Hazrat Navoiy ijodiga katta havas bilan qaraydi.

**Uvaysiy** (1779—1845). Jahon otin — Uvaysiy Marg'ilon shah-rining Childuxtaron mahallasida dunyoga kelgan. Jahon otin o'qimishli oilada o'sib voyaga yetgan. Uning otasi to'quvchi, kosiblik qilgan, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan, onasi Chinnibibi esa o'z davrining donishmand ayollaridan bo'lib, maktabdorlik bilan shug'ullangan. Jahon otin xat-savodni oilada o'rgangan, so'ng onasining yonida maktabdorlik ishlariga ko'maklashib tajriba orttirgan.

Shoiraning hayoti Marg'ilon va Qo'qon adabiy muhitida, iste'dodli adib va shoirlar davrasida o'tgan. Uvaysiy Mohlaroyim — Nodira bilan ijodiy hamkorlikda badiiy asarlar yaratgan, saroyda she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan.

1842-yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo'qonni egallagach, u Marg'ilonga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Shoiraning 4 ta devon tuzganligi ma'lum.

Shoira o'z she'rlarida odamiylikni, vafodor yorni, muhabbatni, visolni kuylaydi.

**Asarlari:** «Devon», «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» liro-epik asarlari; «Voqeoti Muhammad Alixon» (tarixiy doston).

**Maxmur** (vafotи 1844-yil). Maxmur taxallusi bilan tanilgan Mahmud Mulla Shermuhammad o'g'li XVIII asrning oxirgi choragida Qo'qon shahrida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Otasi Mulla Shermuhammad o'zbek va tojik tillarida Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, ikkita devon tuzgan. U Umarxon saroyidagi ijodkorlardan biri bo'lib, she'r ixlosmandlari o'rtasida nom chiqargan edi.

Maxmur otasi tashkil etgan mushoiralarda, suhbatlarda ishtirok etar edi. Mahmur Qo'qondagi Madrasai Mirda tahsil ko'rgan, fors tilini mukammal bilgan. Uning «Hapalak» she'ri mashhur.

**Gulxaniy** (XVIII asr oxiri — XIX asr birinchi yarmi). Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti va ijodi to'g'risidagi ma'lumotlar deyarli yo'q. U Qo'qon adabiy muhitida ijod qilib, o'zbek badiiy nasri taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan.

Amir Umarxon saroyidagi ijodkorlar bilan ijodiy hamkorlikda qalam tebratgan. Fazliy Namangoniy tuzgan «Majmuat ushshuar» tazkirasida Gulxaniy asarlariga biroz o'rinn berilgan.

Gulxaniy Jur'at taxallusi bilan ham forsiyda she'rlar bitgan. U o'zining «Zarbulmasal» asari bilan keng shuhrat topgan.

---

**Munis Xorazmiy** (1778—1829). Yirik o'zbek shoiri, tarixnavis olim, tarjimon, xattot va ma'rifatparvar Amir Avazbiy o'g'li Shermuhammad Munis Xivada tug'ilgan.

U tarixiy asarlar yozgan, shoir sifatida devon tuzgan, tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan. Pedagog sifatida yoshlarga atab «Savodi ta'lism» nomli risola yozgan.

Shermuhammad Munis badiiy ijodning ko'pgina sohalarida barakali faoliyat ko'rsatgan.

**Asarlari:** «Savodi ta'lism». Unda xattotlik qoidalari bayon qilingan. «Munis ul ushshoq» (devon), «Firdavs ul-iqbol» (tarixiy asar), Mirxondning «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarining birinchi jildini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

---

**Ogahiy** (1809—1874). Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li — Ogahiy Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Undan boy ijodiy meros qolgan.

**Asarlari:** «Bayozi mutafarriqai forsiy» (bayoz), «Riyoz ud-davla», «Jome' ul-voqeoti Sultoniy», «Zubdat ut-tavorix», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» (tarixiy asar), «Qasidai nasihat» (Feruzga bag'ishlangan).

Ogahiy tarjima ishlari bilan ham shug'ullangan. Sa'diy Sherzoziyning «Guliston», Nizomiyning «Haft paykar», Hiloniyning «Shoh va gado», Kaykovusning «Qobusnama», Koshiyiyning «Axloqi Muhsiniy», Jomiyning «Yusuf va Zulayho» kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

---

**Komil Xorazmiy** (1825—1899). Pahlavon Niyoz Muhammad — Komil Xorazmiy Xivada mudarris Abdulla Oxun oilasida tug'ildi. Komil — shoirning adabiy taxallusi. U maktabni tugatgach,

Xivadagi madrasalardan birida o'qigan. U musiqa va xattotlik san'atini ham yaxshi egallagan.

Feruzxon (1865—1910) davrida mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida ishlagan. Uning ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinni egallaydi.

**Asarlari:** «Kamol», «Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkand», «Tillo soat», «Toshkent» (qasida), «Tanbur chiziqlari» nomli notani birinchi bo'lib yaratgan. «Rost» maqomining bosh qismini notaga tushirgan. «Murabbai Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylarni notaga solgan.

«Alg'iyo», «Zi bedodi gardun», «Dod az dasti charxi dun» (forsiy g'azallar), «Ta'mo», «Ro'za», «Mullo imom» (o'zbek adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni yorqin ifodalagan asarlar).



**Ahmad Donish** (1827—1897). Ahmad Donishning to'liq ismi Ahmad ibn Mir Nosir Ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy bo'lib, Buxoro shahrida tug'ilgan.

Ahmad Donish falsafa, ijtimoiy-siyosiy, badiiy yuksak asarlar yaratgan. U astronomiya bilan astoydil shug'ullangan, xattotlik va me'morchilik bilan ham mashg'ul bo'lган.

U ma'lum vaqt Buxoro amiri Amir Nasrulloh (1827—1860) saroyida xizmat qilgan, uch marta elchilar tarkibida Peterburgda bo'lib, g'arb madaniyati bilan yaqindan tanishgan.

**Asarlari:** «Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla», «Munozir al-Kavokib» («Yulduzlarni kuzatish»), «Risolat dar ilmi kurra» («Globus haqida risola»), «Iztig'roji bul va arzi balat» («Joylarning uzunligi va enini o'lchash»), «Navodir ul-vaqoye», «Risolai muxtasare az tarixi sultanati xonadoni mang'itiya». Bu asar Buxorodagi Mang'it sulolalarining hokimiyyati tarixiga bag'ishlangan.



**Berdaq** (1827—1900). Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokratik shoiridir. U XIX asrda yashab ijod etgan. Berdaq xalq qo'shiqlari va dostonlarini qiziqib o'rgangan. U yoshligidanoq she'r yoza boshlagan. O'z she'rlariga kuy bastalab, baxshi sisatida xalqqa tanilgan.

Uning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini haqqoniy aks ettirgan. U adolatsizlikni qoralagan.

**Asarlari:** «Omongeldi», «Xalq uchun», «Aydosbiy», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Ernazarbiy» asarlarida xalqning xonlarga qarshi kurashi, milliy-ozodlik harakati aks etadi.

Berdaq «Izladim», «Xalq uchun», «Yaxshiroq», «Menga kerak» kabi she'rlarida halol mehnat sohiblarining faoliyatini ulug'laydi. U o'zining «Ahmoq podsho» dostonida ayrim boylarning kir-dikorlarini aks ettirib, buning oqibatida xalqning sabr kosasi to'lib-toshganlini tasvirlagan.

Uning merosida insonparvarlik, mehr-shafqat, mustaqillik, haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy g'oyalar aks etgan.

---

**Cho'qon Valixonov** (1835—1865). Cho'qon Chingiz o'g'li Valixonovning asl ismi — Muhammad Hanaviya bo'lib, Qozog'istonning hozirgi Qustanay viloyatida Ko'chmurin degan joyda tug'ilgan. U chig'atoy, arab va boshqa tillarni chuqur egallagan.

1847-yili 12 yashar Cho'qonni otasi Omskdagi kadetlar korpusiga o'qishga bergan. U 1861—1862-yillarda Peterburg universitetining tarix-filologiya fakultetida o'qigan. Xitoy, Markaziy Osiyoga uyuşhtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan, sayohatlarda bo'lgan. Rossiya Fanlar akademiyasi va Rus jug'rofiya jamiyatni ishlarida faol qatnashgan.

**Asarlari:** «Jung'ariya tarixi», «Qo'lja safari kundaligi», «Qashqar safari kundaligi», «Qirg'izlar», «Xon Abiloy», «Xitoy imperiyasining g'arbiy o'lkasi va G'ulja shahri», «Ko'kitoy xonning oshi», «Dala muslimonligi», «Qozoqlar haqida yozmalar», «Sud reformasi haqida».

---

**Abay** (1845—1904). Abay Ibrohim Qo'nonboyev — XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan qozoq she'riyatining yirik vakili, bastakor, faylasuf, ma'rifatparvar, badiiy adabiyot namoyandas. U Semipalatinsk viloyatining Qashqabuloq degan joyida tug'ilgan.

**Asarlari:** «Mening elim — qozog‘im», «Adashganning oldi yo‘q», «Ilm topmay maqtanma», «Yoshlikdagi ilm deb o‘yladim», «Boylar yurar molin ardoqlab», «Internatda o‘qiydi».

Abaydan 300 ga yaqin she’riy asar meros bo‘lib qolgan. Uning «Iskandar», «Ma’sud», «Azim hikoyasi», «Vadim» kabi dostonlari mashhur.

---

**Feruz — Muhammad Rahimxon II** (1844—1910). Feruz — Muhammad Rahim Xivada tug‘ilgan. U o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega adiblardan biri hisoblanadi. Uning ustozi Ogahiy bo‘lgan. U 1863-yildan Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan. Feruz o‘z faoliyatida fan-madaniyat rivojiga katta ahamiyat bergen, o‘zi ham she’rlar yozgan, ashulalar ijro etgan.

**Asarlari:** «G‘azaliyoti Feruz», «Bayozi Feruz», «Devoni Feruz». Feruz xonlik qilgan davrda ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivoj topgan. Feruz farmoni bilan Alisher Navoiyning «Chor devon», «Xamsa» singari asarlari ilk bor nashr etilgan. Feruz 1871-yilda yangi madrasa qurdirgan, bir necha kutubxona, dars-xonalarni ishga tushirgan.

---

**Sattorxon Abdug‘afforov** (1843—1901). Sattorxon Abdug‘afforov Markaziy Osiyoda ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishda katta rol o‘ynagan mutafakkirlardan biridir. U Chimkent shahrida yirik mudarris oilasida tug‘ilgan.

Sattorxon 1876-yili aprel oyida Qo‘qon shahriga qozi bo‘lib tayinlangan. 1879-yili Qo‘qon shahar bilim yurtining faxriy nazoratchisi qilib tasdiqlangan.

U 1883-yilda «Turkiston viloyatining gazetasi»ga tarjimon bo‘lib ishga kirgan. 1884—1889-yillarda Toshkent o‘qituvchilar seminariyasida o‘zbek va fors tillaridan dars bergen. U rus tilini chuqur egallagan ma‘rifatparvar bo‘lgan.

1883-yilda Sattorxon Chimkentga kelib qozilik ishini davom ettirgan. Keyinchalik yana Toshkentga qaytgan va ma‘rifatparvarlik faoliyati bilan astoydil shug‘ullangan.

**Asarlari:** «Musulmon eshonlar», «Rossiya istilosiga qadar Qo‘qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk».

Sattorxon Chor Rossiyasining «ruslashtirish» siyosatini keskin qoralagan,adolatsizlikka nafrat bilan qaragan. Sattorxon o'zbek xalqining mustaqillik uchun olib borgan kurashlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

---

**Muqimiy** (1850—1903). Muhammad Aminxo'ja — Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida o'rinn tutadi. Muhammad Aminxo'ja Qo'qonning Begvachcha mahallasida tug'ilgan.

Dastlabki savodini mahalla maktabida chiqargan, keyinchalik shahardagi «Hokim oyim» madrasasida o'qigan. Muqimiy 1872—1873-yillarda Buxoroga borib, «Mehtar oyim» madrasasida tahsil olishni davom ettirgan.

Muqimiy Qo'qonda shoirlardan Muh'yvi, Zavqiy, Nisbatiy, Furqat va boshqalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilgan.

**Asarlari:** «Sayohatnoma», «Ey chehrasi tobonim», «Emdi sendek, jono, jonon qaydadir», «Tokim, jono, jilva bunyod aylading», «Tanobchilar», «Voqeai ko'r Ashurboy hoji Maskovchi boy», «Saylov», «Veksel», «Urug'», «Dodoxohim», «Asror-qul», «To'y», «Lyaxtin» va boshqalar.

Vatanga sadoqat, ona-yurtga, xalqqa muhabbat va iftixon Muqimiy asarlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

---

**Furqat** (1859—1909). Zokirjon Furqat Qo'qon shahrida tug'ilgan. O'zbek demokratik adabiyotining yirik vakili, ma'rifatparvar, lirik shoir, otashin publisist sifatida shuhrat qozongan. Furqat yoshlidan adabiyotga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga katta mehr qo'ygan. Furqat, ayni vaqtida, tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan. Yangi Marg'ilonga borib, tog'asining iltimosiga binoan savdo ishlarida faol qatnashgan. «Furqat, ya'ni, ayriliq» taxallusi bilan she'rlar ijod qilgan.

Furqat Yangi Marg'ilonda ijodkor sifatida xalq hayoti bilan yaqindan tanisha boshlagan. Bu yerdagi yevropacha hayot tarzi, zamonaviy fan-texnika yangiliklari unga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

**Asarlari:** «Hammomi xayol» risolasi, «Chor darvesh» hikoyatini forschan dan tarjima qiladi. «Nuh manzar» nomli she'riy

to'plam, «Ilm xosiyati», «Akt majlisi xususida», «Vistavka xususida», «Sayding qo'yaber, sayyod», «Hajnoma», «Adashgaman», «Kashmirda», «Bulbul», «Masarratnama» (masnaviy), «Qasida», «Rumolik qiz hikoyati», «Furqatning ahvoli» (nasriy asar). Furqat bir necha vaqt «Turkiston viloyatining gazeti»da xodim bo'lib ishladi.

Furqat 1893-yil martida uyg'ur o'lkasiga keladi, Yorkent shahrida turg'un bo'lib qoladi, shu yerda vafot etadi.

---

**Zavqiy** (1853—1912). Ubaydullo Zavqiy Qo'qon shahrida tavallud topgan. U o'z ijodiy faoliyatini g'azallar yozishdan boshlagan. Ijodiy faoliyati davomida ko'plab hajviy asarlar yaratgan.

**Asarlari:** «Kajdor zamona», «Ajab zamona», «Abdurahmon shayton», «Muncha ko'p», «Yangiqo'rg'on qishlog'i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati», «Eshon», «Voqeai qozi saylov», «Ajab crmas», «Ta'rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Sigirim», «Pashshalar» va boshqalar.

---

**Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875—1919). Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy Samarkand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylasida tavallud topgan. Otasi Behbudxo'ja Solixo'ja o'g'li Ahmad Yassaviyning avlodlaridan bo'lgan.

1899-yilda Behbudiy haj safariga, 1903—1904-yillarda Rossiyaga boradi. Behbudiy yangi mакtablar uchun darsliklar yozgan ma'rifatparvardir.

**Asarlari:** «Risolai asbobi savod» (1904), «Risolai jug'rosiyai umroniy», «Risolai jug'rosiyai Rusiy» (1905), «Kitobat ul-atfol», «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909), «Padarkush» dramasi, «Xotiralar» (Yaqin Sharqqa sayohat yakunlari), «Ishlarning yaxshisi — o'rtachasidir», «Ikki emas, to'rt til lozim» (maqola).

1913-yildan Behbudiy matbuot sohasida keng faoliyat ko'rsata boshlagan. «Samarqand» gazetasi, «Oyina» jurnalini chiqargan.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy mustaqillik uchun kurashgan, shu yo'lda o'z jonini qurban qilgan yirik jamoat arbobi, mutasakkiri, ma'rifatparvari sifatida xalqimiz tarixida munosib o'rinn tutadi.

---

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878—1931). Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda ziyozi oilada tug'ilgan. Dastavval Toshkentdag'i Yunusxon madrasasida, so'ng Buxoroda o'qigan. 90-yillarda u jadidchilik harakatida faol ishtirot etgan.

1901-yilda Toshkentda «Usuli jadid» maktabini ochgan. Bu maktablar uchun o'zi «Adibi avval», «Adibi soniy» kabi alisbo va xrestomatiyalar, «Tavjid al-Qur'on» («Qur'on qiroati»), «Yer yuzi» («Geografiya») singari qo'llanmalar tuzib nashr etgan.

Munavvarqori 1906-yildan chiqa boshlagan «Taraqqiy» gazetasining asoschilaridan biri bo'lgan. O'sha yili Munavvarqori o'zi «Xurshid» gazetasini chop eta boshlagan. U «Sadoyi Turkiston» (1914—1915) ni nashr etishda katta tashabbus ko'rsatgan. 1917-yil martida «Najot» gazetasini nashr qilib, ayni vaqtida «Kengash» jurnaliga muharrirlik qilgan.

Munavvarqori yoshlarning chet elda o'qib kelishini yoqlagan, jahon madaniyati va ma'rifati boyliklaridan bahramand bo'lish g'oyasini targ'ib qilgan.

---

**Abdulla Avloniy** (1878—1934). Abdulla Avloniy o'zbek milliy madaniyatining yirik namoyandasasi, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. U Toshkentda tug'ilgan. Maktabdan so'ng madrasada tahsil olgan, arab, fors, rus tillarini chuqur egallagan.

Avloniy jadidchilik harakatining faollaridan bo'lib, yangi usulda maktablar ochgan, ularda o'zi dars bergen, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yozgan. U «Taraqqiy», «Shuhrat» (1907), «Osiyo» (1908), «Turon» (1917) gazetalarini nashr etgan. Avloniy 1927-yili Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. 1930—1934-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida kafedrani boshqargan.

**Asarlari:** «Birinchi muallim» (1911), «Ikkinchi muallim» (o'quv kitobi), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (darslik, 1913), «Maktab gulistoni» (1916), «Mardikorlar ashulasi» (1917), «Sabzavor» tazkirasi (1914), «Hurriyat marshi» (1919) she'ri, «Afg'on sayohati», «Advokatlik osonmi?» (1914) dramasi, «Pinak» (1915) komediysi, «Biz va siz», «Ikki sevgi» (fojeiy asar). 1913-yilda Avloniy «Turkiston» teatr truppasini tuzgan,

O'zbekistonda zamонавиу театр сан'ати шакланышига кatta hisса qо'shган.

**Avaz O'tar** (1884—1919). Avaz O'tar o'g'li Xiva shahrida tug'ilgan. Yosh shoир o'zining ijodiy qobiliyati bilan tezda Xiva xoni Feruz nazariga tushgan. Avaz O'tar g'oyat iste'dodli shoир bo'lib, adabiyotning deyarli barcha janrlarida asarlar yaratgan. Uning she'rлarida ma'rifatparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Til», «Maktab», «Xalq», «Fidoi xalqim», «Topar ekan qachon», «Durriyat», «Sipohiyulgara», «Ulamolarga» (kelajak haqidagi, ozodlik va baxtli hayot haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan), «Hurriyat» (1917), «Saodat ul-iqbol».

**Fitrat** (1884—1938). Abdurauf Fitrat Buxoroda tavallud topgan. Fitrat — Abduraufning taxallusi bo'lib, «tug'ma iste'dod» degan ma'noni bildiradi.

U Mirarab madrasasida tahsil olgan, fors va o'zbek tillarini chuqur bilgan, arab tilini mukammal o'rgangan. U Turkiyaning Istanbul shahrida o'z bilimini oshirgan. Yevropa fan-madaniyati yutuqlari bilan yaqindan tanishishi uning dunyoqarashiga chuqur ta'sir etgan. U diniy aqidaparastlikka ko'r-ko'rona taqlid qilishni keskin tanqid qilgan. Ayni vaqtda, maktab-maorifni va Turkistondagi boshqarish usulini isloh etish g'oyalarni ilgari surgan.

**Asarlari:** «Sayha» («Bong» 1910-yilda Istanbulda nashr qilingan), «Hind sayyohining qissasi» (Istanbul, 1912), «Uch-qun» (to'plam), «Chin sevish» — drama, «Hind ixtilochilari» — fojia (1920), «Abulsayzxon» — fojia (1924), «Arslon» (pyesa), «Qiyomat» (1924), «Shaytonning tangriga isyonii» (1924), «Ro'zalar», «Mc'roj», «Zayd va Zaynab», «Zaynabning imoni», «Oq mozor», «Qiyshiq eshon».

**Sadriddin Ayniy** (1878—1954). Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga katta hisса qо'shgan «zullisonayn» yozuvchidir. Sadriddin Ayniy Buxoro viloyatining G'ijduvon

tumaniga qarashli Sotkarc qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich tahsilni otasidan olgan Sadriddin Buxoro madrasalaridan biriga borib o‘qishni davom ettirgan. O‘sha davrda chop etilgan adabiyotlarni chuqur o‘rganib, badiiy ijod sirlarini egallagan.

U o‘zining dastlabki asarlaridayoq amirlik tuzumi chiriganligini, uning boshqarish usulini yangilash zarurligini, demokratik islohotlar o‘tkazish, xalqqa ma’rifat berish lozimligini anglab yetgan. Ana shu tarzda Ayniy yosh buxoroliklar harakatiga qo‘silgan. Sadriddin Ayniy yangi usuldagagi maktablar ochishda tashabbuskorlardan biri bo‘lgan. Shu maqsadda 1909-yilda «Tazhib us-sibiyon» («Bolalar tarbiyasi») degan o‘qish kitobini yozib chop etadi.

**Asarlari:** «Guli surx», «Bazm», «Yoshlarga murojaat», «Hasrat», «Na o‘ldi, yorab», «Moziy va hol», «Yerni yana sotmang» singari she’rlar; «Har bir millat o‘z tili ila faxr etar» (maqola), «Sudxo‘rning o‘limi» (qissa), «Qullar», «Doxunda» (romanlar).

---

**Hamza Hakimzoda Niyoziy** (1889—1929). Yirik ma’rifatparvar shoir, o‘qituvchi, jamoat arbobi, o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo‘qonda tabib oilasida tug‘ilgan. U ma’rifatparvar sifatida xalq o‘rtasida shuhrat topgan, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida maktablar ochgan, bolalar uchun o‘sha davrda juda kamyob bo‘lgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratgan. Hozirgi zamон o‘zbek badiiy adabiyoti, musiqasi, teatr san’ati rivojlanishiga katta hissa qo‘shtan. Hamza asarlarida XX asr boshlarida O‘zbekistonda yuz bergen o‘ta murakkab voqealar o‘zining badiiy ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi» (1915—1917), «Zaharli hayot» (1916), «Paranji sirlari» (1927), «Maysaraning ishi» (1929) kabi dramatik asarlar, «Devon» (1905), «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi» (1914—1915) kabi darsliklar, «Yangi saodat» (povest), «Gul» turkumidagi ashulalar to‘plami, «Feruzaxonim», «Ilm hidoyati», «Loshman sojiasi» (drama-komcdiyalar), «Zaharli hayot» (drama), «Turkiston muxtoriyati» she’r.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *I.A. Karimov*. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.: «O'zbekiston», 1992.
2. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999.
3. *I.A. Karimov*. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1997.
4. *I.A. Karimov*. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. T.: «O'zbekiston», 1999.
5. *Imom al-Buxoriy*. Al-adab, al-Mufrad (Adab durdonalari). T.: «O'zbekiston», 1990.
6. *Kaykovus*. Qobusnama. T.: «Istiqlol», 1994.
7. *Mahmud Qoshg'ariy*. Devonu lug'atit turk. T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1—3- tom, 1950—1961.
8. *Yusuf Xos Hojib*. Qutadg'u bilig. T.: «Yulduzcha», 1990.
9. *Forobiy*. Fozil odamlar shahri. T.: «O'zbekiston», 1993.
10. *Abu Rayhon Beruniy*. Tarvixalar. T.: «O'zbekiston», 1990.
11. *Abu Ali ibn Sino*. Tibbiy risolalar. T.: «Fan», 1987.
12. Ramayana (qadimgi hind eposi). T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
13. *Umar Xayyom*. Navro'znama. T.: «Mehnat», 1990.
14. *Ahmad Yassaviy*. Hikmatlar. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
15. Temur tuzuklari. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
16. *Alisher Navoiy*. Mahbub ul-qulub. T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1977.
17. *A. Alimuhamedov*. Antik adabiyot tarixi. T.: «O'qituvchi», 1975.
18. *N. Ibrohimov*. Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati. «Fan», 1993.

19. A. Irisov. Abu Ali ibn Sino (hayoti va ijodiy merosi). T.: «Fan», 1980.
20. T. Mahmudov. Go'zallik va hayot. T., 1977.
21. N. Norqulov, I. Nizomiddinov. Miniaturalar tarixidan lavhalar (Temuriylar davrida nafis kitob san'ati). T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
22. Odob bo'stoni va axloq gulistoni. T.: «Fan», 1994.
23. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T.: «O'zbekiston», 1995.
24. N. Sodiqova. Madaniy yodgorliklar xazinasi. T.: «Fan», 1981.
25. E. Ymarov. Estetika. T.: «O'zbekiston», 1995.
26. A. Hayitmetov. Adabiy merosimiz usqlari. T.: «O'qituvchi», 1997.
27. M. Xayrullayev. Uyg'onish davri va Sharq mutasakkirlari. T.: «O'qituvchi», 1971.
28. H. Qudratullayev. Navoiyning adabiy estetik olami. T.: «Fan», 1991.
29. E. Yusupov. Inson kamolotining' ma'naviy asoslari. T.: «Universitet», 1998.

# MUNDARIJA

---

Kirish ..... 3

## I BOB. ESTETIKA MAZUI

Estetika fanining maqsadi va vazifalari .....	8
Estetikaning boshqa fanlar bilan aloqasi .....	11

## II BOB. ESTETIK TAFAKKUR TARAQQIYOTINING ASOSIY BOSQICHLARI

O'rta Osiyoda estetik tafakkur taraqqiyoti .....	14
Islom madaniyatida estetik qarashlar .....	21
Alisher Navoiy va uning izdoshlarining estetik qarashlari .....	23
XVII—XIX asrlarda estetik taraqqiyot .....	28
Turkistonda ma'rifatparvarlik estetikasi .....	30
Sharq va Yevropa mamlakatlarida estetik qarashlar tarixi .....	47
Antik dunyo estetikasi .....	48
Qadimgi Xitoyda estetik taraqqiyot .....	51
Hindistonda estetik qarashlar .....	53
Yevropa uyg'onish davri estetik taraqqiyoti .....	55
Olmoniya ma'rifatparvarligi estetikasi .....	56
Yangi davr estetikasidagi asosiy oqim va yo'nalishlar .....	57

## III BOB. ESTETIK ONG VA ESTETIK FAOLIYAT

Estetik ong .....	61
Estetik his-tuyg'u .....	63
Estetik did .....	65
Estetik baho .....	66
Estetik ideal .....	67
Sezgi, tasavvur va tafakkur haqida .....	69
Estetik qarash va nazariyalar .....	70
Estetik faoliyat .....	71
Dizayn — estetik faoliyatning o'ziga xos turi sifatida .....	73

## IV BOB. ASOSIY ESTETIK KATEGORIYALAR (TUSHUNCHALAR)

Go'zallik .....	81
Fojiaviylik .....	84
Kulgililik .....	86
Ulug'vorlik .....	88

## **V BOB. MUSTAQILLIK MA'NAVIYATI VA ESTETIK MADANIYAT**

Milliy istiqlol ma'naviyati .....	92
Ma'naviyat va estetik meros .....	95
Din — estetik madaniyat rivojlanishining omili .....	98

## **VI BOB. AMALIY ESTETIKA**

San'at estetikasi .....	100
San'atning paydo bo'lishi .....	101
San'at va maskura .....	103
San'atda mazmun va shakl birligi .....	104
San'at turlari .....	105
Me'morchilik .....	107
Tasviriy san'at .....	110
Haykaltaroshlik .....	114
Amaliy bezak san'ati .....	115
Naqqoshlik san'ati .....	116
Xattotlik san'ati .....	118
Notiqlik san'ati .....	120
Ganchkorlik san'ati .....	122
Musiqa san'ati .....	123
Maqom san'ati .....	125
Qo'shiqchilik va raqs san'ati .....	127
Badiiy adabiyot .....	128
Aralash san'at turlari .....	131
Teatr .....	132
Kino san'ati .....	134
Televideniyening ijtimoiy ahamiyati .....	136

## **VII BOB. NAFOSAT TARBIYASI ASOSLARI**

Estetik tarbiya — nafosat tarbiyasining asosi .....	138
Estetik madaniyat .....	143
Estetik tarbiya usullari va vositalari .....	147
Yoshlar hayotini go'zallik asosida tashkil etish .....	149
O'zbek xalq pedagogikasi va nafosat tarbiyasi .....	151
Yigit-qizlar tarbiyasi .....	156
Tabiat — estetik tarbiya vositasi .....	157
Ekologiya va estetik madaniyat .....	158
Mehnatdagi go'zallik .....	163
Sport estetikasi .....	164
Turmush estetikasi .....	166
Estetik madaniyatning buyuk namoyandalari .....	167
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	204

**ERKIN UMAROV, RAHIM KARIMOV,  
MUHARRAM MIRSAIDOVA,  
GAVHAR OYXO'JAYEVA**

**ESTETIKA ASOSLARI**

*Kash-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir Shoyim Bo'tayev  
Badiiy muharrir Uyg'un Solihov  
Texnik muharrir Yelena Tolochko  
Musahhiha Mahmuda Usmonova*

IB № 09-263

Bosishga ruxsat etildi 29.09.2006. Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Tayms TAD garniturası.  
Shartli b.t. 13,00. Nashr b.t. 14,2. Sharhnomá № 90—2006. 20000 nusxada.  
Buyurtma № 152.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129, Toshkent,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.s

«Arnaprint» MSHJ bosmaxonasida chop etildi. 700182. Toshkent,  
H. Boyqaro ko'chasi, 41-uy.

87.8.

E 79

**Estetika asoslari:** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo'llanma/ E. Umarov, R. Karimov, M. Mirsaidova va boshq.; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. — 208 b.

1. Umarov E.

BBK 87. 8ya 721

*Cho'lpón nomidagi  
nashriyot-matbaa ijodly uyl*